

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TARIX O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

**ARXEOLOGIYA
fanidan**

MA'RUZALAR MATNI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Bakalavr yo'nalishi:	5110600 - Tarix o'qitish metodikasi
Tuzuvchi:	E.A. Rahmonov, « Tarix o'qitish metodikasi » kafedrasi o'qituvchisi

QO'QON-2019

1-modul Arxeologiya fani va uning vazifalari

1-Mavzu: “Arxeologiya” faniga kirish.

1. Tarixni tarixiy va arxeologik manbalar asosida davrlashtirish masalalari
2. Arxeologik tadqiqot uslubiyati.
3. Hozirgi bosqichda O'zbekiston arxeologiyasi fani oldida turgan vazifalar va muammolar.

Tayanch tushunchalar:

Arxeos, logos, antropologiya, numizmatika, radiouglerod(S-14) metodi, dendroxrologiya, matematik-statistika, arxey, paleozoy, mezozoy, kaynozoy, driopitek, avtropolitek, zinjanthrop, olduvay, pitekanthrop, sinanthrop, neandertal, kramanon.

Tarixni tarixiy va arxeologik manbalar asosida davrlashtirish masalalari. Arxeologiya fani - tarix fanining ajralmas qismidir. Mazkur fanni o'rganishdan maqsad O'rta Osiyoning eng qadimgi tarixi, ibtidoiy jamoalarning manzilgohlari, ibtidoiy kishilarning mehnat qurollari haqida chuqur bilimga ega bo'lishdan iboratdir.

Kishilik jamiyatining vujudga kelish jarayoni uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'z navbatida o'tmishni o'rganish har bir davrning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Arxeologiya fani ham tarixning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy fanlar orasida alohida o'rin tutadi.

“Arxeologiya”- “arxayos”-qadimgi, “logos”-fan so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, qadimiyat haqidagi fandır. Uni dastlab **miloddan avvalgi IV asrda Aflotun o'zining “Gippiy” dialogida, qadimgi zamon haqidagi fanni nazarda tutib ishlatgan.**¹ Shu tariqa bu so'z qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan va o'tmish masalalari muxokamasi ma'nosini anglatgan. Vaqt o'tgach uning ma'no doirasi ancha o'zgarib, kengayib borgan va tarix fanining muxim tarmoqlaridan biriga aylangan.

Arxeologiya-tarixiy, moddiy manbalar asosida insoniyatning o'tmishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. M.E.Masson unga quyidagicha ta'rif bergan: arxeologiya tarixning bir sohasi bo'lib, kishilik jamiyati o'tmishi va faoliyatini xilma-xil izlarga, aksariyat hollarda moddiy yodgorliklariga, yozma manbalarga, til, etnografiya, geologiya, antropologiya, zoologiya va boshqa fanlarning yutuqlariga tayanib, o'rganuvchi fandır. Tarix va arxeologiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir birini to'ldiradi. Ular aslida bitta fanning 2 sohasidir. Tarixning asosiy manbai - yozuv va uning manbalari bo'lsa, arxeologiyaning manbalari unga

¹ Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

nisbatan qadimiydir. Uning ilk davri 2.5-3 million yilga borib taqaladi. Biz kishilik jamiyati tarixini 24 soat deb faraz qilsak, uning 23 soat-u 56 minuti yozma manbalarsiz davrga, 4 minuti yozma tarixga to'g'ri keladi. Demak kishilik jamiyatining juda katta davrini o'rganish arxeologik manbalarga tayanib olib boriladi.

Eng qadimgi davr ajdodlarimiz hayotida eng uzoq davom etgan davr sanaladi. U bundan taxminan 2–2,5 million yil oldin boshlanib, to ilk davlatlar paydo bo'lgunga qadar, ya'ni miloddan avvalgi 6-5 asrlargacha davom etgan.

Ilk ajdodlarimiz dastlab tabiatda mavjud imkoniyatlardan foydalanib hayot kechirganlar. O'rmon va tog'larda mevalarni terib eb, hayvon ovlab, vodiylarda daryo, bo'ylarida yashab kun ko'rganlar. Keyinchalik tabiatda o'zgarishlar boshlanishi, ularning hayot tarzlarini o'zgartirishga olib kelgan. Hayvon terisidan kiyim kiyganlar, g'orlardan issiq boshpana qilganlar, toshdan nayza yasab, to'da bo'lib yirik hayvonlarni ovlay boshlaganlar. Vaqt o'tishi bilan xo'jalik va ov uchun turli qurollar, zeb-ziynatlar yasay boshlaganlar. Tabiatdagi ko'pgina voqea va hodisalarni tuchuna olmay, ularga butunlay qaram ajdodlarimiz orasida diniy tuchunchalar paydo bo'la boshlagan. Muzlik chekinib kunlar isiy boshlagach, ajdodlarimizning hayot tarzi yana o'zgargan. Endilikda sovuq iqlimda yashaydigan hayvonlar yo'qolib, issiq iqlimga moslashgan hayvonlar paydo bo'lgan. Ularni insonlar to'da bo'lib emas, o'q – yoy yordami orqaligina qo'lga tushira olganlar. Vaqt o'tgan sayin insoniyat dehqonchilik va chorvachilikni kashf etib, tabiatga qaramlikdan ozod bo'ladi. U endilikda o'zi yashash uchun zarur bo'lgan ekinni eka oladigan va chorva boqadigan bo'ladi. Bu insoniyat tarixida eng buyuk voqea bo'lib, ko'pchilik olimlar bu hodisani inqilobga tenglaydilar. Chorvachilik, dehqonchilik ketidan kulolchilik, to'quvchilik, tikuvchilik kabi hunarmandchilik tarmoqlari vujudga keladi. Endilikda bu kasblarning alohida shug'ullanuvchi kishilari paydo bo'ladi. Dehqon hunarmand yoki chorvador bilan o'zi uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ayirboshlay boshlaydi. Vaqt o'tgan sayin ba'zi bir odamlar qo'lida boyliklar to'planib, mulkiy tabaqalanish jarayoni boshlanadi, bu esa davlatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Ko'rib turibmizki, insoniyatning shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, uzoq davrni o'zida qamragani uchun ham uni o'rganishni osonlashtirish uslublarini topish juda muhimdir. Tarix fanida har bir davrning jadval tarzida berilishi shu masalani echishda yordam beradi, ikkinchi tomondan oldin belgilangan sanalarda bo'lgan o'zgarishlarni tez anglashda, boshqa xalqlar hayoti bilan taqqoslab baho berishda, ayniqsa bir xil tarixiy voqealarni turlicha talqin qilinishining oldi olingan bo'lardi.

O'zbekiston arxeologiyasida keyingi davrlarda tarixni davrlashtirish masalasiga oydinlik kiritildi. Bunda O.I. Islomov va K.A. Kraxmallarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ular O'rta Osiyo hududining geotektonik va geomagnit hodisalarini hisobga olib, paleolit davri yodgorliklari yoshini 500-600 ming yilga qadimiylashtirdilar. Shuningdek, keyingi davrlarda qilingan tadqiqotlar, ya'ni olduvay davriga oid manzilgohlarning ko'plab topilishi paleolit davrini Shellgacha, shell, ashel davrlariga ajratmay, olduvay va ashell davrlariga bo'lish maqsadga muvofiq deb topildi, chunki shell va ashel davri mehnat qurollarining ishlanish texnikasi bir xil bo'lib, ular faqat vazn jihatdangina farq qilar edi. Olduvay davri makonlaridan ko'plab qum toshlardan yasalgan qurollarning topilishi esa, uni davr sifatida ajratishga imkon tug'dirdi. O'quvchiga tarix va uning rivoj topishidagi muhim bosqichlarni taqdim etish va o'tmishdan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni yoritib beradi.

Eng qadimgi davr tarixini davrlashtirish masalalari bilan arxeolog olimlar ko'proq shug'ullanishadi. Ular insonlar turmush tarzining o'zgarishiga olib kelgan voqealar asosida insoniyat taraqqiyotini turli bosqichlarga bo'ladilar va tarixiy taraqqiyotning asosiy xususiyatlarini ko'rsatib beradilar. Eng qadimgi davr insonlar tomonidan yaratilgan mehnat qurollaridagi o'zgarishlar asosida davrlarga bo'lingan.

Eng qadimgi davr tarixiy jihatdan ikkita yirik davr: "ibtidoiy to'da" va "urug'chilik jamoasi davri"ga bo'lingan. O'z navbatida urug'chilik jamoasi matriarxat (ona urug'i hukmronligi davri) va patriarxat (ota urug'i hukmronligi davri) davrlariga bo'linadi. Mazkur yirik tarixiy bosqichlar arxeologik jihatdan mehnat qurollari tarkibiga qarab – paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va temir davrlariga bo'linadi. O'z navbatida bu davrlar ham rivojlanishi jihatidan bir necha bosqichlarga bo'linadi.

Tarixda eng qadimgi davr tarixiy va arxeologik jihatdan davrlarga ajratilib o'rganiladi. Tarixiy jihatdan ikkita yirik davr: "ibtidoiy to'da" va "urug'chilik jamoasi davri"ga bo'lingan. O'z navbatida urug'chilik jamoasi matriarxat (ona urug'i hukmronligi davri) va patriarxat (ota urug'i hukmronligi davri) davrlariga bo'linadi. Mazkur yirik tarixiy bosqich arxeologik jihatdan mehnat qurollari tarkibiga qarab – paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va temir davrlariga bo'linadi.

Qadimgi davr miloddan oldingi 6 asrdan milodiy 4 asrgacha bo'lgan davrni tashkil qilib, 2 bosqichga bo'linadi; 1– arxaik davr bo'lib, u miloddan oldingi 11–9 asrlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqich axamoniylar hukmronligi bilan bog'liq. 2–antik davr deb atalib, miloddan oldingi 4 asrdan to milodiy 4 asrgacha bo'lgan davrni tashkil qiladi. Bu bosqich yunon–makedoniyaliklar hukmronligidan boshlanib to kushonlar saltanati inqirozigacha davom qiladi.

O'rta asrlar ham o'z rivojlanishi jihatidan 3 ta bosqichga bo'linadi. 1–bosqich ilk o'rta asrlar davri bo'lib u milodiy V–IX asrgachalarni tashkil qiladi, bu davr ijtimoiy taraqqiyotda yangi er egaligining tashkil topishi, ya'ni eftalitlar xumronligidan boshlanib, turk hoqonligi inqrozigacha davom qiladi. 2–bosqich rivojlangan o'rta asrlar davri bo'lib, milodiy IX– XVI asrlarni tashkil qilib, u arablar istilosi davridan to O'zbekiston xududida xonliklar tashkil topgan davrgacha davom qiladi. 3–bosqich so'nggi o'rta asrlar davri bo'lib, u milodiy XVI– XIX asrlarni tashkil qiladi. U O'zbekiston xududida xonliklar tashkil topgan davrdan to Rossiya xumronligi davrlarini o'z ichiga oladi.

Arxeologik tadqiqot uslubi. Arxeologik manbalarni shartli ravishda 2 turga bo'lish mumkin;

1. Tabiiy manbalar inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari geologik qatlamlari bo'lib, ularni asosan zoologlar, botaniklar, geologlar o'rganadilar.
2. Inson tomonidan yaratilgan manbalar bo'lib, ular mehnat qurollari, sopol idishlari, san'at asarlari, qoyatosh rasmlari, shuningdek yozma manbalar ham kiradi. Arxeologlar kishilik madaniyati tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarga tayanib ish ko'radilar.

Arxeologiyada qadimgi buyumlarni o'rganish birdan bir maqsad qilib olinmaydi, topilmalarni tilga kiritish va o'sha zamon nafasini tiklash arxeologiyaning asosiy maqsadidir. Shuning uchun topilmalar tarixiy tadqiqodlar uchun faqat manba sifatidagina ilmiy qimmatga ega bo'ladi. Buyumlarning yoshi, nimaga ishlatilganini, qanday uslubda yasalganini aniqlash tadqiqotning zarur tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Arxeologiyani o'rganishda arxeologlar arxeologik ekspeditsiyalar uyushtiradilar. Ularning ish uslubi 3 pog'onalik bo'ladi;

1.Arxeologik qidiruv.

2.Sinov.

3. Keng miqyosda (statsionar) qazish ishlari olib borish.

Ekspeditsiyalarning asosiy vazifasi yodgorliklarning paydo bo'lgan davri, qancha yashaganligi, inqirozga yuz tutishi va boshqa xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi. Bunda ular asosan yodgorlikdagi topilmalarni chuqur o'rganib, taxlil qiladilar. Taxlillarning quyidagi uslublari mavjud: radiouglerod, dendroxronologiya, radiokarbon uslublari, davrlashtirishning arxeomagnit uslubi, sporo–chang taxlili, petrografik uslub, agrobiologik uslub, hayvon suyaklari taxlili va boshqalar. Shuningdek, arxeologlar topilgan buyumlarni bir-biri bilan bog'lab, tarixiy va yozma manbalarga solishtirgan holda ham o'rganadilar. Bunda asosan, madaniyatlararo tarqalgan ashyolar yordamida buyumlar yoshini aniqlaydilar. Bu keyingi davrlarda eng keng qo'llanmoqda.

Madaniyatlararo tarqalgan ashyolar yordamida ibtidoiy davr buyumlari yoshini aniqlashda sharq mamlakatlarida tarqalgan xlorit, lazurit, argelit toshlardan, alibastr, fayans va fil suyagidan yasalgan buyumlarni solishtirish yordamida aniqlashadi. Xlorit tosh– yumshoq tarkibli, yashil kulrangtob bo‘lib, undan yasalgan buyumlarning tashqi tarafiga chizib, o‘yib bezak beriladi. Bunday buyumlar Eronning Kermon viloyatidan miloddan oldingi XIX– XVIII asrlarda eksport qilingan. Argelit toshdan miloddan oldingi II ming yilliklar yillikning oxirlar I ming yillikning boshlarida taqinchoqlar muhrlar va kosmetika uchun mitti idishlar yasaganlar. **Argelitning makoni Afg‘oniston, Pokiston, Eron va O‘rta Osiyodan topilgan. Alibastrdan yasalgan buyumlar miloddan oldingi II ming yillikning boshlariga oid. Fayansdan “ilohiy ” idishlar va kichik xajmdagi kosa va xar xil taqinchoqlar ishlangan bo‘lib, ular miloddan oldingi XIX– XVIII asrlarga oiddir².**

Arxeologik yodgorliklar odamlar yashagan joylar ibtidoiy makonlari, qishloq va shahar xarobalari, qoyatosh rasmlari, istehkomlar, ibodatxonalar, qadimgi sug‘orish inshootlari hisoblanadi. Arxeologlar mazkur topilmalar yordamida o‘sha davr manzarasini, insonlarning yashash sharoitini, jamoada mavjud udumlar va qaysi taraqqiyot bosqichida turganliklarini aniqlaydilar. Umuman, arxeologik yodgorliklar

er ostida yoki er ustida joylashgan bo‘ladi. Er ostidagi yodgorliklarni o‘rganish jarayonida arxeologlar madaniy qatlamlarga alohida e‘tibor beradilar.

Madaniy qatlam deganda-insoniyatning turmushi, xo‘jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tuchuniladi. Madaniy qatlamlar bir va bir necha o‘ntacha qatlamlarga ega bo‘lishi mumkin. Ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30-35 metrgacha bo‘lishi mumkin. Bu esa mazkur joyda odamlarning qancha vaqt yashaganligi bilan bog‘liq. Madaniy qatlam u yoki bu qatlamlarga shurf tashlash, keyin keng ko‘lamda qazish ishlari natijasida aniqlanadi.

Shurf aslida nemischa so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida qaziyman degan ma‘noni bildiradi. Shurf solish deganda yodgorliklardagi dastlabki qazish ishlari tuchunilib, madaniy qatlamni aniqlash va yodgorliklar haqida dastlabki ma‘lumotlarni olishdir. Shurf ko‘pincha kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak shakllarida bo‘lib, uning chuqurligi va kengligi madaniy qatlamga qarab har xil bo‘lishi mumkin. Keng ko‘lamda qazish natijasida madaniy qatlam to‘la ochilib, inson faoliyati izlari bo‘lmagan ergacha kovlab tushiladi, arxeologiyada u materik-bezovta qilinmagan er deb ataladi.

² T.Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

Arxeologiya fani vazifalari. Qadimiy yodgorliklar o'zbek xalqi ma'naviyati, qadriyatlari tarixidan darak beruvchi ashyoviy dalillar hisoblanadi. Shu o'rinda ajdodlarimizning tarixini arxeologik yodgorliklar misolida targ'ib etish va uning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatish juda muhimdir. Shu bilan birga, mamlakatimiz xududida joylashgan arxeologik yodgorliklar va ulardagi topilmalar yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ularning qalbida ko'hna tarix va madaniyatga hurmat–ehtirof ruhini uyg'otishda katta ahamiyatga egadir. Arxeologik yodgorliklar O'zbekiston madaniy hayotini o'zida aks ettiruvchi juda muxim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda arxeologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biri ajdodlarimizning yo'qolib borayotgan izlarini izlab topish, moddiy ashyolar va tarixiy yodgorliklar yoshini aniqlash, taxlil qilish va ilmiy sistemalashtirish asosida haqqoniy tariximizni tiklash, uning ochilmagan sahifalarini o'rganib, tarixdagi oq dog'larni yo'qotishdir.

Sobiq sho'rolar tuzumi davrida arxeologik yodgorliklarni o'rganish ish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsada, keyinchalik ularni saqlash va ta'mirlash ishlariga e'tibor kam bo'lgan. O'zFA Arxeologiya institutining ma'lumotlariga ko'ra, respublikamiz hududida 1960 yilgacha 30 mingga yaqin arxeologik yodgorliklar bo'lgan. Ularning buzilishi va emirilishi, ekin maydonlariga qo'shib ketishi oqibatida 80-yillarga kelib, ularning soni 9 mingga tushib qolgan va 90 – yillarning o'rtalariga kelib, bu obidalarining soni bor-yo'g'i 5391 tani tashkil etgan.

Keyingi yillarda tarixiy va arxeologik yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda albatta o'zbek arxeologlarining chet ellik hamkasabalari bilan birgalikda olib boryotgan ishlari ahamiyatga molikdir.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston arxeologiyasi fani oldida turgan vazifalar va muammolar. O'zbekistonda arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni o'zida qamraydi. O'zbek millati qadimiy tarixga ega bo'lsada, uning eng qadimgi davr tarixini o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan va bugungi kungacha bu sohada ilmiy izlanishlar davom qilib kelmoqda. O'zbekistonning o'rta asrlar tarixi esa, yozma manbalarda saqlanib qolgan bo'lsada, uzoq davrlargacha mavjud qadimiy qal'alar tarixi faqat odamlar orasidagi rivoyatlarda saqlanib qolgan edi. Ularni saqlash va ilmiy jihatdan o'rganish esa XIX asr oxirlarigacha odamlarning e'tiborida emas edi. Sovetlar humronligi davrida o'tmish tarixiga e'tibor kuchayib, ularni ilmiy jihatdan o'rganish boshlangan bo'lsada, O'zbekiston miqyosida tarixiy yodgorliklarning nihoyatda ko'pligi olimlarga chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkon bermagan. Ular yodgorliklar to'g'risida deyarli umumiy bo'lgan ma'mumotlarningina to'plashgan. Misol tariqasida Selungir, Teshiktosh, Ko'lbuloq makonlarida olib borilgan tadqiqotlarni keltirish

mumkin. Shuningdek, yodgorlik o'rganilgach, u qarovsiz qoldirilgan. Bu esa, ko'pgina yodgorliklarning yo'qolib ketishiga olib kelgan. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'tmish tarixiga yangicha nazar bilan qarala boshladi. Har bir yodgorlikni o'rganishda chuqur ilmiy jihatdan yondoshilib, uning mahalliy xususiyatlarini e'tiborga olib, olamshumul yangiliklar ochildi va ochilmoqda.

O'zbekistonda arxeologiyaning o'rganilish bosqichlari M.Jo'raqulovning "Ibtidoyi arxeologiya" kitobida to'liq ochib berilgan. Arxeolog O'zbekistonning arxeologik jihatdan o'rganilishini 3 davrga bo'ladi: 1.Rossiya mustamlakasi davri. 2.Sovetlar xukmronligi davri. 3. O'zbekiston mustaqilligi davri va har bir davrga to'liq ta'rif berib o'tadi.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida arxeologik tadqiqot ishlari birmuncha to'xtaganday bo'ldi. Lekin Vazirlar Mahkamasining 1998 yilda Tarix instituti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ishlari natijasida va Buyuk ipak yo'li tarixining keng tadqiq qilinishi yuzasidan olib borilgan ishlar natijasida yana arxeologik tadqiqot ishlari jonlanib ketdi. Ayniqsa xorijiy davlatlar bilan olib borilayotgan hamkorlik yanada samarali bo'lmoqda. Ular arxeologik ekspeditsiyalarni nafaqat moddiy, balki texnikaning keyingi davr yutuqlari bilan ham qurollantirib, mashaqqatli arxeologik tadqiqot ishlari engillashtirib, qadimiy moddiy buyumlarning analiz jarayonlariga ham yanada aniqlik kiritishiga ko'p imkoniyatlar yaratishda yaqindan yordam ko'rsatib kelishmoqda. Jumladan, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya, Rossiyadan kelgan olimlarning xizmatlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorligida keyingi davrlarda O'zbek-Olmon Baqtriya ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini olib bordi. Ular Jarqo'ton yodgorligining yoshini aniqlashda 23 radiokarbon analizi o'tkazdilar. Radiokarbon analizlar Germaniya arxeologiya instituti Evroosiyo bo'limi qoshidagi laboratoriyada amalga oshirildi. Mazkur otryad a'zolaridan Mayk Toyfer va Kay Kanyutlar Sopollitepa madaniyatining yoshini kadimiylashtirish bo'yicha yangi fikrlarni bildirganlar.

Hozirda O'zbekiston arxeologiyasini o'rganish ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu ish bilan maxsus institutlar, universitetlar, pedagogika institutlari va turli bo'limlar shug'ullanmoqdalar. Ular qoshida ko'plab arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilgan.

So'nggi o'n yillikda madaniyat va tarixiy yodgorliklarni qayta ro'yxatga kiritish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa yodgorliklarni muhofaza qilish ishlariga ancha samarali ta'sir qo'rsatmoqda. XX asrning 90- yillarining oxirlarida yodgorliklarning 7216 tasi hisobga olingan bo'lsa, shulardan 1595 tasi me'moriy yodgorliklar, 3106 tasi mahobatli san'at asarlari, 2115 tasini arxeologik yodgorliklar tashkil etdi. Ulardan 1831 tasi respublika

miqyosidagi davlat muhofazasiga olingan bo'lib, 513 tasi me'moriy obidalar, 98 tasi mahobatli san'at asarlari, 1213 tasi arxeologik va 27 tasi tarixiy yodgorliklardir. Bunday yodgorliklar ayniqsa, Samarqand (997), Buxoro (804), Qashqadaryo (592), Toshkent (562), Farg'ona (512) viloyatlarida ko'p.

Bu mamlakatimiz butun hududi qadimiy madaniyat va sivilizatsiya o'chog'i bo'lganligidan dalolat beradi.

Nazorat savollari.

1. Arxeologik va yozma manbalar o'rtasidagi farq nimada?
2. Arxeologik yodgorliklar va ularning turlari to'g'risida ma'lumotlar bering.
3. Arxeologik madaniy qatlamga ta'rif bering.
4. Arxeologik sana va davrlashtirishni bilasizmi?
5. Arxeologiya fanining gumanitar va tabiiy fanlar bilan qanday aloqalari mavjud?
6. O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar bilan bog'liq eng yirik kashfiyotlar va ularning jahon tarixi va madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati to'g'risida nimalar bilasiz?

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.: "Fan va texnologiya" 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон". 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. "Адолат". 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.

- 10.Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
- 11.Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
- 12.Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
- 13.Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
- 14.Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
- 15.Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”,2008.
- 16.T.Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

2-modul Paleolit davri va uning o'rganilishi

2-mavzu: Paleolit davri xususiyatlari va bosqichlari.

1. Paleolit - tosh davrining dastlabki bosqichi.
- 2.Paleolit davrining o'rganilish tarixi.
- 3.Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari.

Tayanch tushunchalar:

Paleos, litos, shell, ashel, o'rta va so'nggi ashel davrlari, qo'l cho'qmori, muste, yuqori paleolit, chaqmoqtosh, bazalt, nayza, garpun, termachilik, ovchilik, baliqchilik.

Tosh davri eng uzoq davom etgan tarixiy davr hisoblanib, qadimgi odamlar tomonidan mazkur davrda asosiy mehnat qurollari toshdan yasalgan. Tosh davri milodgacha IV ming yillikkacha davom etgan.

Tosh davri arxeologiyada qadimgi (paleolit) va yangi (neolit) tosh davrlariga bo'linadi. Shuningdek, paleolitdan neolitga o'tish davrini bir-biriga bog'lovchi o'rta tosh davri (mezolit) ga ham bo'linadi.

Tosh davrida insoniyat rivojlanishining natijasi o'laroq ko'plab yirik kashfiyotlar qilingan. Ular sirasiga olovni olish va undan foydalanish, kiyim- kechak tayyorlash, uy-joy qurish, kamonning kashf etilishi, turli mehnat, ov va baliqchilik qurollarining yasalishini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Tosh davrining oxiriga kelib odamlar turli idishlar yasashni, mato tayyorlashni o'rganadilar. Shuningdek, turli narsa buyumlar, o'simliklar va hayvonlarning foydali tomonlarini ham o'zlashtirdilar. Eng diqqatga sazovor jihati dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi, ya'ni mehnat taqsimoti bo'ldi.

Paleolit davri tosh davrining eng qadimgi davri bo'lib, bundan 2,5 mln.dan 14 ming yillikkacha bo'lgan davr kiradi.

Paleolit davri o'z navbatida 3 bosqichga bo'linadi: quyi yoki ilk paleolit (2,5 mln. - 150 mingyillik), o'rta paleolit (150 ming yillikdan - 40 ming yillikgacha) va yuqori yoki so'nggi paleolit (40 - 14 ming yilliklar).

Insoniyatning qadimgi davri haqida antik davr mualliflarining asarlarida dastlabki ma'lumotlar keltiriladi. Yunon faylasufi Demokrit (mil.av. 460-370) ibtidoiy davr odamlarining hayotini tasvirlar ekan, ularni boshpanasiz, kiyim- kechaksiz, olovni bilmay va tartibsiz hayot kechirganliklarini keltirib o'tadi.³

Aristotel, mil.avv. I asrning 1-yarmida yashab o'tgan faylasuf Lukretsiyning asarlarida ham qadimgi odamlar hayoti haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi.

1813 yilda daniyalik tarixchi Vedel Simonsen qadimgi davr - tosh, bronza va temir davriga bo'linishini taklif qilgan bo'sada arxeologik jihatdan isbot qilib bera olmagan. Buni yana bir daniyalik tarixchi, Kopengagen muzeyining direktori, arxeolog Kristian Yurgensen Tomsen (1788-1865) amalga oshiradi. U topilgan moddiy ashyolarni 3 davr bo'yicha taqsimlab chiqadi. U aniq bir davrni bermagan bo'lsada, mehnat qurollarining yasash uslublaridan kelib chiqib bosqichlarga bo'lganligini ko'rsatadi. Uning bu fikri ko'pchilik tarixchilar, xususan nemis mutaxasislari tomonidan qattiq tanqid qilinadi.

Shved arxeologi Gildebrand, Tomsen bilan tanishgach Lund va Stokgolmdagi muzeylarni uning davrlashtirishi bo'yicha tuzadi. Keyinchalik buni Germaniyadagi Shverin muzeyi direktori Fredrix Mel ham amalga oshiradi. Shunday qilib Tomsenning arxeologik davrlashtirishi boshqa tarixchilar tomonidan ham qabul qilinadi.

1832 yilda Fransiyaning Somma daryosi bo'yidagi Abbivil shahri yaqinida olib borilayotgan qurilish ishlari jarayonida juda katta, hozirgi biror hayvonga teng kelmaydigan suyak qoldiqlari, kremen toshi topiladi. Bu topilmalar bojxona amaldori, havaskor arxeolog Bushe de Pertga katta qiziqish uyg'otadi.

XIX asrning 50-yillarida Olduvay (Tanzaniya) dan keyin 2-o'rinda turuvchi qadimgi manzilgoh - Sent Ashel topiladi. Bu yerdan juda ko'plab toshdan qilingan "boltalar" topiladi (800 ga yaqin). Ular ustida 25 yil davomida tadqiqot ishlarini olib boragan arxeolog Rigollo ularni soxta emasligini tasdiqlaydi. Keyinchalik Shell (Fransiya), Ispaniyaning Dordon departamentida Solyutre va Mustye manzilgoh-larining topilishi tosh davri qurollarining yasash uslubi va texnikasini o'rganishga yo'l

³ Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

ochib berdi. 1868 yilda Shimoliy Ispaniyada Altamir g'oridagi qoyatosh suratlari ovchilar tomonidan topiladi va arxeolog Savtuola tomonidan o'rganiladi. Bunga o'xshash qoyatosh suratlari Dordondagi La-Mut g'orida arxeolog Emil River tomonidan o'rganiladi. 1892 yilda birinchi marta Brassempuida suyakdan qilingan ayol haykalchasi topiladi.

O'rta Osiyoda paleolit davrining o'rganilish tarixi 1938 yildan boshlanadi. Bu yilda A.P. Okladnikov tomonidan Teshiktosh g'ori topiladi va mustye davri madaniyati hamda neandertal tipga mansub odam suyaklari topiladi. Bu esa O'rta Osiyoning boshqa hududlarida ham ilk paleolit davriga oid yodgorliklarini topib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Ilk paleolit davri yodgorliklarida D.N. Lev, B.A. Ranov, M.M. Gerasimov, R.H. Suleymanov, M.R. Qosimov, N.X. Toshkanboyev, O'.I. Islomovlar tomonidan tadqiqotlar olib bordilar.

Ilk paleolit davrida insoniyat tarixida tabiat katta ahamiyatga ega bo'lgan. Inson va uni o'rab turgan tabiat o'rtasidagi doimiy munosabatlar uzluksiz jarayon shaklini olgan.

Ilk paleolitda biologik jihatdan - tabiiy saralanish va jinsiy tanlanish, mehnat jarayonida arxantropalar (dastlabki odamlar) o'tmishdoshlaridan juda uzoqlashib ketadilar. Mehnat qurollarini yasash, qo'lning mehnat faoliyati uchun bo'shashi, uni alohida vazifalar bajarishi, go'shtli ovqatning iste'mol qilinishi va boshqa ijtimoiy va tabiiy omillar tufayli odamzod rivojlanib borgan.

Ilk paleolitning dastlabki davrida Janubiy va O'rta Yevropada iqlim subtropik, Janubiy Osiyo va Afrikada esa tropik bo'lib, issiqsevar hayvonlar keng tarqalgan. Masalan, Yevropada fillar, begemotlar, primitiv (Stenon otlar) otlar; Osiyoda esa ibtidoiy xo'kizlar, karkidonlar, zebra paydo bo'lgan. O'simliklar esa hamisha yashil rangda bo'lgan. Janubiy va Markaziy Yevropa hududlarida shamshod, dafna, anjir; Yevropaning boshqa hududlarida esa qalin, keng bargli daraxtlardan tashkil topgan o'rmonlar tarqalgan. Osiyo va Afrika hududlarida ham issiqsevar o'simliklar keng tarqalgan.

Ilk paleolitda dastlabki odamlar Shimoliy Afrika, Yevropa va Osiyo hududlarida yashagan. Miloddan avvalgi 600-400 ming yilliklarga kelib, ular Markaziy Osiyo, Kavkazorti hududlariga ham o'rnashadi.

Ilk paleolit davrida yashagan ibtidoiy odamlar tosh qurollar yasagan va ulardan o'zlarining mehnat faoliyatlarida foydalangan. Bu davrning asosiy quroli - cho'qmor bo'lib, u 20 sm uzunlikda va 1 kg dan ortiq og'irlikda, ko'pincha bodomsimon shaklda bo'lgan. Cho'qmor chopqi deb ham ataladi. Cho'qmor shell davrining asosiy quroli bo'lib, u ikki tomonlama simmetriyali qilib, urib to'g'rilash texnikasi (usuli) bilan yasalgan. Cho'qmorning pastki qismi toshni kertib ishlash texnikasi (usuli) bilan yasalgan bo'lib, u o'tkirlangan, chetlari notekis, egri-bugri shaklga ega bo'lgan. Har qanday tosh shell davri qurolini yasash uchun yaroqli bo'lmagan. Tosh qattiq va tez uchirmalar hosil qilish imkonini berishi kerak edi. Shuning uchun ham, dastlab qurollar yasash uchun asosiy

xomashyo vazifasini daryo va dengiz toshlari bajargan. Dengizdan, daryochalardan kvarts, kremen toshlari olib kelinib, ulardan qurollar yasalgan. Ilk paleolitda chaqmoqtoshlardan ham ko'plab tosh qurollar yasalgan. Ular boshqa toshlarga nisbatan mo'rt bo'lsada turli shaklga keltirilib, o'tkir, keskir xususiyatga keltirilgan. Ammo chaqmoqtoshlar tabiatda ko'p uchramagan. Chaqmoq-toshlardan qurollar yasash quyidagicha amalga oshirilgan: dastlab chaqmoqtosh olingan bo'lib, uning atrofi boshqa bir tosh bilan (u qattiqroq bo'lgan va tosh uchirgich - bolg'a vazifasini bajargan) urib uchirilgan. Uning o'rni esa keskir va o'tkir shaklga aylangan. Tosh qurollar yasashning ushbu usuli - toshni kertib ishlash texnikasi deb atalib, ushbu usul bilan shell davrida dastasiz cho'qmorlar yasalgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ashel davri xronologik jihatdan shell davri dan katta farq qilmasada, ashel qurollari shell qurollariga nisbatan hiyla taraqqiy etgan. Ashel qurollarida tosh uzoqdan uchrindilar olingan joy ma'lum shaklga ega bo'lgan. Ya'ni bu davrda odamlar tosh qurollarni qulayroq shaklga keltira olgan. Uchburchak shakldagi, uzunchoq, dumaloq va boshqa shakldagi qurollar hosil qilingan. Ashel davrida ayrim qurollarning shakli uni ishlatish xususiyatiga bog'liq bo'lgan.

So'nggi ashelda tabiat keskin o'zgara boshlaydi. O'simliklar, hayvonot dunyosi, iqlimning o'zgarishi ibtidoiy odam xo'jaligiga ham ta'sir etadi. Iqlimning o'zgarishi yer yuzini ulkan muzliklar qoplashi bilan xarakterlanadi. Muzlik - odamning paydo bo'lishi davri bo'lgan kaynozoy erasining to'rtlamchi bosqichida siljiy boshlaydi. Muzlik izlarini olimlar mo'tadil iqlim mintaqalarida o'rganganlar. Tropik zonlarda muzlikning siljishi plyuvia davrini (plyuvia-yomg'ir) shakllantirgan. Masalan, bu davrda Sahroi Kabirdan daryolar oqqan.

Ashel davrida Shimoliy Amerika hududlari deyarli muzlik bilan qoplangan. Janubiy Amerikada muzlik ancha ichkariga kirib borgan. Yevropaning katta va Osiyoning bir qismini muzlik egallagan. Muzlikning markazi Grenlandiya bo'lgan. Muzlik paleolit davrida bir necha million kv.km. ni tashkil etgan. Uning balandligi 1-2 km dan ortiq bo'lgan.

Olimlar to'rt marotaba muz siljib kelgan degan fikrni ilgari suradi. Muzlikning siljishini gints, mindel, riss va vyurm deb bosqichlarga bo'lganlar. Bu terminlar Alp tog'idagi qishloqlar nomidan kelib chiqqan. Bu qishloqlarda muzliklar va muzlik yotqiziqlari birin-ketin qatlamlangan bo'lib, uning izlari XX asrning o'rtalarigacha saqlanib qolgan. Gints va mindel muzligi O'rta Yevropa hududlariga yetib kelgan. Riss esa yanada kengroq hududlarni qoplagan. So'nggi ashel davri esa xronologik jihatdan riss muzligidan oldingi bosqich bo'lgan. Muzlikning siljib kelishi natijasida sovuqqa chidamsiz hayvonlar qirilib ketadi. Ularning ko'p qismi janubiy hududlarga qarab siljidi.

Muzlik bilan kurashish vositalari kam bo'lganligi uchun ko'plab ibtidoiy odamlar sovuqqa bardosh bera olmagan.

Shell va ashel makonlari ochiq turdagi makonlar bo'lib, ular chaqmoqtosh xom ashyolari mavjud bo'lgan ochiq joylarda, tepaliklarda joylashgan. Ibtidoiy odamlar o'z ehtiyojini qondirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurgan. Ular tabiatdagi tayyor mahsulotlarni o'zlashtirib, hayot kechirgan. Ovchilik ham ular hayotida asosiy o'rinda bo'lgan. Odamlarning eng qadimgi mashg'uloti - terimchilik va ov-o'zlashtiruvchi xo'jalik deb nomlanadi.

Shell davrida yashagan odamlar asta-sekin yer yuzining ko'plab hududlariga o'rnasha boshlagan. Ashel davrida ular shimoliy hududlarga qarab siljigan. Ashel davridan odamlar sun'iy makonlarda yashashga harakat qiladi. Dastlabki sun'iy makonlar - g'orlar edi. Qadimgi odamlarning g'orlarga joylashishi va o'rnashishi bilan odamlar ko'chmanchi hayotdan o'troq kun kechirishga o'ta boshladi. Ibtidoiy to'da ichida ayollar va erkaklar o'rtasidagi mehnat taqsimlanadi. Ya'ni erkaklar ozuqa topish zarurati tufayli ko'proq ovga intilgan bo'lsa, ayollar g'orni qo'riqlash, bu davrda o'zlashtirilgan olovni o'chirmasdan saqlashga harakat qilishgan.

Bu davr ozuqalari - yeyish mumkin bo'lgan o'simlik tomirlari, o'simlik mevalari, hayvon go'shtlari edi. Yangi ko'nikmalarning paydo bo'lishi va o'zlashtirilishi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi. Ilg'or jarayonlarning rivojlanishiga olovdan foydalanish kuchli turtki beradi. Tabiat bilan kurashish vositalarini topilishi bundan keyingi kishilik madaniyati taraqqiyotining bevosita natijasi bo'ladi. Chunki odamzodni halokatdan saqlab qolgan vosita - mehnat ko'nikmasi edi. So'nggi ashelda odamzod olovdan tabiiy holda foydalangan. Chunki o't - olov sovuqdan, yirtqich hayvonlardan saqlanish uchun zarur edi.

Bu davrda ibtidoiy odamlar turar joylarga ham zarurat seza boshladi. Chunki iqlim sovuq, havo nam bo'lib, odamlar g'orlarni egallashga kirishadi. Asta - sekin hayvon terilariga ehtiyoj tug'iladi. Bu davrda xo'jalik hayoti yuritilishida ham o'zgarishlar paydo bo'ladi. O'zlashtiruvchi xo'jalikni asosiy shakli bo'lgan terimchilik o'zining hal qiluvchi ahamiyatini yo'qota boshladi. Sababi, sovuq iqlimda tabiatda uchraydigan daraxt mevalari, o'simlik tomirlari kamyob bo'lib qoladi. Natijada hayvonlarni ovlashning ahamiyati ortadi. Asta - sekin ovlash usullari ishlab chiqiladi.

Ovchilikda yog'och nayzalar, chaqmoqtosh qurollar ishlatila boshlanadi. Yangi sharoit va yashash zarurati ehtiyojni qondirish yo'llarini izlash (qurollarni mukammallashtirish, teridan kiyim tikish), qurollar evolyutsiyasida yangiliklarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Ilk paleolit davri va uning o'rganilishi. Insoniyat taraqqiyotida eng uzoq davom qilgan davr qadimgi tosh davri – paleolit hisoblanadi. “Paleolit” so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “paleos”– “qadimgi”, “litos”–“tosh”, ya’ni qadimgi tosh davri degan ma’noni beradi. Paleolit davri

xronologik jihatidan milloddan avvalgi 3 million yillikdan to 12 ming yillikkacha davom qiladi va uch davrga— ilk, oʻrta va soʻnggi davrlarga boʻlinadi.

Paleolitning uch davri xam oʻzining rivojlanish darajasiga qarab, mehnat qurollaridagi oʻzgarishlar asosida turli davrlarga boʻlinadi. Ilgari ilk paleolit davri shellgacha, shell, ashel davrlariga boʻlingan edi. Lekin keyingi davrlarda qilingan tadqiqotlar natijasida, uni olduvay va ashel davrlariga boʻlish muvofiq deb topildi. Chunki ilgarilari olduvay davri yodgorliklari kam boʻlib, uni davr tariqasida ajratish imkoni boʻlmagan. Shuning uchun shell va ashel davrlari qoʻlchoʻqmorlaridagi vazn jihatidan farqini eʼtiborga olib ularni davrlarga ajratishgan. Keyingi yillarda esa, olduvay davri mehnat qurollarining koʻplab topilishi uning davr sifatida ajratib koʻrsatishga imkon toʻgʻirdi.

Oʻzbekiston xududining geotektonik va geomagnit xodisalarini tadqiq qilish natijasida uning oʻziga xos jihatlari aniqlandi. Bu esa paleolit davri xronologiyasida oʻzgarishlar qilinishiga olib keldi. Ilk paleolit davri jahon tarixida 3 mln yillikdan to – 100 ming yilliklargaacha davom qilgan. Oʻzbekistonda ilk paleolit davri miloddan avvalgi 1 million yildan 100 ming yillikkacha davom etgan deb hisoblanar edi. Lekin keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlar bu sanani yanada qadimiylashtirdi. Arxeologik davrlashtirishning yangi metodi asosida uni 2 mln yillikdan 200 mingginchi yillargacha davom qilganligi aniqlandi. Shu paytgacha Oʻzbekiston xududida olduvay davri manzilgohlari topilmagan deb kelinar edi, lekin keyingi yillarda arxeologiyada qilingan yangiliklar Selungur makonidan topilgan tosh qurollarining Olduvay makondan topilgan tosh qurollar bilan oʻxshash tomonlarini aniqlanib, uni 1,2 mln yillarga mansub deb topdilar.

Oʻzbekiston xududidan ashel davriga oid koʻplab makonlar topilib tadqiq qilindi va qilinmoqda. Bunda U.Islomov, K.A.Kraxmal, M.Qosimov, R.Sulaymonov, T.Omonqulovlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Ilk paleolit davrida mehnat qurollari tosh, suyak va shoxlardan yasalgan. Ulardan faqat tosh qurollargina bizgacha etib kelgan. Olduvay bosqichida odamlar eng primitiv usulda yasalgan qoʻl choʻqmorlari (ruchnoe rubilo)lardan foydalanganlar. Mazkur qurollarni yasash uchun dastlab, odamlar qulay shaklga ega boʻlgan (koʻproq yapaloq shakldagi) qayroqtoshni topib, tosh boltalar yordamida uning bir uchiga urib, uchirib ishlov berganlar. U paytning tosh bolgʻalari (otboyniklar) ogʻirligi 0,5 kgdan oshmagan oddiy qayroqtosh boʻlgan. Bu xildagi tosh bolgʻalar yordamida qoʻl choʻqmorlariningina emas, balki tosh oʻzaklarini ham yasay bilishgan. Qoʻl choʻqmorlari odatda bir tomoni bodomga yoki yurakka oʻxshab, toʻmtiq boʻlgan, lekin uni qoʻl bilan ushlash qulay boʻlgan. Ikkinchi, qarama–qarshi tomoni esa, oʻtkir uchli boʻlib, bu tomoni kesish, chopish, kovlash kabi vazifalarni bajargan. Ajdodlarimiz shu qurollar yordamida ov qilganlar, ildiz kovlaganlar,

go'shtni maydalaganlar, terilarni shilganlar. Odamning qo'li esa dasta vazifasini bajargan. Ibtidoiy davrlarda mehnat qurollarning yasash uslublari A.A.Semenyonovning 1964 yilda nashr qilingan "Ibtidoiy texnika" (Pervobytnaya texnika) kitobida keng taxlil qilib berilgan. Tadqiqotchilarning fikricha qo'l cho'qmorlari 3 mln yil ilgari paydo bo'lgan. Bular insonning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ilgari davrlarda insonning paydo bo'lishi 1 mln yil deb belgilangan edi. Lekin keyingi davrlarda **Efiopiyaning Vest-Gona yodgorligining ingliz arxeologlari tomonidan o'rganilishi natijasida arxantropnlarning (arxantroplar deyilganda ilk paleolit davrida yashab o'tgan odam zoti ajdodlari tuchuniladi.) suyak qoldiqlari va mehnat qurollari tarixi 3 mln yil deb belgilandi.**⁴ Bu arxeologiya sohasida amalga oshirilgan katta yutuqlardan biri edi.

Olduvay davri odamlari terimchilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar. Ular to'da bo'lib ov qilib, yirik yirtqich hayvonlarni tutib iste'mol qilishgan. Odamlarning to'da bo'lib yurishlari natijasida o'zlarini turli tabiat hodisalaridan va yirtqich hayvonlardan himoya qilganlar. Bu davr odamlari tabiatga to'la qaram bo'lib uy-joy qurilishini ham, olovdan foydalanishni ham bilmaganlar. Yirtqich hayvonlardan esa, oddiy va dag'al qurollar bilan himoyalanganlar. Tabiat ham insonlar yashashi uchun qulay, issiq bo'lgan.

Ashel davriga kelib odamlar birmuncha taraqqiyot darajasiga erishganlar. Endi kishilar turli tog', daryo jinslari, asosan chaqmoqtoshdan qurol yasashni o'rgana boshlaganlar. Qurollarni ishlash texnikasi birmuncha takomillashgan. Chaqmoqtosh qo'l cho'qmorining ikka tomoniga ham qo'pol kertish yo'li bilan ishlov berilgan. Kertish davomida vujudga kelgan turli uchrindilardan turli narsalarni kesishda foydalanganlar. Uchrindilar qirra tomonlari mayda kertish usuli bilan o'tkirlangan va keskich asboblari sifatida foydalanilgan. Uchburchaksimon tosh uchrindilariga ko'proq ishlov berilgan. Asta-sekin tosh qurollarining turi ko'paya boshlagan. Dastlab sixcha va qirg'ichsimon qurollar vujudga kelgan. Tosh sixcha qurollardan yog'och qurollar yasashda va ovda nayza tig'i sifatida foydalanilgan bo'lsa, qirg'ichlardan kiyim-kechak uchun hayvon terilariga ishlov berishda foydalanganlar. Bu davrda tabiat iqlimi soviy boshlagan. Odamlar tabiiy sharoitga moslashib, boshpana sifatida g'orlarni o'zlashtirganlar va tabiiy olovdan foydalana boshlaganlar. Shuni aytish kerakki, ibtidoiy odamlar barcha g'orlarda ham yashamaganlar. Odatda tagi tuproqli, quyosh nuri tushadigan, chashma suvi yaqin, ovchilik va terimchilikka qulay g'orlarda yashaganlar. Olduvay davri makonlari ko'ra, ashel davri makonlari ko'proq uchraydi. Bu odamlarning u davrga nisbatan ko'paya boshlaganidan darak beradi.

⁴ Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

O'zbekiston hududida ashel davrida yoz issiq, quruq, qish esa sovuq bo'lib, yog'ingarchilik kam bo'lgan. Shu davrda havo issiq, geografik muhit mo'tadil bo'lgan. Ashel davri oxiriga kelib havo keskin ravishda sovugan, chunki muzlik davri boshlangan. Bu davrda Evropa hududini muzlik qoplagan, tropik o'lkalarda esa yomg'ir davri boshlangan. O'rta Osiyoning tog'li zonalarida muzliklar hosil bo'lgan. Pasttekisliklarda esa yomg'irlar uzluksiz yog'ib, ko'l va daryolar hosil bo'ldi. Havo goh sovub, goh iliq bo'lib turgan. Xuddi shu davrda insonlar olov xususiyatlarini o'rganib olib, olovdan foydalana boshlaganlar, bu miloddan 600-500 ming yil muqaddam sodir bo'lgan.

To'rtlamchi bosqich boshlarida iqlim hozirgiga nisbatan issiqroq bo'lib, Periney yarinorolidan Xitoygacha bo'lgan hududlar subtropik, Osiyoning janubi va Afrikaning katta qismida esa tropik mintaqalar edi. Uchlamchi bosqichning oxiri va to'rtlamchi bosqichning boshlarida mazkur o'lkalarda maymunlarning xilma-xil turlari yashagan.

Biz fan tomonidan isbotlangan, odamning hayvonot dunyosidan uzoq vaqt davom etgan rivojlanish jarayoni oqibatida ajralib chiqqanligi haqidagi fikrga yondashamiz. Odamning oliy tipdagi maymunsimon ajdodlar bilan bog'liqligi haqidagi g'oya Ch.Darvinga taalluqli bo'lib, u evalyutsion jarayon natijasida odam huddi shu odamsimon maymundan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. Ya'ni, maymunning odamga aylanishida asosiy omillardan biri - tabiiy saralanish va jinsiy tanlanishdir, degan nazariyani ilgari suradi. Jamiyatshunos olimlar maymunning odamga aylanishi jarayonida asosiy omillardan yana biri - mehnat ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Biz yuqorida, yer tarixi kaynazoy erasining to'rtlamchi bosqichida odamzod paydo bo'la boshlaganligini aytgan edik. Uchlamchi bosqich boshlarida iqlim hozirgiga nisbatan issiqroq bo'lib, Pireney yarim orolidan Xitoygacha bo'lgan maydonlar subtropik mintaqalar edi. Mazkur o'lkalarda to'rtlamchi bosqich boshlarida hayvonlarning, shuningdek, maymunlarning xilma xil turlari yashagan. Ular orasida odamsimon maymunlar ham bo'lib, ular odamning eng qadimgi ajdodlari hisoblangan. Ular driopitek, ramapitek, avstrolopiteklar bo'lib, shulardan avstrolopiteklar odamga ko'proq o'xshashligi bilan ajralib turgan. **Driopiteklar hozirgi kunimizdan 15-12 mln yillar ilgari yashagan. Driopitek - «daraxtda yuruvchi odam» deb nomlanadi. 1856 yilda frantsuz arxeologi Larte Avstriyaning Yuqori Goranna degan joyidan yer tarixining miotsen yotqiziqlaridan (bundan 5-12 mln. yil burun) eng oliy tipdagi odamsimon «maymun» driopiteklarga tegishli bo'lgan 3 ta tish qoldiqlarini topgan. Driopitek odamsimon maymunlar turiga kiradi. Olimlar uning miya suyagini hajmini o'lganda 600 sm bo'lganligini qayd etadi.⁵**

⁵ Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

Hozirgi kunda dunyoning har xil joylaridan driopiteklarning 10 dan ortiq turlari topib o'rganilgan. Ch.Darvin Avstriya topilmasini o'rganib uning tishlarida odamzod tishlariga xos belgilar borligini isbotladi. Ch.Darvin driopitekda odamzodning ajdodini ko'ra bildi. Darvin yaratgan ta'limotga ko'ra barcha driopiteklar odamzodning ajdodi bo'la olmaydi. Undan qolgan iz so'nggi (Yuqori Gerannadagi) si avlod izi bo'lgan. Ramapiteklar ham odamsimon maymunlar turiga mansub bo'lib, uning qoldiqlari Afrika, Hindiston hududlaridan topilgan. Ramapiteklar 12-7 mln. yillar ilgari yashagan.

Avstrolopiteklar keyingi tur bo'lib, ular odamga ko'proq o'xshagan va hozirgi kunimizdan 3 mln. yillar ilgari yashagan. Ularning miya suyagining hajmi 600-700 sm bo'lib, avstrolopiteklar ikki oyoqda tik turgan, o'simlik va go'shtni ovqat sifatida iste'mol qilgan. 1924 yilda Janubiy Afrika hududlaridan odamzodning ilk ajdodi bo'lgan avstrolopitekning suyaklari topilgan. Olimlar unga «Janubiy odam» deb nom berishgan.

Yer qa'riining plyutsen (bundan 3-4 mln. yil oldin) yotqiziqlaridan olimlarning xulosasiga ko'ra, driopitek eng oliy tipdagi odamsimon «maymun» bo'lsa, avstrolopitek esa «maymunsimon» odam vakili bo'lgan. Avstrolopitek odamzodning hayvonlar olamidan odamlar dunyosiga o'tishda qo'yilgan birinchi qadami edi.

1960 yilda arxeolog Luis Liki Sharqiy Afrikaning Olduvay darasidan odamzodning qadimgi ajdodlari suyak qoldiqlarini topdilar. Olduvayda odam, hayvon suyaklari bilan bir qatorda tosh qurollar ham topildi. Olimlar bu erdan topilgan mavjudotni zinjanthrop deb atadi va uning yashagan davrini avstrolopitek va pitekanthrop oralig'i deb belgiladi.

Zinjanthrop deb atalishiga sabab, uning Tanzaniyaning Zinji nomli qishlog'i atrofidan topilishi edi. Zinjanthroplarga «Xomo Xabilis» - «ishbilarmon odami» deb nom beriladi. Chunki u eng sodda mehnat qurollarini yasay olar edi. Zinjanthrop qoldiqlari Keniya va Efiopiya hududlaridan ham topib o'rganilgan. Zinjanthroplar suyagi topilgan joylardan hayvon suyaklari va tosh qurollar ham topiladi. Afrikadan «ishbilarmon odamlar» topilgan geologik qatlamning sanasi 3-2 mln. yillar bilan belgilanmoqda. Bu esa odamzodning mehnat qila boshlagan ilk ajdodi pitekanthropga qadar zinjanthroplar bo'lgan, degan xulosaga olib keladi. Afrikadan topilgan ish bilarmon odamlar arxantroplar deb nomlangan. Yunoncha «Arxayos» - qadimgi, «antropos» - odam degan ma'nolarni bildiradi. Demak, arxantroplar toshdan qurol yasash qobiliyatiga ega bo'lgan odamzodning dastlabki ajdodlaridir.

Odamning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasi bilan antropologiya fani shug'ullanadi. Antropologiya uch asosiy bo'limga bo'lib o'rganiladi: 1) morfologiya; 2) antropogeniya yoki antropogenez; 3) irqshunoslik yoki etnik antropologiya. Morfologiya odamning jismoniy

tuzilishidagi belgilarning yosh, jins, kasb va tashqi sharoitga qarab o'zgarishini o'rganadi; antropogeniya (antropogenez) odam jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyati, tili, shuningdek jamiyatning dastlabki rivojlanishi jarayonini o'rganadi; irqshunoslik irqslarning sinfiy tasnifi, irqslarning geografik jihatdan tarqalganligi, irqslarning shakllanish tarixi bilan shug'ullanadi.

Paleoantropologiya qadimgi odam qoldiqlarini o'rganib, muayyan davrdagi odamlarning fiziologik tiplari haqida tasavvur hosil qilishda, mazkur fiziologik tiplarning o'rganishida turli ijtimoiy va tabiiy sharoitlarning ta'siri masalalariga oydinlik kiritadi. Umuman olganda, bugungi kunda olimlar odamning paydo bo'lishini ilk paleolit davridan boshlab, so'nggi paleolitga kelib odamning antropologik va tarixiy rivojlanishi nihoyasiga yetib, zamonaviy qiyofadagi odamning (Homo Sapiens) qaror topishi bilan tugagan. Odamning paydo bo'lishi tarixiga qiziqish qadimdan, antik davrdan boshlanganligini ko'rish mumkin. Aristotel mazkur masalani yechishga harakat qilgan olimlardan biridir. Aynan "antropologiya" atamasini ham Aristotel ilk marta odamning kelib chiqishini o'rganuvchi fanga nisbatan ishlatgan, lekin "Antropogen" so'zini birinchi bo'lib 1922 yilda A. P. Pavlov fanga kiritgan.

XVIII asrdan boshlab odamning kelib chiqishi masalalarga qiziqish orta borgan. Fransuz tabiatshunos olimi Jorj Lui Leklerk Byuffon (1707-1788) inson bilan hayvonot olami o'rtasida qandaydir o'tib bo'lmas to'siq borligini taxmin qilgan. 1735 yilda shved tabiatshunos olimi Karl Linney (1707-1778) o'simlik va hayvonot olamini sistemasini tuzgan va insonni "Birinchi qator" ga qo'ygan. 1758 yilda u o'z sistemasiga o'zgartirish qilib, unga primatlar guruhini - Ordo primates (ya'ni birinchi yoki boshlang'ich ma'nosida) kiritib, ularni to'rt qismga bo'ladi: 1) Homo - odam; 2) Simia - maymun; 3) Lemur - lemur (primatlar guruhiga kiruvchi chala maymunlar oilasi); 4) Vesputilio - ko'rshapalak. Homo guruhini u yana ikki guruhga bo'ladi: 1) sapiens - "kunduzgi odam" o'zining "joyiga nisbatan" madaniyati bilan ajralib turgan. 2) Troglodytes (troglodit) - "kechki odam", "o'rmon odami", "Orangutang"

Shu tariqa ilk marta hayvonot olamida odam o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, "Homo sapiens" (aql-idrokli odam) atamasi paydo bo'lib, bugungi kunda ham fanda ilmiy termin sifatida ishlatib kelinmoqda.

Karl Linneydanda aniq isbotni frantsuz olimi Jan Batist Lamark (1744-1829) bergan. Uning fikriga ko'ra, o'ta rivojlangan maymunning bir turi o'sha davrda qandaydir tabiiy ta'sir ostida daraxtda yashash qobiliyatini yo'qotib, ikki oyoqda tik yura boshlagan. Ular o'zlari uchun yemish izlab tanlagan holda oziqlanishgan. Biroq uning bu fikri o'sha davrda o'z tasdig'ini topmaydi.

Evolutsion nazariyaning tan olinishi Charlz Darvin (1809-1882) nomi bilan bog'liqdir. 1859 yilda Darvin o'zining "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi" asarida antropogenez

jarayoni haqida fikr yuritadi. 1871 yilda "Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish" asarida esa yanada aniq dalillar bilan vaqt, davrlar o'tishi bilan bosqichma-bosqich odam bugungi ko'rinishga kelganligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, Afrika ilk odamzod paydo bo'lgan hudud hisoblanadi.

Umuman olganda Ch.Darvin ilgari surgan g'oya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Antropologik topilmalar XIX asrning 40-yillaridan topila boshlangan. 1848 yilda Ispaniyaning Gibraltar qoyasidan ishchilar odam bosh chanog'ini topib oladilar. Biroq bu topilma haqidagi ilk ma'lumot 1864 yilga kelibgina G.Besk tomonidan matbuotda e'lon qilinadi.

1856 yilda Germaniyaning Dyusseldorf hududiga yaqin Neander vodiysidagi (Neandertal) g'ordan Giblartardan topilgan suyakka o'xshash bosh chanog'i topiladi va tezda butun jahonga ma'lum bo'ladi. Uni paleontolog Fulrod o'rganadi.

1868 yilda Fransiyaning Kro-Manon g'oridan so'nggi paleolitga mansub odam suyagi qoldiqlari topiladi (yevropeoid irqiga mansub xususiyatlar mavjud).

Golland vrachi va anatomi Ernest Dyubua 1890-1892 yillarda Yava orolida antropoid va neandertallar oralig'ida mavjud bo'lgan odam turiga mansub suyak qoldiqlarini topadi. Skeletini top'liq topib, qayta tiklashga muvassar bo'lgan olim uni tik ikki oyoqda yurgan eng qadimgi odam ekanligini ta'kidlaydi va uni "Pitekanthropus erektus " - "Tikyuruvchi maymunsimon odam " deb ataydi.

1901 yilda Italiyaning Grimaldi g'oridan odam suyagi qoldig'i topiladi (negroid irqiga mansub xususiyatlar mavjud).

Keyingi tadqiqotlar jarayonida pitekanthropga tegishli suyak qoldiqlari ko'plab topila boshlandi.

1907 yilda Germaniyaning Mauer qishlog'ida, Geydelbergdan 10 km janubda ishchilar qazilma odam suyagi qoldiqlarini topib olishadi. U fanda geydelberg odami nomi bilan mash'hur. Olimlar uni pitekanthrop va neandertal turlari oralig'idagi tipiga mansub odam, deb hisoblaydilar.

1927 yilda Pekin shahri yaqinidagi Chjoukoutyan degan joydan sinantrop suyagi qoldiqlari topiladi. Bu manzilgoh kanadalik olim D.Blek tomonidan o'rganilgan. 25-30 m qalinlikdagi madaniy qatlamga ega yodgorlikda arxantrop bo'lib, ular pitekanthroplarga nisbatan ancha rivojlangan, bir necha mingyillar davomida shu yerda yashashgan va buni ular yasagan ov va mehnat qurollari, ulardagi o'zgaruvchanlik hamda bir necha o'n metrlik kul qatlami ham buni tasdiqlaydi (mongoloid irqiga xos xususiyatlar mavjud).

1935 yilda Angliyaning Svanskomb degan joyidan (Kent) Mareton ayol jinsiga mansub odam suyagi qoldiqlarini topadi. Mazkur topilmani maxsus o'rganish uchun Qirollik qo'mitasida

Antropologiya instituti tashkil etiladi. Olimlar ushbu topilmani Homo sapiensga yaqin odam tipi ekanligini tasdiqlaydilar.

1938 yilda O'zbekistonda Teshiktosh g'ori arxeolog A.P. Okladnikov

to'monidan tadqiq etilib, neantertal tipiga mansub odam suyagi qoldiqlarini topadi. Uni qiyofasini antropolog olim M.M. Gerasimov tiklagan.

1954-1955 yillarda fransuz olimlari K.Arambur va R.Xofshtetter Ternifin (Jazoir) dagi qazuv ishlari jarayonida sinantropga yaqin odam suyagi qoldiqlari topiladi. Bu topilma atlantrop (Afrikaning shimoli-g'arbidagi Atlas tog'i nomidan) deb nomlanadi. Suyak qoldiqlari bilan birga shell va ilk ashel davriga oid tosh qurollari ham topiladi.⁶

1960 yildan ingliz antropologi Luis Liki Tanganikadagi (Sharqiy Afrika) Olduvay g'orida shell davriga oid tosh qurollarni topish bilan birga odam suyagi qoldiqlarini ham topadi. Olim uni pitekanthropning zamondoshi sifatida ko'rib, "zinjanthrop" (avstralopitek - janub odami) deb ataydi. Homo habilis deb atalgan bu odam tipi bundan 2,5-3 mln. yil avval yashagan.

1963 yilda Xitoy olimi Vu Xuanxe daryosi o'rta oqimida Lyandyan manzilidan qadimgi odam qoldig'ini topadi. Uning sinantropga nisbatan ancha qadimiy bo'lganligi aniqlandi. Fanda u «Lyandyan arxantropi» deb nom oldi.

1963 yilda Toshkent viloyati Ohangoron tumanida Mingbuloqdan hozirgi kunimizdan 400-500 ming yillar muqaddam yashagan sinantrop turiga oid qazilma odam qoldiqlari topilgan.

Shunday qilib, antropologik topilmalarni izlash va ularni o'rganish bugungi kungacha ham davom etib kelmoqda. 2000-2004 yillar davomida Qashqadaryo vohasi Kitob tumani tog'li hududlarida olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida (o'zbek-amerika qo'shma ekspeditsiyasi) Oyoqchisoy vodiysida Angilak g'ori tadqiq etilib neandertal tipiga mansub odamning oyoq suyagi topildi. Bu viloyatimiz tarixidagi eng diqqatga sazovor topilma bo'ldi.

Demak,

1. Odamzod tabiatning ajralmas bir bo'lagi sifatida Yer tarixining ma'lum bir bosqichida hayvonot olamidan ajralib chiqdi. U jonivor fanda eng oliy tipdagi «odamsimon maymun» deb atalmoqda.

2. Ajdodlarimizning hayvonot olamidan odamzod dunyosiga qo'ygan birinchi qadami avstralipiteklar davrida sodir bo'ldi.

3. Odamzodning ilk ajdodlari zinjanthrop va pitekanthroplar toshni toshga urib mehnat qila boshlaydilar. Mehnat odamzodni hayvonot olamidan ajratdi.

⁶ Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

4. Odamzod o'zining ajdodi - sinantropolar davrida olovni kashf etdi va shu tufayli ajdodlarimiz go'shtni olovda chala pishirgan holda iste'mol qila boshladilar. Pishirilgan go'shtni iste'mol qilish natijasida ularning fikrlashida o'zgarish yuz berdi va odamning biologik, jismoniy tuzilishida hozirgi zamon odami tomon ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi.

Kramonon odami zamonasiga kelib ilk ajdodlarimizning biologik, jismoniy tuzilishi hozirgi zamon odamidan farq qilmaydigan holatga kirdi. Kramon'onlar davri urug'chilik jamoasining boshlanishi birinchi jamoachilik kurtagini tugilishidir. Bu o'zgarishlarning barchasiga inson o'z mehnati tufayli erishdi.

Yuqorida ko'rdikki, tabiiy tanlanish va jinsiy saralanish, shuningdek birinchi navbatda mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofadagi odamlar hozirgi qiyofadagi kishilarga aylana bordilar. Ular ham aqliy, ham jismoniy jihatdan kamol topib, uzoq vaqt davom etgan rivojlanish jarayonida hozirgi qiyofadagi kishilarni shakllantirdi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga etdi. Huddi shu davrda evropoid, negroid va mo'g'ul deb nomlangan dastlabki irqalar vujudga keldi. Insoniyat o'zining hozirgi qiyofasiga yetib kelguncha 2-3 million yillik katta tarixiy davrni bosib o'tdi. Bu kishilar fanda «homo sapiens» - «aql-idrokli odamlar», deb ataladi.

O'rta paleolit davri va uning o'rganilishi. O'rta paleolit davri ilmiy adabiyotlarda muste davri deb nomlanadi. Bu davrga oid moddiy yodgorliklar dastlab Fransiyaning Muste g'or makonida topilgani uchun shunday nom olgan. O'rta paleolit davrining xronologiyasi ilgarigi adabiyotlarda mil.avv. 100–40 ming yilliklar deb hisoblanar edi, lekin keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, u 200 –100 ming yilliklar bilan belgilandi. O'rta paleolit davri yodgorliklari jahon fanida muste va levallua–muste (rivojlangan davri) bosqichlariga ajratib beriladi. O'zbekiston arxeologiyasida ham shu bo'linishlar qabul qilingan bo'lsa–da, tadqiqotchilar o'rta paleolit davrining mahalliy o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olib, uning 4 ta mahalliy guruxini ajratib ko'rsatadilar: muste, levallua, levallua–muste, soan. Buni dastlab V.A.Ranov taklif qilgan va unga toshni paraqalashdagi o'ziga xos texnikaviy uslubni asos qilib olgan.

To'rtlamchi davrda boshlangan muzlik ashelning so'nggi bosqichlariga kelganda janubiy rayonlarga ham siljib borgan. Iqlim tobora sovib borgan. Bu davrda G'arbiy Evropada Riss muzligi davri bo'lsa, tropik o'lkalarda yomg'irlar davri, ya'ni plyuvia (lot. yomg'ir degan ma'noda) davri hukmron bo'lgan. O'zbekiston xududida xam ilgarigi mu'tadil iqlim o'rnini sovuq havo egallagan. Ajdodlarimiz yangi iqlimga moslashgancha, ularning hayoti nihoyatda og'ir kechgan. Sovuqqa moslashmagan hayvonlar janubga ketishgan. Ibtidoyi odamlar sovuqqa moslashish uchun avvalgi turmush tarzini o'zgartirishga majbur bo'lishgan. Sovuqdan himoyalaniib, g'orlarni

o'zlashtirganlar, oddiy chaylasimon boshpana qurishni ham ixtiro qilganlar. Hayvon terisidan kiyim tikib kiyganlar va gulxan atrofida jon saqlaganlar. Termachilikning ahamiyati pasayib ketgan. Ovchilikning insonlar tirikchiligida ahamiyati oshgan. Bu esa ov uslublarini va qurollarini takomillashtirishni taqozo etgan. Ular to'da to'da bo'lib yurib, olov bilan hayvonlarni yo jarlikka yo g'or ichiga haydab tutganlar. Toshni qayta ishlash texnikasi ham takomillashgan. Ixcham qurollar ishlab chiqa boshlaganlar. Bu yangi yorma texnika usuli yordamida amalga oshirilgan. Bunda qurol yasaladigan chaqmoqtoshning bosh tomoni ustalik bilan urib o'girilib, tekis maydoncha hosil qilinadi. Shu maydoncha orqaligina toshning mayda paraqalarini olish imkoni tug'iladi. Barcha paraqalar olinib bo'linganidan keyin uchirib bo'lmaydigan o'zak qoladi. Bu o'zak nukleus deb ataladi. Muste davri uchun gardishsimon nukleuslar va uch burchakli tosh paraqalari xarakterli bo'lgan. Tosh paraqalar yog'och yo'nish, teri ishlash, qurol va kiyim tayyorlashda qulay hisoblangan.

Tosh paraqalar uchi yanada o'tkir qilingan. Bunda tosh parrakchaga sekin asta urib salgina ishlov berilgan va yangi tur qurol hosil qilingan. Ular asosan nayzasimon toshqurol va tosh qirqich bo'lgan. Qurollar kalta va yalpoq bo'lib, ularga dasta o'rnatib bo'lmagan.

Nayzasimon tosh quroldan asosan erkaklar yog'och qirqich, yo'nish, hayvon o'ldirishda foydalanganlar. Tosh qirqichlardan esa ayollar teri shilish, yopinchiqlar tayyorlashda ishlatishgan.

Toshdan o'roqranda yasashgan, undan daraxt po'stini shilish va randalash quroli sifatida foydalanishgan. O'roq randa - chaqmoqtosh plastinkasidan iborat bo'lib, tig'i keng yoysimon qilib o'yib ishlangan.

O'rta tosh davri odamlari qumtosh yoki ohaktoshdan sharlar yasab, hayvonlarni ovlashda foydalanganlar. Ularni uzun tasma uchiga juft qilib bog'lab, hayvonlarni oyog'idan ilintirganlar.

O'rta paleolit davri odamlari hayotida olov muhim o'rinni egallagan. Ular hayvon go'shtini gulxanda pishirib, iste'mol qilganlar, bu ularning jismoniy va aqliy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Shuningdek, olov ularni sovuqdan va yirtqich hayvonlardan himoya qilgan. Shu sabab olovni saqlash masalasi ko'ndalang bo'lgan. Insoniyat olovdan foydalanishni o'rganganidan buyon tabiiy olovdan foydalanib kelgan, lekin o'rta paleolit davrida sun'iy olov chiqarishni o'rganib olganlar. Ular yog'ochni bir bir-biriga ishqalash natijasida olov chiqarganlar. Bu nixoyatda ko'p mexnat talab qilgan. Yog'ochni yog'ochga uzoq vaqt qattiq ishqalagandan so'ng juda mayda kipik hosil bo'lgan, u qizib tutay boshlagan, puflab alanga oldirilgan.

O'rta paleolit davri yodgorliklarida ko'plab gulxan qoldiqlari topilgan. Odamlar o'tin bilan birgalikda hayvon suyaklarini ham yoqqanlar.

O'rta paleolit davrida neandertal tipdagi odam yashagan. Bu davr odami dastlab Germaniyaning Neandertal qishlog'idan topilgani uchun ham shu nomni olgan. U ilk paleolit odamidani ancha farq qilgan. Uning bo'yi past peshonasi tor va nishab, qosh ustidagi suyaklari qalin, yonoq suyaklari chiqib ketgan, iyagi nihoyatda kichkina, tizzalari sal bukilgan, 2 oziq tishi bo'rtib chiqqan, qo'l panjalari kalta va yo'g'on bo'lgan. Bosh miyasining hajmi 1200-1400 sm ni tashkil etgan. Xudi shunday tipdagi odam 1938 yili A.P.Okladnikov tomonidan Teshiktosh g'oridan topilgan.

So'nggi paleolit davri va uning o'rganilishi. Ilmiy adabiyotlarda yuqori paleolit so'nggi paleolit tuchunchasi bilan xam ishlatiladi. U 100-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. So'nggi paleolit davrida ajdodlarimiz hayotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Asosiysi ajdodlarimiz hayotida urug'chilik tuzumi boshlandi. Endilikda to'da-to'da bo'lib yashamasdan urug', qarindoshlik aloqalari ularni birlashtira boshladi. Urug'da hukmronlik ayollar qo'lida bo'lgan, chunki erkaklar doimo ovda bo'lganlar, ayollar esa doimo uy yumushi bilan band bo'lganlar. Bunday davr tarixda matriarxat, ya'ni onalar hukmronligi deb ataladi. Ijtimoiy hayotdagi bu o'zgarish asosan insonning jismoniy va aqliy o'zgarishi sababli ham sodir bo'lgan. So'nggi paleolit davrida hozirgi zamon odami qiyofasi o'xshash-kromanon odami yashagan. Kromanon odami suyak qoldiqlari dastlab Fransiyaning Kromanon makonidan topilgani uchun shunday nom olgan. Olimlar bu davr odamini homo sapiens-aql-idrokli odam deb ham ataydilar.

Yuqori paleolit davri yodgorliklari O'zbekiston hududida o'rta paleolitga nisbatan kam topilgan. Bunga asosiy sabab, ajdodlarimiz turmush tarzida yuz bergan o'zgarishlardir. Shuningdek, ajdodlarimiz tabiiy sharoitga moslashib, ijtimoiy hayotda bir qator yutuqlarni qo'lga kirganlar. Havo yumshab, muzliklar erigach, ular g'orlardan chiqib, vodiy va daryo bo'ylarida chayla, erto'la va yarim erto'la qurib yashay boshlaganlar. Yashash joylarining yon tomonlari va ustiga hayvon suyaklarini tergach, hayvon terisi yoki qamish bilan yopganlar. Mazkur chayla va yarim erto'lalar vaqt o'tishi bilan shamol va yomg'ir ta'sirida yoki keyingi davrlarda insonlar tomonidan u erlarning o'zlashtirilishi natijasida yo'q qilingan. Erto'lalar esa er ostida bo'lganligi sababli topish qiyin. Shu sababli so'nggi paleolit davri joy makonlarning ko'pchiligi tasodifiy ravishda kashf qilingan.

Yuqori paleolit davri odamlari xo'jaligining asosini ovchilik tashkil etgan. Asosan bug'u, yovvoyi ot, sirtlon, arxar, kulon, tuya kabi yirik hayvonlar ovlangan. Daraxt mevalari, don va ildiz mevali o'simliklarni ham terib terib ovqat sifatida ishlatganlar. Baliqchilikning

ham dastlabki kurtaklari paydo bo'lgan. Bu davrda ov va mehnat qurollarining turi ko'paygan. Tosh qurollari ishlash uslubi o'zgargan. Bunga esa tosh qurollarini yasash texnikasidagi yangilik sabab bo'lgan. Yorma texnika usuli ilk bosqichda keng qo'llanilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda retushlash usuli ixtiro qilingan. Bu qurollar turini ko'paytiribgina qolmay, ularning mayda, ya'ni ixchamlashtirishga olib kelgan. Retushlash deganda chaqmoqtosh qurolni suyakdan yasalgan ingichka va uzun tayoq bilan bir necha ming marta urib yupqa tosh paraqalar uchirib, kerakli formaga keltirish tuchuniladi. Bu usul juda murakkab bo'lib, salgina ehtiyotsizlik qilinsa, qurol sinib ketgan.

Retushlangan nukleuslar to'g'ri pichoqsimon shaklga kirgan va yupqalashgan. Pichoqlar paydo bo'lgan. Bu davrda eng muhim mehnat qurollari tosh kesgich va tosh qirg'ich bo'lgan. Tosh kesgich qattiq materiallarni ishlashda foydalanilgan. Tosh qirg'ich uzunchoq parrakcha bo'lib, bir uchi yoysimon tig' bo'lgan, muste davridagi qirg'ichdan ancha farq qilgan, undan yumshoq materiallarni ishlashda foydalanganlar. Asosiy ov quroli chaqmoqtoshdan yasalgan nayza bo'lgan.

Ajdodlarimiz yog'och va hayvon suyakdanlaridan ham ko'plab qurollar yasaganlar. Suyakdan garpunlar, nayzalar, nayza otqichlar, shuningdek terini tikish uchun ignalar va bigizlar yasashgan. Suyakdan qurollar yasash, ayniqsa yuqori paleolit davrining so'ngi bosqichlarida ko'paygan. Bu bosqich jahon arxeologiyasida Madlen bosqichi deb, (20 ming-13 ming yil oldin) ajratiladi. Madlen bosqichida muzlik hududi kengayib, sovuq eng yuqori darajaga etgan. Mamontlar kamayib ketgan, shimol bug'usi va hozirgi tundra hayvonlari ko'pchilikni tashkil etgan. Bug'u ko'chmanchi hayvon bo'lganligi sababli odamlar ularning ketidan ko'chib yurganlar. Ovchilar yana ko'chmanchi hayotga o'tganlar.

Yuqori paleolit davri odamlarining xo'jaligi o'zlashtiruvchi xo'jalik bo'lib, uning asosini ovchilik tashkil etgan. Asosan bug'u, yovvoyi ot, sirtlon, arxar, qulon, tuya kabi yirik hayonlar ovlangan. Daraxt mevalarini, don va ildizmevali o'simliklarni terib, ovqat sifatida ishlatish ham keng tarqalgan. Shuningdek, baliqchilikning dastlabki kurtaklari paydo bo'lgan.

Arxeologlar yuqori paleolit davri makonlarini tadqiq qilib, ularda urug'chilik tuzumi mavjud bo'lganligini asoslovchi dalillar topishgan. Birinchidan, chayla va manzilgohlarni qurilishi kishilarning urug' bo'lib yashaganligini ko'rsatadi. Bunday urug'lar birlashib, urug' jamoasini tashkil etgan. Ikkinchidan, ayol haykalchalarining topilishi ham urug'chilik tuzumining boshlanganidan darak beradi. Urug'lar urug' asoschisi-ayolga sig'inishgan, chunki u davrda oilani ayol boshqargan, erkaklar faqat ov bilan mashg'ul bo'lishgan. Shu sabab ham urug'chilik tuzumining ilk bosqichi-matriarxat, ya'ni ayollar hukmronligi davri

hisoblanadi. Ayol haykalchalari-hosildorlik, hayotiy kuch, kishilik urug'ining yashashi zarurligi timsoli bo'lgan. Uchinchidan yirik hayvonlar ovi ham guruh bo'lib harakat qilishni talab etgan. Yuqori paleolitning dastlabki davrlarida kishilar muqum o'troq holda hayot kechirganlar. Ularning turar joylari ham ov uchun qulay bo'lgan joylarda-jarlik yoqalarida joylashgan. So'nggi bosqichlariga kelib esa, muzliksiz hududlar kengaygach, shimol bug'usi ketidan yurib, insonlar yana ko'chmanchi hayot tarziga o'tishgan. Bu holat esa urug'chilik munosabatlarini tartibga solib, yanada mustahkamlagan. To'rtinchidan, oila va nikoh munosabatlariga kat'iy tartib o'rnatganlar. O'zaro qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikoh asta-sekin bekor qilina boshlangan. Bu esa odamning tashqi ko'rinishi va aql idrokining yaxshilanishiga, yangi tur odamining vujudga kelishiga olib kelgan. Bu odam fanda "xomo-sapiens" aql-idrokli odam deb ataladi. U tashqi ko'rinishi jihatdan hozirgi odamlarga o'xshab ketadi. Unda rostmana peshona, jag' shakllandi. Qosh orti bo'rtig'i yo'qoldi. Hozirgi zamon tipidagi odam shakllanadi va butun er yuzi bo'ylab tarqaladilar.

So'nggi paleolit davrida qarindosh urug'chilik va oila munosabatlarining tartibga solinishi natijasida kishilarning jismoniy va aqliy rivojlanishida o'zgarishlar yuz berdi. Insonlarning tashqi ko'rinishida o'zgarish yuz berishi bilan birga ularning tabiiy –geografik sharoitga moslashishi natijasida irqlar vujudga keldi. Evropoid, mongoloid, negroid. Evropoid irqi fanda kromonon odami nomini olgan. O'zbekistonning ham Samarqand makonidan kromonon odamning qoldiqlari topilgan.

Yuqori paleolit davrida yuz bergan muhim o'zgarishlardan yana biri, bu san'atning kelib chiqishidir. San'atning vujudga kelishi o'sha davr odamlarining diniy qarashlari bilan bog'liq bo'lsa-da, ular qoldirgan haykalchalar va qoya tosh suratlari o'sha davr ijtimoiy hayoti haqida bizga ko'p ma'lumot beradi. O'rta Osiyoning ko'pchilik joyidan qoyatosh suratlari topilgan. Jumladan; Zarautsoy, Xurtakasoy, Bichikchashma, Sariyoz va boshqalar. Ularda karkidonlar, mamontlar, odam, ot, buqa, it, tulki, jayron, tog' echkisi, o'q yoylarning tasvirlari bor.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.: "Fan va texnologiya" 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. “Ma'naviyat” 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. “Адолат”. 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда*)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”, 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

3-mavzu: Paleolit davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.

1. Ilk paleolit davri yodgorliklari
2. O'rta paleolit davri yodgorliklari
3. So'ngi paleolit davri yodgorliklari

Tayanch tushunchalar:

Selung'ur, Ko'lbuloq, Teshiktosh, Obirahmat, Samarqand, Bolttag'or, Ko'lbuloq, Qizilmolma, Toshsoy, Chashma va So'x, Uchtut-Ijond-Vaush makonlari

O'zbekiston xududida ilk paleolit davriga oid, asosan ashel bosqichiga oid makonlar XX asrning ikkinchi yarmida ko'plab topildi va bu davrning ko'plab noma'lum tomonlarini ochishga imkoniyati vujudga keldi. Toshkent viloyatida Bolttag'or, Ko'lbuloq, Qizilmolma, Toshsoy, Buxoro viloyatida Uchtut, Farg'ona vodiysida Selungur, Chashma va So'x makonlar topib o'rganilgan. Farg'ona vodiysida topilgan Chashma va So'x makonlari O'rta Osiyo xududida topilgan eng qadimiy makonlar deb topildi. Seleng'ur g'orida sinantrop turiga mansub odam suyaklari topilib, jahonda katta shov-shuvga sabab bo'ldi.

XX asrning so'ngi choragida O'zbekistonda ilk paleolit davriga oid yodgorliklar soni ko'payibgina qolmadi, balki ilmiy tadqiqot uslublari ham takomillashdi.

Keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida, asosan Selungur makonining tarixiy geografiya, paleobotanika, paleozoologiya va boshqa fanlar sohasida qo'lga kiritilgan yangi tadqiqot uslublari bilan tekshirilishi natijasida o'sha davrning tabiati va hayvonot olamini xam aniqlandi. Selug'ur makonining madaniy qatlamlaridan 32 turdagi sut emizuvchi hayvonlarga tegishli 5 mingdan ortiq suyak qoldiqlari aniqlanib tadqiq etildi. Xayvonlarning qoldiqlari orasida yirik tuyoqli va kemiruvchi hayvonlarning turlari ko'pchilikni tashkil qiladi. G'or ayig'i, bo'ri, g'or arsloni, sirtlon, karkidon, bug'i, ot, eshak, to'ng'iz va turli kemiruvchi hayvonlarning borligi issiq va quruq iqlim bo'lganligidan darak beradi.

Selungur makoni. O'zbekiston hududida ashel bosqichiga oid eng mashhur makon-Selungur g'ori hisoblanadi, chunki shu erdan ilk ajdodlarimiz nishonasi-odam suyaklari qoldiqlari topildi. Selungur g'ori Farg'ona shahridan janubiy-g'arbda Haydarkonning g'arbiy chekkasida joylashgan. G'orning ichkari tomon uzunligi 120 m, eni 34 m, balandligi 25 m ni tashkil etadi.

Selungur g'ori 1958 yilda akademik A.P.Okladnikov tomonidan o'rganilgan. U bu makonning qaysi davrga oid ekanligini aniqlash maqsadida g'orning o'ng tomoniga tekshiruv shurfini solgan. Natijada dastlab u erdan bir necha uchrindilar topib uni so'nggi paleolit davriga

oid deb va uning sanasini 40-30 yilliklar bilan belgilagan. U erda 1960 yillarda Ya.G'.G'ulomov boshchiligida Farg'ona paleolit otryadi Xaydarkon atrofida tadqiqot ishlari olib bordi. 1980 yilda arxeolog O'.Islomov boshchiligidagi O'zR FAga qarashli Arxeologiya institutining paleolit otryadi Selungur makonni qayta tekshirib, g'orning g'arbiy tomonida tekshiruv shurfini soldi. U erda tadqiqot ishlari 1988 yillargacha davom etdi. Tadqiqotlar davomida o'rtacha qalinlikda 20-40 sm dan iborat 5 ta madaniy qatlam aniqlandi. Ular o'rta qalinlikdagi 60-70 sm dan iborat tabiiy qatlamdan bilan ajratilgan. Bu erda ajdodlarimiz o'z makonlarini 5 marotaba uzoq vaqt mobaynida tark etib yashaganlar. Madaniy qatlamlardan toshdan yasalgan mehnat qurollari: qo'l cho'qmori, to'mtoq boltalar, pichoqsimon qurollar, ko'plab tishli qurollar, qush tumshug'iga o'xshash qurollar qazib olingan. Beshinchi qatlamdan ashel davriga mansub qo'l cho'qmori topildi. U ajdodlarimiz ishlatgan ilk quroldir. U nayzasimon shaklga ega bo'lib, qizil yashma toshdan tayyorlangan. Uning faqat bir tomoniga tosh bolg'alar bilan bir necha uchindilar uchirib ishlov berilgan. Uning yon tomonida yirik uchindilar olinganligining izlari saqlanib qolgan. Mayda uchindilar izlari ko'rinmaydi. Qurolning xuddi shu jihatlarini uning eng qadimiy qurol ekanligini tasdiqlaydi. Ilgarigi davrlarda xuddi shu tarzda ishlangan qurollarni, ya'ni bir tomoniga ishlov berilgan qurollarni shell davriga, ikki tomoniga ishlov berilganlarni ashel davri oid deb xisoblaganlar. Lekin keyingi davrlarda ilk paleolitni olduvay va ashel davrlariga bo'linishini inobatga olib, mazkur chopqini ham ashel davri oid deb O'.Islomov ko'rsatadi.

Selungur makonining 4 qatlamidan og'ir va to'mtoq tosh bolta topilgan. U xam ishlanish jixatidan ancha primitiv bo'lib, undan ajdodlarimiz uzoq vaqt foydalanganliklari izlari ham saqlanib qolgan.

Makonning eng muxim topilmalari bo'lgan odam suyaklari 3 va 2 qatlamdan topilgan. U erdan odamning elka suyagining bir bo'laki, bosh suyagi engak qismining bir bo'laki, 14 ta tish topilgan. Antropologlar ularni tadqiq qilib, ashel davrida yashagan arxantropolar deb topdilar. Selungur odamining yashash davri va uning tuzilishi to'g'risida munozaralar hali tugagan emas. Bu erda topilgan tishlar 4ta shaxsga mansubligi aniqlangan. Shulardan biri pastki tish bo'lib, 40 yoshlardagi ayolniki degan fikrga kelingan. Topilgan tishlarning birortasida ham karies alomatlari sezilmagan. Mazkur tishlarining taxili xali to'liq yakunlangan emas. Ularning yakuni Selungur odami to'g'risida to'liq tassavur bera oladi, hozirda antropologiya fani shu qadar yutuqlarni qo'lga kiritganki, bitta tish orqali odam to'g'risida batafsil ma'lumot bera oladi (yoshi, jinsi,bo'yi, farzandlari sonini xam aniqlaydi).

Selungur odami o'ziga xos tuzilishga ega, tadqiqotlar natijasiga ko'ra u arxantrop va poleantrop o'rtasida oraliq masofani egallaydi. Unda arxaik tuzilishning saqlanishi olimlar fikricha, dag'al o'simliklar bilan oziqlanganligidir. Antropolog A.Zubov fikricha esa, u arxantropning maxalliy turidir. Bu bilan u arxantropning tarqalish doirasi nihoyatda keng va maxalliy turlari xam ko'p bo'lganligini isbotlashga intilgan. Olimlar uning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish uchun unga Ferganatrop deb nom berdilar. Mazkur odam olovdan foydalangan, ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan. Ferganatropning topilishi O'rta Osiyoning ilk paleolit davrida o'zlashtirilganligini ko'rsatdi.

Selungur makonining yoshini aniqlashda ham ilgari olimlar uni bundan 800-ming yillar oldin yashagan degan umumiy xulosani bergan edilar. Lekin keyingi davrlarda arxeolog O'.Islomovning olib borgan tadqiqotlari va bu ishga ko'pgina soha mutaxassislarini jalb qilishi natijasida makonning yoshini 1,2 mln yil deb ko'rsatadi. Bu to'g'risida O'.Islomovning "Farg'onaning ibtidoiy tarixi" maqolasida keng to'xtalib o'tilgan.

Ko'lbuloq makoni. Ilk paleolit davriga oid yana bir makon Ko'lbuloq sanaladi. U Angren shahridan 10-12 km g'arbda Ohangaron daryosining o'ng irmoqlaridan biri Qizilolma soyining o'rta oqimidagi qirlikda joylashgan. Bu makon 1963 yilda topilgan bo'lib, o'sha yildan beri bu erda muttasil izlanish ishlari olib borilmoqda.

Ko'lbuloq ochiq tarzdagi ko'p qatlamli makon. Hozirgacha 19 m chuqurlikkacha qazib, ashel, muste va so'ngi paleolit davriga oid ashyolar topilib, o'rganildi. Uning yuqori qatlamlari so'nggi tosh va o'rta tosh davri bo'lsa, quyi qatlamlarida ilk tosh davri mehnat qurollari topilgan. Ular chaqmoqtosh va slanetsli chaqmoqtoshdan yasalgan qo'pol tosh qurollaridir. Nukleuslar paraqalari, qo'l cho'qmorlari, sodda tosh qirg'ichlar topilgan bo'lib, ularning ishlanish texnikasi ham o'ziga xosdir. Shuningdek, bu erdan kul, ko'mir qoldiqlari va xar xil hayvon suyaklari topilgan. 2001-2002 yillar mobaynida Ko'lbuloq makonida qayta tadqiqot ishlari olib borilib, u erdan so'nggi paleolit davriga oid yangi qatlamlar ochilib, u erlardan retushlangan mexnat qurollari, skrepli, diskovoy, yarim aylana, oval, prizma shaklidagi nukleuslar topilgan. Ko'lbuloqda istiqomat qilgan odamlar ovchilik, termachilik bilan hayot kechirganlar.

Uchtut-Ijond-Vaush makonlari Navoiy viloyati Navoiy tumani Olchin qishlog'i yonida-Qoratog'ning janubiy qiyaligida joylashgan. Ilk tosh davriga oid ochiq manzilgoh va chaqmoqtosh xom ashyosi qazib olinadigan ob'ekt bo'lgan. U erdan ashel-muste davriga oid tosh qurollari topilgan. Ashel davriga oid qo'pol cho'qmorlar, nukleuslar, uchrindi va boshqa qurollar topilgan.

O'rta paleolit davri yodgorligi O'zbekistonda dastlab 1938 yilda Teshiktoshda topilgan. Hozirgi kunda esa O'rta Osiyo hududi bo'yicha ularning soni 300 dan ortgan. Ulardan 50 dan ortik makon keng o'rganilgan. Lekin hozirgacha Teshiktosh makoni o'zining qadimiyligi va arxeologik materiallarga boyligi bilan hamon ajralib turadi.

Muste bosqichi tosh davrining boshka davrlariga nisbatan keng o'rganilgan. Bu davrga oid makonlarning tadqiq qilinishi o'rta paleolit davri xo'jalik madaniy hayotining barcha tomonlarini yoritdi. Bu davr O'.Islomov, K.Kraxmal, A.Okladnikov, V.Ranov, M.Qosimov, R.Sulaymonov, T.Mirsoatov, N.Toshkenboev, M.Jungorov, Z.Abramova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekistonda keyingi davrlarda muste davriga oid ko'plab makonlar topib tadqiq qilingan. Faqatgina Toshkent voxasining o'zidan 30dan ortiq yodgorlik topilgan. Lekin muste davrining ko'pgina topilmalari tuproq qatlamlarida sochilma holda topilgan. Chunki adir va tekisliklardagi manzilgohning keyingi davrlarda buzilib ketishi natijasida madaniy qatlamlar yo'qolgan yoki tabiat ta'sirida yuvilib ketgan. Moddiy buyumlar esa tuproq qatlami tashqarisida topilgan va arxeologlar tomonidan qayd qilingan. Muste davri yodgorliklarining to'liq madaniy qatlamlari ko'proq g'or-makonlarda saqlanib qolgan. Ular Zarafshon voxasi va Qizilqum xududlaridan xam ko'plab topib tadqiq qilingan. Boysun tog'i mintaqasidan Teshiktosh g'or-makoni, Amir Temur g'ori, Toshkent vohasidan Obiraxmat, Xo'jakent, Bo'zsuv, Ko'lbuloq g'or-makonlari, Farg'ona vodiysidan Jarqo'ton, Bo'ribuloq, Tomchisuv manzilgohlari, Zarafshon voxasidan Omonqo'ton, Go'rdara, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Takalisoy g'or makonlari, shuningdek Uchtut-Vaush-Ijond va Qopchig'oy ustaxonalaridir.

Teshiktosh g'or-makoni o'rta paleolit davrini o'rganishda muhim o'rin egallaydi. Bir tomondan, neandertal odam topilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan murdaga qizil oxra sepib, tog' echkisi shoxlari bilan o'rab qabrga ko'mishlari ajdodlarimizda e'tiqod paydo bo'lganligini ko'rsatdi. Uchinchidan nemis fashistlarining oliy irq g'oyasini chippakka chiqardi. Germaniyada XX asrning 30 yillarida hokimiyatni egallagan A.Gitler va uning tarafdorlari er yuzidagi barcha xalqlar Neandertal odamlaridan tarqalgan-u, faqat nemis millati toza qonli oliy irqqa mansub deb hisoblab, ajdodlarini ariylar bilan bog'laganlar. Ariylarning kelib chiqish joylarini O'rta Osiyo deb hisoblaganlar, chunki O'rta Osiyodan neandertal tipidagi odam xali topilmagan edi. 1938 yilda esa Teshiktosh odamining O'zbekiston xududidan topilishi bu g'ayri ilmiy g'oyani rad qildi.

Teshiktosh g'or makoni nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyoda muste davrining eng nodir namunasi hisoblanadi. U Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi

Boysun tog'ining janubiy yon bag'ridagi Turgandaryoning Zavtalashgan darasida, dengiz sathidan 1500 m balandlikda joylashgan. G'or shimoliy-sharqqa qaragan bo'lib, kengligi old qismida 20 m, chuqurligi 21 m, balandligi 9 m. bo'lgan. G'or 1938–1939 yillarda A.P.Okladnikov tomonidan tekshirilgan va tadqiqotlari natijasini 1939–1949 yillarda nashr qildirgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida g'orda 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Ulardan toshdan yasalgan mehnat quollaridan 339 tasi, 2520 ta singan, uchrindi tosh quollar, 101 ta turli shakldagi nukleuslar topilgan. Shu jumladan, o'tkir uchli paykonlar, tosh pichoqlar, paraqalar, sixcha, qirg'ich, kurakcha, chopper, chopqi va hako'zolar. Teshiktoshdan topilgan mehnat quollarning aksariyati qirquvchi va tarashlovchi vazifalarni bajargan. Bu erdan yana faqat neandertal odamiga xos rapidasimon nukleuslardan (o'zaklar) bir necha nusxa topilgan. Ularning diametri 10–15smni tashkil etgan. Bu kabi o'zaklardan neandertallar tosh bolg'alar yordamida uchburchaksimon uchrindilar uchirib olganlar. Uchrindilar o'tkir uchli bo'lganligi sababli ulardan terilarga ishlov berish, yog'ochlarni kesish, randalash kabi ishlarda foydalanganlar. Bunday mehnat quollar eng ko'p Teshiktoshdan topilgan. Teshiktosh g'orining eng qimmatli topilmasi yuqorida qayd qilib o'tilgandek, neandertal odamning suyak qoldiqlarining topilishidir. U eng pastki madaniy qatlamdan topilgan. Bular kalla suyagi, elka va yo'g'on o'ng son suyagining parchalari, ikkala kichik boldir suyagi hamda umurtqa pog'onasining ba'zi qismlaridir. Bu voqea o'z vaqtida antropologlarda juda katta qiziqish uyg'otdi. Antropologlar xulosasiga ko'ra, neandertalning bosh suyagining hajmi 1490 sm kub bo'lgan. Neandertal bola suyagining o'rganilishi 1970 yilgacha davom etdi. Taniqli antropolog olim akademik V.A.Alekseev antropologiyaning keyingi davr yutuqlariga tayanib, Teshiktosh odamini qayta o'rgandi va uning 10 yashar bola emas, balki ayol kishi ekanligini, Evropa va old Osiyo guruhiga kirishini ko'rsatdi.

G'ordan gulxan izlari, uning atrofida tog' echkisi, bug'u, yovvoyi ot, ayiq, sirtlon (giena), leopard, bars, quyon, kemiruvchilar va parrandalarning suyak qoldiqlari topilgan. Teshiktoshliklar ovchilik bilan birga termachilik bilan shug'ullanishgan.

Teshiktosh materiallari muste davri madaniyatining rivojlanishini aniqlash imkoniyatini berdi. G'or–makon rivojlangan muste davriga oid bo'lib (Levallua–muste) uning so'nggi paleolit davriga o'tish evolyusiyasini kuzatish mumkin.

Amur Temur g'ori Boysun tog'i mintaqasidan muste davriga oid makon sanaladi. U Teshiktoshdan uncha uzoqda bo'lmagan erda joylashgan. Yodgorlik 1939 yilda A.P.Okladnikov tomonidan o'rganilgan. U erdan 3 ta madaniy qatlam topilgan. 1–2– madaniy qatlamlar

so'ngi tosh davriga oid bo'lib, faqat 3—madaniy qatlamlardan topilgan tosh qurollar Teshiktoshning yuqori qatlamidan topilgan muste davri qurollariga o'xshaydi. U erdan gulxan qoldig'i, pista ko'mir, qo'pol ishlangan qirg'ich, gardishsimon nukleus, siniq uchrindi va boshqa buyumlar topilgan. Shuningdek, yovvoyi ot, bars, ayiq, sirtlon, quyon, kemiruvchi va qushlarning suyaklari topilgan. G'orda yashagan kishilar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar. A.P.Okladnikov fikricha, bu makon mavsumiy xarakterda bo'lgan va tosh qurollarini ishlab chiqarish ham Teshiktoshga nisbatan ancha farq qilib, ular birmuncha takomillashgan.

Obirahmat g'or makoni Toshkent shahridan 100 km shimoli-sharqda, G'ariy Tyan-Shanning Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori sohilida joylashgan. G'or yoysimon shaklda bo'lib, eni 20 metrdan ortiqroq, janubga qaragan, sathi keng, quruq va yorug'. G'or—makon 1966–1972 yillarda R.X.Sulaymonov tomonidan o'rganilgan. U mustening rivojlangan va so'nggi bosqichlariga oid.

Unda 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Ulardan 30 mingdan ortiq ohaktoshli chaqmoqtoshdan yasalgan turli mehnat qurollari— nukleuslar, paraqalar, o'tkir uchli sixchalar, qirg'ichlar, pichoqlar va kurrakchalar topilgan. Ular o'ziga xos prizma shaklidagi yorma texnika, qisman levallua tipidagi texnika asosida ishlangan. G'ordan hayvon suyagidan ishlangan bigizlar ham topilgan. Shuningdek, gulxan izlari, kul, ko'mir, bug'u, tog' echkisi, to'ng'iz, jayron, g'or sheri, arxar va boshqa hayvonlarning suyaklari ham topilgan. Bu erda odamlar 120-40 ming yil muqaddam istiqomat qilganligi aniqlangan. Ular ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar. Keyingi yillarda Obirahmatni arxaik jihatdan o'rganish ishi qayta tiklandi. Uning yuqori qatlamlari tosh qurollari ichida yuqori paleolit davri materiallari mavjudligi aniqlandi. Arxeologlar Obirahmat yodgorligining yuqori qatlamlarini 46-50 ming yilliklar bog'lab uni ilk yuqori paleolit yodgorliklari sirasiga kiritmoqdalar. Demak, ibtidoiy odamlar g'orda uzoq davr iste'qomat qilishgan.

Xo'jakent manzilgohi Toshkent voxasidagi muste davriga oid g'or turidagi yodgorliklaridan biri bo'lib, Toshkent shahridan 80 km shimoliy-sharqda Xo'jakent qishlog'i yaqinida joylashgan. Xo'jakent g'ori Chirchiq daryosining chap sohilidagi qoyatoshlar bag'rida bo'lib, dengiz sathidan 1200-1700 m balandlikdadir. G'or shimoli-g'arbga qaragan, balandligi 2,5 m, kengligi 6 m, chuqurligi 4m. Makonni 1958–1959 yillarda A.P.Okladnikov va X.Nasriddinovlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Uning madaniy qatlami g'orning ayrim joylaridagina saqlanib qolgan. Tadqiqot jarayonida makondan 524 ta tosh qurollar topilgan. Shulardan paraqalar 88 ta, nukleuslar 49 ta, qolganlari tosh uchirmalari va siniqlaridir. Topilgan

qurollar levallua—muste madaniyatiga xos bo‘lib, Obirahmat va Teshiktosh makonlaridagi mehnat qurollariga o‘xshashdir.

Ko‘lbuloq makoni. Angren shahridan 10-12 km g‘arbda joylashgan Oblik qishlog‘idan 5 km shimoliy-g‘arbda, Oxangaron daryosining o‘ng irmoqlaridan biri-Qizil olma soyining o‘rta oqimidagi qirlikda joylashgan.

Ko‘lbuloq manzilgohi ko‘p qatlamli bo‘lib, ilk, o‘rta va so‘nggi paleolit davriga oid qatlamlari aniqlangan (49 qatlam). Uning 4-8 qatlamlarigina muste davriga oiddir. Bu davr uchun 5 ta madaniy qatlam bo‘lishi, odamlarning uzoq vaqt davomida yashaganligini ko‘rsatadi. Undan 8300 dan ortiq tosh qurollari va buyumlari topilgan. Ular orasida xar xil shakldagi nukleuslar, siniq uchrindilar, qirg‘ichlar, qo‘l cho‘qmorlari va boshqalar. Ko‘lbuloqdan topilgan mehnat qurollari son va sifat jihatdan Toshkent vohasining boshqa joylaridan topilgan manzilgohlaridan farq qiladi. Ba‘zilarigina, ayniqsa, tishli qirg‘ichlar Bo‘zsuvdagi muste davri qurollariga o‘xshash.

Ko‘lbuloq madaniy qatlamlaridan tog‘ echkisi, ayiq, arxar va boshqa hayvonlarning suyak parchalari, kul va gulxan qoldiqlari topilgan.

Toshkent voxasidan Zog‘ariq, Bo‘zsuv, Ko‘hisim mazilgohlari va Qorqamish topilmalari jami 30 dan ortiq makon qayd qilingan. Bu ayniqsa Toshkent shahrining 2000 yilligi munosabati bilan keng arxeologik qidiriv ishlari bajarildi. Bu erlarda arxeologik tadqiqot ishlari hozirda xam davom etmoqda.

Muste davri yodgorliklari Farg‘ona vodiysida xam keng tarqalgan. Ularni tadqiq qilishda A.P.Okladnikov, P.T.Konoplya, M.R.Qosimov, O‘.I.Islomov, V.A.Ranov, Yu.A.Zadneprovskiylarning xizmatlari kattadir.

1954 yilda P.T.Konoplya Sharqiy Farg‘onada birinchi marta paleolit qurollarini topdi. Shu yili A.P.Okladnikov G‘arbiy Farg‘onada tadqiqot ishlarini olib borib Qayroqqum manzilgohlarini aniqladi va tadqiqot ishlarini 1961 yillragacha davom qildirdi. Olim Qayroqqum dalasining 31 punktidan tosh qurollarini topdi. Ayniqsa, Buluqchab va Sho‘rko‘l punktlari topilmalari diqqatga sazovordir. Bu joylardan ko‘plab tosh o‘zaklar, sixchalar, tosh siniqlari topildi. Topilmalar shuni ko‘rsatdiki, neandertal odamlar Sirdaryoning qadimgi irmoqlar bo‘ylab, bir necha joylarda o‘z manzilgohlarini qurganlar va ovchilik, terimchilik bilan shug‘ullanganlar.

Jarqo‘ton makoni Farg‘onaning sharqiy rayonida topilgan. U Shahrustonsoy daryosining chap qirg‘og‘ida joylashgan. Manzilgoh 1961– 1963 yillarda V.A.Ranov tomonidan o‘rganilgan. Yodgorlikdan 670 ta tosh buyum yig‘ib olingan. Shulardan 25 tasi nukleuslar, 25 tasi qurollar bo‘lgan. Qurollar ichida tosh sixcha, nayza tig‘lari, pichoqsimon tosh qurollar mavjud.

Nukleuslarga ishlov berish va qurol yashash uslubi Xo‘jakent makonidagiga o‘xshaydi. Tosh qurollar yashash madaniyati levallua–muste davri an‘anasiga oiddir.

Farg‘ona vodiysidan M.R.Qosimov, P.T.Konoplya muste davriga oid bir necha manzilgohlar topganlar. Ularning ko‘pchiligining madaniy qatlamlari saqlanib qolmagan, chunki ular adir va soylar bo‘ylaridagi ovchilarning mavsumiy karorgohlari bo‘lgan. U erlardan topilgan tosh buyumlar levallua–muste davriga oid bo‘lgan.

O‘zbekiston xududida o‘rta paleolit davrini o‘rganishda Zarafshon vohasi alohida o‘rinni egallaydi, chunki bu xudud arxeologlar tomonidan bir necha makonlar topib, keng o‘rganilgan. Bu xududda Samarqand Davlat universitetining arxeologlari, O‘zFA Arxeologiya instituti xodimlari tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Omonqo‘ton g‘or makoni–Samarqand viloyati Urgut rayonining Omonqo‘ton qishlog‘i yaqinida, Samarqanddan 43-44 km janubda joylashgan. G‘or dengiz sathidan 1400 m balandlikda joylashgan. Uning koridorsimon uzunligi 29m, balandligi 2,6m. Makon 1947 yilda D.N.Lev xabarligidagi SamDU ekspeditsiyasi tomonidan topildi va 1957 yillargacha tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotlar jarayonida qalinligi 25smdan 1,5 mgacha bo‘lgan madaniy qatlam aniqlanib, undan 220 ta tosh buyumlar topildi. Ularning asosiy qismi chaqmoqtoshdan yasalgan. 30 ga yaqin tirli xildagi nukleuslar bo‘lib, ular orasida gardishsimon va prizma shaklidagi nukleuslar xam bor. Paraqalar levallua–muste texnika madaniyatini eslatadi. kertish texnikasi asosida toshning ikkala tomoniga ham ishlov berish natijasida qurol tig‘lari arrasimon va to‘lqinsimon bo‘lib chiqqan. Bu erda bargsimon paraqalar xam bor. Bunday qurol namunalari Ko‘turbuloq va Zirabuloq makonlaridan xam topilgan.

Omonqo‘ton g‘oridan xayvonlarning suyak qoldiqlari ham topilgan. Arxeolog D.N.Levning tadqiqoticha, makon ilk va rivojlangan muste davriga oiddir.

Takalisoy g‘ori – Omonqo‘ton g‘origa yaqin joylashgan muste davri yodgorligidir. Uni 1952 yilda D.N.Lev tadqiq qilgan. Bu erdan chaqmoqtosh siniqlari, uchurchaksimon uzun paraqa, kertish usulida ishlangan pichoqsimon qurol, gulxan izlari va hayvon suyaklari topilgan. Toshning ishlanish texnikasi asosida uni D.N.Lev mustening so‘nggi bosqichiga oid deb ko‘rsatadi, chunki bu erdan topilgan paraqalar va otsheplar gardishsimon va prizmaga o‘xshash nukleuslardan ajratib olingan. Bu makonda neandertal odamlar vaqtincha yashaganlar.

Takalisoy makonidan topilgan ashyolar Qo‘turbuloq makonidan topilgan ashyolarga o‘xshash bo‘lib, bu neandertal odamlarning Zarafshon voxasida muste davri boshidan to oxirgi bosqichigacha uzluksiz yashaganlaridan darak beradi.

Qo'tirbuloq va Zirabuloq makonlari Zarafshon daryosining o'rta oqimida joylashgan bulib, ularni o'rganish katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan. **Qo'tirbuloq makoni**- ochiq joydagi qarorgoh xisoblanadi. Uning topilishi neandertal odamning g'orlardan chiqib, o'ziga sun'iy boshpana qura olishi va dasht mintaqalarida yashashga o'tganligini ko'rsatdi. Makon Samarqand shaxridan 100 km g'arbda, Qattaqo'rg'on tumanidagi Charxin qishlog'i yaqinidagi Zirabuloq tog'ining shimoliy yon bag'ridagi Qo'tirbuloq deb nomlangan buloq atrofidan topilgan. Uni dastlab Yu.F.Buryakov rahbarligidagi O'rta Zarafshon ekspeditsiyasi tomonidan 1971 yilda ro'yxatga olingan. Keyinchalik uni N.Toshkentboev o'rgangan. Bu erdan 5 madaniy qatlam topilgan. Ulardan 10mingdan ko'proq tosh buyumlar topilgan. Bu topilmalar asosan chashma yonidan topilgan. Shuningdek, tosh qurollari va chiqindilar yonida gulxan izlari xam topilgan. Bu tosh qurol yasashda ibtidoiy odamlarning olovdan foydalanganligini ko'rsatadi. Shuningdek bu erdan turli ov qurollari palaxmon toshi va nayzalar xam topilgan.

Qo'tirbuloq makonidan topilgan qurollarning ishlanish texnikasi Obiraxmat va Teshiktosh madaniyatiga o'xshaydi. Shuni inobatga olib, olimlar uni xam rivojlangan muste davriga oid deb hisoblaydilar. Lekin bu makonda qurol yasashda kertish texnikasida qurollarning o'tkirlanishi bir tekisda emasligi bilan boshqa madaniyatlardan farq qiladi.

Arxeologlar Zirabuloq tog' tizmasining shimoliy etaklaridan va Zarafshon daryosining o'ng qirg'oqlaridan ibtidoiy kishilarning bir necha qarorgohlarini ham ruysatga oldilar. Bularning madaniyati ham Qo'tirbuloq madaniyatiga o'xshash bo'lib, ularning ko'pchiligida madaniy qatlam yaxshi saqlanmagan. Ular orasida Zirabuloq makoni alohida o'rinni egallaydi.

Zirabuloq makoni-Qo'tirbuloqdan 1 km sharqda joylashgan. U ham 1971 yilda ro'yxatga olinib, tadqiqot ishlari 1978 yillargacha arxeolog M.Jo'raqulov tomonidan olib borildi. Bu erdan Qo'tirbuloq makonidan topilgan tosh buyumlarga o'xshash buyumlar topildi. Bundan arxeologlar bir-biriga yaqin qo'shni bo'lgan ibtidoiy odamlar yashagan degan xulosaga keldilar. Lekin bu erdan sunggi muste davriga oid tosh qurollari xam topilgan.

Go'rdara g'or makoni- Samarqand viloyati Urgut rayoni Zarafshon tog' tizmasining shimoliy yon bag'rida Go'rdara soyi yaqinida topilgan. Uni 1966 yilda A.Asqarov raxbarligidagi arxeologik otryad ro'yxatga olgan va keyinchalik N.Toshkentboev tomonidan tadqiq qilingan. Bu erdan gardish shaklidagi tosh siniqlari va qirg'ich topilgan. Uning tosh buyumlari Qo'tirbuloq makonining yuqori qatlamidan chiqqan tosh buyumlari o'xshaydi. Lekin bu erda hali tadqiqot ishlari oxiriga etkazilmagan.

Ibtidoiy odamlar hayotida tosh mehnat qurollari muxim o'rinni egallagan. Shu sababli mexnat quroli uchun yaroqli tosh xom ashyolarini topish ular uchun juda muxim bo'lgan. Ilk

paleolit davrida odamlar qayroq toshlardan foydalanishgan bo'lsa, uning so'nggi bosqichlarga kelib chaqmoqtoshning afzalliklarini bilib olishgan. Chaqmoqtosh tabiatda keng tarqalgani bilan birga unga ishlov berish va o'tkir qirra xosil qilish oson bo'lgan. Ibtidoiy odamlar o'rta paleolit davriga kelganda chaqmoqtosh konlarini topib, u erlarda tosh ustaxonalarini tashkil qilganlar. Shuningdek ibtidoiy odamlar ochiq xavoda yotgan chaqmoqtoshdan ko'ra, uzoq yillar davomida nam tortgan chaqmoqtoshga ishlov berish osonligini xam payqab, chaqmoqtosh konlarini toshgan intilganlar. Bunday ustaxonalar nafaqat O'zbekiston xududida, balki Kavkaz, Belorussiya, Boshqirdston, Volga bo'ylari, Ukraina va Sibirdan xam topilgan. Bunday tosh ustaxonalarini tadqiq qilish olimlarga o'sha davr moddiy buyumlarini tadqiq qilishningina emas, balki tosh konlar qabilalar urtasida madaniy va iqtisodiy aloqa vositasi sifatida xam katta o'rin egallaganini aniqlash imkonini berdi. Ibtidoiy odamlar tosh hom-ashyosini o'zaro iqtisodiy ayirboshlashda va qurol yasash tajribalarini almashinishda foydalanganlar.

Bu o'rinda muste davriga oid Qopchig'oy, Qorator, Ohangaron ustaxonalari qiziqarlidir. Ularni 1951 – 1965 yillarda Arxeologiya institutining Ya.G'.G'ulomov xabarligidagi arxeologik otryadi tomonidan o'rganilgan.

Qopchig'ay ustaxonasi- Farg'ona shaxridan 40 km janubda, Oloy tog'ining shimoliy yonbag'ridagi Dangi darasining ichkari qismidagi Qopchig'oy degan joydan topilgan. U ochiq joydagi chaqmoqtosh koni xisoblanadi. U erdan topilgan tosh qurollar va chiqindilarga asoslanib tadqiqotlar uni muste davridan boshlab odamlar o'zlashtirganligini ta'kidlaydilar. Bu ustaxonada A.P.Okladnikov, M.R.Qosimov xam tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Paleolit davri oid tosh ustaxonalari Navoiy viloyati Navoiy tumanida **Uchtut, Ijond va Vaush** degan joylaridan topilgan.

Uchtut yodgorligi Uchtut qishlog'i yaqinida joylashgan. Yodgorlik 1958 yili arxeolog X.Muhammedov tomonidan topilgan. Keyingi yillarda uni T.Mirsoatov keng ko'lamda o'rgandi. Bu yodgorlik tosh davrining turli davrlariga oid bo'lib, asosan neolit davri topilmalari yig'ib olingan. Neolit davri bu erda shaxta usubida tosh qazib olganlar.

Tosh ustaxonalari Zarafshonning qadimgi irmoqlari, Oxargaron daryosi bo'ylarida ham mavjudligi qayd qilingan. Ular arxeolog T.Mirsoatov tomonidan o'rganilgan.

Chaqmoqtosh konlari va ustaxonalarini keng tadqiq qilish ibtidoiy madaniyati tarixni o'rganshda muxim manba sanaladi.

Yuqori paleolit davriga oid yodgorliklar kam topilganinga qaramasdan, ulardagi madaniy qatlamlarning yaxshi saqlanishi yuqori paleolit davri taraqqiyotining o'ziga xos tomonlari ochishga imkon berdi. Hozirgi kunda O'rta Osiyoda yuqori paleolit davriga oid 30

ortiq yodgorlik topib o'rganilgan bo'lsa, shulardan 10 tasi O'zbekistondan topilgan. Ulardan Zarafshon voxasida topilgan Samarqand, Siyobcha, Xo'jamazgomanonomanonil makonlari yaxshi o'rganilgan. Ko'lbuloq Bo'zsuv, Takalisoy, Tuyabo'g'iz makonlaridan ham yuqori paleolit davri izlari topilgan.

Samarqand makoni — Yuqori paleolit davrining eng noyob yodgorligi xisoblanadi. U 1939 yilda geolog N.G.Xarlamov tomonidan Samarqand shahridagi qadimgi Siyobcha soyi yoqasidan topildi. Unda I.D. Lev va I.Jo'raqulovlar 1969 yildan 1972 yilga qadar tadqiqot ishlari olib bordilar. 2002 yilda SamDU arxeologiya kafedrası ilmiy xodimlari tomonidan tadqiqot ishlari yana davom qildirildi. Bu makon arxeologlar orasida Komsomol ko'li makoni nomi bilan mashhurdir. Uning madaniy qatlamidan 7,5 mingga yaqin tosh qurollar topilgan. Ularning aksariyati chaqmoqtosh, kalsedon, diorit, amfibolit, rogovik kabi tosh jinslaridan yasalgan. Bunda tog' jinslari makondan 7-8 km shimolda joylashgan Cho'pon ota qoyalarida uchraydi, ehtimol odamlarning tosh qurollar yasashda ulardan foydalanishgan. Makondan xilma xil qurollar topilgan; qirg'ichlar, keskichlar, sixlar, pichoqchalar, gardishsimon nukleuslar, uchrindilar, ushatgichlar, boltalar, yupqa paraqalar va boshqalar. Bular orasida hayvon terilarini ishlash uchun mo'ljallangan qirg'ichlar, teshgichlar, suyakdan yasalgan mehnat qurollari diqqatga sazovordir. Tosh boltalar va yo'ng'ichlar makon uchun o'ziga xos ravishda ishlangan. 2002 yilda G.F.Korobkova makondan topilgan tosh qurollarini yangi metodika asosida qayta o'rgandi va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqladi. Jumladan, o'zaklardan ajratib olingan tosh paraqalardan turli qurollar sifatida foydalanilgan. Tosh qurollarga dag'al kertish usuli bilan ishlov berilgan. Shuningdek, tosh qurollar ko'pincha tosh parchalari va uchrindilardan yasalgan. Tosh qurollarning so'nggi paleolit davri qurollariga nisbatan qo'polroq ishlanishi uning so'nggi paleolitning ilk bosqichiga oidligini ko'rsatadi. Tosh va suyakdan sanchqi yasaganlar. Bu odamlarning baliqchilik bilan shug'ullanganliklarini ko'rsatadi. Makonning madaniy qatlamlaridan gulxan qoldig'i, kul, hayvon suyaklari va o'simlik qoldiqlari topilgan. Ot, tuya, bug'u, qulon kabi hayvonlarning suyaklari topilgan. U erda chayla izlari ham topilgan. U soy bo'yida bo'lib, maydoni 100 kv m, to'g'ri burchak shaklida qurilgan. Uning o'rnida gulxan qoldig'i, tosh qurollar tayyorlaydigan, chayla ustunlari qoldiqlari topilgan. Samarqand makonini olimlar tadqiq qilib, uning 30-35 ming yilliklarga oidligini aniqladilar. U erdan Kromonon qiyofasidagi odamlarning suyak qoldiqlari topildi. 3 m 20 sm chuqurlikda odamning pastki jag' suyagi va 9 ta tish, qo'l suyagining qoldiqlari topildi. Antropologlar uning 25 yoshli ayolga tegishli ekanligini

aniqladilar. Shuningdek, 35 yoshli ayolga tegishli 10 ta tish, pastki jag‘ suyagi va yosh bolaning oziq tishi, pastki jag‘ suyagi ham topilgan.

Samarqand makonidan ibtidoiy odam tomonidan 5 ta maxsus belgi chizilgan hayvon qovurg‘asi qoldig‘i, maxsus teshikli dengiz chig‘anog‘i topilgan. Dengiz chig‘anog‘i zebziynat bo‘lib, Hind okeani, Qizil dengiz va Fors qo‘ltig‘i hududlarida uchraydi. Chig‘anoqning topilishi O‘rta Osiyo qabilalari bilan Hind okeani sohillaridagi qabilalar o‘rtasida aloqa bo‘lganligi va bu chig‘anoqlar Samarqand hududiga mahsulot ayirboshlash natijasida kelib qolganligini ko‘rsatadi. Makondan 20 ga yaqin tuxumsimon danakcha topilgan, ularning har birida kichkina teshikchalar bo‘lgan. Mutaxassislarning fikricha, mazkur danaklar ayollar taqinchog‘i bo‘lgan. Shuningdek, bir xil kattalikdagi dumaloq 2 ta yupqa oq qayroq tosh topilgan. U soch va bo‘yinga osadigan qayroq tosh bo‘lishi mumkin. Qadimgi odamning tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rtasi ishqalangan, atrofi ingichka chiziqlar bilan chizilgan dumaloq qayroq tosh ham topilgan. Umuman Samarqand makoni yuqori paleolitga oid qimmatbaho ma’lumotlar beradi.

Siyobcha qarorgohi – Samarqand shaxrining markaziy qismidan oqib o‘tadigan Siyobcha daryosining Chashmasiyob suvi quyilishi joyida joylashgan. Qarorgoh 1969 yilda U.Olimov tomonidan topilgan. Tadqiqot ishlarini esa, N.X.Toshkentboev olib borgan. Qazilmalarning ayrimlarida madaniy qatlam yaxshi saqlanmagan. Topilmalar orasida tosh o‘zaklar, qirg‘ichlar, teshuvchi qurollar, paraqalardan ishlangan qurollar asosiy o‘rinni egallaydi. Topilmalar Samarqand makoniga nisbatan qadimiyroqdir.

Xo‘jamazgil qarorgohi-Samarqand shaxridan 35 km g‘arbiy–sharq tomonda Turkiston tog‘ tizmasining g‘arbiy etaklarida joylashgan Xo‘jamazgil degan joydan topilgan. Yodgorlikni 1969 yilda arxeolog N.X.Toshkentboev tadqiq qilgan. Tadqiqot davomida makondan 200 dan ortiq tosh buyumlar yig‘ib olingan. Topilmalar ichida gardishsimon tosh o‘zaklar, paraqadan yasalgan pichoqsimon qurollar, qirg‘ichlar, randalar, tosh siniqlari topilgan. U erda qizil kesak (oxra) qoldiqlari va gulxan izlari xam topilgan. Qarorgohning moddiy qoldiqlari Samarqand makoni qoldiqlariga o‘xshaydi. Ikkala makonda xam qurollarni ishlash uslubida muste davri uslubi saqlanib qolgan.

Ko‘lbuloq makoni – Tosh davriga oid ko‘p qatlamli yodgorlik bo‘lib, uning 1,2,3 qatlamlaridan yuqori paleolit davriga oid gulxan, ko‘mir qoldiqlari, tosh buyumlardan – nukleuslar, qirg‘ichlar, sixchalar, tosh pichoqlar, tosh siniqlari va hayvon suyaklari topildi. Bu erdan eng ko‘p miqdorda nukleuslar topilgan, chunki ibtidoiy odamlar nukleuslarni ajratib olishining yangi texnikasini kashf etganlar. Ilgaridagidek, paraqalarni tosh bolg‘a bilan emas, balki to shpona bilan

ajratib olganlar. Bu bilan ular xoxlagan shakldagi paraqani toshdan ajratib olish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Qo'lbuloqdan topilgan tosh qurollar o'zining ishlanishi jixatidan Samarqand, Bo'zsuv va Tuyabo'g'iz makonlaridan topilgan sunggi tosh davri qurollariga o'xshaydi. Tadqiqotchi M.R.Qosimovning ta'qidlashicha, Toshkent voxasida hali Ko'lbuloqqa ilmiy ahamiyati jihatidan teng keladigan yodgorlik topilgani yo'q.

Toshkent voxasidan so'nggi paleolit davriga oid Bo'zsuv 1, Bo'zsuv 11, Bo'zsuv VI, Tuyabo'g'iz II, III, IV, V, VI makonlari xam topib o'rganilgan. Ulardan topilgan tosh buyumlar Ko'lbuloqdan topilgan tosh buyumlariga o'xshaydi. bular asosida arxeologlar Toshkent voxasida ibtidoiy odamlar paleolit davrining barcha bosqichlarida isteqomat qilib, bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lganlar va bir xil madaniyat yaratganlar degan xulosani berishgan.

Nazorat savollari:

1. Paleolit davrida O'zbekiston hududlarinin tabiiy-geografik sharoiti va iqlimi qanday bo'lgan?
2. Paleolit-qadimgi tosh davri va uning bosqichlarini sanab bering?
3. Selungur Farona vodiysidagi eng qadimgi ajdodlar manzilgohi to'g'risida nimalar bilasiz?
4. Ilk paleolit davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi xaqida nima bilasiz?
5. Neandertal odam va uning O'zbekistondagi izlari xaqida nima bilasiz?
6. Paleolit davri mexnat qurollari xaqida nima bilasiz?
7. Toshqurollari turlari va ularning ishlanish uslublari xaqida nima bilasiz?
8. Yuqori paleolit davri odamlari hayotida yuz bergan buyuk o'zgarishlar xaqida nima bilasiz?
9. Yuqori paleolit davri yodgorliklari xaqida nima bilasiz?
10. Yuqori paleolit davri odamlarining mashuloti va mexnat quollarining takomillashuvi to'g'risida nima bilasiz?
11. Samarqand makoni va uning o'rganilishi to'g'risida nima bilasiz?
12. Ko'lbuloq manzilgohining yuqori qatlamlari to'g'risida nima bilasiz?
13. Yuqori paleolit davrining madaniy - xo'jalik ixtirolari to'g'risida nima bilasiz?

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
- 2.Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.:”Fan va texnologiya” 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон". 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. "Адолат". 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: "Вече", 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: "Университет", 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

3-modul Mezolit davri va uning o'rganilishi

4-mavzu Mezolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari. Mezolit davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.

1. Mezolit davri va uning xususiyatlari.
2. Mezolit davrining o'rganilish tarixi.
3. O'zbekistonning mezolit davri yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar:

Mezos, litos, Gyunts, Mindel, Riss, Vyurm, mikrolitlar, kamon o'qi, pistirma, pichoq, arra,

Mezolit davri va uning xususiyatlari. So'nggi paleolit davriga kelib, er yuzida muzliklarning chekinishi natijasida iqlim o'zgaradi. Bu esa o'z navbatida ibtidoiy odamlarning turmush tarzida o'zgarishlarga olib keladi. Olimlar bu davrning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, uni o'rta tosh davri, ya'ni mezolit atamasi bilan atadilar.

“Mezolit” so'zi grekcha “mezos”-o'rta, “litos”-tosh so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, miloddan avvalgi 12 ming yilliklardan 7 ming yilliklargacha davom etgan. Bu davrda muzliklar tugab, iliq iqlim davri boshlandi.

Mezolit davrida iqlimning o'zgarishi bilan hayvonot dunyosi ham o'zgardi. U deyarlik hozirgi davrga o'xshab ketgan. Qadimgi tosh davri yirik hayvonlari yo'qolib, ular o'rniga arxar, muflon, tog' echkisi, bug'u, jayron, qulon, quyon, arslon, yo'lbars, bars, qoplon va boshqalar paydo bo'lgan. O'simliklar dunyosida ham endi issiqtalab o'simliklar salmog'i oshgan. Bu esa ibtidoiy odamning turmush tarzining o'zgarishiga olib kelgan.

O'q yoyning kashf etilishi xo'jalikda ovning ahamiyatini oshirdi. Endi uzoqdan turib o'z o'ljasini nishonga olish imkoniyatiga ega bo'lgan ibtidoiy ovchilar ov hayvonlari izidan yurib, yangi-yangi erlarni o'zlashtirib bordilar. Ular ovchilikning qulay imkoniyatlarini o'zlashtirib borganlar. Bu davrda baliqchilik ham jamoada muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu sababli, mezolit davri odamlari ko'proq maydonlarni egallay boshlaganlar. Mezolit davrida O'rta Osiyoning deyarli barcha hududlari yashash uchun qulay bo'lgan. O'rta Osiyoning Amudaryo bilan Sirdaryo oraliqlarida mezolit davriga oid yodgorliklar ko'p uchraydi. Jumladan Markaziy Farg'onaning o'zida 100 dan ortiq mezolit davri yodgorliklari topilgan.

Jahon arxeologiyasida mezolit davrini 2 bosqichga: Azil va Tardenuazga bo'ladilar. Ular dastlab Fransiyadan topilgan makonlar nomlari bilan atalgan.⁷

Azil davrida tosh qurollari Madlen tipiga mansub bo'lgan, bu bilan azillarni madlenlar vorisi deb hisoblashga imkon bergan. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri mikrolit qurollarning uchrashidir (grekcha mikros-kichik). Qalamtosh tig'iga o'xshash maxsus o'tkir tosh paraqalari ko'p uchraydi. Mikrolitlarning ko'pi o'q uchi xizmatini bajargan. Ularning ko'pi tol bargiga o'xshash bo'lgan va ular tayoqlarga biriktirilgani uchun maxsus moslama bo'lgan (zug'ata).

Tardenauz makonlarida esa mikrolit juda ko'p uchraydi. Ular juda mayda bo'lib, ba'zilari 1 sm ga etar etmas bo'lgan, 2 sm lilar esa kam uchraydi. Chaqmoqtosh bo'lagini ezib, urish yo'li bilan hosil qilganlar. Mikrolitlar turli xil geometrik shaklda bo'lgan (uchburchak, trapetsiya, romb). Ularning nimalarga ishlatilganligi haqida 2 xil fikr mavjud: 1) tayoq uchidagi yoriqqa tiqilgan, o'tkir va engil kamon yasalgan. 2) suyak yoki yog'och qurollarga taqab, o'tkir tig' hosil qilingan.

Mezolit davrining o'rganilish tarixi. O'zbekiston hududida mezolit davri yodgorliklarini 3 davrga bo'linadi: ilk, o'rta va so'nggi. Bu davrlarga oid yodgorliklar quyidagi guruhlariga ajratilgan:

1. İlk mezolit davri miloddan avvalgi XI-X ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ko'shilish madaniyatida o'z aksini topgan.
2. O'rta mezolit davri miloddan avvalgi IX-VIII ming yilliklar bo'lib, Obishir madaniyatida o'z aksini topgan.
3. So'nggi mezolit davri miloddan avvalgi VII-VI ming yilliklar bo'lib, Machay madaniyatida o'z aksini topgan.

O'zbekiston mezolitini o'rganishda olimlarimiz o'ziga xos uslub ishlab chiqishgan. Uning asosida tosh buyumlar yotadi. Tosh buyumlarning miqdori va shakllariga qarab yodgorlikning qaysi madaniyatga tegishli ekanligi aniqlanadi.

Tosh davri yodgorliklari topilmalari asosan tosh paraqalardan tashkil topganligi uchun ham, ularning klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan. Bu uslub topilmaning qaysi kategoriyaga mansubligini va ularning statistik jihatdan protsentlarini aniqlashda ancha qulayliklar tug'diradi. Paraqalarni aniqlashda ularning eni, uzunligi va qalinligi hisobga olinadi va "paraqa", "paraqacha", "mikroparaqa" terminlari bilan ishlatiladi. Paraqa deb uzunligi 5 sm va undan yuqori bo'lgan,

⁷ Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

qalinligi 0,5 –1 smgacha, eni 1,4 sm tashkil qilgan tosh bo‘lagiga aytiladi. Paraqacha esa, eni 1,4gacha bo‘lgan va qalinligi 0,5 smdan oshmagan toshlarga aytiladi. mikroparaqalar esa, eni 0,7 smdan kam bo‘lmagan va qalinligi 0,2 smdan oshmagan tosh bo‘laklariga aytiladi.

O‘zbekiston mezoliti yodgorliklarida prizma, konus, pona shakllaridagi nukleuslar xosdir. Tosh paraqalari esa, asosan, bir tomonlama kертma tarzda o‘tkirlangan. Qirg‘ich qurollari deyarli tosh uchrindilardan va parchalaridan ishlangan. Shuningdek, tog‘li xududlarda nukleuslar uchun g‘amlangan toshlar ko‘pincha, chaqmoqtoshlar emas, balki daryo qayroqtoshlari bo‘lgan.

O‘rta Osiyo mezoliti industriyasini kuzatish asosida olimlarimiz ulardagi rivojlanish tomonlarini ko‘rsata bildilar va shu asosda ularni ilk, o‘rta va so‘nggi bosqichga bo‘ldilar.

Ilk mezolit davri yodgorliklarida mikrolit texnikasining endigina paydo bo‘lgan. Bunday yodgorliklarda geometrik shakldagi (segment, trapetsiya, uchburchaksimon) tosh buyumlar kam uchraydi. Mikroparaqalar ham kam. Bu davr yodgorliklarida so‘nggi paleolitga doir qirg‘ichchalar, o‘zaklar, paraqalar xosdir.

O‘rta mezolit davrida geometrik shakldagi mikrolit qurollarning turli tiplari paydo bo‘ladi. Lekin ular xali deyarli yirik va qalinroq bo‘ladi. Bu tarzda mikroparaqalarning soni ancha ko‘payadi va ularning keskich qirralari ancha o‘tmaslangan holda bo‘ladi. Qirg‘ichchalarning har xil shakldagilari vujudga keladi. Bunday qurollar ko‘pincha tosh siniqlarining qirra tomonlariga va paraqalarning uchqir tomonlariga tig‘ chiqarish usuli bilan yasalgan, ularning hajmlari ancha kichiklashtirilib, takomillashtirilgan. O‘zaklardan pichoqsimon uchirma ajratib olish texnikasi vujudga keladi. O‘rta mezolit davri yodgorliklarining yana bir xususiyati qayroqtoshlardan yasalgan qurol va qirg‘ichlarning borligidir.

So‘nggi mezolit davrida mehnat qurollarining ko‘pchilik turlari tobora maydalashadi. Qalamsimon mitti o‘zaklar soni ko‘payadi. Geometrik shakldagi qurollar takomillashtiriladi. Tosh bigiz, ya‘ni teshgich qurollar paydo bo‘ladi. Ikkala uchli tomonlari yo‘nilgan shakldagi paraqalar va mikroparaqalar soni ko‘payadi. Bu davr yodgorliklarida qurollarni yasash texnikasi murakkablasha boradi, ilk neolit davri texnikaviy uslublari vujudga kela boshlaydi.

Mezolit davrining yana bir yutug‘i it, cho‘chqa, qo‘y-echkilarning qo‘lga o‘rgatilishi bo‘ldi. Bu davr jamoasida diniy tasavvurlar ma‘lum bir shaklga kiradi. Bu haqda mezolit davri mozorlari, qoyatosh rasmlari darak beradi. O‘rta Osiyodagi mezolit davri yodgorliklaridan atigi 3tasida– Qayla, Tutkaul, Machay makonlarida mozorlar topilgan. Ular mezolit davrining so‘ngi bosqichiga taalluqli. Qayla g‘orida 2 mozor o‘rganilgan. Skeletlar chalqanchasiga yotib, oyoqlari biroz bukilgan, ustiga oxra sepilgan. Yonlarida dengiz chig‘anoqlaridan yasalgan taqinchoqlar

topilgan. Bosh suyagi ustida ham mayda tosh munchoqlar tizib chiqilgan. Boshqa mozorlarda ham shu holat kuzatilgan. Bularni barchasi narigi dunyoga ishonishni bildiradi.

Qoyatoshlarga chizilgan rasmlar ham ularning dunyoqarashi bilan bog'liq. Ular orasida eng mashxuri Surxondaryoning Qo'hitong tog'ida Zarautsoy qoyasiga chizilgan. Mazkur rasmlarning bir qismi qizil rang bilan ishlangan. Ular ichida yovvoyi hayvonlarni ov qilish manzarasi diqqatga sazovordir. U so'ngi mezolit davriga oid.

Mezolit davri arxeologlarga XIX asr oxirigacha ma'lum bo'lmagan. Shu sabab arxeologlar dastlab paleolit birdaniga neolitga o'tish jarayonini tuchuntirib bera olmagandar va qandaydir uzilish bor deb hisoblaganlar. XIX asrning birinchi yarmida birinchi mezolit davri makonlari topildi. Ilgarilari sopol bilan kamon bir vaqtda neolit davri boshlarida paydo bo'lgan degan fikrlar bor edi, lekin mezolit davri makonlarining ochilishi bu fikrlarni inkor qilib, kamoning dastlab paydo bo'lganligini isbot qildi.

O'zbekiston arxeologiyasida ham ilk mezolit davri ashyolari XX asr boshlarida topilgan. 1920 yillarda A.P.Okladnikov Markaziy Qoraqum hududidan so'ngi mezolit davriga oid mikrolitlarni topdi. Mezolit davrini sistemali o'rganishni ham A.P.Okladnikov boshlab berdi. Keyinchalik Katta va Kichik Balxash hududlarida ko'p qatlamli mezolit davriga oid yodgorliklar, Ustyurtda, Markaziy Farg'onada, Qizilqum, Pomirda mezolit yodgorliklari ko'plab topilgan. A.M.Mendelshtam, X.Yu. Yusupov, Yu.A. Zadneprovskiy, O'.Islomov-Farg'onada, E. Bijanov, V.Yagodin, A.Vinogradov, G.Xodjaniyozovlar Ustyurtda tadqiqot ishlarini olib bordilar. Lekin O'zbekiston mezoliti boshqa davrlarga nisbatan kam o'rganilgan. O'.Islomov shu kunga qadar O'zbekiston xududida tadqiq qilingan yodgorliklarni uchta —Farg'ona, Toshkent va Surxandaryo territorial xususiyatlarga bo'ladi.

O'zbekiston hududida mezolit yodgorliklari arxeolog olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Farg'ona vodiysidagi Obishir I, Obishir V g'or makonlari ahamiyatlidir. Obishir I Xaydarkon shaharchasidan 4-5 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, g'orning kengligi 25,5 m, balandligi 12 m.ni tashkil etadi. Bu yerdan mikrolitlar, parrakchalar, nukleuslar, bigiz, qirg'ich, pichoq-qadamalar topilgan. Obishir V makoni Obishir I g'ori yaqinida joylashgan, kengligi 8 m, balandligi 10 m va chuqurligi 4-5 m. G'or 3 ta madaniy qatlamdan iborat bo'lgan. Bu erdan ham pichoq-qadamalar, qirg'ichlar, teshgichlar topilgan. Moddiy manbalar ichida yovvoyi hayvonlarning suyaklari ham mavjud bo'lgan. G'ordan topilgan qadoq toshlar - baliq tutishda ishlatilgan. Obishirliklar baliqchilik, ovchilik va terimchilik ho'jalik mashg'ulotlari bilan shug'ullanganlar.

Keyingi 30 yil ichida Markaziy, Janubiy va Sharqiy Farg'ona erlaridan mezolit davri makonlari ko'plab topilgan.

Fargʻona vodiysida va uning janubidagi togʻli hududlarda makonlar ancha keng tarqalgan. Shular jumlasiga Fargʻona vodiysining janubidagi Qatron togʻidan topilgan Obishir I va Obishir V gʻor–makonlarini kiritish mumkin. Ular miloddan avvalgi IX–VIII ming yilliklarga oiddir.

Obishir I gʻor–makoni Haydarkon shaharchasidan 4-5 km sharqda joylashgan. Uning madaniy qatlamlaridan mikrolitlar, bigizlar, qirgʻichlar, pichoq qadamalari, nukleuslar topilgan. Ular boshqa joylardan topilgan mezolit davri qurollariga oʻxshaydi.

Obishir V gʻor–makoni esa Obishir I dan 200 metrcha gʻarbda joylashgan. U erda 3 ta madaniy qatlam aniqlangan U erdan topilgan mehnat qurollarining ishlanish texnikasi Obishir I ga oʻxshaydi. U urning quyi madaniy qatlamlaridan oq–qora va kul rang chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolitlar– paraqalar, pichoq qadamalari, qirgʻichlar, keskichlar, teshgichlar, oʻroq–randalar va turli shakldagi nukleuslar topilgan. Shuningdek bu erdan yovvoyi hayvonlarning parchalangan va sindirilgan suyaklari ham topilgan.

Tadqiqotlar natijasida arxeologlar Haydarkon-Soʻx vohasida ibtidoiy qabilalar baliqchilik, ovchilik, termachilik bilan shugʻullanganliklarini aniqladilar.

Markaziy Fargʻonada koʻplab mezolit davriga oid 80dan ortiq joydan makonlar topilgan. Ulardan Ittak qalʼa, Shoʻrkoʻl, Achchikoʻl, Yangiqadam, Bekobod, Zambor, Bosqumlar diqqatga sazovordir. U erlardan har xil shaklda shaklda retushlangan va retushlanmagan nukleuslar, qirgʻichlar, paraqalar, mayda geometrik qurollar topilgan. Bu erda koʻproq mayda nukleuslar uchrab, yirik nukleuslar deyarli uchramaydi. Daryo toshlaridan olingan uchrindilar ham bor. Bu erdan topilgan mehnat qurollari qora, rangdor, yashil, jigarrang chaqmoqtosh, slanets va boshqa toshlardan yasalgan. Bu yodgorliklar ochiq joydagi makonlar boʻlib, madaniy qatlamlar yoʻq. Tadqiqotchilar fikricha, Markaziy Fargʻonadagi ilk va soʻnggi mezolit davri makonlar oʻsha vaqtning oʻzidayoq tashlab ketilgach, buzila boshlagan. Hozirda bu joylarda qum barxanlari keng tarqalgan. Lekin mezolit va neolit davrlarida bu erlarda koʻllar boʻlib, ibtidoiy odamlar shu joylarda yashaganlar va termachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shugʻullanganlar.

Markaziy Fargʻonada faqat tosh davri yodgorliklar mavjud. Boshqa davrlarga oid yodgorliklar va madaniy qatlamlar yoʻq.

Tadqiqotchilar Markaziy Fargʻonadagi mezolit davri yodgorliklarini 2 guruhini aniqlab, uning rivojlanishidagi ilk va soʻnggi bosqichini aniqladilar. Ilk mezolit davri miloddan avvalgi IX–VII asrlarga oid boʻlib, unga Ittak qalʼa 2, Achchiq koʻl 1,7, Yangi qadam 1,2 va Toypoq 1 makonlari kiradi

So'nggi mezolit davr bo'lib, u miloddan avvalgi VI ming yilliklarga mansub. Unga Achchiko'l, Bekobod 3,4, Sho'rko'l 1, 2, Madyor 11, Zambar 2, Toypoq 3,5,7 va boshqa joy makonlarni kiritish mumkin.

Markaziy Farg'onadagi yashagan mezolit davri qabilalari xo'jalik hayotida ovchilik va termachilik bilan bir qatorda baliqchilik ham muxim rol o'ynagan. Bunga ularning ko'llar yoqasida istiqomat qilganliklari imkoniyat yaratgan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki mezolit davrida Janubiy va Markaziy Farg'ona xududlarining qulay geografik sharoiti mazkur joylarda ibtidoiy kishilarning keng tarqalib yashashlari uchun imkoniyat yaratgan.

Qo'shilish makoni Toshkentning g'arbida qadimgi Bo'zsuv anhorining chap sohilidan topilgan. Uerdan nukleuslar, mayda paraqachalar, qirg'ichlar va hech makonda uchramaydigan uchburchak shaklidagi qurollar topilgan. Qo'shilishning madaniy qatlamidan topilgan mazkur qurollar so'ngi tosh davri qurollariga nisbatan o'zining ancha ixchamligi va qurol turlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu erdan topilgan nukleuslar va qirg'ichlar Farg'onadagi Obishir I, V, Achiqko'l, va Machaydan topilgan nukleuslar va qirg'ichlarga o'xshab ketadi. Lekin Qo'shilishdagi qurollar ancha qadimiy xususiyatga egadir. Qo'shilishdan topilgan qurollarda o'ziga xoslik xam bor, ya'ni bu erda geometrik shaklda yasalgan qurollar uchramaydi. Shuningdek Qo'shilishda boshqa makonlarda bo'lgan pichoqsimon paraqalar topilgan emas. Qo'shilish qurollarining ba'zilar Yaqin va O'rta Sharqdagi Shanidavr, Paligavr, Gari-Kamarbanddan topilgan qurollarga o'xshab ketadi.

Qo'shilishning madaniy qatlamidan qo'y, echki, buqa, sigir suyaklari topilgan. Makon aholisi ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan. Shuningdek, u erdan topilgan hayvon suyaklari, o'sha davrda odamlar yovvoyi hayvonlarni xonakilashtira boshlaganliklarini ko'rsatdi. Tadqiqotlar makonning miloddan avvalgi XIX asrlarga mansub ekanligini ko'rsatdi. Bundan Qoraqamish jarligi atrofida odamlar bundan 10-12 ming yil ilgari yashab, ovchilik, termachilik bilan shug'ullanganlar va hayvonlarni xonakilashtirganlar degan xulosaga kelingan.

Mezolit davriga oid bir guruh yodgorliklar Toshkent shaxrining g'arbiy tomonida qadimgi Bo'zsuv kanalining chap sohilidan ham topilgan. Uni dastlab 1930 yilda arxeolog V.Parfyonov aniqlagan. 1970-71 yillarda esa O'.Islomov qazish ishlarini olib bordi. U mezolitning so'nggi davriga oid materiallar to'pladi. Qalin mezolit davriga oid qatlam ochildi. Hayvon va odam suyaklari, tosh va suyaklardan ishlangan qurollar topildi.

Machay g'or makoni mezolitning so'nggi bosqichiga oid yodgorlik bo'lib, u Hisor tizmasining Ketmonchopti tog'ining janubidan Machay daryosining o'ng sohilidan topilgan.

Machay g'ori daryo sathidan 70 metr balandda bo'lib, og'zi janubga qaragan. Uning kengligi 20 metr, chuqurligi 15 metr, balandligi 3,5 – 5 metr keladi.

G'or–makon ko'p qatlamli bo'lib, u erdan ko'p miqdorda tosh qurollari va oz miqdorda suyakdan yasalgan mehnat qurollar ham topilgan. Suyak qurollar 15 nusxada bo'lib, ular bigiz, igna, so'zan va boshqalardir. G'orning madaniy qatlamlaridan jami 870 ta toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Ular xar xil shakldagi nukleuslar, retushlangan va retushlanmagan paraqa va paraqachalar, tosh pichoqlar, arrasimon qurollar, keskich, ushatgich toshlar, nayza va o'q uchlari, trapetsiyalar, sigmentlar va boshqa xil qurollar topilgan. Machay g'oridan topilgan qurollarning ishlanish texnikasi, katta kichikligi Tojikistonning Vaxsh daryosi havzasidagi, Markaziy Farg'ona va Toshkent vohasidagi mezolit qurollariga ancha o'xshab ketadi. Lekin ularning o'ziga xos jihatlari xam bor.

Machay g'orining madaniy qatlamlaridan antropologik materiallar – odam bosh suyaklari, tishi, jag'i va boshqa a'zolarining suyak qoldiqlari topilgan. Haligacha O'rta Osiyoning mezolit davriga oid yodgorliklaridan bunday topilmalar topilgani yo'q. Shu jihatdan Machaydan topilgan odam suyaklari juda katta amaliy va ilmiy ahamiyatga egadir. Tadqiqotlar natijasida kalla suyaklarining biri ayol kishiga, biri erkak kishiga va uchinchisi yosh bolaga mansub ekanligi aniqlandi. Antropologik materiallarni chuqur o'rganish asosida, ularning qaysi irqqa mansub ekanligi aniqlandi. Ularning hammasi evropoid irqiga mansub deb topildi. Bu materiallar O'zbekistonning eng qadimgi axolisini, uning tashqi qiyofalarini aniqlashda muxim manba bo'lib xizmat qiladi.

G'orning madaniy qatlamlarini qazish jarayonida antropologik materiallar bilan bir qatorda xilma–xil hayvonlarning suyaklari – paleontologik materiallar ham topildi. Paleozoolog B. Botirov Machay g'oridan 20 xildan ortiq hayvon suyaklarini topdi. Ular qizil bo'ri, tulki, bars, mo'ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon, dalasichqon, to'ng'iz, Buxoro bug'usi, ayiq, echki, toshbaqa va boshqa yovvoyi hayvonlarga mansub bo'lgan. Machayliklar asosan arxar va jayron ovlaganlar. Xonakilashtirilgan sigir va qo'y-echkilarning ham suyaklari topilgan. Topilgan suyaklarning aksariyati mayda, sindirilgan va olovda kuygan. G'ordan topilgan qalin kul qatlamlari u erda doimo olov yonib turganligidan darak beradi. Demak, machayliklar olovda juda keng foydalanganlar, hayvon go'shtlarini olovda pishirib eganlar. U erdan topilgan mehnat qurollarining 80% ovchilar va hayvon terisini ishlash bilan bog'liq.

G'ordan yovvoyi va xonaki hayvon suyaklarining topilishi bu erda yashagan mezolit davri kishilari ovchilik, termachilik va qisman chorvachilik bilan ham shug'ullanganliklarini bildiradi. Tadqiqotlar g'orning mil.av. VII – VI ming yilliklarga mansub ekanligini ko'rsatdi.

Ayrtom yodgorligi janubiy O‘zbekistondagi mezolit davri yodgorliklaridan biri hisoblanadi. U Termizdan 18 km sharqda, Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan ko‘p qatlamli yodgorlikdir. Bu erdan mezolit davriga oid tosh qurollar, nukleuslar, pichoqsimon paraqalar, uchrindilar, qirg‘ichlar, teshgichlar, tosh parmalagichlar, o‘q va nayza uchlari topilgan. Ular Obishir, Tutqovul, yodgorliklaridan topilgan tosh qurollariga o‘xshab ketadi.

O‘zbekiston hududida mezolit davri jamoasi geografik sharoiti qulay dasht xududida, tekisliklarda, ko‘l va daryo sohillarida, tog‘li xududlarda isteqomat qilib, ovchilik, baliqchilik, termachilik va qisman chorvachilik bilan ham shug‘ullaganlar. Paleolit davrga nisbatan bu davrda tosh qurollarini ishlash texnikasi takomillashgan, qurollarining turlar ko‘paygan sifati yaxshilangan. Bu esa o‘z navbatida xo‘jalikning rivojlanishiga va odamlar tafakkurining o‘rishiga olib kelgan. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi rivoji uchun asos yaratib bergan.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston hududida mezolit davri va uning bosqichlari to‘g‘risida nima bilasiz?
2. Mezolit davri iqlim sharoiti, xayvonot va o‘simliklar dunyosi qanday bo‘lgan?
3. Mezolit davrida yuz bergan buyuk kashfiyotlar to‘g‘risida nima bilasiz?
4. Uruchilik tuzumi va aholining turmush tarzi to‘g‘risida nima bilasiz?
5. O‘zbekiston hududidagi mezolit davri yodgorliklari nechta?
6. Qo‘shilish madaniyati xaqida so‘zlang?
7. Obishir madaniyati to‘g‘risida nima bilasiz?
8. Machay madaniyati tog‘risida qanday ma‘lumotlarga egasiz.
9. O‘q-yoyning kashf etilishi sabablari?
10. Mezolit davri yodgorliklari xronologiyasi to‘g‘risida nima bilasiz?.

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o‘quv qo‘llanma).-Т.:”Fan va texnologiya” 2011.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. “Sharq.” 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. T. “Ma‘naviyat” 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so‘zi. 2016 yil 2 noyabr.

4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. “Адолат”. 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”, 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

4 -modul Neolit davri va uning o'rganilishi

5-Mavzu Neolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.

1. Neolit davrining o'rganilishi va xronologiyasi
2. Neolit davrining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Neolit davri mashg'ulotlari.

Tayanch tushunchalar:

Neo, litos, silliqlash, pardoqlash, arralash, doimiy o'troqlik, dehqonchilik, to'qimachilik, kulolchilik, neolit inqilobi, Joytun.

Kishilar jamiyati taraqqiyotidagi keyingi davr neolit deb nom olgan. U yunoncha “neo”-yangi, “metos”-tosh, ya'ni yangi tosh davri degan ma'noni beradi. Bu davr uzoq davom etgan tosh davrining yakunlovchi bosqichi bo'lganligi uchun shu nom bilan atalgan. Bu tushunchani fanga ingliz arxeologi Lebbok kiritgan. Neolit davri xronologik jihatdan

miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarni o'z ichiga oladi va ilk, o'rta, so'nggi bosqichlarga bo'linadi. Bu davr barcha mintaqalarda bir vaqtda sodir bo'lmagan va u davrda jamiyatlar har xil taraqqiyot darajalariga ega bo'lganlar. Ba'zi mintaqalarda neolit davri quldorlik davriga kelsa, ba'zilarida endigina dehqonchilik va chorvachilik vujudga kelayotgan, ba'zilarida esa ovchilik va termachilik bilan shug'ullanayotgan edilar.

O'rta Osiyoda neolit davri rivojining 2 xil ko'rinishi mavjud bo'lgan. Uning janubiy-g'arbiy hududlarida hozirgi Turkmanistonning Kopetdog' tog'i oldi hududlarida neolit davrida miloddan avvalgi VI ming yillar oxiri va V ming yillikning boshlarida ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan bo'lsa, uning markaziy va shimoliy viloyatlarida hali ovchilik va baliqchilik xo'jaligi hukmronlik qilgan. U bugungi kunda O'zbekiston xududidiga to'g'ri keladi. Neolit davri jamoasining bunday mintaqalararo rivojlanishi har bir viloyatning mavjud tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqqan. Shuningdek, O'rta Osiyoda neolit davri yodgorliklarini uchta yirik territorial-xo'jalik shakllarga ajratilgan. Bular Joytun madaniyati – ilk dehqonchilik madaniyatining shakllanishi bilan ajratiladi. Ikkinchisi Kaltaminor madaniyati – baliqchilik, ovchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar madaniyati bo'lib, daryo va ko'l bo'ylarida iste'komat qilganlar. Uchinchisi Xisor madaniyati bo'lib, ovchilik bilan shug'ullanganlar. Ular tog'li xududlarda yashagan jamoalar bo'lib, mehnat qurollarining aksariyat qismi qayroqtoshlardan yasalganligi bilan ham ajralib turadi. Ularning har biri alohida geografik muxitga ega bo'lgan erlarda joylashgan.

Neolit davri iqlimi hozirgi iqlim sharoitiga yaqin bo'lgan. O'rta Osiyoning janubiy-g'arbiy hududining iqlimi issiq, dehqonchilik uchun qulay bo'lgan. Markaziy va shimoliy viloyatlarida ham iqlimning isishi yaylov va cho'l zonalarini vujudga keltirgan. Bu esa neolit davri jamoalarining hudud bo'ylab keng tarqalishiga olib kelgan. Shuningdek, ular mezolit davridagidek daydi hayot kechirmay, o'troq turmush tarziga o'tadilar. Doimiy erto'la, kulba va loy, guvaladan qurilgan uylarda yashay boshlaydilar. O'troq turmush tarzi janubiy hududlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'l mintaqalarda esa o'troq ovchilik xo'jaligining qaror topishiga olib keldi. Keyinchalik uning zamirida chorvachilik paydo bo'ldi.

Neolit davrida toshni ishlash texnikasida yangi usullar-silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash usullari ixtiro etiladi. Bu esa ibtidoiiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada tezroq rivojlanishiga olib keldi. Lekin bu usullar hamma qurollarga nisbatan qo'llanilavermas edi. O'tkir tig' beruvchi qurollar yasashda hali kertma va yorma uslubidan foydalanilar edi.

Ilk neolit davrida makrolit qulollar keng tarqalgan. Ular og'ir katta hajmdagi chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar bo'lgan. Qurollarni silliqlash keyingi neolit davriga to'g'ri keladi. Qurollar maxsus tosh ustidagi qumtosh taxtada silliqlangan. Tosh taxta tayanch

vazifasini o'tagan. Qurollar ko'l kvars qumi bilan uzoq vaqt ishqash jarayonida silliqlangan. Silliqlangan tosh qurollar neolit oxiriga kelib parmalangan. Unda suyak parma vazifasini bajargan. Suyak parmani qalqon ipiga o'rab aylantirganlar, unda suyakning uchiga nam qum sepib turilgan. Parmalangan qurolga dasta o'rnatish mumkin bo'lgan.

Neolit davrida qurollarning turi ko'paygan, bunga toshni ishlash texnikasidagi ixtirolar sabab bo'lgan. Tosh boltalar, ponalar, tosh teshalar, iskanalar, og'ir cho'qmorlar paydo bo'lgan. Tosh boltalar neolit davrida barcha og'ir yumushlarni bajargan. Uning xo'jalikdagi ahamiyati katta bo'lgan, shuni e'tiborga olib, ba'zi olimlar bu davrni «boltalar asri» deb atashni ham taklif qilishgan.

Neolit davri mashg'ulotlari. Neolit davri jamoalarida mehnat qurollarini takomillashtirish bilan bir qatorda hunarmandchilikning bir qator tarmoqlari-kulolchilik, to'quvchilik, tikuvchilik kabi sohalari ixtiro qilindi.

Oldingi davrlarda ro'zg'or buyumlar yog'ochdan yoki novdadan yasalgan bo'lsa, ilk neolit davrida dag'al, chala kuydirilgan sopol buyumlar tarqaldi. Ularning tuxumsimon tagi dumaloq bo'lib, maxsus chuqurchalarga o'rnatilgan. So'nggi neolit davriga kelib sopol buyum shakli o'zgaradi. Tuvaksimon, osti tekis idishlar paydo bo'lib, ular maydalashadi. Idishlar loy lentalar asosida qo'lda ishlangan. Idishlar naqshi ham oddiydan murakkabga o'zgarib boradi. Shuningdek, idishlarda tarnovsimon yoki trubasimon jo'mraklar paydo bo'ladi. Idishlar bir yarusli xumdonlarda pishirilgan. Lekin idishlar qo'pol, mo'rt bo'lgan.

To'qimachilik, hunarmanchilikning vujudga kelishi ham neolit davrining buyuk kashfiyoti hisoblanadi. Neolit davri odamlari hayvon yungi va o'simlik tolasidan mato to'qishni o'rganganlar. Shuningdek, yigirilgan ipdan baliq to'ri ham to'qilgan. Bu esa baliq ovlash ahamiyatini keskin ravishda oshirib yuborgan. Bunga suvda suzuvchi qayiqalar yaratilishi ham imkon berdi.

Neolit davri yutuqlaridan yana biri bu juft oilaning vujudga kelishi bo'lib, u urug' ichida oilaviy munosabatlarning izga tushishi olib keldi va jamiyat taraqqiyotini yanada olg'a siljitdi. Bu davr imkoniyatlari jihatidan inson uchun katta ahamiyat kasb etadi.⁸

Neolit davri uzoq davom etgan tosh asrining so'nggi va yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Neolit yunoncha, «neos» - yangi, «litos» - tosh degan so'zlardan tarkib topgan bo'lib, u «yangi tosh» davri degan ma'noni anglatadi. Arxeologiya faniga neolit tushunchasini 1865 yilda ingliz arxeologi

⁸ T.Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

Lebbok olib kirgan. Neolit davri miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Arxeologlar neolit davrining boshlanishini sopol idishlar yasashni kashf etilishi bilan belgilaydi.

Neolit davrining ob-havosi hozirgidek bo'lib, iqlim kishilarning keng hududlarga tarqalishi va joylashishi uchun imkon bergan. Natijada keng hududlarga o'rnashgan odamlar guruhi turli tabiiy sharoitga moslashgan va alohida madaniyat yaratgan. Turli geografik muhit va sharoitdan kelib chiqib, ularning mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari turar joylari va ho'jaliklari ham har xil shaklga ega bo'lgan. Bu esa ho'jalikning notekis rivojlanishiga sabab bo'ladi. Janubiy o'lkalarning serhosil erlarida yashagan kishilar ho'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllarini rivojlantirgan. Bu davr ho'jaligi ishlab chiqaruvchi ho'jalik deb atalib, unda nafaqat tabiatdan tayyor mahsulotlar o'zlashtirilgan, balki chorvachilik va ziroatchilik orqali ehtiyoj uchun qo'shimcha oziq-ovqatlar yaratilgan. Masalan, hayvonlarni qo'lga o'rgatish orqali chorva mollariga ega bo'linishi; yovvoyi o'simliklarni madaniylash-tirish va boshqali don ekinlari ekishga o'tish va hakoza.

Neolit davrida qabilalarning ko'pchiligi o'troq hayot tarziga o'tadi, doimiy yashash uchun manzillar qura boshlaydi. Manzil va makonlar guvaladan qurilgan turar joylar shaklida bo'lib, deyarli barcha xalqlarda bu xususiyat ko'zga tashlanadi. Avvalgidek daydib yurish, yangi-yangi ov makonlari qidirib ko'chib yurishga barham beriladi. Endi doimiy erto'lalar, kulbalar yasash, loydan, zuvaladan uy qurish, neolit davri jamoasining asosiy odatiga, turmush tarziga aylanib boradi. Shunday qilib, doimiy o'troqlik xo'jaligi paydo bo'ladi. Jamiyatda urug'ning ahamiyati ortib, u o'ziga xos munosabatda namoyon bo'ladi. Neolit davrida urug' jamoalarining qarorgohlari ham shakllanadi. O'troq hayot tarzi mehnat qurollarining takomillashuvini tezlashtiradi. Neolit davri kishilari qayerda, qaysi sharoitda yashamasin, ularning qurollari mezolit davri qurollariga nisbatan rivojlangan. Kishilik tarixining neolit davri qurollarni ishlash silliqlash, pardozlash, arralash, parmash usullarining ixtiro etilishi, ibtidoiy ishlab chiqaruvchi kuchlarning oldingi davrlarga nisbatan tezroq rivojlanishiga olib keldi. Neolit davrida tosh xom ashyosining xususiyatlari yaxshi o'zlashtirilishi natijasida shakl va vazifa doirasi har xil bo'lgan yangidan yangi mehnat qurollari yaratiladi. Tosh qurollar orasida tosh boltalar, ponalar, tosh teshalar, iskanalar paydo bo'ladi.

Neolit davrida tosh boltalar keng tarqalgan. Pardozlangan tosh boltalar o'rmon kesishda, uy qurilish ishlarida, ovchilikda o'zining tengi yo'q jangovor qurol ekanligini ko'rsatdi. Neolit davrida barcha og'ir yumushlar ana shu tosh boltalar orqali bajarilar edi. Neolitda parrakchalar, qadamalar, nayza va kamon o'qlarining uchlari, pichoq, teshgich, parmalar, yorma toshlar, o'roq-randalar va boshqa qurollar takomillashgan.

Neolit davri so'nggi urug'chilik jamiyatiga xos bo'lib, bu davrda erkaklarning o'rni tobora orta boshlaydi. Chunki xo'jalikning rivojlanishi erkaklar mehnati bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni kengayib borayotgan xo'jalik yumushlarini bajarishga ayollar ulgura olmay qoladi; xo'jalikning unumdor shakllari (chorvachilik va dehqonchilik) tobora ko'proq e'tibor va ish kuchini talab qilgan. Natijada urug' ichida, xususan oilada o'ziga xos mehnat taqsimoti shakllanadi. Demak, barcha yumushlar - moddiy ehtiyojni qondirish, ortib borayotgan zarurat uchun oziq-ovqat zahiralari tayyorlash ayollardan erkaklar qo'liga o'tadi. Ijtimoiy hayotda erkaklarning roli ortib borishi oilada erkakning hukmronligiga olib keladi. Urug' ichida ayollarning hukmron mavqeiga barham beriladi. Endi matriatxat (ona urug'i) o'rnini patriarxat (ota urug'i) egallay boshlaydi.

Neolit davrida o'troq turmush tarzi, o'troq ho'jalik janubiy subtropik rayonlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'lli mintaqalarda, azim daryo va ko'l bo'ylarida o'troq ovchilik ho'jaligining qaror topishiga olib keldi. O'troq ho'jalik yuritishning qaror topishi o'z navbatida chorvachilikning ham paydo bo'lishiga olib keldi.

Neolit davri turli joylarda turlicha kechgan, ya'ni yer yuzida neolit davri har xil vaqtda paydo bo'lgan va tugagan.

Misr va Mesopotamiyani olib qaraydigan bo'lsak rivojlangan bronza davri boshlangan bo'lib, quldorlik davlatlari tarkib topa boshlagan, Shimoliy Yevropada qadimgi odamlar endigina neolit davriga o'ta boshlaganlar, chekka Shimol va shimoli-sharqiy Osiyoda esa paleolit davri davom etayotgan edi.

Umumiy hisobda olib qaraydigan bo'lsak, neolitning davriy chegarasi Yevropa, Osiyo va Afrikada taxminan mil. avv. VI ming yillikdan boshlanib II ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

Neolit davrini ikki bosqichga: ilk va so'nggi neolit davri bosqichlariga bo'lish mumkin.

Yevropa hududidagi neolit davri yodgorliklariga tavsif berib o'tamiz. G'arbiy Yevropadagi eng qadimgi manzilgohlardan biri Kampinidir. Kampini manzilgohi Fransiyaning shimolidagi Quyi Sena departamentiga qarashli Bleni-syur-Brel qishlog'i yaqinidan topilgan. Bu manzilgohdagi qazuv ishlari 1897 yildan P.Salmon va G.d'O-dyu-Menil tomonidan boshlangan. Izlanishlar jarayonida yarim yerto'la ko'rinishidani uy qoldig'i ochilgan, unda o'choq qoldiqlari, minglab chaqmoqtoshdan qilingan tosh qurollari, ko'mir, kul, bug'u, ot va ho'kizning suyak qoldiqlari topilgan. Topilmalar orasida eng diqqatga sazovori sopol parchasida saqlanib qolgan arpa donidir. Olimlar izlanishlar natijasini xulosasi sifatida bu yerda yashagan qadimgi odamlar dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlaganliklarini ko'rsatib berishgan.

Ma'lumki, arpaning ilk vatani Old Osiyo va Shimoli-Sharqiy Afrika hisoblanadi. Yevropaga u Falastin orqali tabiiy yo'l bilan madaniylashtirilgan va maxsus ekib yetishtirish uchun o'stirilgan.

Yevropaning boshqa joylarida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida yuqorida sanab o'tilgan topilmalar bilan birga yorg'uchoq va uning siniqlari topilgan. Izlanishlar vaqtida neolit davrining Yevropadagi eng yirik chaqmoqtosh koni (shaxtasi) topilgan (Belgiya yaqinidagi Spenna shaxtasi). Uning chuqurligi 15 m. ni tashkil etgan.

Rossiya hududidagi neolit davri manzilgohlari XX asrning 20-yillaridan o'rganila boshlangan. Moskvadan 40 km shimolda, Klyazma daryosi qirg'og'i bo'yida joylashgan Lyalovo qishlog'idan topilgan manzilgoh 1922-1923 yillarda rus arxeologlari B.S. Jukovva B.A. Kuftinlar tomonidan o'rganilgan. Bu yerdan topilgan sopol buyumlar o'sha vaqtda sobiq Ittifoq hududidagi eng qadimiy va ilk topilma hisoblangan.

Markaziy Osiyo hududida neolit davri odamlari ovchilik dehqonchilik va chorvachilik bilan qisman esa hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Markaziy Osiyo janubiy hududlarida, Kopetdog' (Turkmaniston) etaklarida dehqonchilik va ilk chorvachilik qaror topadi. Katta-kichik daryolar va ko'llar sohilida ovchilik va chorvachilik, dehqonchilik qaror topishi insoniyat tarixida buyuk burilish yasadi va ko'plab kashfiyotlarga turtki bo'ldi.

Neolit davri jamoalari hayotida o'troq ho'jalikning yorqin belgisi sifatida yana bir ho'jalik yangiligi ixtiro qilindi. Bu bo'lajak hunarmandchilik ho'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarishning paydo bo'lishi edi. Kulolchilik buyumlarining paydo bo'lishiga unumdor ho'jalik shakllari ta'sir etadi. Ya'ni, sut quyish uchun idishlar, donlar saqlash uchun kulolchilik buyumlariga bo'lgan zarurat va ehtiyoj.

To'qimachilikning kashf etilishi ham neolitning katta yutug'i hisoblanadi. Endi ibtidoiy jamoa a'zolari faqat hayvon terilaridan yasalgan kiyim-kechak emas, balki, uning yungidan hamda, o'simliklar tolasidan to'qilgan matolardan ham kiyimlar to'qib kiyadigan bo'ladilar. Zig'ir poyalari va jun iplardan to'qilgan mahsulotlarning neolit makonlarida keng tarqalishi yuqoridagi fikrlarning isbotidir. Neolitda ip yigirish kashf etiladi. Ip yigirishning kashf etilishi o'z navbatida boshqa xil ho'jalik mashg'ulotlarining rivojlanishiga turtki beradi. Masalan, to'rlarning paydo bo'lishi baliqchilikni keskin darajada rivojlanishiga, o'z navbatida moddiy ehtiyojlarni yanada kengroq qondirish imkoniyatiga olib keldi.

Neolit davrida turli xo'jalik shakllarining qaror topishi hududlar o'rtasidagi o'zaro buyum almashuvining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Masalan, chorvachilik mahsulotlarining dehqonchilik mahsulotlariga almashinuvi yoki aksincha.

Neolitda suvda suzish moslamalari dastlabki qayiqlar, shimoliy o'lkalarda esa chenalar paydo bo'ldi. Hatto sharning yaratilishi neolit davrining yutug'idir. Umuman, odamlar faoliyatida bunyodkorlik va yaratuvchanlik ko'nikma sifatida neolit davrida chuqur egallagan. Shuningdek,

neolit davrida - jamoa bo'lib ishlab chiqarish mehnatning umumiyligi urug' mulkchiligi, asosiy xususiyatlardan hisoblangan.

Neolitda maishiy munosabatlar ham o'z navbatida tartibga solina boshlanadi. Guruhli nikoh hukmronligi mavjud bo'lsada, ammo nikoh tub mohiyati bilan o'zining dastlabki bosqichlardagi holatidan farq qiladi. Endilikda matriarxat urug' jamoasining guruhli nikoh doirasida juft oilalar vujudga keladi. Ayollar endi tug'ilgan farzandlarining otalaridan o'z urug'lari manfaatlari uchun ishlab berishini talab qiladigan bo'ladilar. Ichkuyovlik mazmunidagi juft oilaning dastlabki ko'rinishlari shakllana boradi. Ayollar o'zlariga aniq sherik tanlab, jinsiy aloqalar aynan aniq sheriklar bilan bo'ladigan bo'ldi. Ona urug'iga qatnovchi erlar o'z urug'i uchun ishlab berishdan tashqari xotinlar urug'i uchun ham ishlab berishga majbur bo'ladi. Maishiy munosabatlarda yangi ko'rinish - jinsiy sherikchilik shakllanadi. Urug' ichidagi nikoh elementlari paydo bo'ladi. Juft, monogom oila sari qadamlar qo'yiladi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.: "Fan va texnologiya" 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон". 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. "Адолат". 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.

- 12.Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
- 13.Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
- 14.Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
- 15.Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”,2008.
- 16.T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

6-Mavzu: Neolit davri yodgorliklari va ularning o‘rganilishi.

1. Neolit davrining O‘rta Osiyoning janubiy-g‘arbiy hududida ilk dehqonchilik madaniyati
2. Neolit davrining chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalar yodgorligi.
3. Neolit davri O‘rta Osiyoning shimoliy va markaziy hududlarida ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug‘ullangan neolit davri jamoalari madaniyati.

Tayanch tushunchalar: Jonbas-4, Qavat-7, Kaltaminor, Tolstov manzilgohi, Tumek Kichidjik, Darvozaqir I, Darvozaqir II, Joytun.

O‘rta Osiyoning janubiy-g‘arbiy hududida ilk dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalar yodgorligi bugungi kunda Jaytun madaniyati deb tarixda qolgan. Jaytun madaniyati izlari faqat Turkmanistonning janubiy-g‘arbiy hududlarida uchraydi. Olimlar uni miloddan avvalgi VI ming yilliklar oxiri V ming yilliklar boshlari deb hisoblaydilar. Xuddi shu davrda O‘rta Osiyoning shimoliy va markaziy hududlarida ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug‘ullangan neolit davri jamoalari istiqomat qilganlar. Bunday yodgorlik o‘tgan asrning 30-40 yillarida S.P.Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi havzasida topildi va fanga Kaltaminor madaniyati nomi bilan kiritildi. Unga Amudaryoning Oqchadaryo o‘zanidan chiqqan qadimgi Kaltaminor kanali etaklaridan topilgani uchun shu nom berilgan. Kaltaminor madaniyati asosan O‘zbekiston xududida tarqalganligini sababli quyida shu haqda ko‘proq to‘xtalamiz.

Oqchadaryo havzasidan ko‘plab neolit davriga oid yodgorliklar topilgan bo‘lib, faqat 3-4 ta manzilgohning madaniy qatlami buzilmasdan saqlanib qolgan. Bular Jonbas-4, Qavat-7, Tolstov manzilgohi, Tumek Kichidjik manzilgohlaridir.

Kaltaminor madaniyati O'rta Osiyoning g'arbiy va shimoli-g'arbiy tomonidagi erlarida keng tarqalgan bo'lib, uning shimoli-g'arbiy chegarasi Ural daryosining o'rta va quyi oqimlari, g'arbiy chegarasi Kaspiy dengizigacha borib taqaladi. Janubda Qoraqum va Qizilqum etaklarigacha, sharqda esa, Orol dengizining shimoliy, sharqiy va janubiy tomonidagi quyi Sirdaryogacha borib taqaladi. Qizilqum va Ustyurtning katta territoriyasida xam Kaltaminor madaniyati ancha keng tarqalgan.

Kaltaminor madaniyatini o'rganish jarayonida olimlar uning rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. S.P.Tolstov "Saksovul" deb ataladigan joydan Jonbos-4 mehnat qurollariga o'xshash tosh qurollarni topgan. Olim ularni qiyosiy o'rganish natijasida kaltaminorliklar madaniyati shakllanishini ikki bosqichga – Jonbos va Saksovul (Qamishli) bosqichlariga ajratdi. 70–yillarga kelib esa, uning shogirdi A.V.Vinogradov Zarafshon daryosining o'ng sohilidagi o'zani Daryolisoy bo'ylaridan kaltaminorliklar madaniyatiga o'xshash buyumlarni topdi. Ular geometrik shakldagi tosh qurollari bo'lib, kaltaminor madaniyatining ilk bosqichi deb asoslashga imkon yaratdi. Shu tariqa kaltaminor madaniyatining 3 bosqichi aniqlandi – Daryolisoy (mil.avv. VI–IV ming yilliklarga oid), Jonbos (mil.avv. IV–III ming yilliklarga oid) va Saksovul (mil.avv. III ming yillik oxiri –II ming yillik boshlariga oid).

Daryolisoy yodgorliklari qadimgi Zarafshon daryosining eng qadimgi o'zanlardan biri – Daryolisoy bo'ylaridan topilgan makonlar hisoblanadi. Daryolisoydan ilk neolit davrida mil.avv. VI–IV ming yilliklarda suv oqqan. Neolit davri kishilari daryo sohilida makon topib, baliqchilik, ovchilik bilan shug'ullanganlar. Daryolisoy sohillaridan ilk neolit davriga oid qirg'ichlar, tarashlagichlar, paraqalar va trapetsiyalar topilgan. Bu erdan boshqa joylarga xos bo'lmagan o'ziga xos shoxdor trapetsiyalar topildi. Makondan naqshli sodda sopol idishlarining parchalari ham topilgan.

Neolit davri yodgorliklari Qizilqumning Chinkeldi, Echkiliksoy, Xo'ja Gumbaz, Qoraqat degan joylardan ham topilgan. U joylardan topilgan arxeologik manbalar Daryolisoy topilmalariga o'xshash bo'lganligi sababli uni Daryolisoy tipidagi ilk neolit davri yodgorliklari qatoriga kiritadilar.

Jonbos-4 makoni Amudaryoning qadimgi o'zanlaridan biri bo'lgan Oqchadaryo qirg'oqlaridan topilgan. Uni S.P.Tolstov raxbarligidagi Xorazm ekspediyasi a'zolari topib o'rgandi. Dastlab Xorazm xududida Jonbos-4 deb nomlangan so'nggi neolit davriga oid makonning topilishi, bu territoriyada ibtidoiy davr madaniyatining o'rganishga qo'yilgan dastlabki qadam bo'lgan.

Makondan chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollari, sopol parchalari, hayvon va baliq suyaklari bilan birga katta chayla qoldig'i ham topilgan. Chaylada neolit davrida yong'in bo'lib, uning yog'och sinchlari yonib, qalin loyqa ostida qolgan. S.P.Tolstov shu yong'inda qolgan qarorgoxda tadqiqot ishlarini olib bordi. Chayla yarim erto'la shaklida bo'lib, uning maydoni

290kv.m (24m x 17m) bo'lgan. U yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Uning tomiga ko'ndalang bag'azlar tashlanib, usti qamish bilan bekitilgan. Chayla sathining ko'p joylaridan katta–kichik chuqurchalar topilgan. Bu ustun va sinchlar o'rnatilgan chuqurchalar bo'lgan. Chayla o'rtasida katta markaziy o'choq qoldig'i, uning atroflaridan esa, 100ga yaqin mayda o'choqlar qoldig'i, chayla atrofidan esa kul, kuygan qamish va yog'och qoldiqlari topilgan. S.P.Tolstov xisobiga ko'ra, bu erda 120–125 odam yashagan. Jonbos–4 katta urug' jamoaning makoni bo'lgan.

Jonbos–4 makonidan neolit davriga xos nukleuslar, nayza paykonlari, qirg'ich, o'q uchlari va tosh qurollar topilgan.

Makonning madaniy qatlamidan baliq, yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul, o'rdak, g'oz tuxumlari po'choqlari, jiyya danaklari ham topilgan. Topilgan suyaklarning 86% baliqlarning suyaklari bo'lib chiqqan. U erdan sopol idishlarning parchalari ham topilgan bo'lib, ular tuxumsimon shaklda, osti yassi bo'lib, sopol idishlarning sirti ilon izi, archa bargi singari, romb, uchburchak, to'lqinsimon geometrik naqshlar berilgan. Kaltaminorliklar sopol idishlarini o'ziga xos tarzda yasaganlar. Ular qopga o'xshash idishga qum solib, atrofini loy bilan shuvab chiqqanlar va quritilgan. Keyin er tandiriga o'hshash xumdonga bir nechtasini terilib, olov yoqilgan va xumdon og'zi bekitilgan. Katta xaroratda olov yonib, idish ichida iz qoldirgan. Shu sabab sopol buyumlari tuxumsimon shaklda bo'lgan, lekin idish ichi pishmasdan qolgan. Sopol loyiga yantoq yoki qamishning toza kuli solingan. Sopol qozonlarga esa maydalangan toshlar qo'shilgan.

Oqchadaryo havzasidagi 3–4 ta makondan xam yarim erto'la va chaylalar topilgan. Masalan, Qavat –7 makonidan maydoni 580kv.m ga teng keladigan chayla topilgan.

Jonbos-4 atrofidagi taqirlardan neolit davriga oid ikkita qabr ham topilgan. Bu Qizilqum mintaqasidan topilgan odam qoldiqlarining dastlabkisi bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, bu qabrlarda o'lganlarni g'ujanak holda, ya'ni oyoq–qo'llarini bukib ko'mish odati rasm bo'lgan. Qabrlarning xar xil joylaridan turli taqinchoqlar, chaqmoqtosh qurollar, sopol idishlar siniqlari va qizil bo'yoq qoldiqlari topilgan. Bu topilmalar ham o'z xususiyatlari jixatidan kaltaminor madaniyatiga xos edi.

Tolstov manzilgohini Amudaryoning Oqchadaryo deltasidan Jonbos–4 makoniga yaqin joydan A.V.Vinogradov topgan va ustozi S.P.Tolstov sharafiga "Tolstov manzilgohi" nomini bergan.

Makon qatlamidan kaltaminorliklar uyiga o'xshash ikkita xona qoldig'i topildi. Ulardan birining maydoni 110–120kv.m dan iborat bo'lib, konussimon tomi avval qamish, so'ngra daraxt qobig'i bilan yopilgan. Bu erdan uyning ustun qoldiqlari va o'choq izlari aniqlandi. Makondan juda ko'p miqdorda chaqmoqtosh qurollar topildi. Jumladan kamon o'q uchlari, mikrolit qurollar, turli naqshlar bilan bezatilgan sopol idish qoldiqlari mavjud. Sopol idishlar qora–qizg'ish va oq rangdagi bo'yoqlar bilan bo'yalgan. Makondan turli xil suyak qurollar – kamon paykonlari, garpunlar, suyak qarmoqlar,

ignasimon uchli quollar, ignalar, silliqalanib ishlangan boltachalar yoki teshachalar, tosh va sopollarni silliqalaydigan asboblar, chig'anoqlardan, parranda suyaklari va feruza toshdan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Bu topilmalarning umumiy xarakteriga ko'ra makon rivojlangan neolit davriga to'g'ri keladi va uning Jonbos-4 makonidan biroz oldinroq mavjud bo'lganligi isbotlandi. Tolstov manzilgohidan topilgan tosh quollar Darvozaqir I, II va Katta Tuzkon makonlaridan topilgan quollarga o'xshash tomonlari topilgan. Shunga asoslanib olimlar uning yoshini mil.avv. IV ming yilliklarga to'g'ri keladi deb ko'rsatishadi.

Tolstov manzilgohidan topilgan ashyolar Kaltaminor madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini yanada oydinlashtirdi. Jumladan, Kaltaminor xo'jaligining asosini baliqchilik tashkil qilgan. Baliq ovida to'rdan, suyak gapunlardan, tosh sanchqidan va qarmoqlardan keng foydalanganlar. Ularning namunalari Kaltaminor madaniyati yodgorliklarida ko'plab uchraydi. Xo'jalikda hayvon ovi ham muxim ahamiyatga ega bo'lgan. Ular asosan, yovvoyi cho'chqa, buxoro oxusi, jayron, qulon, sayg'oq va boshqa hayvonlarni ovlaganlar. Ovda ular o'q-yoydan keng foydalanganlar. Xo'jalikda pardoqlangan tosh boltalar va teshalardan foydalanishgan. Axolisi to'qimachilik bilan ham shug'ullanib, o'zlari uchun kiyim-kechak va baliqlar uchun to'r to'qishgan. Xo'jaligining uchinchi tarmog'i termachilik bo'lgan. Yodgorliklarda yovvoyi jiyda danagi ko'plab topilgan.

Sirdaryoning pastki oqimida so'nggi neolit davriga oid ko'pgina makonlar tadqiq qilindi. Shulardan Saksovul va Shulqum qarorgohlaridan katta material olingan. Bu erdagi ibtidoiy jamoalar ko'pincha qirg'ich quollarini tosh siniqlaridan yasaganlar. Sopol idishlarning turli shakllari mavjud. Ular tuxumsimon shaklda bo'lib, tagi tekis ishlangan va qisman naqshlangan.

Kaltaminor madaniyatining ijtimoiy rivojlanishida matriarxat davri bo'lib, juft oilalar shakllagan edi. Bundan Jonbos-4 makonidan topilgan 100 ga yaqin mayda o'choqlar darak beradi. Shuningdek, kaltaminorliklar o'z faoliyatlarida tabiatga butunlay qaram edilar. Ular yashash joylari-kulbalarini daryo va ko'l buylarida qurganlar. Daryolar o'z o'zanini o'zgartirishi bilan ular ham o'z manzilgohlarini o'zgartirganlar.

Tumek-kichidjik qabrstoni – so'ngi neolit davriga oid muxim yodgorlik bo'lib, u 1972 yilda Amudaryoning quyi oqimidan topilgan. U erda tadqiqotlar 1973–1974 yillarda olib borildi. Qazishmalar vaqtida 27 ta qabr ochib o'rganildi. Qabrga dafn etilganlar chalqanchasiga yotqizilgan, boshlari esa, asosan, shimoli-sharqqa qaratib qo'yilgan va xar xil marosimlarda kiyadigan kiyim boshlar bilan ko'milgan. Skletlar ustida taqinchoqlar saqlanib qolgan. Tosh quollar va sopol buyumlarning parchalari qo'yilgan. Qabrdagi suyaklarda qizil rang izlar mavjud. Bu ularning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lgan.

Hozirgi kunda Kaltaminor madaniyati izlari Sirdaryoning quyi oqimi, Qizilqumning ichki hududlari va Zarafshonning quyi havzalarida topilgan.

Tadqiqotlar natijasida neolit davrida Zarafshon daryosining beshta tarmog'i Amudaryoga qo'shilganligi aniqlandi. Mazkur tarmoqlar Qizilqum xududida katta, kichik ko'llarni hosil qilgan. Zarafshon daryosining yirik tarmog'i Moxandaryo bo'lib, uning ham oqimida ko'llar shakllangan. Bugungi kunda ular suvsizlikdan sho'rlanib, xalk orasida katta tuzkon, kichik tuzkon deb atalib kelinadi. Shu qadimgi ko'l yoqalarida neolit davri aholisi iste'qomat qilgan. 1950 yillarda Ya.G'.G'ulomov Moxandaryo bo'ylab arxeologik qidiruv ishlarini olib bordi. 1960 yillarda esa bu xududda A.Asqarov bilan O'.Islomovlar tadqiqot ishlarini olib borib, 100 dan ortiq neolit davri manzilgohlarini topdilar.

Ular bir-biriga juda yaqin massofada joylashgan. Bu joylardan qirg'ichlar, pichoqlar, o'roq-randalar, nayza uchlari, o'roqlar, parma, teshkichlar, yorg'uchoq, qayroqtosh, bolta va boshqa buyumlar topilgan. Tosh qurollardan tashqari bu erdan, taqinchoqlar, munchoqlar, sopol idishlari topilgan. Sopol idishlarning katta- kichikligi, bezagi har xil bo'lib, og'zi kengroq, osti dumaloq shaklda bo'lgan. Lekin bu erda suyakdan qurollar topilmagan. Uning ko'plari mavsumiy manzilgohlar bo'lib, madaniy qatlamlar etarli saqlanib qolmagan. Faqatgina Darvozaqir manzilgohida madaniy qatlam yaxshi saqlangan.

Darvozaqir I makoni Buxoro viloyatining Qorako'l shaxarchasidan 40-45 km shimoli-g'arbidagi Katta Tuzkon ko'lidan 600-700 metr masofada joylashgan. U erda 3ta madaniy qatlam topilgan bo'lib, yuqori qatlami buzilib ketgan. Lekin undan ancha boy materiallar tosh mehnat qurollari - silliqlangan tosh boltalar, qirg'ich, teshgich, o'roq-randa, parma topilgan. Ikkinchi qatlamdan esa gulxan qoldiqlari va oz miqdorda qurollar topilgan. Uchinchi qatlamdan esa, o'choqlar va turar joy qoldiqlari, silliqlangan tosh bolta, boshqa xil tosh qurollar, to'lqinli chiziqlar bilan bezatilgan sopol buyumlar va hayvon suyaklari qoldiqlari topilgan.

Darvozaqir 1 makonida maydoni 81 kv.m bo'lgan to'g'ri to'rtburchakli turar joy qoldig'i saqlanib qolgan. Bu turar joy yog'ochdan yasilib, usti qamish bilan bekitilgan chayla bo'lgan. Xona ichida o'choq izlari topilmagan. U erda 30-35 kishi, bitta ona urug'i jamoasi yashagan.

Darvozaqir II makoni Katta Tuzkon ko'lining shimoliy qismida joylashgan. U bir qatlami neolit davri yodgorligidir. Makonning madaniy qatlamidan ko'p miqdorda tosh qurollari - qirg'ichlar, o'roqlar, pichoq, tosh ushatgich, teshgichlar, nukleuslar, uchrindilar, tosh chiqindilari topilgan. Jami 584 tosh buyumidan 35% tosh qurollari bo'lib, qolganlari tosh chiqindilaridir. Ular orasida pichoqsimon parrakchalardan yasalgan mayda qurolchalar ko'pchilikni tashkil etadi.

Makondan chig'anoq va marmardan yasalgan har xil shakldagi munchoqlar ham topilgan. Kaltaminor madaniyati sopol buyumlariga o'xshash har xil naqshlar bilan bezatilgan sopollar ham topilgan.

Katta Tuzkondan topilgan makonlarga o'xshash makonlar Kichik Tuzkon xududidan ham topilgan.

Darvozaqir madaniy yodgorliklariga o'xshash buyumlar Qashqadaryoning quyi oqimidan Qumsulton va Poykent pasttekisliklaridan ham topilgan. Poykent makonlaridan tosh bolta, qirg'ich, teshkich, o'roq qadamalar va sopol idishlarning siniqlari topilgan.

Quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridagi Darvozaqir I,II, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong'i Sho'r va Poykent makonlaridan topilgan tosh qurollar, sopol buyumlar va boshqa ashyolarning chuqur o'rganilishi ularning kaltaminor madaniyatiga oidligi va mil.avv. IV–III ming yilliklarga mansubligini ko'rsatdi.

Bu joylarda yashagan ibtidoiy odamlar termachilik, ovchilik va baliq tutib kun kechirishgan. Ilk dehqonchilik ham termachilik asosida shakllana boshlagan bo'lib, u hali xo'jalikda etarli o'rinni egallamagan edi.

Umuman Zarafshon vohasi yodgorliklar yaxshi o'rganilgan bo'lsada, uning yuqori va o'rta oqimi havzasida neolit davri yodgorliklari no'malumligicha qolib kelardi. O'tgan asrning 80 yillariga kelib, Sazag'on qishlog'idan neolit davriga oid yodgorlikning topilishi muxim ahamiyatga ega bo'ldi.

Sazag'on makoni Zarafshon daryosining o'rta xavzasida Samarqanddan 30 km janubi–g'arbda joylashgan qishlog'i joylashgan. Sazag'on makonidan neolit davriga oid ko'plab tosh qurollari va hayvon suyaklari topilgan. Sazog'on tosh qurollari Darvozaqir materiallariga o'xshab ketsa–da, ularning o'ziga xos mahalliy xususiyatlari bor. Jumladan, Kaltaminor madaniyatini yaratgan axoli ko'l va daryo bo'ylarida yashab, baliqchilik bilan shug'ullanib, shunga xos mehnat qurollari yaratgan bo'lsalar, sazog'on madaniyati axolisi tog'li xududlarda yashab, asosan ovchilik bilan shug'ullanganlar. Shu sabab makonni qazish vaqtida ovchilikka moslashgan mehnat qurollari bilan birgalikda yovvoyi va uy hayvonlarining suyak qoldiqlari ham topilgan. Demak, Sazog'on madaniyati aholisi yirik shoxli hayvonlarni qo'lga o'rgatib, ilk chorvachilik xo'jaligiga asos solganlar. Mehnat qurollari asosan tosh parchalari va qo'pol paraqalar asosida yasalgan. Uning tosh qurollarining ishlanish texnikasi Markaziy Farg'onaning mehnat qurollariga o'xshaydi. Turli qurol aslahalar tarkibida silliqlangan tosh boltalar, qadama toshlar, yog'uchoqlar, kamon poykonlari bor. Sopol idishlari naqshlangan. Shuningdek, makonni qazish vaqtida neolit davrining so'nggi bosqichiga oid bir necha qabrlar topib o'rganildi. Ma'lum bo'lishicha, bu odamlar evropoid irqiga

mansub bo'lgan. Shunday tipdagi odamlar odam qoldiqlari va dafn marosimlari Tojikistondagi Tutkovul makonida kuzatilgan. Makondan topilgan tosh industriyasi va boshqa topilmalarning umumiy xususiyati uning ilk neolit davriga taalluqli ekanligini asoslash bilan birgalikda Markaziy Farg'onadagi shu tipdagi yodgorliklarga o'xshashligini ko'rsatdi.

Markaziy Farg'ona neolit yodgorliklari ilk neolit bosqichiga oid yodgorlik bo'lib, u 50 yillarda tadqiq qilingan. Ular markaziy Farg'onaning cho'llarida topilgan bo'lib, bugungi kungacha 80 dan ortiq makon aniqlangan. Ular umumiy tarzda Markaziy Farg'ona madaniyati deb nomlanadi.

Neolit makonlari Qoraqalpoq dashtida, Mingbuloq, Sariqsuv, Oqqum, Damko'l va Qiziltepa massivlaridan topilgan. Ular jumlasiga Zambar 1,2, Yangiqadam 12,14, 16,19, 35, Mingbuloq, Sariqsuv, Uzunko'l, Dorozko'l, Madyor va boshqalarini kiritish mumkin.

Makonlarda madaniy qatlamlar saqlanmagan. Topilmalar tarkibida prizma, qalam shaklidagi tosh o'zaklar, qirg'ichchalar, randa burg'u, keskich qurollari ko'pchilikni tashkil etadi. Muxim qurollardan paykonlar topilgan. Ular asosan bargsimon shaklda bo'lib, ikkala tomoni ezish texnikasi asosida ishlangan. Qurollarning ko'pchiligi paraqa va tosh siniqlari asosida yasalgan. Qurol yasashda asosiy xom ashyo sifatida tabiiy silliqlangan qayroq chaqmoqtosh qo'llanilgan.

Demak, neolit davrida Farg'onaning markaziy tekisligida inson yashashi uchun ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lgan. Ular ko'l, daryo va buloqlar atrofida o'z makonlarini tiklab, ovchilik, baliqchilik va terimchilik bilan shug'ullangan. bularda geometrik shakldagi qurollarning mavjud emasligi Joytun va Kaltaminor madaniyatidan farq qilishini ko'rsatadi. Lekin tosh qurollarni yasash texnikasi ularning qo'shni qabilalar bilan aloqasi bo'lganligidan dalolat beradi. Tadqiqotlar natijasida uning mil.avv. VI –IV ming yilliklarning boshiga, ya'ni ilk neolit davriga oidligi aniqlandi. Faqatgina Markaziy Farg'onaning shimoliy qismida joylashgan Madyor 3,4 va boshqa makonlaridan topilgan qurollarning aksariyati so'nggi neolit davriga, ya'ni mil.avv. IV – III ming yilliklarga oiddir.

Qizilqir I makoni Buxorodan 40 km shimoli-g'arbda joylashgan. U erdan neolit davriga oid manzilgoh va ustaxona topilgan. Uning madaniy qatlamlaridan kaltaminor madaniyatiga xos bo'lgan qirg'ichlar, paraqalar, randalar, teshkichlar, mikrolit qurollari va sopol idishlarining parchalari topilgan. Makonda turar joy ham, toshdan qurollar va loydan sopol idishlar yasaydigan ustaxona ham bo'lgan.

Qizilqirning yuqori qatlami bronza davriga mansub. Quyi qismi esa, mil.avv.IV–III ming yilliklarga borib taqaladi. Tadqiqotlar bu erda hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi yashaganligini ko'rsatdi.

Kaltaminor madaniyatini yaratgan kishilar asosan, yovvoyi hayvonlarni ov qilib, baliq tutib, ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar. Uning so'nggi bosqichida ilk chorvachilik vujudga kelgan.

Quyi Amudaryo, quyi Zarafshon, Ustyurt va boshqa joylarga tarqalgan kaltaminor madaniyatini yaratgan qabilalar biqiy hayot kechirmay, atrofdagi qabilalar bilan o'zaro aloqada bo'lganlar.

Kaltaminor madaniyati mahalliy va janubiy mezolit madaniyatidan kelib chiqib, izsiz yo'qolib ketmagan. Bu madaniyat o'zidan keyingi Zamonbobo va Tozabog'yob madaniyatining vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Uchtut yodgorligi chaqmoqtosh qazib olish va birlamchi ishlov berish ustaxonasi xisoblanadi. Uni 1960 yil Ya.G'.G'ulomov boshliq ekspeditsiya Navoiy viloyatining Uchtut degan joyidan topishdi. Yodgorlik 1966–1967 yillarda T.Mirsoatov tomonidan keng ko'lamda o'rganildi va shu davrda o'ra(shaxta)lar topildi. Bu erdan tosh asrining turli bosqichlariga, asosan, neolit davriga doir topilmalar yig'ib olindi.

Dastlabki davrlarda ibtidoiy odamlar qoyalarda ko'rinib yotgan chaqmoqtoshlarni sindirib olganlar. Keyinroq chaqmoqtoshni qidirib, tog' yonbag'irlarida chuqurchalar qaziganlar. Neolit davrida esa xom ashyo olish uchun 4,5 va 5 metrli o'ralar kovlanganlar. Kerakli xom ashyoni olish uchun o'ra(shaxta)ning pastki qismidan har tomonga qo'shimcha yo'laklar ochib borilgan. O'ralar maxsus tosh, suyak va yog'ochdan yasalgan kurakchasimon qurollar yordamida qazilgan. O'ralarning devorlaridagi kurakchalarning izlari haligacha o'chmagan. O'ra kovlangan vaqtda ishga yaroqli xom ashyoga duch kelinsa, konchilar ularni tosh boltalar yordamida kovlab olganlar. Shuningdek, u erda o't yoqib toshni qizdirishgan va sovuq suv quyib, portlatganlar. Ular keragicha xom-ashyodan olib, keyinchalik o'ralar og'zini xarsang toshlar bilan yopib qo'yganlar. Arxeologlar bu erda 100dan ortiq bunday o'ziga xos o'ralar-shaxtalarni topganlar, ularning faqat 35tasini o'rganganlar.

Uchtut yodgorligi singari shaxtalar faqat neolit davri yodgorliklarida uchraydi. Neolit shaxtalari Angliya, Fransiya, Daniya, Shimoliy Germaniya va Belorussiya kabi davlatlarda ham uchraydi.

Qoyatosh rasmlari yodgorliklari O'zbekistonning tog'lik rayonlarida keng tarqalgan. Ular ishlanish texnikasiga ko'ra ikki turda bo'ladi: Birinchisi har xil bo'yoqlar bilan ishlanadi, ikkinchi turida esa, urib– o'yish yo'li bilan ishlanadi.

O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda rangli bo'yoqlar–oxra bilan ishlangan rasmlar juda kam topilgan. Asosan urib–o'yib, chizish usuli bilan ishlagan rasmlar, ya'ni petrogliflar juda keng tarqalgan.

O'zbekistonda qoya tosh rasmlarini o'rganish ishi asosan o'tgan asrning 30 yillaridan boshlangan. Bu sohada G.V.Parfyonov, A.P.Okladnikov, X.Botirov, M.Xo'janazarov, Yu.Buryakov va boshqalarning xizmatlari kattadir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng ajoyib namunalariga Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Qorachorvoqsoy, Ko'ksaroy, Ilonsoy, Teraklisoy, Tutlisoy, Sho'rbuloqsoy, Xo'jakent va boshqalarni kiritish mumkin. Ular jami 100 dan ortiq joydan topilgan.

Mazkur joylardagi qoyatosh suratlarda turli xayvonlarning tasvirlari, odamlarning harakatlari, ov manzaralari aks etgan. Ko'pincha bu tasvirlarda o'sha davr odamlarining diniy qarashlari bilan bog'liq tuchunchalar aks etgan. O'zbekiston xududidan topilgan eng mashhur yodgorlik Zarautsoy yodgorligi bo'lib, unda buqa va echkilarni ovlash manzarasi aks etgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu manzara mezolit va neolit davrlarining mil.avv. VIII –IVming yilliklarga mansubdir.

Qoyatoshlarga ishlangan tasvirlar arxeologik yodgorliklarning bir turi sifatida ajdodlarimiz madaniyati tarixini o'rganishda juda muxim ahamiyat kasb etadi. Qoyatosh rasmlari orqali qadimgi davr kishilarining xo'jalik xayoti haqida, hayvonlarni ov qilish, qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish, chorvachilikning vujudga kelishi, uning turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlari qadimgi ota–bobolarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodini o'rganishda juda muxim tarixiy manba hisoblanadi. Ma'lumki mezolit davrida bizni Markaziy Osiyo xududlaridagi ayrim yodgorliklarda dehqonchilikka o'tmagan bo'lsalarda chorvachilikni ilk ko'rinishlari namoyon bo'lgan edi. Neolitga kelib esa, nafaqat chorvachilikka, balki dehqonchilik bilan ham shug'ullanuvchi jamoalar ham vujudga keldi. Bunday xolat ajdodlarimizni nafaqat moddiy ishlab chiqarishlarida, balki ma'naviy hayotlarida ham katta o'zga-rishlarga olib keldi. Ammo barcha joylarda ham o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish bir vaqtni o'zida sodir bo'lmadi. Balki turli sabablarga ko'ra taraqqiyotni noto'g'ri rivojlanishi oqibatida bir vaqtni o'zida turli regionlarda turlicha rivojlanish yuzaga keldi. Masalan: Markaziy Osiyoning shimoliy qismida Kaltaminor madaniyatini sohiblari ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullangan bo'lsalar, uning sharqiy qismida Hisor madaniyati odamlari chorvachilik bilan, janubida esa Joyitun madaniyatining odamlari dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Bu uch xil yo'nalishdagi xo'jaliklar bir vaqtni o'zida, ya'ni neolitni o'zida bo'lib o'tgan. Markaziy

Osiyo neoliti o'rta hisobda eradan avvalgi VI-IV ming yillikdan to III ming yillikkacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Neolitga kelib, mezolitga nisbatan jamoalarni turli joylarga o'rnashuvlari ancha jadal sur'atlar bilan sodir bo'ladi. Natijada ular turli xildagi neolit davri mada-niyatiga ega bo'ladilar. Ularni xilma-xilligi mehnat qu-ollarida, xo'jalik asboblarida, turar joylarida va xo'ja-lik yuritish usullarida yaqqol ko'rinadi. Neolitga kelib, aholini soni ham juda sezilarli darajada ko'payadi. Olimlarimizni taxminiy hisob-kitoblariga qaraganda, agar me-zolitda aholini soni 5,32 mln. bo'lgan bo'lsa, neolitga ke-lib ularni dunyo bo'yicha soni 86,5 mln. ga etadi. Shuni ta'kidlash joizki, garchi neolitga kelib, o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish nisbatan sezilarli darajada bo'lgan bo'lsada, hali juda ko'p joylarda o'zlashtiruvchi xo'jalik xukmronlik qilar edi. Ammo shunga qaramay mehnat qurollarini yasashda va ularni turlarini ko'payishida katta yutuqlarga erishildi. Daraxtlarni qirqish va yog'ochlarga ishlov berish kabi vazifalarni bajaruvchi bolta, tesha (teslo), iskana (doloto) larni roli oshdi. Shu bilan birga neolit davri davomida mezolitda boshlangan tosh quollariga ishlov berish usullari tobora takomilla-shib bordi: o'zaklardan plastinkalarni uchirib olish texni-kasi va ezib ishlov berish (odjimmaya retush') usullari rivojlandi. ezib ishlov berish usuli bilan ilgarigidek kamon o'qlarini irg'itib sanchishga mo'ljallangan nayza (drotik) larni, teshishga moslashtirilgan (prokolka) larni va pichoqlarni yasashda davqom etildi. Mikrolitlardan, ya'ni plastinkalarni siniqlaridan geometrik shakldagi moslamalardan va mayda uchirindilardan xanjar hamda nay-za uchlarini yasash ham takomillashdi. Mezolitda paydo bo'lgan boltalarni silliqlash (shlifovannne) takomillasha-di. Bunday xolatlar, ayniqsa o'rmonzor xududlarda jadal sur'atlar bilan rivojlanadi. Arxeolog olimlarni o'tkazgan tajribalari shuni ko'rsatdiki, boltalarni silliqlash va dasta o'tqazish uchun teshish kabi jarayonlar uncha ko'p vaqtni olmagan. XX asrni 70- yillariga qadar arxeologlarni o'rta-sida bitta boltani dasta o'tqazish uchun teshish jarayoni shunday uzoq davom etganini, otasini ishini bolasi, xatto nabirasi davom ettirgan degan tushuncha bor edi. Ammo keyingi yillardagi tajribalar shuni ko'rsatdiki, bitta boltani teshish jarayoniga 2-3 soat vaqt kifoya qilgan, xolos. Chunki neolit davri odamlariga nafaqat „boltalarni sil-liqlash texnikasi, balki ularni parmalash usuli (prosver-lenie) ham ma'lum edi. Boltalarda teshik xosil qilib, ularga dastalarni o'tkazilishiibtidoiy odamlarga juda kat-ta imkoniyatlar yaratdi. endi ular bu dastali boltalar yor-damida o'rmonlardan daraxtlarni kesib kelib uylar xatto qayiqlar yasay boshladilar. Qayiqlar odatda yo'g'on daraxt-larni tanalarini tosh boltalar yordamida o'yib

yasalgan. Bu jarayon o'z navbatida katta mehnatni talab qilgan, albatta. Shuning uchun ham ajdodlarimizni bu kabi ishlarni bajarganliklarini ko'z o'ngimizga keltirganimizda ular bunday ishlarni bajarish uchun bir necha yillar davomida o'z vaqtlarini sarflagan bo'lsalar kerak deb o'ylaymiz.

Neolitda aholi sonini o'sishi bilan ularni taraqqiyoti tobora yuksalib, menat qurollarini xillari ham ko'payib, ana shu turli qurollarni yasash uchun zarur bo'lgan chaqmoq-toshlarga ehtiyoj kuchaygan. Chunki million yillar davomida mehnat va ov qurollarini yasab tajriba orttirgan ajdodlarimiz barcha turdagi toshlarni qaysi xil samarali ekanligini anglab etganlar. Nafaqat bizni Markaziy Osiyoda, balki er yuzidagi neolit odamlarini hammasi ko'p xildagi tosh jinslari orasida eng samaraligi chaqmoqtosh (kremen) ekanligiga iqror bo'lganlar. Er yuzidagi barcha yodgorliklardan topilgan mehnat va ov qurollarini eng sifatli va qimmatli chaqmoqtoshdan yasaganliklari buni guvohidir. Chaqmoqtoshni boshqa tosh jinslaridan asosiy farqi shundaki, undan uchirilgan uchirindilarda va plastinkalarda boshqa turdagi tosh jinslariga xos bo'lmagan o'tkir qirralar hosil bo'ladi. Ajdodlarimiz tomonidan uchirib olingan plastinkalardagi o'tkir qirralar shu qadar nozik va nafiski, ularni o'tkirligi hozirgi zamon lezviyasiga o'xshab ketadi. Bunday o'tkir qirrali mehnat qurollarini faqat chaqmoqtosh jinsidagina qilish mumkin edi. Boshqa tosh jinslarida bunday xususiyat yo'q edi. Ajdodlarimizga o'z davrlarida nima zarur edi? Birinchi navbatda yog'ochlarga, suyaklarga ishlov berish uchun ularni qirish, kesish, qirish kabi vazifalarni bajarish uchun o'tkir va keskir qirralar kerak edi. Bunday qirralar chaqmoqtosh o'zaklaridan uchirilgan uchirindilarda va plastinkalardagina bo'lar edi. Boshqa tosh jinslaridan uchirilgan uchirindi yoki plastinkalarda ham qirralar bo'lar, ammo ular chaqmoqtoshlarnikiga nisbatan qo'pol va dag'al bo'lib, ularni samarasi ancha past darajada edi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ajdodlarimiz chaqmoqtoshlarni boshqa tosh jinslariga nisbatan afzalliklarini neolitga kelib emas, balki ancha ilgari must'eva davrida ham anglab etganlar. Ammo bu chaqmoqtoshlar qaeatlarda bo'lishini va ularni qanday qilib «ona qorni» dan ajratib olishni uzoq vaqtlar mobaynida bilmaganlar. Chunki chaqmoqtoshlar ajdodlarimizni ko'zlaridan ancha narida yashirin xolatda edilar. Chaqmoqtoshlar er yuzining turli joylarida turlicha xolatda xar xil qatlamlarda, aniqrog'i ularni orasida turli xajmda joylashganlar.

Nazorat savollari:

1. Neolit davrining xo'jalik madaniy hayoti qanday edi?.

2. Neolit davri yodgorliklari to'g'risida ma'lumotlar bering.
3. Dehkonchilik va chorvachilikning kelib chiqishi va rivojlanishi qanday yuz bergan?
4. Kaltaminor madaniyati to'g'risida nima bilasiz?
5. Neolit davri yutuqlari to'g'risida nima bilasiz?
6. Ushtutdagi neolit davri shaxtalari to'g'risida nima bilasiz?
7. Neolit davri qoyatosh suratlari to'g'risida nima bilasiz?

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.: "Fan va texnologiya" 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон". 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. "Адолат". 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: "Вече", 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: "Университет", 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

5 -modul Eneolit davri xususiyatlari

7-mavzu: Eneolit davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.

1. Misning kash etilishi va undan mehnat qurollari yasashning ixtiro qilinishi.
2. Eneolit davrini o'rganilishi.
3. Eneolit davrining o'ziga xos xususiyatlari

Tayanch tushunchalar: Mis – tosh asri, xumdon, mudofaa istexkomlari, rangdor idishlar, terrakota (pishirilgan loy), muxr.

Neolitdan keyingi davr eneolit deb ataladi. Lotincha “acneus”-mis va yunoncha “litos”-tosh so'zlaridan olingan bo'lib, mis-tosh davri ma'noni anglatadi. Eneolit miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarni o'z ichiga oladi. U ko'p hududlarda neolit davri jamoalari bilan bir vaqtda hukmron bo'lgan. B.A.Kuftin va V.M. Massonning janubiy Turkmanistonda olib borgan arxeologik tadqiqotlari asosida eneolit davrining rivojlanish bosqichlarini aniqladilar va eneolit davri rivojlanishi ilk, o'rta, so'nggi bosqichlarga bo'ldilar. Ular tadqiqodi natijasiga ko'ra, Nomozgoh-1-ilk eneolit davriga, Namozgoh-2- o'rta eneolit davriga, Namozgoh-3-so'nggi eneolit davriga xosdir. Eneolit davrida sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik ibtidoiy xo'jalikning asosini tashkil etgan

Enolit - lotin va yunoncha so'zlaridan yasalgan bo'lib, «alneus» - lotincha mis, «litos» - yunoncha tosh degan ma'noni anglatadi. **Eneolit atamasi bilan birga "Xalkolit" ("xalkos" yunoncha mis demak) ham ishlatiladi. Eneolit neolit bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Ammo ular orasida xronologik jihatdan katta farq bo'lmasada, madaniy darajalari jihatidan bir-biridan farqlanadi.**⁹ Masalan, Yevropa va Osiyoning ko'p hududlarida miloddan avvalgi IV-III ming yillikda neolit qabilalari yashagan, ular bu vaqtda metaldan xabardor bo'lmagan, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Yevropa va Osiyoning boshqa o'lkalarida aynan shu paytda metallardan bir oz xabardor eneolit qabilalari yashagan va ularning xo'jaliklari odatda dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan. Miloddan avvalgi IV ming yillikda (mis) metallning qimmatli xususiyatlari bilib olingan. Natijada dastlabki metallurgiyaga asos solingan.

Eneolit davri yodgorliklarida rangli sopol buyumlar ko'plab topilgan. Xitoydan Dunaygacha (Ruminiya) «sopol makonlari» sifatida keng tarqalgan makonlar xarakterli bo'lib, shu xususiyatga ega bo'lgan makonlarda ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi ko'zga tashlanadi. Bir-biriga juda kam o'xshaydigan ijtimoiy- iqtisodiy sharoit hamma erda amaliy san'atning bir-biriga o'xshash shakllarini taqoza etgan. Ammo sopol buyumlar bir-biriga o'xshasa ham aynan bir xil emas.

⁹ Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

Eneolit makonlari birinchi bo'lib Ikki daryo oralig'i va Misrda vujudga kelgan. ¹⁰Arxeologlar eneolit davriga xos bo'lgan 5 umumiy birlashtiruvchi alomatni ajratib ko'rsatadilar:

1. Xo'jalikning hamma turidan ko'ra motiga bilan qilinadigan dehqonchilikning ustunligi;
2. Chaqmoqtosh qurollar ko'p bo'lishi bilan birga mis qurollarining paydo bo'lishi.
3. Katta-katta ibtidoiy jamoa birlashmalarining katta-katta paxsa uylarining mavjudligi;
4. Hayvonlarning loydan yasalgan va onalik urug'iga xos bo'lgan haykalchalarning mavjudligi;
5. Rangdor sopol buyumlari (gul solingan) ning tarqalishi.

Yuqoridagi alomatlar Misr, Mesopotamiya makonlarida, keyinroq Yevropa, Markaziy Osiyo yodgorliklarida ko'zga tashlanadi. Eneolitda Mesopotamiyada rangdor sopol buyumlarga katakli bezaklar, Misrning rangli sopol buyumlariga esa syujetli suratlar chizilgan. Osiyo va Yevropaning keng hududlarida esa rangdor sopol makonlari tarqalgan.

Eneolit makonlarining ko'pchiligida, ya'ni dehqonchilikning ibtidoiy usullari tarqalgan hududlarida rangdor sopol buyumlar tarqalgan bo'lsada, ba'zilarida mutlaqo uchramaydi. Masalan, Germaniya, Frantsiya, Yevropaning yana boshqa mamlakatlarida eneolit makonlarida rangli sopol buyumlar yo'q. Aksincha, bu yerdagi makonlarda naqshi tasma-tasma qilib o'yilgan kulolchilik buyumlari mavjud bo'lgan. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistondagi eneolit makonlarida sopol buyumlar sirti qizil yoki qora bo'yoqlardan ishlangan geometrik shakllardan iborat bo'lgan.

Eneolit makonlari yer yuzida dastlab Ikkidaryo va Misrda vujudga kelgan. Yuqorida ko'rsatilgan eneolit besh alomati bu mamlakatlardagi yodgorliklarda mavjud bo'lgan. Masalan, Ikkidaryo oralig'ining rangdor sopol buyumlariga bezaklar chizilgan. Misrning rangli sopol buyumlariga syujetli suratlar solingan. Miloddan avvalgi IV-III ming yillikda Ikkidaryo oralig'i va Misrda (eneolit hali davom etayotgan davrda) qul-dorlik asosida yuksak madaniyat yuzaga kelgan. Ammo bu vaqtda Osiyo va Yevropaning katta hududlarida unumdor ho'jalik shakllari endi rivojlana boshlagan edi.

Eneolit davriga xos bo'lgan birinchi xususiyat bevosita unumdor xo'jalik shakli - dehqonchilik mashg'ulotiga borib taqaladi. Eneolit davrida dehqonchilikda motiga bilan ishlov berish ustun darajada bo'lgan. Ammo o'z xususiyatiga ko'ra misdan foydalanish mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, dehqonchilikda motiga tishi sifatida toshdan foydalanilgan. Mis qurollar tosh qurollarga nisbatan takomillashgan bo'lsa-da, u kuchli, og'ir va qattiq qurollar yasashga yaroqsiz edi. Mis o'z xususiyatiga ko'ra yumshoq va juda tez o'z shaklini o'zgartirgan. Shuning uchun ham motiga tishi sifatida toshdan foydalanilgan.

¹⁰ T.Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

Mis-tosh davrida odamlar metall bilan tanishadi. Ungacha ibtidoiy odamlar 2-3 million yillar davomida faqat toshdan, yog'ochdan va suyakdan yasalgan qurollardan foydalangan edilar. Mis qurollar qattiq, kuchli bo'lmay, ayrim xususiyatlari jihatdan tosh qurollarga nisbatan pastroq darajada bo'lsa-da, o'zining shakli, ishlab chiqarish jarayonida qo'llanishidagi qulayligi, shuningdek juda tez turli shaklga kelishi oson bo'lganligi uchun ham chaqmoqtosh qurollar bilan parallel holda ishlatila boshlangan.

Ma'lumki, eneolit davrida Markaziy Osiyo aholisi madaniyati bir bosqich yuqori ko'tarilgan. Lekin ularning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bir xil darajada bo'lmagan. Bu davrda unumdor xo'jalikka asoslangan qabilalar tezroq rivojlangan. Qo'shimcha ho'jalik bilan mashg'ul bo'lgan kishilar madaniy jihatdan bir necha yuz yillar orqada bo'lgan. Urug' munosabatlari ham tobora taraqqiy topib, kengaya boshlagan. Endi kichik-kichik oilalardan iborat bo'lgan urug' makonlari o'rniga bir necha urug'lar yashagan yirik manzillar paydo bo'ladi, ular jamoa birlashmalarini tashkil etadi. O'troq hayot ko'nikmalarini egallayotgan qabilalarning xom g'ishtdan yoki paxsalardan qurilgan katta-katta uylari paydo bo'ladi.

Yirik jamoa birlashmalari yashagan makonlardan ko'plab mehnat ov qurollari, zeb-ziynat buyumlari topilgan. Moddiy topilmalar ichida ayollarning ijtimoiy hayotdagi e'tibori va mavqeini ko'rsatuvchi haykalchalari ham bo'lgan.

Eneolit makonlari yer yuzining turli nuqtalari - Xitoy, Eron, Markaziy Osiyo, Ukraina, Bolgariya, Gretsiya, Frantsiya, Germaniya hududlaridan topib o'rganilgan. Mesopatamiyada Xassuan yodgorligi, Eronda So'za kompleksi, Ukrainada Tripole madaniyati, Kavkazortida Shengavit, Turkmanistonda Anov, Nomozgoh makonlari eneolit davriga mansubdir.

Eneolit makonlaridan topilgan qurollarning eng ko'p tarqalgani - retushlangan egri o'roqlar va silliqlangan tosh motigalardir. Egri o'roqlar barcha mamlakatlarda eng qadimgi dehqonchilik xo'jalik mashg'uloti bilan birga paydo bo'lgan. Yevropa va Osiyo hududlaridan topilgan makonlarda 3 xil don - bug'doy, arpa va tariq qoldiqlari topilgan. Bu donlarning yovvoyi xillari Yevropada yetishtirilgan. Ular bu yerlarga Markaziy Osiyo va Hindiston hududlaridan olib kelingan.

Eneolit davri iqlim sharoiti hozirgi davrdan ancha farq qilgan. Yog'ingarchilik ko'p bo'lgan. Tog' oldi soylari, daryolar sersuv bo'lib, ular cho'l zonalarining ichkarisigacha kirib borganlar. Eneolit jamoalari shu suv etaklarida o'zlariga manzilgohlar qurib, yangi erlarni o'zlashtirganlar.

Eneolitning ilk bosqichida aholi bir-biriga zich qilib qurilgan bir xonali uylardan iborat qishloqlarda istiqomat qilganlar. Uylar tor, kvadrat shaklida xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, xona devorlari somonli loy bilan suvalgan. O'rta bosqichida esa qishloqlarning markaziy

qismi mudofaa devori bilan o'ralib, ko'p xonali uylar ham uchraydi. Ularning orasida doira shaklidagi xonalar ham bo'lib, tadqiqotchilar fikricha bu ibodatxona bo'lib, ular bu erda olovga sig'inishgan. Eneolitning so'nggi bosqichida qishloqlar hududi kengayadi va ko'p xonali uylarning soni oshadi. Ularda dahlizlar va hovlilar vujudga keladi. Hovlilarni birlashtiruvchi tor ko'chalar rasmiylashgan va ularning hammasi qishloqning markazidagi maydonga chiqqan. Har bir uyda xo'jalik kompleksi-omborxonalari bo'lgan.

So'nggi bosqichda qishloqlar yiriklashib, shaharlar qiyofasiga o'ta boshlagan. Shu jihatini inobatga olib, arxeologlar uni shaharlargacha (protogorod) bo'lgan davr madaniyati belgilari deb hisoblaydilar.

Eneolit davrida mehnat qurollari asosan toshdan, hayvon suyaklaridan va qisman misdan yasalgan. Mis mehnat qurollari mavjud bo'lganligi eng qadimgi mehnat qurollarini ximiyaviy analiz qilish asosida isbotlandi. Dastlabki mis qurollar sof misdan yasalgan. Odamlar dastlab misni toshning bir turi deb, sovuq holda ishlov berganlar. Miloddan avvalgi IV ming yilliklardagina uning olovda erish xususiyati kashf etilgan. Mis qurollari yumshoq va egiluvchan bo'lganligi sababli tosh qurollarni siqib chiqara olmagan.

Eneolit davridagi mehnat qurollari asosan dehqonchilik xo'jaligi bilan bog'liq edi. Bu qurollar chaqmoqtoshdan ishlangan qistirma o'roq, pichoq, o'roq randa, qirg'ich, bigiz, yorg'uchoq, ketmoncha va boshqalar bo'lgan. Misdan bigiz, igna, to'g'nag'ich, bolta, pichoq, nayza, kurakchalar va turli taqinchoqlar yasaganlar.

Eneolit davrining ilk va o'rta bosqichida sopol loyiga maydalab ezilgan somon qo'shib idish yasalgan. Bu sopol buyumlar qalin va mo'rt bo'lib, tagi yassi bo'lgan. Sopol idishlar sarg'ish, och sariq, och qizil va qizil angob bilan bo'yalib, qora mineral rang bilan sodda geometrik naqsh berilgan.

So'nggi bosqichida esa sopol idishlar yasashda katta o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, sopol buyumlar sifati yaxshilanadi, ya'ni loyga gips aralashtiriladi. Natijada sopol buyumlar jarangli va mustahkam bo'ladi. Ikkinchidan ba'zi sopol idishlarda 3 tadan oyoq paydo bo'ladi. Uchinchidan sopol buyumlar naqshi murakkablashib, jimjimador bo'ladi va hayvon, parrandalarning rasmini solish odat tusiga kiradi. Sopol idishlar turi ko'paygan.

O'zbekiston hududida Amudaryo etaklaridagi eneolit davri yodgorliklarini S.P. Tolstov, quyi Zarafshon hududlarini Ya.G'. G'ulomov, A. Asqarov, O'. Islomovlar tadqiq qilishgan.

O'rta Osiyoning shimoliy va markaziy hududlaridagi qabilalar metall bilan miloddan avvalgi III ming yilliklar oxiri va II ming yilliklarning boshlarida birinchi bor tanishishgan hamda bu hududlardagi eneolit davri makonlari qalin madaniy qatlamga ega bo'lmagan, ular

qisqa muddatli makonlar tipidagi qishloqlar bo'lgan. Shunday makonlar Zarafshonning quyi oqimida Kaptar ko'li va Katta Tuzkon-35 mavzelari atrofining 4 ta joyidan eneolit davri makonlari topilgan. Bu yodgorliklar 1960 yillarning boshlarida A.Asqarov va O'.Islomovlar tomonidan o'rganilgan. Bu joylardan miloddan avvalgi III– II ming yillikning chegarasida iste'qomat qilgan eneolit davri urug' jamoalarining kulbalari qoldiqlari topilgan. Ularning madaniy qatlamlari ming yillar davomida shamollar ta'sirida buzulib ketgan. Moddiy buyumlar – yorg'uchoqlar, o'roq, pichoq qadamalari, mis mehnat qurollarining siniqlari taqir va qum ustida sochilib yotgan.

Yer yuzining ko'p hududlarida eneolit davri ibtidoiy dehqonlarning qishloqlari keng tarqalgan. Ular ho'jaligida dehqonchilik va chorvachilik asosiy mashg'ulot bo'lishi bilan birga, ovchilik ham mavjud bo'lgan. Ovchi qabilalarning faoliyati izlari ularning mozor qo'rg'onlarida saqlanib qolgan. Ularning eneolit davriga xos bo'lgan "Qadimiy chuqur" mozor qo'rg'onlari deb atalib, yer yuzida ulardan qadimiyrog'i yo'q. Ular miloddan avvalgi III ming yillikka oid. Qabr tagidagi oddiy go'r chuqurlar bu davr uchun nom bo'lgan. Qadimiy chuqur mozor-qo'rg'onlarida chaqmoqtosh o'q uchlari, qirg'ichlari pichoqsimon tosh qurollar uchraydi.

Eronning Koshon shahri yaqinida ko'pqatlamli eneolit davriga oid manzilgoh xarobasi topib o'rganilgan. Bu yerdan turar joy qoldiqlari, qabrlar, sopol idishlar, mis va jez (bronza) dan ishlangan qurollar va boshqalar topilgan.

Sialktepa manzilgohi 3 ga maydonni tashkil etib, bir nech bosqichdan iborat va o'ziga xos madaniyatni hosil qilgan (Sialk I). Tehron vohasida aynan shu madaniyatga xos, juda ko'p va qiziqarli ashyolarni o'zida jam qilgan Ray shahri yaqinida Chashma Ali manzilgohi topib o'rganilgan (Sialk III). Markaziy Eronning katta hududida, Qum shahridan Sialk II bosqichiga xos Qalai Duxtar manzilgohi topib o'rganilgan. Ularning hammasida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida rangli sopol buyumlari, turli xil mis va jezdin yasalgan qurollar, paxsa va xom g'ishtdan qilingan ko'p xonali uylar, tosh qurollari topilgan. Uylarning asosi xom g'ishtdan qilinib devori paxsadan iborat bo'lgan, pol qismi ham ba'zi hollarda xom g'ishtdan iborat bo'lgan, devorlari esa loy bilan suvalib qizil rang bilan bo'yalgan.

Sialk manzilgohida bevosita XX asrning 60-yillarida qazuv ishlari olib borgan R.Girshmannning ta'kidiga ko'ra, sopol buyumlarini asosan maxsus xumdonlarda pishirishgan. Ular asosan geometrik shakldagi naqshlar bilan bezatilgan, ayrim hollarda esa echki tasviri ko'zga tashlanadi.

Hozirgi Xuziston viloyatida, Diza yoki Abi-Diza daryosi irmoqlari bo'yida 1,5-2 ga maydonga ega ko'plab manzilgohlar joylashgan. Ular Eronning Suza madaniyatiga xos bo'lgan

eneolit davri yodgorliklaridir. Bu protoelam yoki suza kompleksi nomini olgan manzilgohlarga Jafarobod, Jovi va Bendebalni kiritish mumkin.

Jovida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida mis buyumlari topilmagan bo'lsa-da, ko'plab sopol buyumlari, tosh qurollar, ho'kiz, echki va qo'y, ba'zan ayol haykalchalari topilgan. Tosh bolta va motigani bitum bilan mahkamlanganligini ko'rish mumkin. Sopol buyumlarning zoomorf va antromorflar belgilar uchraydi.

Bendebal kompleksidagi sopol buyumlarining katta qismida hayvonlarning tasviri tushirilgan.

O'zbekistonda eneolit yodgorliklar yaxshi o'rganilgan. Arxeolog S.P. Tolstov Quyi Amudaryo etaklarida neolitdan mis-tosh davriga o'tish davrini aniqlagan. Quyi Zarafshon vohasining qadimgi eneolit makonlari arxeologlar Ya.G'ulomov, A.Asqarov, O'.Islomovlar tomonidan o'rganilgan. Arxeolog olimlarning fikricha Buxoro viloyatining Lavlakon va Beshbuloq qishloqlarida, Zamonbobo I qabristonidan topilgan moddiy manbalar eneolit davriga oiddir. Bu makondan chaqmoqtosh qurollar bilan birga misdan yasalgan ignalar, munchoqlar ham topilgan.

Quyi Zarafshonning Kaptarqum va Kattatuzkon manzillarida to'rt joydan eneolit yodgorliklari topilgan. Bu yerdan toshdan ishlangan yorg'uchoq-lar, o'roq pichoqlar, pichoq qadamalar bilan birga misdan ishlangan qurol siniqlari qazib olingan.

1977 yilda Yuqori Zarafshon (Tojikiston bilan O'zbekiston chegarasida) hududida Sarazm qishlog'i xarobasi topilgan. U eneolit davriga oid muhim yodgorlik bo'lib, o'rganilgan moddiy manbalar O'zbekistonda dehqonchilik qabilalarining O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga siljiganini ko'rsa-tadi. Chunki, shimol ziroatchilari janubiy O'rta Osiyoning Turkmaniston dehqonchilik markazlari bilan bog'langan edi. Sarazm yodgorlikligini olimlar to'rt bosqichga bo'ladi. Bu yodgorlik AQSh, Fransiya olimlarini ham e'tiborini tortgan, ular ham turli yillarda ilmiy izlanishlar olib borgan. Sarazm yodgorligi eneolit davridan ilk bronza davrigacha yashagan bobodehqonlar manzilgohi ekanligi aniqlangan.

Sarazm 90 ga maydonni egallagan, 10 ta tepalikdan iborat yodgorlikdir. Sarazm I eneolit davriga oid bo'lib, bu erdan topilgan idishlarda qora va qizil bo'yoqlarda ishlangan geometrik shakllar mavjud.

Sarazm II so'nggi eneolit va ilk bronza asriga o'tish davriga mansub. Bu bosqich naqshsiz sopol buyumlari bilan xususiyatli. Sarazm III-IV esa bronza davriga mansub.

Sarazm I bosqichida guvaladan kulbalar qurgan dehqonlar manzilga asos soladilar. Arxeologlar bu erdan mudofaa devorlari bilan o'ralgan 48ta kulba, ya'ni paxsadan qurilgan uyni topib o'rganganlar. Bu uylar 2-3 xonali qilib qurilgan bo'lib, ular yakka, kichik oilalarga mo'ljallangan.

Xonalardan kichik, dumaloq shakldagi o'choqlar topilgan. Bular - otashkadalar, jamoa olovi o'rni bo'lib, unda olov saqlangan. Otashkadalar e'tiqod markazi yoki joyi hisoblangan.

Yana bir eneolit va bronza davriga oid bo'lgan yodgorlik qoldiqlari Zamonbobo madaniyati nomi bilan mashhur. Arxeolog Ya.G'ulomov 1950 yil qadimgi qabriston qoldiqlarini topib, o'rganadi.

Ma'lumki, kishilik madaniyatining bir necha ming yillarni o'z ichiga oluvchi tarixi yozuv bo'lmagan davrga to'g'ri keladi. 5 ming yillik tarixiy davrdan ilgarigi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy jarayonlar moddiy topilmalarni o'rganish orqali tiklanadi. Eneolit mis-tosh davrining o'ziga xos tarixi, biz yuqorida keltirib o'tgan 5 madaniy jarayonda o'z aksini topgan. Eneolitning besh umumlashtiruvchi alomatlari bu davr qabilalari madaniyatining o'zidan oldingi davrlarga nisbatan bir bosqich yuqoriga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Sarazm moddiy topilmalari ichida Shimoliy Afg'aniston, Eron, Kaltaminor madaniyatiga mansub buyumlar ham bor. Ular eneolit davri qabilalarining keng madaniy va iqtisodiy aloqalarda bo'lganligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda eneolit yodgorliklari Turkmaniston hududlarida yaxshi o'rganilgan. Turkmanistonda eneolit 3 bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilk eneolit (Anov I, Nomozgoh I makonlari).
2. Rivojlangan eneolit (Anov II, Nomozgoh II).
3. So'nggi eneolit (Nomozgoh III).

Turkmaniston eneolit makonlaridan tosh qurollar (o'roq va pichoq qadamalar, qirg'ichlar, sopol idishlar geometrik shakllar bilan naqshlangan) topib o'rganilgan. Bu davr makonlarida uy joylar paxsa yoki g'ishtdan, dumaloq va to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan. Inshootlarning o'rtasida markaziy o'choq bo'lgan. U diniy marosimlar o'tkazish va e'tiqod joyi vazifasini o'tagan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar yerga, quyoshga, suvga, hosildorlikka sig'inishgan. Murdani ko'mishda urug' a'zolarining saganalari paydo bo'lgan. Murdaning yoniga sopol idishlar, mehnat qurollari va zeb-ziynat buyumlari qo'yilgan. Eneolitda ibtidoiy diniy tasavvur - totemizm hayvonlar haykallarini tarqalishida ko'zga tashlanadi.

Kavkazortining eneolit davriga oid ilk dehqonchilik manzilgohlari mil. avv. VI ming yillikning oxiri - IV ming yillik boshlari bilan davrlashtiriladi, ammo bu yerdagi birorta manzilgoh to'liq ochib o'rganilmagan. Ular orasida Kyultepa (Ozarbayjondagi Naxichevan yaqinida), Shulaverisgora (Gruziya), Texut (Armaniston) va boshqalar.

1-2 ga maydonga ega manzilgohlarda paxsadan yoki xom g'ishtdan qilingan, markazida o'chog'i bo'lgan aylana shaklidagi bir xonali uylar bo'lgan. Unda kichik bir oila yashagan. Umumiy holda olganda 30-40 uylar o'zaro birlashib mahallachani hosil qilgan va undagi aholi 120-150 kishini

tashkil etgan. Tadqiqotlar jarayonida tosh, shox va suyakdan qilingan qurollar topilgan. Aruxlo I (Armaniston) va Imrisgora (Gruziya) da dehqonchilik yerlarini sug'orish uchun sodda, bir martalik kanal izlari topilgan.

Markaziy Kavkazbo'yi hududida Agubekov va Kabardin-Balkariyadagi Nalchik mozor-qo'rg'oni topib o'rganilgan. Nalchik mozor-qo'rg'oni shaharning markazida joylashgan bo'lib, 147 ta qabr ochib o'rganilgan. Bu yerda odamlar oila-oila qilib dafn etilgan; erkaklar o'ng, ayollar chap yoni bilan dafn etilgan. Qabrlardan mis uzuklar, tosh munchoqlar, yorg'uchoq va motigalar topilgan. Bunga o'xshash yodgorliklarni Chechen-Ingushetiyada ham ko'rish mumkin.

Sharqiy Karpat yoni va O'rta Dnepr bo'ylarida Tripole madaniyati keng tarqalgan. Ruminiyada Kukuteni madaniyati deb ataladi. Kiev yaqinidagi Tripole qishlog'idan topilgan va shu nom bilan atalgan. 1899 yilda ukrain arxeologi V.V. Xvoyko arxeologlar syezdida o'zining yangi topilmasi, ya'ni "o'liklar uyi" haqida ma'lum qiladi. Deyarli 35 yil davom etgan tortishuvlardan so'ng bu madaniyat nafaqat Uraina, balki unga qo'shni hududlardan tortib boshqa joylardan ham aynan uning xususiyatlariga xos belgilardan iborat ashyolar topilganligi aniq bo'ldi. V.A. Gorodtsov va A.A. Spitsinlar uni yer osti turar joyi deb taxmin qilishadi va V.V. Xvoyko xato qilganligini isbotlaydilar. 1934-1938 yillar davomida T.S. Passek va Ye.Yu. Krichevskiyar tomonidan 15 ming kv. m. li maydon qazib o'rganiladi va dehqonchilik madaniyatini o'zida jam qilgan Tripole madaniyati fanga ma'lum qilinadi.

Tripole madaniyati 3 ta bosqichga: ilk (mil. avv. IV ming yillik), o'rta (mil. avv. IV ming yillik oxiri - III ming yillik 1-yarmi), so'nggi (mil. avv. III ming yillikning 2-yarmi) bo'linadi. Tripole madaniyati qishloqlari doira yoki tuxumsimon shaklda joylashgan bo'lib, markazida qolgan ochiq joy mollar uchun qo'ton vazifasini bajargan. Turar joylar ko'ndalang to'siqlar bilan alohida xonalarga ajratilgan. Xonalardan don yanchayotgan ayol haykalchasi, yorg'uchoq, bug'u shoxidan yasalgan motiga, yirik xumlar, tandir va boshqa xo'jalik anjomlari, naqsh solingan sopol idishlar (850 ta), mis buyumlar (444 ta turli xil buyumlar - bolta, to'rt qirrali bigiz, qarmoq, xanjar) topilgan. Tripole madaniyati vakillari misni Bolqon yarim orolidan olib kelishgan. Tripole madaniyati vakillari, asosan, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, ovchilik va baliq ovlash bilan shug'ullangan.

Maykop madaniyati Shimoliy Kavkaz tog' oldi hududlarida tarqalgan bo'lib, mil. avv. III ming yillikning 2-yarmiga oiddir. 1897 yilda tekshirilgan. Maykop madaniyatiga ko'plab qo'rg'onlar, ba'zan mustahkamlangan manzilgohlar mansubdir. Maykop madaniyatining so'nggi bosqichida tosh maqbaralar, jumladan, dalmenlar paydo bo'lgan. Asosiy jangovar v mehnat qurollari sifatida mis boltalar, motiga, cho'qmor, pichoq, xanjar, panshaxa, nayza uchlari hisoblangan. Turli bezak buyumlari, Maykop madaniyatiga mansub qabilalar Sharq xalqlari bilan aloqada bo'lishgidan

dalolat beradi. Maykop madaniyatining qizil, ba'zan naqshinkor sopol idishlari kulolchilik dastgohida tayyorlangan. Xo'jlikning yetakchi shakli - chorvachilik va dehqonchilik bo'lgan. Maykop madaniyati qabilalari ibtidoiy jamoa bosqichiga yashaganlar. Ba'zi qo'rg'onlardan topilgan qimmatbaho buyumlar jamiyatda mulkiy tabaqalanish ildiz otganligidan dalolat beradi.

Maykop madaniyatiga xos Maykop qo'rg'oni Maykop shahri (RF ga qarashli Aligeya Respublikasi poytxti, Kuban daryosi irmog'i Belaya daryosi sohida joylashgan) hududida joylashgan. N.I. Veselovskiy tomonidan 1897 yilda o'rganilgan. Qo'rg'onning balandligi 11 m bo'lib, undagi boy qabrda qabila sadori va uning ikki xotini dafn etilgan. Maykop qo'rg'onidan kumush taqinchoqlar va ularga mustahkamlangan 4 ta oltin buqa haykalchalari hamda qimmatbaho guldor chodir topilgan. Chodir yopinchig'iga oltin suvi yuritilgan halqalar, sher v buqa suratlari solingan. Sardorning yoniga 2 oltin va 14 kumush idish qo'yilgan. Ulardan biriga Kavkaz tog'i va bir qator bo'lib ketayotgan hayvonlarni tasvirlovchi manzara o'yib ishlangan. Bu idishdagi tasvirlar - eng qadimgi xaritografik rasmlardan biridir. Sardor xotinlari qabridan bezak buyumlari - tillaqoshlar, turli xildagi olitn va serdolik munchoqlar, feruza va la'l tumorchalar, shuningdek, malika kiyimlariga qadalgaan turli hayvon haykalchalari topilgan. Maykop qo'rg'oni topilmaalari Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanadi.

Eneolit makonlari Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq va Zamonbobo I makonlaridan ham topilgan.

O'zbekistonda eneolit davri manzilgohlari kam o'rganilgan. Lekin mavjud arxeologik manbalar asosida eneolit davrining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yo'llarini aniqlab olish mumkin. Bu davrda O'zbekistonning shimoliy xududlarida hali neolit davri jamoalari, ya'ni Kaltaminor madaniyati jamoasi yashab kelardi. Lekin ularning janubiy xududlar bilan aloqasi ularning iqtisodiy xayotlariga o'zgarishlar olib keldi. Jumladan, 3 ming yillikning oxirlarida metall bilan tanishdilar, ilk chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklari paydo bo'la boshladi. O'zbekiston xududida bronza davrida ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot jadal rivojlandi.

Nazorat savollari:

1. Eneolit davri yodgorliklarini sanab bering .
2. Sarazm madaniyati to'g'risida qanday ma'lumotga egasiz?
3. Eneolit davrining asosiy xususiyatlari ayting.
4. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik va uning mohiyati nimada?
5. Tozabog'yobliklarning xo'jaligi va madaniy hayoti to'risida nima bilasiz?

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.:”Fan va texnologiya” 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. “Sharq.” 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. “Ma'naviyat” 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. “Адолат”. 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда*)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”, 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

6-modul Bronza davri va uning o'rganilishi

8-mavzu Bronza davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.

1. Bronzaning kashf etilishi
2. Bronza davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Bronza davri xo'jaligida yuz bergan o'zgarishlar

Tayanch tushunchalar:

Mis, qalayi, bronza(jez), ruda, temirchilik, zargarlik, ot-arava, kulolchilik charxi, gisht, sun'iy sugorish, ilk shaxar madaniyati, olov ibodatxonalari, xalqaro aloqa va savdo.

Mehnat qurollarini yasashda bronzadan foydalanish ibtidoiy jamoa xo'jaligida buyuk o'zgarishlarga olib keldi. Bu insoniyatning iqtisodiy hayotigagina emas, balki siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida ham tub o'zgarishlar yasadi.

Bronzaning tarkibi mis va qalay qotishmasidan iborat bo'lgan. Eng yaxshi bronzaning tarkibida 90 % mis va 10 % qalay bo'lgan. U **dastlab miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida Mesopotamiyada (ikki daryo oralig'ida) kashf etilgan**¹¹. Bronza misga nisbatan o'z xususiyati jihatdan ustun bo'lganligi sababli ham sof misning qo'llanilishi barham topdi. Lekin tabiatda mis va qalayning juda kam miqdorda mavjudligi sababli tosh qurollarni siqib chiqara olmadi. Bronzaga ishlov berish misga nisbatan ancha qulay bo'lgan, birinchidan: pishiq, qattiq; ikkinchidan: u misga nisbatan past haroratda erigan. Mis 1084 gradus haroratda erisa, bronza 700-900 gradusda erigan. Unga bunday past haroratda ishlov berila olinishi, uning har bir xo'jalikda qurollar yasash imkonini bergan. Bu esa mehnat, jangovor qurollarning turi ko'payishiga va samaradorligining oshishiga olib kelgan.

Bronza maxsus qalin sopol idish-tigellarda eritilib, sopol qoshiqlar orqali tosh va sopoldan yasalgan qoliplarga solingan. Bronza qoliplarga yopishib qolmasligi uchun qoliplarga mumiy o'surtirilgan, bu esa bronza qotgach qolipdan oson ajralishiga olib kelgan.

Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-g'arbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan edi. O'zbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II ming yillikning I choragida boshlanib, miloddan avvalgi VIII asrlargacha davom etadi. Shuningdek jamiyat taraqqiyoti ham o'ziga xos tarzda davom etadi. O'rta

¹¹ T.Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

Osiyoning janubiy hududlarida. dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi. O'zbekistonning janubiy-sharqiy va markaziy hududlarida, ya'ni Farg'ona, Toshkent, Qarshi hududlarida o'troq dehqonchilik madaniyati, ilk shahar madaniyati izlari so'nggi bronza bosqichiga kelganda vujudga keldi. Ilk va o'rta bosqichlarida bu hududlarda ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati, ya'ni dasht qabilalari madaniyati–Tozabog'yob madaniyati izlarini ko'ramiz. O'zbekistonning shimoliy hududlarida cho'l va dasht chorvachilik xo'jaligi etakchi o'rinni egallagan. Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo etaklarida so'nggi bronza davrida chorvador qabilalar o'troqlashib, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadilar va uning bazasida qishloqlarni tashkil etadilar

Bronza davri xo'jaligida yuz bergan o'zgarishlar. Bronza davri xo'jaligining eng katta yutug'i bu dehqonchilik madaniyatining keng yoyilishi va uning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Bu jarayon fanda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti deb nomlanib, miloddan avvalgi II ming yillikning 2 - yarmida sodir bo'lgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti birinchi navbatda tabiiy sharoit muhitidan kelib chiqib ixtisoslashdi, ya'ni cho'l va dasht zonalarida chorvachilar, dehqonchilik uchun qulay bo'lgan janubiy-sharqiy, markaziy hududlar va daryo bo'yida dehqonchilik madaniyati etakchi o'rinni egalladi. Ikkinchidan bronza davrida qo'lga kiritilgan yutuqlar, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirdi, natijada dehqonchilik yoki chorvachilikni rivojlantirish uchun alohida keng hududlar va ma'sul odamlar zarur bo'lib qoldi. Dehqonchilikdan chorvachilikning alohida soha bo'lib ajralib chiqishi qonuniy zaruriyat edi.

Bronza davri yutuqlarini quyidagilar qilib ko'rsatishimiz mumkin: bronzadan yasalgan qurollar mehnat unumdorligini oshirdi, sug'orma dehqonchilik asosida doimiy qishloqlar ko'paydi, yangi erlar o'zlashtirildi, hunarmandchilikning yangi sohalari-metallurgiya, zargarlik rivojlandi, kulolchilikda charxdan foydalanishga o'tildi, uy-joy qurilishida g'ishtdan foydalanildi, mustahkam mudofaa devorlari shakllandi. Ot eshakdan transport sifatida foydalanildi, g'ildirakli aravalar kashf etildi, jamiyat hayotida monogam oila tarkib topib, hayotda otalar etakchi bo'la boshladilar, patriarxat davri boshlanib, urug' jamoasi emirila boshladi va ilk davlatchilik elementlari shakllandi. Qo'shni mamlakatlar, ayniqsa chorvadorlar bilan dehqonlar o'rtasida tovar ayirboshlash jonlandi. Qabilalararo munosabatlarda bir – biri bilan aralashib, yangi yuqoriroq rivojlanish darajasidagi madaniyatlar vujudga kela boshladi. Masalan, hozirgi Qirg'iziston va undan naridagi cho'llarda yashagan Andronova madaniyati chorvadorlari miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida O'zbekistonning shimoliy va janubiy

hududlariga kirib borib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan va Tozabog'yob, Qayroqqum kabi madaniyatlar shakllangan.

Bronza davri miloddan avvalgi III-II ming yillikni o'z ichiga oladi. Bu davrda egey dunyosi, Misr, Ikki daryo oralig'i, Hindiston va Xitoyda quldorlik jamiyati ravnaq topgan. Yevropa va Osiyoning ko'p mamlakatlarida esa hali ibtidoiy jamoa tuzumi hukm surgan.¹²

Jez miloddan avvalgi III ming yillikda kashf etilgan. Uning vatani Ikkidaryo oralig'i bo'lgan. U mis bilan qalay qorishmasidan iborat bo'lib, nisbat jihatidan turli xilda. Bronza metal sifatida ko'p afzalliklarga ega:

1. Bronza qurollar mis qurollardan pishiqroq va o'tkirroq.
2. Uni eritib quyish oson, chunki uning erish temperaturasi pastroq.

Mis va bronza tabiatda yombi holida tarqalgan. Misni eritish $t^{\circ} - 1084 S^{\circ}$, bronzaning erish $t^{\circ} 700-900 S^{\circ}$ o'rtasida. Mis va qalayni birga qo'shib, qoliplarga quyishgan. Qoliplar toshdan qumtosh yoki toshtaxtalardan iborat bo'lgan.

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa ho'jaligida ro'y bergan buyuk madaniy xo'jalik ixtiro edi. Yangi metal xarbiy qurollarning turini ko'paytirdi, harbiy qurollarning xili va jangovarligi oshdi. Bronzadan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari ham paydo bo'ldi. Ammo bronza mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun nodir va kamchil metal bo'lib qolaveradi. U mehnat qurollari yasashda tosh xom ashyosini uzil-kesil siqib chiqara olmadi. Chunki dastlab bronzadan munchoqlar, uzuklar, to'g'nag'ichlar yasalgan. Ular asosan ziynat buyumlari edi. Bu davrda tosh qurollar ham ko'plab ishlatilgan. Tosh parrakchalardan keng foydalanilgan. Ammo bronzaning toshga nisbatan ustunlik tomonlari, ya'ni uning juda tez turli shaklga keltirilishi, turli ishlarda foydalanish mumkinligi, ko'p uchraydigan keskir va qattiq tosh qurollarni kamyoblighi, mo'rtligi va tez sinishi kabi xususiyatga ega bo'lgan (bronza) metal siqib chiqara olmagan.

Bu davrda bronzadan asosan turli bezaklar, uy-ro'zg'or va ho'jalik buyumlari, xarbiy qurollar va mehnat qurollari yasaydigan maxsus temirchilik, chilangarlik va zargarlik ustaxonalari vujudga keldi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi bilan mintaqalararo ayirboshlash kuchaydi. Kishilik jamiyati tarixida birinchi marta muntazam mol ayirboshlash imkoniyati bevosita dehqonchilik va chorvachilikning bir-biridan ajralishi va hunarmandchilikning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Bronza davri ho'jaliklari ho'jalik va ijtimoiy taraqqiyot darajalari bilan bir- biridan farq qilmasa-da, sopol buyumlarining xili, qabrlar qurilishi jihatidan bir- biridan farqlanadi.

¹² Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

Yevropadagi ibtidoiy davr qo'rg'onlarining deyarli hammasi-dan bo'yalgan va bo'yalmagan skletlar topilgan. Skletlar yerda yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda yotishadi. Bu odat keng yoyilgan. Hatto Sharq, Markaziy Osiyo hududlarida ibtidoiy qabilalar tug'ilguncha odam ona qornida qanday holatda bo'lsa, o'lganidan keyin yer bag'rida shu taxlitda yotadi deb o'ylaganlar. Arxeologlar tomonidan murdani bo'yab, bukchaytirib ko'mishning 3 davri ajratib o'rganilgan:

1. Qadimgi chuqur, mozor-qo'rg'onlari (eneolit davriga mansub).
2. Katakomba mozor-qo'rg'onlari.
3. Yog'ochband mozor qo'rg'onlari.

Katakomba mozor-qo'rg'onlari go'rlari yon tomoniga o'yib qazilgan alohida lahad shaklidagi qabrlardir. Bu mozor qo'rg'on-lardan bronza, mis-pichoqlar, to'g'nag'ichlar, bigiz, buyumlar topilgan. Katakomba mozor-qo'rg'onlarida tosh qurollar silliqlangan tosh boltalar va chukmorlar, chaqmoqtosh, nayza, o'q va pichoqlar, sopol idishlar ko'plab topilgan, bu sopol buyumlarning aksariyatini tagi tekis va hatto boshqa shakllari ham uchraydi.

Katakomba davri miloddan avvalgi III ming yilning oxirlarida II ming yillikning I-yarmiga bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Katakomba mozor- qo'rg'onlaridan erkaklar va ayollar murdalari topilgan. Ko'plab kollektiv qabrlar ham uchraydi.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida katakomba davri o'rniga yog'ochband davri keladi. Yog'ochband-yog'och qabr, MDH hududlarida, Shimoliy Yevropada ko'plab tarqalgan. Go'rlar-ning ichiga murdalar yog'och tobutda qo'yilgan. Shuning uchun ham bu qabrlar yog'ochband qabrlar deb ataladi.

Yog'ochband davri miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu davrda dastali, teshikli boltalar keng tarqalgan. Dastlab ular Sharq mamlakatlaridagi yodgorliklardan topilgan. Yog'ochband davrida metallurgiya va chorvachilikning, rivojlanishi boyliklar to'planishiga va xarbiy to'qnashuvlarning kuchayishiga olib keladi. Jamiyatda moddiy boyliklarning ayrim kishilar qo'lida to'planishi jarayoni boshlanadi.

Bronza davriga oid bo'lgan qo'rg'onsiz qabrlar ham ko'p uchraydi. Unda murdalar kuydirilgan. Bunday xolat g'arbiy Evropada so'nggi bronza davri uchun xarakterlidir.

Bronza (Jez) davri mozor-qo'rg'onlari o'rganilishi orqali bu davr haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lindi. Bu davr mozorlari-dan «bo'yalgan va bukchaytirilgan» skletlar ko'plab topilgan. Bu davrda kishilar murdalarga har xil rangdagi (ko'proq qizil, och qizil) tabiiy bo'yoqlar sepishgan. Qizil va och qizil rang - jon, tirilish, qon ramzi hisoblangan.

«Bukchaytirilgan skletlar» - murdalarni yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda ko'milishi, odamning dunyoga kelishi, ibtido va intiho haqidagi tasavvurlarning inikosi sifatida, ona qornida va yer bag'rida bir holatda bo'lishini aks etirilishidir.

Yevropada bronza davri chorvador qabilalari o'ziga xos katta birliklarni tashkil etadi. Sopol buyumlarning shakli va naqshlari o'z birliklarga xos bo'lib, ular bir- birlaridan farq qilgan.

Masalan, Janubiy Shvetsiya, Daniya, Germaniya, Pol'sha, Chexiya, Frantsiya, Venetsiya, hududlarida, xatto MDH davlatlari territoriyalarida chilvir naqshli sopol buyumlar keng tarqalgan. Angliya, Frantsiya, Ispaniya, G'arbiy Germaniya hududlarida esa oddiy, o'ziga xos shakldagi sopol buyumlar tarqalgan.

Yer yuzining ko'plab hududlaridan bronza (jez) davri yodgor-liklari topilgan. Arxeologlar ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy munosa-batlarni yodgorliklardan topilgan moddiy topilmalarni o'rganish orqali tiklab, bronza davri kishilari hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Sharqiy O'rta yer dengizi bo'ylarida, xususan Falastinda bronza davrida shahar tipi markazlari paydo bo'lgan hunarmandchilik va mustahkamlangan manzillarning shakllanishi bilan ilk bronza davrida kulolchilik charxi paydo bo'ladi. Ushlagichli cho'zinchoq ko'zalar va turli shakldagi idishlar bronza davrida keng tarqaladi. Falastin yodgorliklarida bronza, mis, kumush metali keng ishlatilgan. Hatto milddan avvalgi III ming yillik oxirlarida kumush idishlar keng tarqalgan. Falastinda bronza davriga mansub kumush xazina topilgan. U 35 xil predmetdan iborat bo'lib, uning tarkibida turli buyumlar, idishlar, bezaklar bo'lgan. Bronza davri manzillari ko'pincha mudofaa devorlari, bilan o'ralgan, to'g'ri burchakli binolardan iborat bo'lgan. Bu davr shahar xarobalarining o'rni 2-4ga etadi va buyumlarning joylanishi, qurilishi shakli o'ziga xos reja asosida bo'lgan.

Falastin yodgorliklari mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, bu devorlarning eni 4,5 metrdan to 8 metrgacha bo'lgan. Masalan, Fara yodgorligi xarobasi devorlar bilan o'ralgan. Fara shahri xarobasi hisoblanadi. Shahardan ijtimoiy xarakterdagi binolarning qoldiqlari topilgan. Yuqori tabaqa uylari, mahalliy hukmdorlarning saroylari ham mavjud bo'lgan. Shahardan unga uzoq bo'lmagan joyda qabriston joylashgan. Bu erda (Ochiq Qabr) kollektiv qabrlar bo'lib, har bir qabrda 50-90 murdaning qoldig'i bo'lgan. Hatto, bir qabrga 300 kishi ko'milgan. Qabrlardan kulolchilik buyumlari (idishlar), zeb-ziynat va ayrimlaridan metal buyumlar topilgan.

Miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'zgaradi. Bu davrga oid bo'lgan Iordan vohasidagi Xazor xarobasi 50 gani tashkil etadi. U poytaxt, ya'ni markaz vazifasini o'tagan. Xarobada ibodatxona qoldig'i va zadagon kishilarning uylari qoldiqlari topilgan. Ilk sinfiy munosabatlar mavjud bo'lganligini bildiruvchi topilmalar - yuqori tabaqa, oziq-ovqat omborlari o'rganilgan.

Kichik Osiyoda Qumtepa yodgorligi bronza davriga mansub bo'lib, u miloddan avvalgi III ming yillik bilan belgilanadi. Qumtepa yodgorligi tosh arxitekturasining ajoyib namunasi bo'lib, unda uylar poydevorigina emas, balki xonalar ham toshdan urilgan. Kichik Osiyoda bronza davriga oid bo'lgan Troya I, Termi manzilgohlaridan bronza qurollar topilgan va o'rganilgan.

Miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida hunarmandchilikni rivojlanishi shaharlarning gullab-yashnashiga sabab bo'lgan. Markaziy Osiyo shaharlari - Troya II, Polisxni V, Axlatenbel' 1-2 ga maydonni tashkil etgan. Beyjesulton shahar xarobasining maydoni 24ga teng bo'lib, yodgorlik xarobalardan shahar xususiyatiga xos elementlar, hukmdor saroyi, ijtimoiy bino qoldiqlari topilgan va o'rganilgan.

Elamning bronza davri yodgorliklari - Eron hududida Suza kompleksi bo'lib, u miloddan avvalgi III ming yillikning birinchi yarmiga oiddir. Suza kompleksidan buqa, echki, baliq, . . . suratlari solingan kulolchilik buyumlari, bronza qurollar - bolta, xanjar, qadimgi Elam yozuvi aks ettirilgan plastinkalar topilgan.¹³

MDH davlatlari hududida ham bronza davri yodgorliklari o'rganilgan. Janubiy Sibir' hududida bronza davri yodgorliklaridan eng qadimiysi Afanas'ev madaniyati bo'lib, u miloddan avvalgi III ming yillikka oid. Afanas'ev madaniyati Enisey (Enasoy) daryosi bo'yida joylashgan. Afanas'ev yodgorligidan qadimgi qabrlar o'rni topilgan. Bu qabrlar ustiga tosh taxlangan chuqur qabrlar bo'lib, unga murdalar yonlab qo'yilgan. Ularning yonida oziq-ovqatlar, mehnat qurollari qoldiqlari saqlangan.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-T.: "Fan va texnologiya" 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.

¹³ T.Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. “Адолат”. 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. *(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)*
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”, 2008.
16. Т. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

9-mavzu: Bronza davri yodgorliklari va ularning o‘rganilishi.

1. O‘rta Osiyoning bronza davri yodgorliklari
2. Sopollitepa madaniyati, Jarqo‘ton yodgorligi.
3. Zamonbobo madaniyati, Tozabog‘yob madaniyati.

Tayanch tushunchalar:

Seyminek-Turbinek, Kallash, Tozabog‘yob, Amirobod, Ko‘kcha 3, sun‘iy sugorish, Sopolli, Jarquton, ilk shaxar madaniyati, Zamonbobo madaniyati, Tozabog‘yob madaniyati.

O‘zbekiston hududidagi bronza davri yodgorliklarini o‘rganishda S.P. Tolstov, Ya. G‘ulomov, A. Asqarov, M.A. Itina, T. Shirinov, A. Sagdullaev, M. Shaydullaev, Yu.A. Zadneprovskiy, V.I. Sprishevskiy, A.I. Terenokhin, B. Matboboev, B. Abdullaev, U. Raxmonov va boshqalar olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, O‘zbekistonning janubiy hududlarida, ya’ni Surxondaryo viloyati hududlarida ilk bronza davridayoq qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllangan. U Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklari asosida o‘rganilgan.

Sopollitepa manzilgohi Surxondaryo viloyatidagi Sherobod cho'lida Amudaryodan 2,5-3 km sharqda Ko'ngitong daralaridan biri bo'lgan Qaynarbuloq asosida vujudga kelgan Ulanbuloqsoyning yoqasida joylashgan. U Termiz shahridan 70 km shimoliy-g'arbdadir. Bu manzilgoh Sherobod cho'lini o'zlashtirish jarayonida, 1968 yilda topilgan. 1969-1974 yillarda uni A.Asqarov o'rgangan. Surxondaryo xududidan 20 dan ortiq yodgorlik topilgan. Bugungi kunda Sopollitepa madaniyatining rivojlanishi 5 ta bosqichga bo'linadi;

- 1.Sopolli davri-miloddan avvalgi 2150-1900 yillar;
- 2.Jarqo'ton davri-miloddan avvalgi 1900-1600 yillar;
- 3.Ko'zali davri-miloddan avvalgi 1600-1500 yillar;
- 4.Mo'lali davri-miloddan avvalgi 1500-1400 yillar;
- 5.Bo'ston davri-miloddan avvalgi 1400-1300 yillar;

Sopollitepa madaniyati bronza davriga oid yodgorlik bo'lib, u miloddan avvalgi II ming yillikning 1 chi yarmida shakllangan. Sopollitepa manzilgohi mustahkamlangan yirik qishloq bo'lib, umumiy maydoni 4 ga ga yaqin bo'lgan. Lekin uning ancha hududi paxta maydoni hisobiga o'zlashtirib yuborilgan. Faqatgina, uning markaziy qismigina saqlanib qolgan. U 82 X82 metr bo'lgan istehkom bo'lib, uning atrofi 3 qator mudofaa devori bilan o'rab olingan. Devorlar qalinligi 2 metrdan bo'lib,u somon qo'shilgan xom g'ishtdan ishlangan. Mudofaa devorlari juda murakkab me'moriy reja asosida qurilgan. U to'lg'ama tuzoq usulida ishlanib, aniq o'lchamli koridorsimon bloklarga bo'lingan. Tashqi blokklar dahliz tipidagi xonalar orqali ichkaridagi uy-joylar bilan birlashtirilgan. Ichki blokklar mudofaa tizimida qopqon rolini o'ynagan. Tashqaridan qaraganda go'yo ular qal'a ichiga olib kiruvchi darvozalarni eslatadi. Aslida xuddi shu tipda ishlangan yagona darvoza qal'aning janubiy tomonida joylashgan. Keyinroq bu mudofaa inshootiga zaruriyat qolmagan. Mudofaa tizimidagi ichki va tashqi blokklar Sopollitepaning keyingi bosqichlarida urug' xilxonasi, uy-joy, kulolchilik xumdoni kabi maqsadlarda foydalanilgan.

Mazkur istehkom ichida turar joylar, xo'jalik xonalari, hunarmandchilik ustaxonalari topildi.

Sopollitepadan 3 ta madaniy qurilish davri o'rganildi, bu uy-joylarni o'rganish jarayonida aniqlandi.

Olimlar fikricha, har bir oila yakka uylarda yashagan va ularning jamoasi qishloq kvartallariga aylangan. Uylar orasida ko'chalar shakllangan bo'lib, ular qal'a-qo'rg'onning markaziy maydoni bilan bog'langan. Uy-joylar ko'p xonali bo'lib, xom g'ishtdan qurilgan va yuzasi somonli loy bilan suvalgan. Uylarning pollari xom loy bilan, don saqlanadigan

xonalarning poli alebastr bilan suvalgan, yoki pollarga sopol siniqlari yotqizilgan. Uylarda o'choq va sandallar uchraydi. O'choq bor xona alohida ozoda saqlangan. Omborlardan ko'plab sopol idishlar, g'alla va hayvon suyaklari topildi.

Sopollitepa materiallarini keng ko'lamda o'rganish natijasida qator ilmiy xulosalarga kelindi. Birinchidan O'zbekiston xududida sun'iy sug'orishga asoslangan o'troq dehqonchilik xo'jaligining kelib chiqishi tarixi ming yilga qadimiylashdi. Ikkinchidan, O'zbekiston xududlarini qadimgi Sharq madaniyati yoyilgan zonaga kiritish imkoni tug'ildi. Uchinchidan, ilk shaxarlar haqidagi ma'lumotlar ham ming yilliklarga qadimiylashdi, O'zbekistonda ilk shaharning kelib chiqish negizi respublikamizning janubiy rayonlarida ekanligi isbotlandi. To'rtinchidan, ipakchilik, bog'dorchilik va qorako'lhilikka doir yangi materiallar qo'lga kiritildi.

Sopollitepada hayot taxminan 200 yillar davom etgan. Keyinchalik uning axolisi yangi erlarni o'zlashtirish maqsadida sharq tomon siljib, hozirgi Sherobod yaqinidagi Oqqo'rg'on qishlog'i xududiga ko'chib borganlar.

Jarqo'ton yodgorligi sopollitepaliklar asos solgan ilk shahar hisoblanadi. U Bo'stonsoy xududida bo'lib, 100 gektar maydonni egallagan. Bu erning aholisi ham dehqonchilik bilan shug'ullanib, 500 yilcha shu erda yashaganlar.

Jarqo'ton uch qismdan iborat bo'lib, uning arki 3ga maydonni egallagan, atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan. U erda hukmdorning qarorgohi joylashgan. Mudofaa devori somon qo'shilgan xom g'ishtdan ishlangan. Devor qalinligi 3 m, balandligi 5–6m bo'lgan. Devor kvadrat shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Arkka kirish darvozasi janub tomonda joylashgan. Arkda hukmdor saroyi alohida ajralib turadi. Saroyda ko'p oddiy xonalar bo'lib, saroy markazida 20kv.m supa joylashgan.

Arkning sharqiy tomonida bir necha uy-joy massivlari topilgan. Ular 1,5 m qalinlikdagi tig' kursi-supra ustiga qurilgan. Bu erda ko'p xonali hovlilar ochildi. Har bir xovlida 2–3 ta o'choq topilgan. Jarqo'tonda otashparastlik ibodatxonasi ochildi. Ibodatxonaning atrofi 4,5 m qalinlikdagi devor bilan o'rab olingan. Ibodatxona ikki qismdan – muqaddas otashkada va ishlab chiqarish – xo'jalik qismlaridan iborat bo'lgan. Ibodatxonaning muqaddas qismi kvadrat shaklida bo'lib, 35x35 metrga teng. Uning tarkibida muqaddas olov, muqaddas quduqlar, bosh mehrob joylashgan baland maydon bor. Ibodatxonaning ishlab chiqarish–xo'jalik qismida muqaddas ichimlik–xaoma tayyorlaydigan xona, mozar inventarlari tayyorlaydigan ustaxonalar va ibodatxonaga ajratilgan oziq-ovqat ombori joylashgan. Ibodatxonada xech kim yashamagan, u faqat olovga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar va diniy marosimlar o'tkazish markazi bo'lgan.

Shaxarning janubida 10–15 ga maydonni egallagan shahar qabristoni topilgan.

Hozirgi kunda Janubiy O'zbekiston territoriyasida 20 dan ortiq bronza davri yodgorliklari topilgan. Bular Jarqo'ton, Bo'ston, Kultepa, Mo'lali tepa va boshqalar bo'lib, ular asosan, Surxondaryo oblastining Sherobod va Sho'rchi xududlarida joylashgan. Bu yodgorliklarni o'rganish natijasida Sopollitepa madaniyati qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ajralmas bir qismi ekanligini ko'rsatdi.

Bronza davrida O'rta Osiyoning cho'l va dashtlarini chorvador qabilalar egallagan edi. Ularning iqtisodiy hayoti asosini chorvachilik va ibtidoiy motiga dehqonchilik xo'jaligi tashkil etardi. Bu qabilalar engil tipdagi qarorgoh yoki qisqa muddatli makonlarda iste'qomat qilganlar. Ular Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi havzalarida, tog'li xududlarda yashaganlar. Bu chorvador qabilalar ko'pincha cho'l zonasida yashaganliklari uchun maxsus adabiyotlarda "bronza asrining cho'l zonasi qabilalari" nomi bilan yuritiladigan bo'ldi.

Cho'l zonasi qabilalari u erlarning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib, janubiy xududlarga qaraganda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan orqada edilar. Ular erto'la va yarim erto'la tipidagi kulbalarda yashaganlar va kulolchilik charxini ham bilmaganlar. Sopol idishlar qo'lda yasali, qo'pol va mo'rt bo'lgan. Ularning turlari xam kam bo'lib, ochiq gulxanda pishirilgan, sirtiga chiziqli, taroq uslublaridagi geometrik nashqlar chizilgan. Lekin bronza metallurgiyasi sohasida anchagina muvaffaqiyatlarga erishganlar.

Zamonbobo madaniyati Zarafshon daryosining quyi havzasida topilgan motiga dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarning yodgorligi hisoblanadi. U erda 1950–1960 yillarda Ya.G'.G'ulomov boshliq Mohondaryo otryadi tadqiqot ishlarini olib bordi. Ular quyi Zarafshon xududidan ikki xil madaniyat izlarini topishdi. Biri Zamonbobo madaniyati bo'lsa, ikkinchisi Andronova madaniyati izlari hisoblanadi.

Zamonbobo madaniyati mahalliy tub aholining janubdagi o'troq dehqon jamoalari ta'sirida shakllangan bronza davri madaniyati bo'lib, uning xo'jalik asosini xonaki chorvachilik va motiga dehqonchiligi tashkil etgan. Andronova madaniyati tipi esa Amudaryo deltasida tashkil topgan Tozabog'yob madaniyati ta'sirida shakllangan.

Zamonbobo madaniyatiga tegishli birinchi yodgorlik –qabristonni 1950 yilda Ya.G'.G'ulomov topdi. U Buxoro viloyati Qorako'l tumanining cho'l zonasida joylashgan Zamonbobo ko'li yoqasida edi. Qabristonda 1951–1952 yillarda qazishma ishlari olib borilib, bronza davriga oid 40ga yaqin qabr ochildi. 1960 yildan qabristonda A.Asqarov tadqiqot ishi olib borib yana 6 ta mozorni ochdi.

Mozorlar tuzilishi jihatidan katakomba (laxat) shaklida bo'lib, ko'p xollarda usti shamol ta'sirida ochilib qolgan. Zamonbobo qabristonidan yaproqsimon shaklda ishlangan tosh paykonlar,

osti yassi va tuxumsimon bo'lgan sopol idishlar, bronzadan ishlangan sopol kurakchalar, halqasimon bilakuzuklar, qimmatbaho toshlardan yasalgan juda ko'p munchoqlar, jez oyna, igna, bigiz, terrakota haykalchalar, boshqa madaniyatlarga oid sopol buyumlari va boshqa narsalar topilgan.

1961 yili A.Asqarov Zamonbobo qabristonidan uncha uzoq bo'lmagan joydan, Zarafshonning qadimgi o'zani Gurdush–Gujayli sohilidan shu madaniyatga tegishli qishloq topdi. U erda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida zamonboboliklarning xo'jaligi va turmushiga doir yangi materiallar topildi. U erdan erto'la tipidagi kulba xarobasi, bir nechta engil chayla o'rni, ikki yarusli xumdon xarobasi va ko'tarma devor qoldiqlari topib o'rganildi. Erto'la maydoni 200 kv.mga yaqin bo'lib, uning maydonida qator o'choqlar, kulba karkasining ustun chuqurchalari saqlangan.

Tozabog'yob madaniyati. O'zbekistonning bronza davriga oid yodgorlik dastlab 1938 yilda qadimgi Xorazm xududidan topildi. U Amudaryoning quyi havzasidagi Oqchadaryo o'zani bo'yidagi Tozabog'yob kanali bo'yida S.P.Tolstov tomonidan topildi va nomi fanga "Tozabog'yob" madaniyati deb kiritildi.

Tozabog'yob madaniyati qadimgi Xorazm xududida miloddan avvalgi II ming yilliklarda shakllangan. Bu madaniyat aholisi asosan, erto'la va chaylalarda yashab, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Tozabog'yob kulbalari yarim erto'la shaklida qurilib, ularning o'rtacha maydoni 12–18 kv.m ga teng. Kulbaning markazida o'choq joylashgan. Kulba juft oila uchun mo'ljallangan. Lekin kulbalar orasida maydoni 100–120 kv.m.ga tenggi xam uchraydi, ular bir urug' jamoa uchun mo'ljallangan.

Bu madaniyatga oid arxeologik materiallar qum va taqir yuzasida sochilib yotgan geometrik naqshli sopol parchalar hisoblanadi. Sopol idishlar qo'lda yasalgan qo'pol, mo'rt bo'lib, xurmacha, bankasimon idishlar va yarim doira shaklidagi kosalardan iboratdir. Arxeologlar ularni taxlil qilish orqali qisqa muddatli bronza davri cho'lli zona qabilalarining moddiy madaniyat yodgorligi ekanligi isbotlandi. Shuningdek, bu materiallar Qozog'iston va janubiy Sibir xududlarida tarqalgan Andronova madaniyatiga aynan o'xshab ketishi ta'kidlandi. Tozabog'yob madaniyati materiallariga o'xshash bronza davri makonlari va qabristonlari quyi Zarafshon, quyi Qashqadaryo havzalarida, Toshkent voxasining adirli zonalarida va Farg'ona vodiysida keng tarqalganligi aniqlandi.

Tozabog'yob madaniyatining shakllanishida yog'ochban (Srub) va Andronova madaniyatlari qabilalarining ta'siri katta bo'lgan. Lekin Tozabog'yob madaniyatining xo'jalik va madaniy hayotining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini, ya'ni Tozabog'yob qabilalarida dehqonchilik ancha rivojlanganligi B.V. Andrianov tomonidan yaxshi o'rganilgan.

Tozabog'yob madaniyatiga oid qabriston Ko'kcha 3 qabristoni bo'lib, u 1954 yilda qadimgi Xorazm xududidagi Sulton Uvays tizmalarining sharqiy chekkasidan topib o'rganildi. U erdan 100 dan ortiq qabr topilib, ularning 74 tasi 1954–1955 yillar davomida tekshirildi va boy arxeologik material olindi. Qabrlardan har xil darajada saqlangan 43 ta odam skeleti topildi. Mozorlarda bittadan, ba'zi xollarda bir xil vaqtda yoki har xil vaqtda ko'milgan ikkitadan skelet topildi. Ayollar bilan bolalarni ko'mish, erkak va ayolni bir qabrga ko'mish xollari ham uchraydi. Marhumlar oyoq–qo'llari buklangan holda o'ng yoki chap biqini bilan ko'milgan. Har bir mozorda bir yoki bir nechta sopol idishlar, erkaklar mozorida bronza buyumlar, ayollarnikida esa bronza taqinchoqlar uchraydi.

Tozabog'yob madaniyati odamlarining antropologik tiplari ikki xil bo'lib, ularning birinchisi andronova qabilalariga oid protoevropoid tipi bo'lsa, ikkinchisi O'rta Osiyoning qadimgi aholisi sharqiy O'rta Er dengizi tipini beradi. Shuningdek, odamlar orasida Sharqiy Evropaning Srub madaniyati tiplari ham uchraydi.

Suvyorgan madaniyatiga oid dastlabki yodgorlik 1945–1946 yillarda Jonbosqal'a rayonidagi Jonbos–6 qarorgohidan topildi. 1954 yillarda Oqchadaryoning qadimgi irmoqlari bo'yidan Qamishli 1, Qamishli 2 qarorgohlaridan topildi. Shundan so'ng S.P.Tolstov Suvyorgan madaniyatini rivojlanishining bosqichlarini aniqlaydi. U miloddan avv. II ming yillikning birinchi yarmiga oid bo'lib, Kaltaminor madaniyatining qamishli bosqichi bilan zamondosh deb ko'rsatadi. Miloddan avv. II ming yillikning o'rtalariga kelib, bu madaniyatni yaratgan qabila vakillari tozabog'yobliklar bilan aralashib ketadi.

Suvyorgan madaniyati sopol idishlari yuzasida qizil rang berilgani bilan ajraladi. Tadqiqotchilar fikricha, bu madaniyat janubiy xududlardagi dehqonchilik madaniyati ta'siri ostida shakllagan.

Amirobod madaniyati so'nggi bronza davri oid yodgorlik bo'lib, u 1940 yilda Amudaryoning quyi xavzasidagi Amirobod kanali havzasidan topilgan. 1950 yillarga kelib, Amirobod madaniyatiga doir bir necha yodgorliklar topildi. Ularning orasida eng yaxshi saqlangan va boy arxeologik materiaalar bergan yodgorlik Yakka –Porson 2 makoni hisoblanadi. Makonni qazish vaqtida 20 yaqin erto'la tipidagi kulbalar topildi. Kulbalar maydoni va atrofidan g'alla o'ralari, omborlar, o'choq, gulxan qoldiqlari, sopol parchalari, tosh yorg'uchoqlar, bronzadan ishlangan bir tig'li pichoqlar, o'roq, bigiz va ko'plab hayvon suyaklari topildi. Xar bir kulbaning o'rtasida o'choq bor. Ular bir juft oilaga tegishli ekanligidan dalolat beradi.

Sopol idishlari charxsiz, qo'lda yasalgan. Ularning shakli, tipi va turi ham kamchilikni tashkil etadi. Xurmacha, kosa, bankasimon idish va sopol qozonlardan iborat bo'lgan. Idish sirti qizg'ish qoramtir rangda pardozlangan, yuqori qismi esa geometrik naqshlar bilan bezatilgan.

Amirobod madaniyati ichida bronzadan ishlangan quloqli ignalar, ikki parrakli bronza paykonlari va bronza mexnat qurollari yasaydigan tosh qoliplar, tosh yorg'uchoq, bronzadan ishlangan o'roqlar ko'plab uchraydi.

Amirobod yodgorliklari atrofida shu davrlarga oid irrigatsiya izlari va qadimgi ekinzor maydonlari ham ko'plab uchraydi. Bu esa ularning hayotida chorvachilik bilan birga dehqonchilik yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Amirobod madaniyati X–VIII asrlarga tegishli bo'lib, bu davrda chorvador qabilalar orasida ijtimoiy – iqtisodiy tengsizlik vujudga kela boshlagan edi.

Tegisken mozor–qurg'onlari o'rganish natijasida chorvadorlar orasidagi ijtimoiy tengsizlik haqida yanada ko'proq ma'lumot olindi. Bu yodgorlik Orol dengizining sharqiy qismida joylashgan.

Tegisken mozor–qurg'onlari 70dan ortiq inshoot bo'lib, ular shimoliy va janubiy gruppalariga bo'linadilar. Shimoliy gruppada mavzoleylaridan 5 tasi qazilgan, ulardan 4 tasi bronza davriga, 1 tasi ilk temir davriga oid bo'lib chiqdi.

Tegisken mozor–qurg'onlari murakkab konstruksiyali monumental inshootlar bo'lib, yirik xajmdagi xom g'isht va yog'och yordamida tiklangan. Ular o'z shakllariga ko'ra o'tovga o'xshaydi.

Mozor –qurg'onlarning har biri urug' oqsoqoli yoki qabila boshlig'iga tegishli bo'lib, ularning ichidan sopol, bronza, oltindan ishlangan buyumlar va xayvon suyaklari topilgan. Hayvon suyaklari qurbonlikka so'yilgan hayvon go'shtining bir qismi bo'lib, chorvadorlar odati bo'yicha uni marxum bilan birga qo'yishgan.

Miloddan avvalgi II ming yillik yarmida Toshkent viloyatining tog'oldi xududlari ham Andronova chorvador qabilalari tomonidan o'zlashtirilgan. Hozirgi kunda ularning qisqa muddatli qarorgohlari Toshkent yaqinidagi Achiko'l atrofida, Yangier rayonida va Toshkent kanali xududlarida makon va mozor izlari topilgan. Ularning xech birida madaniy qatlam saqlanmagan. Faqat qadimgi qishloq xarobalarida chizma naqshli sopol parchalari, bronzadan ishlangan uy–ro'zg'or buyumlari, tosh yorg'uchoq siniqlari uchraydi. Qabrlarda esa, oyoq–qo'llari buklanib, yoni bilan yotqizilgan skeletlar va bir necha sopol buyumlari topilgan. Ayollar qabrlari esa, bronza taqinchoqlar uchraydi.

Cho'l zonasi qabilalariga tegishli yodgorliklar Farg'ona vodiysida keng o'rganilgan. Jumladan, Farg'ona viloyatidagi Vodil, Karanko'l qabristonlari, Leninobod xududidagi Qayroqqum va Dahana qabristonlarini ko'rsatish mumkin.

Qayroqqum madaniyati Farg'ona vodiysining g'arbiy qismi joylashgan bo'lib, uni 1950 yillarda A.P.Okladnikov va B.A.Litvinskiylar tomonidan topib o'rganildi. U erdagi taqir ustidan 60

dan ortiq makon va minglab sopol bo'laklari, bronza va tosh qurollar, hayvon suyaklari parchalari topildi.

Makon va qabrlardan sopol idishlar ko'p jihatdan tozabog'yob sopollariga o'xshab ketsa-da, lekin Qayroqqum sopollari ichida quloqli, ba'zida tarnov jo'mrakli xillari xam uchraydi. Sopol idishlarning o'ndan bir qismi chizma, taroq iz gul bilan naqshlangan.

Qayroqqum madaniyatida metall hunarmandchiligi rivojlangan. 15 ta joydan metall eritish o'choqlari va toshqollar uyumi topilgan. Shuningdek, taqirlarda ikki tig'li yaproqsimon pichoqlar, xanjar, iskana, qarmoq, igna, bigiz, ikki parrakli bronza paykonlar ko'plab uchraydi.

Qayroqqum madaniyati broza davrining oxiri va ilk temir davriga oid yodgorlik hisoblanadi.

Yuqori Farg'ona xududidan Vodil, Qaramko'l, Yapagin, Chakka qabristonlarida B.Z.Gamburg va N.G.Gorbunovlar 50 dan ortiq mozor-qo'rg'onni tadqiq qildilar. Bularda oyoq-qo'li buklangan odam skeletlari tosh yashiklar ichiga ko'milgan edi. Lekin mozorlarning 90% o'g'irlangan. Ularning ba'zilarida qo'ng'iroqsimon bronza isirg'alar, spiral boshli bilakuzuklar, bronza munchoqlar, ikki parrakli paykon va sopol parchalari uchraydi.

Toshkent va Farg'ona vodiysi cho'lli zona qabilalari madaniy-xo'jalik faoliyatida chorvachilik dehqonchilikka nisbatan yuqori rivojlangan. Qadimgi Xorazmdagi Tozabog'yob madaniyatida esa, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jalik hayotida ustun bo'lgan va etarli darajada rivojlangan.

Ko'rib turganimizdek, bronza davri bo'yicha ma'lumotlar ko'p va xilma xildir. Uni talaba va o'quvchilarga yanada chuqurroq o'rgatish va oson tuchunib olishlari uchun yana alohida jadvaldan foydalanganimiz maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollar:

1. O'zbekiston hududidagi bronza davri yodgorliklarini sanab bering.
2. Qadimgi Baqtriyada dehqonchilik madaniyatining shakllanishi qanday yuz bergan?
3. Kuchuktepa yodgorligi to'g'risida nima bilasiz?
4. Sug'diyonadagi ilk temir davri yodgorliklarini tariflang.
5. Yerqo'ron yodgorligi xaqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
6. Sangirtepa yodgorligi xaqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
7. Amirobod madaniyati xaqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
8. Tagisken-mozor qo'ronlari xaqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. -Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma). -Т.: "Fan va texnologiya" 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танкидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон". 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. "Адолат". 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда*)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: "Вече", 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: "Университет", 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

7-modul So'ngi bronza va ilk temir davri

10-mavzu: So'nggi bronza va ilk temir davrining o'ziga xos xususiyatlari.

1. Temir davrining boshlanishi, uning o'ziga hos xususiyatlari.
2. Sinfy bo'linish, jamiyat boshqaruv tartiblarining vujudga kelishi
3. Evropa va Sibirdagi ilk temir davri yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: Xettlar, Garbiy Gurjiston, ilk temir asriga o'tish bosqichi, skiflar, sarmatlar, skif quronlari (mozorlari),

Temirning kashf etilishi o'sha zamonning moddiy madaniyatini o'zgartiribgina qolmay, balki o'sha davr va keyingi davrlardagi barcha sotsial-iqtisodiy o'zgarishlarning asosi bo'ldi.

Umuman, odamlar sof temir bilan eneolit davridayoq tanish bo'lganlar, lekin uning amaliy ahamiyatini bilmaganlar. Tabiatda sof temir, faqat meteoritlarda uchraydi. Osmondan tushgan buyum esa, ibtidoiy odamlar uchun muqaddas buyum sanalgan. Temirdan ishlangan taqinchoqlar, munchoqlar qadimgi Sharqda iste'qomat qilgan qabilalarning qabrlaridan topilgan. Temir to mil.av. 1 ming yillikgacha aholi uchun noyob zeb-ziynat bo'lib kelgan. **Mil.av. XIV asrlarga oid Misr, Mesopotomiya va Egey dengizi atrofida temirdan ishlangan buyumlar xozirgacha saqlanib qolgan. Bunday buyumlar Italiyada mil.avv. XII asrda, Germaniya, Skandinaviya va Rossiya xududlarida X asrlarda paydo bo'lgan.**¹⁴

Temirning ommaviy ravishda qo'llanilishi esa, mil.av. IX asrga to'g'ri keladi. O'rta Osiyo va Rossiya xududida ilk temir buyumlari mil.av. VIII asrlarga oiddir.

Temir tabiatda ruda xolida juda ko'p uchraydi, deyarli ibtidoiy qabilalar yashagan barcha xududlarda mavjud bo'lgan. Lekin qalay va mis ayrim xududlardagina mavjud bo'lib, bu qabilalarga o'zlariga etarli xom-ashyo olishda qiyinchiliklarni tug'dirgan.

Bronzaga ishlov berish, temirga ishlov berishdan ko'ra, ibtidoiy odam uchun oson edi, chunki bronza 700-800 Sda, mis 1084S da erigan, temir esa 1530Sda erigan. Shu sabab dastlab temirni eritmasdan ishlov berganlar va u sarg'ish va bo'sh metall shaklida bo'lgan. Ibtidoiy davrda rudadan temirni ajratib olish jarayonining kashf etilishi esa, eng buyuk kashfiyot bo'lgan. Bu kashfiyot asosida esa, temir rudasiga dam berish bilan (900S da rudaga dam berilgan va uglerod oksidi temir oksidini tiklagan.) u quyuq xolda ajratib olingan. (Dam berish usulidan ba'zi joylarda bronza davridayoq foydalanila boshlangan.)

¹⁴ T.Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

Rudadan bevosita temir ajratiladigan bosqonli qo'ra toshdan yasalgan va loy bilan suvalgan qozonsimon o'choq bo'lgan. O'choq ba'zan guvala va loydan yasalgan. Dam berish uchun uning ikki tomonida kichikroq teshik ochilgan. Bu teshiklarga naycha o'rnatilgan, naychalarga esa teri damlar biriktirilgan dastani bosib dam berilgan. Ko'raga temir va ruda taxlangan. Unga faqat pista ko'mir yoqilgan va ko'pincha botqoq rudasi ishlatilgan. Tiklangan temir zarralari pishib, sof temir bo'laklari xosil bo'lgan. Rudadagi boshqa aralashmalar toshqolga chiqqan. Temir bo'laklari bolta bilan urilib jipslashtirilgan va kerakli shakl berilgan. Bolta bronza davrida toshdan yasalgan bo'lsa, temir davriga kelib u temirdan ishlangan.

Rudadan bevosita temir olish usulida sof temirning yarmidan ko'pi toshqolga chiqib ketgan. Bu protsess kam maxsul bo'lganligi sababli odamlar o'rta asr oxirlarida rudadan bevosita temir olish usulidan cho'yandan temir olish usuliga o'tganlar.

Temirchilar o'zlarining ishlash uslublarini odamlardan sir tutganlar va ustaxonalarini axoli yashaydigan joylardan uzoqroqda qurib, unga hech kimni kiritishmagan. Shu sabab odamlar orasida temirchilar xaqida turli xil tuchunchalar paydo bo'lgan. Ularning ko'plari iloxiylashtirilgan va xar bir xalqda o'zining temirchi xudolari shakllangan. Masalan, greklarda Gefest, rimda Vulkan, nemislarda Viland, ruslarda Svarog, o'rta osiyoliklarda Dovud xisoblanib, odamlar ularning sharafiga turli marosimlar o'tkazgan va sig'inishgan.

Temir qurollarga o'tish ko'pchilik mamlakatlarda uzil-kesil dehqonchilikka o'tish uchun zarur sharoit yaratib bergan. Evropada o'rmonzorlarda ekin maydoni tashkil etish imkoniyatini kengaytirgan. Shuningdek, erlarni xaydash sifatini xam oshirgan. Unda so'qa va omochdan keng foydalanilgan. So'qa yordamida erlar chuqur va sifatli haydalgan. Omoch yordamida esa, egatlar xosil qilingan va toshloq, qattiq erlarga ishlov berish oson bo'lgan. Temir so'qa tishlar mil.av. VIII asrlarga oid Osur podsholari saroyidan topilgan. Boshqa joylarda esa, ilk temir davrida yog'ochdan yasalgan omoch va so'qalarga temir tish kiydirilgan.

Ilk temir davrida ko'pgina yangi mehnat qurollari yaratilgan. Egovning paydo bo'lishi temirni qizitilgan holda ishlash bilan birga dastlab u sovuq holda ishlangan deyishga imkon beradi. Eng qadimgi greklar, rimliklar, galliyaliklarning egovlari ham xuddi hozirgidek maqsadlarga ishlatilgan va uning kesiklari bir qator bo'lgan. Egov skanja bilan birgalikda ishlatilgan. Har xil nozik temir buyumlar, birinchi navbatda qulf va kalitlar egovlab yasalgan. Ilgarigi davrlarda kulf va kalitlar qadimgi Sharqda bo'lib, u yogochdan ishlangan.

Ilk temir davrida temir o'roq randalar chaqmoqtosh o'roq randalarni siqib chiqargan. Temir o'roq randa yoysimon o'tkir yupqa temirdan iborat bo'lib, ikki uchiga dasta o'rnatilgan. U g'o'la po'stini shilish va yog'och randalash uchun ishlatilgan.

Harbiy qurol aslahalarning asosiy turlari: qilich, xanjar, nayza, cho‘qmor, jang boltalari bronza davridayoq ishlatilgan bo‘lsada, temir davriga kelib, uning faqat metalli o‘zgargan. Bu davrda yoy o‘qlarini yasashda temir kam ishlatilgan, asosan bronzadan ishlangan.

Oddiy temir harbiy va mehnat qurollari uchun yumshoqlik qilgan. Grek tarixshunosi Polibiy mil.av. III asrda galliyalik jangchilar qilich bilan bir urgandan keyin uni oyog‘i bilan to‘g‘rilab olishga majbur bo‘lganligini yozib qoldirgan.

Biroq ko‘pchilik davlatlarda ilk temir davridayoq po‘lat ishlatila boshlangan. Temirni o‘choqda bir necha marta qizitib po‘lat xosil qilingan va uni bir necha marta sovuq suvga solib toblantirilgan.

Temirdan foydalanish natijasida jamiyatning sotsial hayotida xam o‘zgarishlarga olib keldi. Ikkinchi yirik mehnat taqsimoti sodir bo‘ldi. Hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Bu o‘z navbatida mehnat unumdorligining oshirishiga, tovar ayirboshlashning jonlanishiga, xususiy mulkning va sinfiy jamiyatning rivojlanishiga, davlat mustaxkamlanishiga sabab bo‘ldi.

Temir davri boshlarida Osiyo va Evropaning hamma joylarida istehkomlar qurilgan, shaxarlar rivojlangan.

Temir davri xronologik jihatdan 2 bosqichga bo‘linadi: 1–bosqich– bronza asridan temir davriga o‘tish mil.avv. X–VIII asrlar, 2–bosqich - ilk temir davri mil.avv. VIII–VI asrlarni o‘z ichiga oladi.

Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi bilan o‘zaro aloqalar natijasida bronza davridan boshlab O‘zbekistonning janubiy xududlarida, ya’ni qadimgi Baqtriya xududida o‘troq dehqonchilik madaniyatlari shakllandi. So‘nggi bronza va ilk temir davriga kelib, bu jarayon O‘zbekistonning barcha xududlarini qamradi. Zarafshon va Qashqadaryo xududida Sug‘diyona, Amudaryoning quyi oqimida Xorazm, Sirdaryoning yuqori havzasida qadimgi Farg‘ona va uning o‘rta oqimida Choch dehqonchilik madaniyatlari markazlari shakllandi.

Amu va Zarafshon daryolari havzalarida tarkib topgan har bir dehqonchilik voxalarining o‘troq aholisi Avestoda Baxdi, Gava So‘g‘da, Xvarizam, Sirdaryo xavzalarida shakllangan dehqonchilik o‘lkalarini esa, Choch va Fraganik nomlari bilan eslatib o‘tiladi.

Qadimgi Baqtiriyada o‘troq dehqonchilik madaniyati bronza davridanoq shakllana boshlagan. Bu madaniyat Sopollitepa, Jarqo‘ton, Kuchuktepa, Qiziltepa, Bandixon–1, Tallashkan, Jondavlattepa kabi qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari asosida o‘rganilgan.

Evropa va Sibirdagi ilk temir davri yodgorliklari. Temir davri boshlarida Qozog'iston cho'llari va Qora dengiz bo'ylari dashtlarida ko'chmanchi chorvador qabilalar iste'qomat qilishgan. Ular grek yozma manbalarida skiflar deb berilsa, eron yozuvlarida saklar, Avestoda esa turlar tarzida berilgan. Grek manbalarida skiflarning turmush tarzi va urf-odatlar haqida to'liq ma'lumot berilgan. Ulardan moddiy yodgorlik sifatida mozor-qo'rg'onlari saqlanib qolgan. Mozor-qo'rg'onlarning tagida chuqurlar yoki katakombalar bor. Ularda cho'ziltirib ko'milgan o'liklar bor. Bronza davrida ko'chmanchi qabilalarda mulkiy tabaqalanish bo'lmagan. Lekin temir davrida bu xol yaqqol ko'rinadi. Katta hajmdagi mozor qo'rg'onlar badavlat aholiga tegishli bo'lib, u erdan qurol aslaxa va turli qimmatbaho buyumlar topilgan. Kichik mozor-qo'rg'onlarda esa, ma'lum miqdorda o'qlar va zeb-ziynatlar bor, ba'zilarida esa umuman uchramaydi.

Skiflar, Geradotning xabaricha, qilichga sig'inishgan, hatto unga qurbonliklar keltirishgan. Ularning qilichi temirdan yasali, dastasining boshi yoysimon qilib qayirligan, dastaning tagi esa, kapalak qanotlariga o'xshash gulband qo'yilgan. Ammo, skiflar o'q-yoyni ishlatishda juda moxir bo'lishgan. O'qlari bronzadan ishlangan va uch qirrali bo'lgan. Bunday o'qlar ilk temir davrida Sharqiy Evropa, Sibir va O'rta Osiyoning juda ko'p erlaridan topilgan.

Skiflarning sopol idishlari qo'lda ishlangan. Naqshi bo'lmagan, tagi yassi bo'lib, turlari ko'p bo'lgan.

Geradot skiflarning ko'mish marosimini to'liq tasvirlab bergan, buni arxeologik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Skif podshosi qayerda o'lsa xam, uni Dneprning ostonalaridan pastroqdagi Gerri degan joyga olib borib ko'mishgan. Bu joydan g'oyat boy skif qabrlari topilgan. Lekin ularning barisi talab ketilgan.

Gerodotning xikoyasi bo'yicha, qabrga podshoning ayollari, jangchilari, qullari, otboqarlari va otlari o'ldirilib birga ko'milgan. Shuningdek, bu erda ularning diniy e'tiqodi bilan bog'liq turli xayvonlarning oltin haykalchalari (bug'u tasviri ko'plab topilgan), kumush idishlari va sopol buyumlari xam qo'yilgan. Soloxa, Chertomlik, Kuloba mozor-qo'rg'onlari bularga misol bo'la oladi. Jumladan quyi Dnepr bo'yidagi Chertomlik mozor-qo'rg'onining balandligi 20 metr, aylanasi esa, 350 metr bo'lgan.

Mil.av.II asrgacha skiflarda matriarxat tuzumi hukmronlik qilgan. Bu davrdan boshlab, endi ko'chmanchi chorvadorlar sarmatlar, keyinchalik alanlar nomi bilan yuritiladi. Endilikda sarmatlarning qilichi 1 metr va undan uzunroq bo'lgan va otda chopishga qulay bo'lgan. Dastasi yog'ochdan ishlangan. O'qlari esa temirdan ishlanib, uch parrakli shaklini saqlab qolgan. Sarmatlar tomonidan siqib chiqarilgan skiflar mil.avv. II asrda Qrimga ko'chib kelib, o'z

davlatlariga asos solganlar. Ularning markaziy shaxri Neopol bo'lgan. Shahar tosh devor bilan o'ralgan. Uylar xam toshdan yasalgan. Skif zadogonlari maqbaralari xam toshdan ishlangan. Shuningdek, qoya tosh ichiga o'yilgan daxmalar xam topilgan. Ularning barchasi talangan bo'lsada, u davr to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Rossiya xududida mil.av VII–II asrlarga oid Volga, Oka daryolari bo'ylarida Dyakovo shahar xarobalari va Kama bo'yidan Ananino shahar xarobalari topilgan. Bu erning axolisi asosan chorvachilik (yilqichilik), qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Dyakovo yodgorligidan erto'lalar, temir o'roqlar, yorg'uchoqlar, urchuqtoshlar topilgan. Bu erdan asosan suyakdan ishlangan mehnat qurollari topilgan. Ananno yodgorligidan esa, katta urug' iste'qomat qilgan uzunasiga solingan uylar qoldig'i topilgan. Ularning dafn marosimlari axoli o'rtasida mulkiy tabaqalanish boshlanganligini ko'rsatadi. Boylarning qabrlarida turli zeb-ziynatlar, qurol yarog'lar bor. Oddiy odamlarilarnikida esa bunday buyumlar kam uchraydi, ba'zilarida esa umuman yo'q.

Sibirning temir davri yodgorliklaridan Sayan va Oltoy yodgorliklari mashxurdir, chunki bu xududlar unumdor va metallga boy bo'lgan. Lekin sibirliklar temir bilan mil.avv. V asrdan tanishishgan. Aholisi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bu davrga oid ko'plab qoyatosh suratlari saqlanib qolgan. Ularda dehqonchilik bilan jarayonlar, axolining turmush tarzi aks etgan. Boyari tog'idagi suratda 3 ta yog'och va bitta paxsa uy va o'tov rasmi solingan. Uning chap tomonida echkiva bug'ularni haydab kelayotgan cho'pon tasviri bor. Bundan arxeologlar bu erning axolisi chorvachilik bilan xam shug'ullanishgan degan xulosaga kelgan. Ularning qabrlari xam mozor–qo'rg'onlar shaklida bo'lib, u erlarda haqiqiy mehnat va harbiy qurollar o'rniga ularning kichik modellari qo'yilgan.

Umuman temir davrida Sharqiy Evropa va Sibir aholisi yaratgan moddiy madaniyat bir biriga juda yaqin. Ulardagi urf–odatlar, ko'mish marosimi shuningdek, oltin, kumush, bronza, suyakdan ishlangan deyarli barcha mehnat qurollari, turli haykalchalar, harbiy qurollari o'rtasidagi o'xshashlik katta. Bu esa, ilk temir davrida Sharqiy Evropa, O'rta Osiyo va Sibir o'rtasida mustakam aloqalar bo'lganligidan darak beradi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
- 2.Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.:”Fan va texnologiya” 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон". 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. "Адолат". 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда*)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: "Вече", 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: "Университет", 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

11-mavzu: So'nggi bronza va ilk temir davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.

1. O'zbekiston xududidagi so'nggi bronza ilk temir davri yodgorliklari.
2. Kuchuktepa madaniyati, Amirobod madaniyati.
3. O'zbekiston xududidagi ilk shaxar-davlati yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: Amirobod madaniyati, Tegisken mozor–qo'rg'onlari, Elatan madaniyati, Chust madaniyati, Burg'uluk madaniyati. Kuchuktepa, Afrosiyob, Daratepa, Ko'zaliqir, Uygarak, Dalvarzin, Oqtom, Yerqo'rg'on, Sangirtepa yodgorliklar.

O'rta Osiyoda ilk temir davri miloddan avvalgi I ming yillik bilan belgilanadi. Anov, Dalvarzin, Daratepa, Quysisoy kabi o'nlab yodgorliklar Turkmaniston Respublikasining janubiy, O'zbekistonning Qashqadaryo va Zarafshon vohasi, Farg'ona vodiysi hamda Toshkent va Xorazm viloyatlari hududlarida o'rganilgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga oid yodgorliklardan 46 tasi Janubiy Turkmaniston hududlaridan topilgan. Anov, Yoztepa, Yelkantepa, Uchtepa, Cho'rnoq kabi qadimgi qishloq xarobalaridagi madaniy qatlamlar temir asriga mansubdir. Temir asri yodgorliklaridan biri Yoztepa bo'lib, uning quyi qatlamini Yoz I miloddan avvalgi 900-650 yil bilan sanalanadi. Ushbu davrda yodgorlik 16 ga maydonni egallagan qishloq turar joylaridan va to'g'ri burchakli katta imorat-qo'rg'ondan iborat bo'lgan. Qo'rg'on o'rnida 8 m keladigan xom g'ishtli sahn ustiga qurilgan saroy qoldiqlari topilgan. Xonalar uzun va to'rtburchak shaklda bo'lgan. Yoz I davri sopol idishlarining ko'pchiligi qo'lda yasalgan. Idishlar sariq angob bilan bo'yalgan va angob ustidan jigarrang va qizil bo'yoq bilan geometrik shaklli naqsh solingan. O'zbekiston hududida ham ilk temir davriga oid bo'lgan ko'plab yodgorliklar topilgan. Afrosiyob, Daratepa, Ko'zaliqir, Uygarak, Chust, Dalvarzin, Oqtom, Kuchuktepa, Yerqo'rg'on, Sangirtepa yodgorliklari shu davrga mansubdir.

Kuchuktepa Qadimgi Baqtriya xududida so'nggi bronza davriga oid yodgorlik xisoblanadi. U Surxandaryo xududidagi Ulanbuloqsoy sohilida joylashgan. Yodgorlikni 1962 yilda L.I.Albaum tomonidan topilgan va 1963–1967 yillar davomida tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu tadqiqotlar natijasida uning 2 ta rivojlanish bosqichi ko'rsatilgan edi. Lekin keyingi yillarda O'zbek–Olmon Baktriya arxeologik otryadining olib borgan tadqiqotlari natijasida yodgorlik sanasi ancha qadimiylashdi va quyidagi bosqichlari aniqlandi:

- Kuchuk I -miloddan avvalgi 1300-1000 yillar;
- Kuchuk II -miloddan avvalgi 1000-850 yillar;
- Kuchuk III -miloddan avvalgi 850-650 yillar;
- Kuchuk IV -miloddan avvalgi 650-450 yillar;
- Ilk antik davrga o'tish -mil. av. 450-350 yillar;

Arxeologik qazishmalar natijasida turli davrlarga oid qurilish qatlamlari aniqlandi. Kuchuktepada 8 metr qalinlikdagi g'isht supa ustiga qurilgan atrofii mudofaa devorlar bilan o'ralgan qasr ochildi. Uning quyi uch qatlami so'nggi bronza davri oid. Bu qatlamlardan qo'lda ishlangan naqshsiz sopollar va Sopolli madaniyatiga oid charxda ishlangan sopol idishlar topildi. Toshidan, terrakotadan ishlangan urchuqlar, suyakdan ishlangan igna, bigiz, uchburchak shaklidagi bronza o'q uchlari ham topilgan.

Kuchuk II qatlamidan asosan qo'lda ishlangan qora va oqish ranglarda turli geometrik naqshlar berilgan sopol buyumlar topilgan. Bu erda birinchi bor ikki parrakli asosi zo'g'atasimon qilib ishlangan bronza paykonlar topilgan. Shuningdek, kulolchilik charxida ishlangan sopol idishlarning yangi formalari paydo bo'ladi. Ular bankasimon, silindr-konus shaklida bo'lib, gardishi qarmoqsimon qilib ishlangan. Bunday sopol xillari so'nggi bronza yodgorliklarida umuman uchramaydi. Shu sabab Kuchuk II qatlamini olimlar so'nggi bronza davridan ilk temir davriga o'tish davri deb hisoblaydilar. 1977 yilda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Kuchuk II qurilish bosqichida u 4 qator mudofaa devori bilan o'rab olingan. Bu devor bronza davridagi devorlardan 2 metr uzoqlikda qurilgan. 4-devor 4,5 metr qalinlikdagi madaniy qatlam ustiga qurilgan. 3-devorda esa aylana shakldagi burjlar bilan mustaxkamlangan. Kuchuktepaning yuqori qatlamlari, ya'ni Kuchuk III va IV qurilish bosqichlari ilk temir davriga oiddir. Bu davrlarda sopol idishlari faqat kulolchilik charxida ishlangan.

Bronza davri Kuchuktepa arxeologik kompleksi Bandixon qishlog'idagi Maydatepadan ham topilgan. Bu yodgorlikda E.V.Rtveladze tadqiqot ishlari olib borib, Kuchuk I va Kuchuk II komplekslari Maydatepada mavjudligini isbotladi. Kuchuk I va Kuchuk II komplekslariga tegishli yodgorliklar Jarqo'tonning yuqori qatlamidan, Sho'rchi rayonidagi Qiziltepa, Bo'yrahittepa, Mirshodi yodgorliklaridan ham topilgan. Mirshodi makonini qazish vaqtida qadimgi dehqon jamoalarining diniy-e'tiqod tuchunchalari bilan bo'lgan predmetlar topildi. Ular qora toshdan ishlangan 4 ta g'altaksimon mitti "vazachalar", o'g'ir dastasi va qizil qumtoshdan yo'nilgan erkak kishi kallasining xaykalchasi edi. Bu mitti predmetlarni G.A.Pugachenkova tabiatda hosil beradigan va uni qayta ishlab chiqaradigan kuchlar g'oyasi bilan, tosh xaykalchani esa, hosildorlik bosh xudosi bilan bog'laydi. Shunga o'xshash predmetlar Kuchuktepadan ham topilgan. U erdan qo'shaloq vazasimon mitti isriqdonlar ham topilgan. Ularda olov izlari saqlangan. Ehtimol, bu predmetlarning barchasi dehqon jamoalarining diniy-e'tiqod dunyoqarashi bilan bog'liqdir.

Umuman, Kuchuktepaning bronza davri moddiy madaniyati monumental arxitekturasini hisobga olmaganda, Chust madaniyatini eslatadi. Bu esa ular o'rtasida madaniy–xo'jalik va etnik birlik borligini ko'rsatadi.

Sug'diyona o'lkasida dehqonchilik madaniyati ilk temir davridan shakllana boshlagan. Bu madaniyat Ko'ktepa, Sangirtepa, Daratepa, Uzunqir, Lolazor kabi qadimgi dehqonchilik madaniyatlari yodgorliklari misolida hamda To'rtkultepa, Afrosiyob va Erqo'rg'onning quyi qatlamlari asosida o'rganilgan.

Umuman, Sug'diyonaning ilk temir davri yodgorliklari daryo vohalarida tarkib topgan. Bu ayniqsa, Qashqadaryo vohasida aniq ko'zga tashlanadi. Bu erda ilk temir davriga oid bir necha vohalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Manzilgohlarni hajmi va vazifalariga ko'ra quyidagi tiplarga ajratiladi.

1. Ark va mudofaa devorlarga ega bo'lgan shaxar xarobalari
(Uzunqir, Erqo'rg'on).
2. Qishloqlar (Daratepa, Chiroqchitepa, Beshqo'tontepa).
3. Mudofaa devorlari bilan o'ralgan alohida vazifalarni bajaruvchi
manzilgohlar (Ibodatxona bo'lishi mumkin) (Sangirtepa).

Erqo'rg'on- Sug'dning madaniy–iqtisodiy markazlaridan biri hisoblanadi. Uning maydoni 34ga teng. Manzilgohning quyi qatlamidan mil.avv.VIII—VII asrlarga oid uy–joy va xo'jalik imoratlarining o'rni aniqlangan. Mil.avv. VI asrda uning ichki tomoni kengaytirilib, mudofaa devori bilan o'rab olinadi. Ichki tomonida xashamatli ma'muriy binolar barpo etiladi, lekin ark izlari topilmagan.

Uzunqir- yodgorligi Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan bo'lib, u ilk temir davriga oid. Hozirgi paytda uning mudofaa devorining bir qismi saqlanib qolingan. Mudofaa devorining pastki qismi guvaladan, yuqori qismi esa paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Devor qalinligi 1,85 metr bo'lib, uning tashqi tomonidan to'g'ri burchakli minora–burjlar bilan mudofaаланgan. Devorlarda shinaklar mavjud.

Sug'diyonaliklar sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Dehqonlar bug'doy, arpa, javdar ekkanlar.

Qashqadaryo vohasida topilgan kulolchilik buyumlari ikki guruhga bo'linadi. 1. Kulolchilik charxida ishlangan naqshsiz idishlar–kosa, tovoq, xumchalar. 2. Qo'lda yasalgan va geometrik naqshlar bilan bezatilgan idishlar. Ular asosan tog'oldi xududlaridan topilgan.

Sangirtepa yodgorliklari Qashqadaryo o'rta oqimidagi Sho'rob daryosi bo'yida joylashgan. Sangirtepaning umumiy maydoni 3 gektardan iborat bo'lib, uning janubiy va g'arbiy tomonlarida

mudofaa devorlari bo'lgan. Yodgorlikning ko'p qismi keyingi davrlarda dehqonchilik qilish uchun tekislanib yuborilgan. Tadqiqotlar natijasida u erdan 6,85 metrga teng madaniy qatlam ochilib, 4 ta qurilish davri aniqlangan. Sangirtepaning ilk shakllangan davri mil.avv.IX—VIII asrlar hisoblanadi.

Baqtriya va Sug'diyona iqtisodiy va madaniy hayotining shakllanishida qadimgi sharq sivilizatsiyasining ta'siri kuchli bo'lgan. Shuning uchun ham bu o'lkalarda so'nggi bronza va ilk temir davridanoq qadimgi shaharlar shakllanib, ilk davlatchilik vujudga kelgan.

Qadimgi Xorazmda esa, uning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Bu fanda Amirobod madaniyati deb nomlanadi. Keyinchalik mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida dehqonchilik vohalarining qal'a-shaharlari tarkib topadi (Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Dingilji).

Amirobod madaniyati so'nggi bronza davri oid yodgorlik bo'lib, u 1940 yilda Amudaryoning quyi xavzasidagi Amirobod kanali havzasidan topilgan. 1950 yillarga kelib, Amirobod madaniyatiga doir bir necha yodgorliklar topildi. Ularning orasida eng yaxshi saqlangan va boy arxeologik materiaalar bergan yodgorlik Yakka –Porson 2 makoni hisoblanadi. Makonni qazish vaqtida 20 yaqin erto'la tipidagi kulbalar topildi. Kulbalar maydoni va atrofidan g'alla o'ralari, omborlar, o'choq, gulxan qoldiqlari, sopol parchalari, tosh yorg'uchoqlar, bronzadan ishlangan bir tig'li pichoqlar, o'roq, bigiz va ko'plab hayvon suyaklari topildi. Xar bir kulbaning o'rtasida o'choq bor. Ular bir juft oilaga tegishli ekanligidan dalolat beradi.

Sopol idishlari charxsiz, qo'lda yasalgan. Ularning shakli, tipi va turi ham kamchilikni tashkil etadi. Xurmacha, kosa, bankasimon idish va sopol qozonlardan iborat bo'lgan. Idish sirti qizg'ish qoramtir rangda pardozlangan, yuqori qismi esa geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Amirobod madaniyati ichida bronzadan ishlangan quloqli ignalar, ikki parrakli bronza paykonlari va bronza mexnat qurollari yasaydigan tosh qoliplar, tosh yorg'uchoq, bronzadan ishlangan o'roqlar ko'plab uchraydi.

Amirobod yodgorliklari atrofida shu davrlarga oid irrigatsiya izlari va qadimgi ekinzor maydonlari ham ko'plab uchraydi. Bu esa ularning hayotida chorvachilik bilan birga dehqonchilik yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.

Amirobod madaniyati X–VIII asrlarga tegishli bo'lib, bu davrda chorvador qabilalar orasida ijtimoiy – iqtisodiy tengsizlik vujudga kela boshlagan edi.

Tegisken mozor–qo'rg'onlari Orol dengizining sharqiy qismida joylashgan. U erdan 70dan ortiq mozor–qo'rg'onlar topilgan bo'lib, tadqiqotlar jarayonida ularning ba'zilari bronza davriga, ba'zilari esa, ilk temir davriga oid ekanligi aniqlandi. Tegisken mozor–qurg'onlari

murakkab konstruksiyali monumental inshootlar bo'lib, yirik hajmdagi xom g'isht va yog'ochdan qurilgan. Ular o'z formalariga ko'ra o'tovga o'xshaydi.

Mozor –qo'rg'onlarning har biri urug' oqsoqoli yoki qabila boshlig'iga tegishli bo'lib, ularning ichidan sopol, bronza, oltindan ishlangan buyumlar va hayvon suyaklari topilgan. Hayvon suyaklari qurbonlikka so'yilgan hayvon go'shtining bir qismi bo'lib, chorvadorlar odati bo'yicha uni marxum bilan birga qo'yishgan.

So'nggi bronza va ilk temir davrida Choch (qadimgi Toshkent vohasi) Qadimgi Farg'ona singari o'ziga xos rivojlanish yo'lidani bordi. Bu erlarda dehqonchilik kichik–kichik soy etaklarida yoki buloq suv yoqalarida vujudga kelib, ibtidoiy usul asosida olib borilgan. Zaminning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib, sug'orma dehqonchilik xo'jaligi rivojlangan. Chirchiq, Ohangaron va ularning irmoqlari Toshkent vohasining eng qadimgi dehqonchilik markazlariga aylangan. Masalan, Ohangaron daryosining o'rta oqimida joylashgan Burg'uluksoy havzasida ilk dehqonchilik madaniyati tarkib topgan. Uni birinchi bor 1940 yilda A.I.Terenojkin aniqladi va unga Burg'uluk madaniyati nomini berdi, lekin u burganlisoy madaniyati nomi bilan ham ataladi.

Burg'uluk madaniyati ikki bosqichda rivojlangan: 1 bosqich mil avv. IX–VIII asrlarga oid bo'lib, bunda aholi yarim erto'la, chaylalarda yashab dehqonchilik qilganlar. 2 bosqich mil avv. YI–II asrlarga tegishli bo'lib, bunda aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Endilikda aholi guvala va xom g'ishtdan kulbalar qurganlar, ular oval, aylana, to'g'ri to'rt burchak va kvadrat shaklida bo'lib, ularning o'rtacha maydoni 12–15 kv.m. bo'lgan. Kulbalar asosan bir xonali bo'lib, 2 xonali kulbalar kam uchraydi. Qishloqlarning atrofini mudofaa devorlari bilan o'rab olganlar va dehqonchilikda sun'iy sug'orishdan foydalanganlar.

Keyingi davrlarda X.Duke va M.Filonovichlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning davrlari aniqlandi. 1972 yilda X.Duke Tuyabo'g'iz suv omborining qurilishi munosabati bilan Ohangaron daryosining chap sohilida taqiqot ishlari olib bordi va shu madaniyatga tegishli 14 ta qishloq va 60ga yaqin yarim erto'la va chayla tipidagi kulbalarining qoldiqlarini topib o'rgandi. Olim tadqiqotlar natijasida Burg'uluk madaniyatining birinchi bosqichini aniqladi. Mazkur madaniyatning ikkinchi bosqichi esa, 1978–1982 yillarda Shoshtepada olib borilgan keng stratigrafik qazishmalar natijasida M.Filonovich tomonidan aniqlandi.

1981 yilda shu madaniyatga tegishli bir qabr topildi. Unda marxum oyoq–qo'llari buklagan holda chap yoni bilan boshi shimolga qaratib yotqizilgan. Mozordan bitta sopol idish chiqqan. Skelet ustida bir qator xom g'ishtlar qo'yilgan.

Burg'uluk madaniyati qishloqlarini qazish vaqtida behisob sopol parchalari, qumtoshdan yasalgan o'roqsimon pichoqlar, bronzadan yasalgan o'roq va pichoqlar, bigiz, oyna, ignalar

topilgan. Tosh qurollari nihoyatda ko'plab topilgan, ular orasida yorg'uchoqlar, tosh o'g'ir va o'g'ir soplar ko'plab uchraydi. Sopol idishlar ko'pol va mo'rt bo'lgan, chunki ular qo'lda yasalib, ochiq gulxanlarda pishirilgan. Ularning turi ko'p bo'lmagan. Ular osti yassi qilib ishlangan kosalar, tuvakcha va xurmachalardan, quloqli sopol qozonlardan iborat bo'lgan. Sopol idishlarning sirtiga och qizil angob berilib, so'ng pardoqlangan. Uning ustidan idishlarning gardishi bo'ylab och qora yoki och qizil rangda oddiy chiziqlardan iborat gullar solingan.

Burg'uluq 2 bosqichidan qadimgi Toshkent vohasi dehqon jamoalari olovga e'tiqod qilishgan. Burg'uluk madaniyati Toshkent voxasining eng qadimgi dehqon jamoalarining madaniyati bo'lib, ana shu madaniyat asosida keyingi asrlarda Toshkent vohasida urbanizatsiya protsessi rivojlandi. Sirdaryoning o'rta xavzasida so'nggi bronza va ilk temir davrida burg'uluk madaniyati shakllanib, uning asosida antik davrga kelib qadimgi Choch dehqonchilik vohasi vujudga keldi.

Chust madaniyati qadimgi Farg'onadagi ilk dehqonchilik madaniyati yodgorligi hisoblanadi. Bu madaniyatni yaratgan aholi dastlab chorvachilik bilan shug'ullangan, keyinchalik esa o'troq hayot tarziga o'tishgan. Ularning ilk qishlog'i 1951 yilda M.E.Voronets tomonidan Chust shahri yaqinidagi Buvanamozor deb atalgan buloq yonidan topilgan. Arxeologlar bu yodgorlikka shartli ravishda Chust madaniyati nomini berganlar, chunki u yodgorlikka yaqin yirik aholi punkti Chust shahri bo'lgan.

Chust madaniyati so'nggi bronza va ilk temir davriga oid bo'lib, u mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida shakllangan. Olimlar olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning rivojlanish davrini 2 davrga bo'lib ko'rsatadilar.

1. So'nggi bronza davri bo'lib, mil.avv. II ming yillikning oxiri
va I ming yillikning birinchi choragidan to mil.avv. VIII
davom qilgan.

2. Ilk temir davri bo'lib, mil.avv. VIII – VII asrlarni o'z ichiga
oladi.

Bugungi kungacha Farg'ona vodiysidan bu madaniyatga oid 80 dan ortiq yodgorlik topilgan. Shuningdek, uning izlari Namangan, Andijon, Samarqand va Qashqadaryo hududlaridan ham topilgan. Hozirgacha ularning 10dan ortiq yodgorliklarida arxeologik qazishmalar o'tkazilgan.

Chust madaniyatiga oid yodgorliklar tog' oldi soy etaklarida, ularning o'rta oqimida, vohaning tekis rayonlarida uchraydi. Qoradaryo havzasi va uning irmoqlari bo'ylab esa, Chust madaniyatiga oid qishloqlar uchraydi.

Chustda M.E.Voronetsdan keyin V.I.Sprishevskiy, B.Matboboev, Yu.A.Zadneprovskiyilar tadqiqot ishlarini olib bordilar. Qazishmalar Dalvarzintepa, Qoraqo‘rg‘on, To‘raqo‘rg‘on, Tergovchi, Yaztepa, Go‘rmiron, G‘ayrattepa, Chimboy, Ashkaltepa kabi yodgorliklarda olib borildi. Ularda madaniy qatlam 1,5—3 metrgacha qalinlikda saqlanib qolgan, bu ham chust madaniyati axolisining o‘troq hayot kechirganligidan dalolat beradi.

Chust madaniyati yodgorliklari tarixiy–topografik tarkibiga ko‘ra 2 tipga bo‘linadi:

1. Maydoni bir gektargacha bo‘lgan mayda qishloqlar. Ularning har birida bir oila jamoasi yashagan.

2.Maydoni 10 va undan ortiq gektarga teng bo‘lgan qishloqlar. Ular har bir sug‘orma dehqonchilik rayonidan 1tadan uchraydi. Ularning atrofida o‘nlab mayda qishloqlar bo‘lgan (Dalvarzintepa, Ashkaltepa) .

Chust madaniyatining ikkinchi davrida ilk shaharlar vujudga kela boshlagan. So‘nggi bronza davri yirik qishloq tarzida tarkib topgan aholi punktlarida dastlab mudofaa devorlari barpo etiladi, ularda otashparastlik diniy qarashlari rasmiylashadi. Ular ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi – O‘rda qismida hukmdorning qarorgohi bo‘lib, uning atrofi ham mudofaa devori bilan o‘ralgan. Mudofaa devori qoldiqlari Chust qishlog‘ida va Ashkaltepadan topilgan. Chustda xom g‘ishtdan ishlangan devorning qalinligi 3 metr, uning balandligi 3,5 metrga teng.

Chust madaniyati yodgorliklarini qazish jarayonida ularning quyi qatlamidan doira shaklida qurilgan ko‘plab o‘ralar topilgan. Masalan, Chust makonida 60 ta, Chimboyda esa 16 ta shunday o‘ralar ochilgan. Bu o‘ralarning qanday maqsadda qurilganligi to‘g‘risida har xil fikrlar mavjud. Ba‘zilari kulba desa, ba‘zilari uni g‘alla o‘ralari deb talqin qiladi. Akademik A.Asqarov ham uni g‘alla o‘rasi deb hisoblab, ularning maydoni kulba uchun juda noqulay ekanligini ta’kidlaydi.

Chust madaniyati aholisi dastlabki bosqichda yarim erto‘la va chaylalarda yashaganlar, ikkinchi bosqichda esa, guvala va xom g‘ishtdan qurilgan kulbalarda yashaganlar.

Chust madaniyati oid qabriston hali topilgani yo‘q. Lekin makonlardagi uylarni qazish vaqtida bir necha tartibsiz qo‘milgan mozorlar topilgan. Ularda odamlar yoni bilan g‘ujanak holatida qo‘yilgan. Mozorlarda sklet atrofida sopol buyumlar yoki taqinchoqlar uchramaydi. Faqat Chust makonida bir mozordagina skelet bosh suyagi yonidan bitta gulli sopol kosa topilgan. Ba‘zi yodgorliklarda yosh bolalar sopol idishlarga solib ko‘milgan. Lekin chust madaniyati yodgorliklarida dafn marosimi bilan bog‘liq bo‘lgan aniq bir tartib kuzatilmaydi. Chunki ba‘zi hollarda odam suyaklari xo‘jalik o‘ralarida va ko‘p xollarda esa, bir chuqurchada o‘ntalab odam boshi suyaklari topilgan. Bu masala hozirgacha o‘z echimini topgan emas.

Chust madaniyatida metall bilan bog'liq hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Masalan, Chust makonidan 80 dan ortiq, Dalvarzintepadan 60 dan ortiq metall predmetlar topilgan. Shuningdek u erlardan tosh qoliplar ham topilgan bo'lib, ularda oyna, o'roq, pichoq va bigizlar quyilgan. Metall esa, sopol idish–tigellarda eritilgan. Chust madaniyati yodgorliklarining yuqori qatlamidan bronza buyumlar bilan birga temirdan ishlangan pichoq ham topilgan. Yodgorliklarda temir shlaklari ko'plab uchraydi.

Chust madaniyati yodgorliklarida tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari ham topilgan. Masalan Dalvarzintepadan 1500 ga yaqin tosh qurollari topilgan. Ular orasida qum–toshdan yasalgan o'roqsimon pichoqlar alohida diqqatga sazovordir. Ularning 400ga yaqini topilgan.

Suyakdan taroq, moki, bigiz, urchuq va boshqa buyumlar ishlangan. Urchuq toshlari, moki va suyak taroqlarning topilishi aholining to'qimachilik bilan ham shug'ullanganligidan darak beradi. Suyakdan yasalgan buyumlar orasida qo'y va echki oshiqlari nihoyatda ko'p. Ularga tegishli chuqurchalar yasab, chuqurchalarga bronza quyilgan. Oshiqlarning deyarli ko'pchiligi juda silliq, ustki qismi to'q qizil tusda va ularga pardoz berilganligini tufayli tovlanib turibdi. Tadqiqotchilar fikricha, bular bilan chust aholisi qimor o'yinini o'ynagan.

Chust aholisi kulolchilik idishlarini qo'lda yasaganlar, ular hali charxni bilishmagan. Ularning xo'jaligining asosini sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik tashkil qilgan. Dehqonlar bug'doy, tariq, arpa ekkanlar. Ikkinchi o'rinda xonaki chorvachilik turgan. Xo'jalikda ot, qoramol boqqanlar. Dehqonlar g'allalarini o'ralarda saqlaganlar. Har bir o'rada 200 kgdan to 2 tonnagacha g'alla saqlash mumkin bo'lgan. Erni haydashda va ekinlarni yanchishda hayvon kuchidan foydalanishgan. Bu haqda Qirg'iziston xududida joylashgan Soymalitosh qoya toshlari darak beradi. Uning suratlari Chust madaniyatiga oid bo'lib, unda qo'shga qo'shilgan ho'qizlarning tasviri bor.

Chust madaniyatiga oid sopol parchalari Samarqand xududida joylashgan Afrosiyob yodgorligining quyi qatlamidan, janubiy Sug'diyonaning bosh shahri bo'lgan Erqo'rg'on shaxri xarobasining pastki qatlamidan, Shaxrisabz xududida joylashgan ilk o'rta asrlar davriga oid bo'lgan To'rtkultepa yodgorligining quyi qatlamidan va qadimgi Baqtriya xududidagi Kuchuktepa, Bo'yrachi, Qizilcha, Maydatepa kabi yodgorliklardan topilgan. Lekin Chust madaniyati qadimgi Baqtriyada keng rivojlana olmadi, chunki bu erda sharq sivilizatsiyasi ta'sirida rivojlangan dehqonchilik madaniyati ularni o'ziga singdirib yubordi. Shuningdek, bu erdagi Chust madaniyati izlari Farg'ona va Sug'diyonadagi madaniyatdan tubdan farq qilar edi. Bu erdagilar kulbalarda iste'komat qilib, kulolchilik charxini o'zlashtirgan va qumtosh o'roqsimon pichoqlardan foydalanmas edilar.

Chust madaniyati mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida Farg‘ona vodiysida qadimgi dehqonchilik madaniyati tarkib topganligi ko‘rsatadi. Bu madaniyat aholisi O‘rta Osiyoning tub erli axolisi bo‘lib, ular jismoniy tuzilishi va antropologik tip jihatdan Evropa tipiga mansub bo‘lgan.

Chust madaniyatidan so‘ng qadimgi Farg‘onada ularning vorislari sifatida Elatan madaniyati shakllandi.

Elatan madaniyati ilk temir davriga oid bo‘lib, u mil.avv.VII–V asrlarga oiddir. Elatan madaniyatiga doir yodgorliklar Farg‘ona vodiysining deyarli barcha xududlaridan aniqlangan. Ulardan Elatan manzilgohida keng ko‘lamli qazish ishlari olib borilgan. Bu manzilgoh uchburchak shaklda bo‘lib, mudofaa devori bilan o‘ralgan (eni 4m).Mudofaa devorlarining bir necha joyida va darvoza burchagida burjlar aniqlangan. Qurilishda paxsa, xom g‘isht va guvaladan foydalanganlar. Dehqonchilikda asosan bug‘doy, arpa, sholi ekishgan. Chorvachilik xam taraqqiy qilgan bo‘lib, asosan kichik tuyoqli chorva mollari boqilgan.

Sopol idishlar qo‘lda va kulolchilik charxida ishlangan. Bu davrdan temirdan buyumlar yasash keng tarqala boshlagan. To‘qimachilik ham rivojlangan.

Qadimgi shaxarlar tarkib topishi, albatta, aholining o‘troq dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, dehqonchilik vohalarining markazlari sifatida shaharlar qad ko‘targan.

Nazorat savollari:

1. So‘nggi bronza va ilktemir davrida yuz bergan o‘zgarishlarni bilasizmi?
2. Faronada ilk dehqonchilik madaniyatining shakllanishi omillari nimada?
3. Evropa va Sibirdagi ilk temir davri yodgorliklari qaysilar?
4. Qadimgi davrda dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi qanday yuz bergan?
5. O‘zbekistonda ilk shahar madaniyatining shakllanishi to‘g‘risida ma’lumotlar ko‘rsating?
6. Burg‘uluk madaniyati xaqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
7. Chust madaniyati xaqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
8. Elatan madaniyati xaqida qanday ma’lumotlarga egasiz?

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
- 2.Egamberdieva N. Arxeologiya (o‘quv qo‘llanma).-T.:”Fan va texnologiya” 2011.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. “Sharq.” 1998 y.

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. “Ma'naviyat” 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. “Адолат”. 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда*)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”, 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

8-modul Qadimgi davr madaniyati.

12-mavzu: Qadimgi davrning o'ziga xos xususiyatlari.

1. Qadimgi davr taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi.
3. O'zbekistonning qadimgi davr madaniyati va uning rivojlanish xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Oks, Yaksart, talant, satraplik, ellinizm madaniyati, sulolaviy san'at, buddaviylik san'ati, sanskrit, kxaroshtxi, baktriya yozuvi.

Qadimgi davr xronologik jihatdan mil.avv. VI asrdan milodiy IV asrgacha davom etgan. Uning rivojlanish jarayonidagi o'zgarish asosida u 2 bosqichga bo'lingan. 1–bosqich mil.avv. VI–IV asrlar, 2–bosqich mil.avv. IV asrdan milodiy IV asrgacha davom etgan.

Qadimgi davr ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida tub o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bunda, birinchi navbatda ishlab chiqarish usuli va mulkchilik shakllari tubdan o'zgaradi. Bu temir davri jamiyatning rivojlanishi asosida vujudga kelgan bo'lib, jamiyatda shaxarlar, davlatlar va jahon imperiyalari tarkib topadi. Aholi o'rtasida tabaqalanish kuchayadi. Zodagonlar, qohinlar, jangchilar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar, qullar – bu jamiyatning asosini tashkil etgan. Lekin qulchilik xamma mamlakat va halqlarda xam bir xil taraqqiy etmagan. Ular Gretsiya va Rimda o'zining eng rivojlangan–klassik shakliga ega bo'lgan. Bu mamlakatlarda ishlab chiqarish usulining asosini qullar mehnati tashkil etgan. Qullar xuddi jonli buyum tariqasida foydalanilgan. Ularning hech qanaqa huquqi bo'lmagan. Ular eng og'ir va iflos ishlarda betinim ishlashga majbur etilgan.

O'rta Osiyoda esa, ishlab chiqarishning asosini erkin jamoa vakillari tashkil etgan. Qullar mehatidan esa, faqat uy yumushlarini bajarishda foydalanilgan va ularga oila a'zosi sifatida qaralgan. O'rta Osiyoda uy qulchiligining vujudga kelishi uning o'ziga xos tabiiy iqtisodiy sharoiti taqoza etgan. Bu asosan, sug'orma dehqonchilik xo'jaligi bilan bog'liq. To'g'onlar, ariqlar, kanallarni qurish va tozalab turish kabi ishlarni faqat jamoaning erkin, o'z mehnatidan manfaatdor aholisi bajargan.

Dunyoda eng qadimgi davlatlar dastlab Misr, Mesopotamiyada vujudga kelgan bo'lsa-da, Erondagi axomoniylar sulolasi, miloddan avvalgi VI asrda, dunyoda birinchi imperiyaga asos soldilar. Ular o'zlariga qaram o'lkalar to'g'risida ko'plab ma'lumotlar qoldirganlar. Ular jumlasiga Bexistun qoya toshlaridagi tasvirlar, Naqshi Rostam va Persepol saroyidagi tasvirlarni keltirish mumkin. Ularga bo'ysungan mamlakatlarda axomoniylar madaniyatiga xos bo'lgan moddiy madaniyat izlari topilgan. Shuningdek, imperiyada yagona pul tizimi(darik), yagona aloqa tizimi va diniy e'tiqod(zardushtiylilik) shakllantirilgan. Buyuk ipak yo'lining dastlabki shahobchasi "Shoh yuli" xuddi shu davrda o'z faoliyatini boshlagan.

Axomoniylar imperiyasi 200 yilcha xukmronlik qilgan. Mil.avv.IV asrda jahon sahnasida grek–makedonlarning gegemonligi ko‘rina boshlaydi. Mil.avv.VII–IV asrlarda yuksak madaniyat yaratgan greklar, mil.avv.IV asrda Makedoniya podshosi Aleksandr Makedonskiy tomonidan bo‘ysundiriladi va u boshka xalqlarni, shu jumladan, axomoniylar imperiyasini ham o‘ziga bo‘ysundirib, ikkinchi jahon imperiyasini tashkil etadi. Shu tariqa Aleksandr Makedonskiy tobe qilgan xalqlarda grek madaniyati kirib kela boshlaydi.

Mil.avv.IV asrdan boshlab grek tanga pullari jahon savdosida etakchi o‘rinni egallaydi. Qadimgi davrda tanga pullar mil.avv. VII asr boshida Kichik Osiyoda yashaydigan lidiy xalqida paydo bo‘lgan va shu davrdan tanga pullar ishlab chiqish Gretsiya, Mesopotamiya, Eron, Misr va boshqa davlatlarga yoyilgan. ¹⁵

Qadimgi davrda tanga pullar uch xil metall–oltin, kumush va misdan ishlangan, ulardan kumush keng iste’molda bo‘lgan. Lidiy halqi yaratgan tangalar dumaloq yoki tuxumsimon shaklda bo‘lib, ularga davlat tamg‘asi bosilgan. Greklarning pullarida esa, badiiy jihatdan tasvirlar mukammal bo‘rttirib ishlangan. Ularga ko‘proq mifologik suratlar ishlangan. Shuningdek, har bir mamlakatning o‘z tangalari ham bo‘lgan. Ularda ko‘pincha podshosining surati, uning nomi va ular e‘tiqod qiladigan xudolar tasviri bo‘lgan.

Qadimgi davrda dehqonchilikning rivojiga alohida e‘tibor bilan qaralgan. Erga asosan omoch va so‘qa bilan ishlov berilgan. Pantikapey tanga pullarida so‘qaning tasviri ham saqlanib qolgan. Uning tishi yotiq, shoti egri va qo‘l ushlaydigan dastasi tikka qo‘yilgan. So‘qa va omoch temirdan ishlangan.

Don dastlab yorg‘uchoqlarda yanchilgan, antik avtorlarning ma’lumotlariga ko‘ra, yorg‘uchoqlarda cho‘rilar ishlagan. Neolit davridan to antik davrgacha yorg‘uchoqlar deyarli o‘zgarmagan. Mil.av. IV–III asrlarda qo‘l tegirmoni tarqalgan. U Italiyada ixtiro qilingan. Qo‘l tegirmon ustma–ust qo‘yilgan ikkita yumaloq yassi toshdan iborat bo‘lib, bu toshlarni aylantirib, un tortganlar. Uning pastki toshi qavariq, ustidagi botiq bo‘lib, ikki tosh o‘rtasiga don sekinlik bilan to‘kib turilgan. Kichikroq tegirmonlar qo‘l bilan aylantirilgan, kattalarini esa, cho‘ri yoki hayvonlar aylantirganlar. Mil.avv. II asrga kelib, qo‘l tegirmonlari deyarli barcha mamlakatlarga tarqalgan. Mil.avv. I asrda suv tegirmoni Rimda ixtiro qilingan, lekin u keng tarqalmagan. U bizning davrimizgacha saqlanib qolmagan. Faqat antik davr avtorlari ma’lumotlarida mavjud.

Qadimgi davrda sopol buyumlari ishlash texnikasi takomillashgan. Gretsiyada o‘ziga xos idishlar ishlangan. Amfora (ko‘za) eng ko‘p ishlatadigan idish bo‘lgan. Amforaning og‘zi tor,

¹⁵ Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.

tagidan yuqoriga tomon kengaytirilib ishlangan, ikkita dastasi bo'lgan. Uning ichiga g'ar xil narsalar solib tashiganlar. Ko'proq don, vino, yog', suv, baliqlar solingan. Kemalarning katta kichikligi ularga sig'gan amforalar soni bilan belgilangan. Don, vino va suv saqlashda yana – pifos degan idishdan xam foydalanganlar. Bu katta sopol xum bo'lib, unga bemalol odam ham sig'gan. Katta pifoslar er ko'mib, undan ombor sifatida foydalanganlar.

Greklar sopol idishlarni kulolchilik charxida ishlaganlar. Ro'zg'orda ishlatadigan idishlar yaxshi pishirilgan, ularning ranggi sariq va pushti rang bo'lgan. Sopol idishlarga turli badiiy bezaklar berilgan. Badiiy sopol buyumlar naqsh solishdan oldin va naqsh solingandan keyin xam ikki marta pishirilgan.

Mil.avv.VI asrda greklarda sopollarga qora lak bilan ishlov berish keng tarqalgan. Idishlarda mifologiyaga doir yoki hayotdan olingan turli xil manzaralar tasvirlari ishlangan. Mil.avv.V–IV asrlarda qizil suratli vazalar keng tarqalgan. Bunda idish butunlay qora lak bilan bo'yalib, suratlar va atrofdagi naqshlar sopolning tabiiy rangida qoldirilgan. Mifologik va realistik mavzular nihoyatda aniq va nafis chiziqlar bilan ishlangan. Mil.avv.IV asrdan sopol buyumlarni bezashda oq, qizil, yashil va ko'k bo'yoqlar bilan ham ishlov berganlar. Badiiy sopol buyumlar ayniqsa, olimpiada g'oliblariga taqdim etilgan. U oddiy amforaga o'xshatib ishlangan, lekin qaysi sport turi g'olibiga mo'ljallagan bo'lsa, shu sport turining tasviri tushirilgan. Jumladan, mushtlashish, yugurish, nayza otish o'yinlari va xk. Shuningdek ularda ma'buda Afina tasviri xam tushirilgan.

Rim imperiyasi davri sopol buyumlariga bezak berishda o'zgarishlar kuzatiladi. Ular idishlarni qizil lok bilan qoplashgan. Naqsh va suratlar esa bo'rtma tarzda aniq ishlangan. Ko'rpicha meva, gul va barglar tasviri berilgan.

Shisha buyumlari ishlab chiqarish ham qadimgi davrda rivojlangan. Shisha bronza davrida Misrda ixtiro qilingan. Misrning shisha munchoqlari bu davrda ham xaridorgir bo'lib, u suv yo'li orqali Evropa, Rossiya, O'rta Osiyo xudularigacha tarqalgan.

Greklar va rimliklarda kitoblar ko'pincha o'ram shaklida bo'lgan. Ular ikki xil materialga: papirus va pergamentga yozganlar. Papirus Misrdan keltirilgan. Papirus nil o'simligi bo'lib, uning poyasi qat-qat bo'lib, qatlarga ajralgan. Uning qatlamlari dumalatib silliqdigan. Natijada qog'ozga o'xshagan sarg'ishroq pishiq narsa hosil bo'lgan. Yozish uchun ishlatadigan materiallarning ikkinchi xili uy hayvonlari terisidan ishlangan. Bu qog'oz turi Kichik Osiyodagi Pergam shahrida kashf qilingan va uning nomidan pergament so'zi kelib chiqqan. Keyinchalik Rimda o'ram shaklidagi kitoblar bilan birgalikda, hozirgi kitoblarga o'xshash kitoblar ham paydo bo'la boshlagan.

Qadimgi davrda murakkab geometrik bezaklarni ishlashda sirkul ishlatilgan. U dastlab ikki daryo oralig'ida kashf etilib, Gretsiya va Rimda keng ishlatilib, takomillashtirilgan. Italiyada esa,

mashstablarini ko'paytirish va kamaytirish uchun ishlatiladigan proporsional sirkullar xam topilgan. Bu sirkullarning hammasi hozirgi zamon sirkullariga o'xshab ketadi.

Rim imperiyasi davrida xam baliqchilik, dehqonchilik, vinochilik, sohalari rivojlangan. Vino ishlab chiqarishda presslardan foydalanilgan. Rim avtorlaridan Vitruviy burama va richagli presslar haqida yozib qoldirgan. Ular bulardan tashqari o'roq mashina va suv tegirmoni ham ixtiro qilganlar, lekin ularning qiymati qul mehnatidan qimmat tushganligini sababli, Rimdan tashqarida keng yoyilmagan. Milodiy I asrda Italiyada deraza oynasi ixtiro qilinadi. U tezlik bilan ob-havosi yomon xududlarga tezlik bilan yoyiladi.

Qadimgi davr ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida Eron, Gretsiya va Rim muxim o'rinni egallagan. Ularning madaniy soxada qo'lga kiritgan yutuqlar iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida boshqa xalklarga xam yoyilgan va bu ularning madaniy rivojlaniishda muxim o'rinni egallagan.

Qadimgi davrda O'zbekiston xududida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

O'zbekiston tarixining qadimgi davri axamoniylar xukmronligi davridan, ya'ni mil.av. VI asrdan boshlanib, milodiy IV gacha davom qilgan. Bu davrda O'zbekistonning moddiy madaniyati rivojiga axamoniylar, makedonlar, kushanlar madaniyati sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekistonning qadimgi davri ikki bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1-bosqich miloddan oldingi VI-IV asrlar bo'lib u arxeologik adabiyotlarda arxaik davr deb beriladi.

2-bosqich miloddan oldingi IV asrdan milodiy IV asrgacha davom qiladi va antik davr deb aytiladi.

Qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi. Qadimgi davrda yirik qal'a-shaxarlar vujudga kelgan. Ularning markaziy binolari ark va ibodatxonalar hisoblanib, ular turli xaykallar va devoriy suratlar bilan bezatilgan. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq yangi tipdagi binolar nauslar, ibodatxonalar va zikkuratlar qurilib, insonlar turmush tarzining bir qismiga aylangan.

O'zbekiston tarixida ilk shaxarlar dastlab janubiy O'zbekiston xududida so'nggi bronza davridan (Jarqo'ton yodgorligi) shakllana boshlagan bo'lsada, qadimgi davrga kelib shaxarlar nihoyatda tez o'sdi. Bu asosan quldorlik jamiyatining rivojlanishi bilan bog'liq edi. Shaxarlar ishlab chiqarishning markazi sanalgan. Ularda madaniy potensial yuqori bo'lib, hunarmandchilik, savdo, diniy e'tiqod va boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan binolar bo'lgan, u erda aholi zich yashagan. Akademik A.Asqarov yirik aholi punktining shahar bo'lishi uchun quyidagi tashqi xususiyatlari mavjud bo'lishi lozim deb ko'rsatadi:

1. Aholining zich qurilgan uylari, binolari orasida baland monumental arxitektura inshooti, ya'ni xukmdor qarorgohi va ibodatxona binolari bo'lishi kerak.
2. Ijtimoiy–harbiy funksiyalarni o'zida mujassamlashtirgan mudofaa devori bo'lishi kerak. U baland, qalin va murakkab mudofaa elementlari (burj, mustahkam darvoza, shinak va b.q) bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.
3. Shaharda maxsus mahallalar, magistral ko'chalar va kanalizatsiya sistemasi ham bo'lishi kerak.

Shaharning ichki tarkibiy tuzilishi birinchi navbatda uning rivojlanish bosqichiga bog'liq. Dastlabki shaharlar dehqonchilik vohalari markazi sifatida shakllangan va shaharlarning vujudga kelishi uchun bir necha omillar imkon bergan:

1 omil – aholini oziq–ovqatga bo'lgan ehtiyoji tufayli yaratilgan xo'jalik ixtirolari, ya'ni dehqonchilikdan chorvachilikning ajralishi;

2 omil – hunarmandchilikning dehqonchilik xo'jaligidan ajralib chiqishi. Bu hunarmandchilik xo'jaligining markazlashuviga va uning qator sohalarining ajralib, alohida faoliyat yuritishlariga imkoniyat tug'dirdi. Bu esa shaharning ichki tuzilishini ta'minladi.

3 omil– jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning kelib chiqishi, shu bilan birga jamiyatni boshqarish organlarining o'zgarishi va murakkablashishi edi.

4 omil– sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik jamoa bo'lib faoliyat yuritishni taqoza qilar edi. Erlarni sug'orish uchun magistral kanallar qazish, to'g'onlar qurish, toshqin suvlarni jilovlash, ekinlarni muntazam suv bilan ta'minlash, oziq–ovqatga nisbatan o'sib borayotgan talabni qondirish uchun yangi erlarni o'zlashtirish urug' jamoalarining qo'lidan kelmas edi. Bu esa dehqonchilik vohalarida aholi zichligining tobora ko'tarilib borishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida ularni boshqaruvni talab qilar edi. Endi avvalgi urug' boshliqlari o'rnida yirik aholi punktlarini boshqaruvchi diniy va dunyoviy hokimiyat egalari qohinlar va xukmdorlar tabaqasi shakllandi.

5 omil – erni ishlashda va hosilni yig'ishda hayvon kuchidan keng foydalanishga o'tishdir. Buning uchun shaharda hayvon qo'shilgan g'ildirakli aravalarning qatnashi uchun keng magistral ko'chalar qurildi.

6 omil– bu shahar aholisining umumiy bir xudoga e'tiqod qilishlaridir. Bunga atab ibodatxona quradilar. Uning yaqinida esa, yordamchi xo'jalik binolari va qohinlar yashaydigan uylar quriladi. Ana shular bazasida shaharning diniy–ideologiya markazi shakllanadi. Bu joy asta–sekinlik bilan markaziy maydonga aylanadi.

Shahar taraqqiyotining keyingi bosqichlarida markaziy maydon atrofi mudofaa istehkomlari bilan o‘rab olinadi. Shu tariqa shahar ichida ark shakllangan. Shu paytdan boshlab ilk shaharlar eng qadimgi davlat uyushmasiga aylana borgan.

Mil.avv. VI asrda O‘zbekiston xududida ilk davlat uyushmalari “Katta Xorazm” qabilalar konfederatsiyasi va qadimgi Baqtriya davlati mavjud bo‘lib, o‘ziga xos madaniyatni shakllantirgan edilar. Lekin mil.avv. VI asrda axomoniylar imperiyasi tarkibida bo‘lishi madaniy rivojlanishda xam ma’lum darajada o‘zgarishlarga olib keldi. Sopol idishlarining ishlash uslublari, arxitektura elementlari, davlatni boshqarish tartiblari va pul birliklari kirib kelsa–da, madaniy rivojlanishda mahalliy elementlar ustunlik qildi.

Bu davrning madaniy rivojlanishi yozma va arxeologik manbalar asosida o‘rganilgan. Arxitektura, hunarmandchilik, dehqonchilik, zargarlik, tikuvchilik va kulolchilik kabi sohalar rivojlangan. Surxondaryo, Qashqadaryo, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vodiylarida yirik hunarmanchilik markazlari vujudga kelgan. Arxeologlar shu xududlardan yirik qal’alarning izlarini topishgan. Shulardan biri Maraqandaning qadimgi markazi Afrosiyob yodgorligidir. Arxeologik tadqiqotlar natijasida undan miloddan oldingi VI–IV asrlarga oid manzilgoh izlari topilgan. Uning umumiy maydoni 50–70 gektarni tashkil qilgan. Bu erdan sopol idishlar, temir va bronzadan ishlangan ko‘plab uy–ro‘zg‘or buyumlari va qurol yarog‘lar topilgan.

Qadimgi Xorazm xududidan Ko‘zaliqir, Kal’aliqir, Oybuyirqal’a va Dingilji qo‘rg‘onlari topib o‘rganilgan.

Oybuyirqal’adan eng qadimgi yozuv namunasi topilgan. U xum sirtiga yozilgan bo‘lib, unda xumning sig‘imi ko‘rsatilgan. Qo‘zaliqir uchburchak shakldagi tabiiy tepalik ustiga qurilgan. Uning tashqi devori ikki qator yo‘laksimon tarzda bunyod qilingan. Ilgarilari bu qal’a “devorlari ichida odam yashaydigan qal’a” nomini olgan edi. Chunki uning faqat tashqi devorlari topilib, qal’aning ichida madaniy qatlam topilmagan edi. Lekin 80–yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qal’ada tashqi devorga tutashtirib qurilgan axoli uylari, arki va diniy marosimlar bilan bog‘liq binolar topilgan.

Qal’aliqir qal’asi axomoniylarning qurilish uslublari asosida bunyod qilingan. Ko‘p ustunli zal va undan ko‘plab xonalarga yo‘laklar ketgan. Lekin arxeologik tadqiqotlar binoda qurilish ishlari tugallanmay qolganligi ko‘rsatdi. Olimlar uni axomoniylarning rezidensiyasi sifatida qurilayotgan bo‘lib, xorazmiylar axomoniylar xukmronligidan ozod bo‘lgach, qurilish ishlari to‘xtagan degan fikrni bildirganlar. Shuningdek, qal’ada qurilishning tugallanmay qolishi Xorazmda axomoniylar xukmronligi uzoq davom etmaganligi va ular bu xududdan mil.avv. V asr oxiri IV asr boshlarida chiqib ketishgan.

Arxaik davrda Surxondaryo xududidan Bandixon, Qiziltepa, Kuchuktepa, Qashqadaryo xududidan Daratepa, Erqo'rg'on, Uzunqir yodgorliklar topib o'rganilgan.

1877 yilda Vaxsh daryosining Amudaryoga quyiladigan joyida Qo'bodiyon bekligi xududida maxalliy aholi tomonidan qadimgi davrlarga oid oltin va kumush buyumlar ko'plab topilgan. Bu noyob buyumlar olimlar ko'liga tushgachgina, uni saqlab qolishga xarakat qilindi. Ulardan faqat 180taga yaqin zargarlik buyumlari va tangalar saqlanib qolindi. U "Amudaryo xazinası" nomini olgan bo'lib, ko'pchilikning qiziqishini o'ziga tortgan. Ular orasidan maxorat bilan ishlangan oltindan yasalgan ot– arava bo'lib, uni kumushdan yasalgan ikkita odam boshqarmoqda, odam tasvirlangan oltin plastinkalar, oltin bug'u xaykali, feruza ko'zli buqaning bosh qismi, oltin bilakuzuklar va boshqalar. Bular qadimgi Baqtriyada zargarlik sohasi nixoyatda rivojlanganligini qo'rsatadi. Olimlar fikricha, bu buyumlar Baktriyadagi Anaxita ibodatxonasiga tegishli bo'lib, Aleksandr Makedonskiy yoki Salavka I xujumi natijasida vayron qilingan. Bu buyumlar bugungi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Shuningdek, axamoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotiga oid tasvirlar Persopoldagi shoh saroyi, Bexistun qoya toshlari, Naqshi Rostam devorlaridagi yozuvlar va releflarda saqlanib qolgan. Ular yordamida arxaik davrdagi odamlarning qiyofasi, turmush sharoiti, mashg'ulotlari, diniy e'tiqodlari to'g'risida ma'lumotlar olingan.

Mil.avv. 330–327 yillarda Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari natijasida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona davlatlari vayronaga aylandi. Natijada uzoq vaqtgacha bu erlarda madaniy taraqqiyot sezilmadi. Faqatgina mil.avv. III asrda salavkiylar hukmronligi davrida biroz o'zgarishlar yuz berdi. Ular greklar madaniyatini O'rta Osiyoga yoyishga intilib, shu sohada bir qator islohatlarni o'tkazdilar.

Mil.avv. III asr o'rtalariga kelib, Baqtriyada yunon-baqtriya davlatining qaror topishi bilan mahalliy madaniyatga ellinizm elementlarning kirib kelishi jadallashdi. Bu jarayon ayniqsa, moddiy madaniyatda, uning me'moriy qurilishlarida yaqqol ko'zga tashlandi.

O'sha davr madaniy yuksalishlarida Baqtriyada Dalvarzintepa, Eski Termiz, Jondavlattepa; Sug'da Afrosiyob, Erqo'rg'on, Poykent; Xorazmda Yonboshqal'a, Ayozaqal'a, Bozoraqal'a, Tuproqqaqal'a, Qo'yqirilganqala; Chochda Qanqa, Shoshtepa, Qovunchitepa; Farg'onada Axsikent, Koson, Marhamat kabi yodgorliklar va yuzlab kichik va minglab qishloqlar shakllandi.

Mil.avv. IV asrdan qadimgi Xorazmda markazlashgan davlat tizimining mustahkamlanishi jamiyatning ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga imkon bergan. Shahar qurilishi, me'morchilik va hunarmandchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. Abu Rayhon Beruniy

ma'lumotiga ko'ra, bu davrda 300 dan ziyod shaharlar qurilgan. Ularning xarobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan.

O'zining qurilish uslubi jixatidan Qo'yqirilganqala (mil.avv. IV–III asrlar) alohida ajralib turadi. Qala aylana shaklda qurilgan. Uning markaziy qismida ark joylashgan. Arkning atrofi 2 qator mudofaa devori bilan himoyalangan. Tashqi mudofaa devorda xar 18–26 metr dan burjlar joylashgan. Bu devor xom g'isht va paxsadan qurilgan bo'lib, qalinligi 1 metr, balandligi 7 metr bo'lgan. Bu qala ibodatxona vazifasini o'tashi bilan birga rasadxona sifatida xam foydalanilgan. Bu erdan oramiy xatiga asoslangan qadimgi Xorazm yozuvi topilgan.

Qadimgi Xorazm poytaxti hisoblanib kelingan Tuproqqal'a xam o'ziga xos qurilish uslubiga ega. U to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, qudratli mudofaa devoriga ega. Devor burchaklarida burjlar bor. Shaxar markazidan katta ko'cha o'tgan bo'lib u shaxarni ikki qismga bo'lib turibdi. Markaziy maydonda qasr va ibodatxonalar joylashgan.

Yonboshqal'a me'moriy yodgorligi Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtko'l tumani xududida joylashgan. Yodgorlik to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uning maydoni 4 gektarga yaqin. Qal'a ikki qatorli devor bilan o'rab olingan. Balandligi 10 m, qalinligi 5m, ular o'rtasidagi yo'lakning kengligi 2,5 m. Qal'ada bitta darvoza bo'lgan. Uning old tomonida to'g'ri to'rtburchakli bir necha aylanali murakkab inshoot qurilgan. Darvoza oldida bir necha aylanma yo'lakdan iborat qilib qurilishi dushmanga qal'a ichkarisiga to'g'ri kirib borishiga imkon bermagan. Aylanma yo'lakka kirgan dushman devor ustida turgan o'qchilar zarbasiga duch kelgan. Bunday darvozaoldi murakkab mudofaa inshooti qadimgi Xorazm shaharlarining barchasi qurilgan.

Shaxar ikkita mahallaga bo'lingan. Shahar markazida ibodatxona joylashgan. S.P.Tolstov fikricha, qal'ada mingga yaqin aholi iste'qomat qilgan. Qal'a devorlarida burjlar yo'q, lekin mudofaa uchun ko'p sonli shinaklar qo'yilgan. Shinaklarning qal'ani mudofaa qilishda va dushmanga zarba berishda ahamiyati katta. Yonboshqa'ada shinaklar nayzaga o'xshash uchli bo'lib, ikki qator qilib qurilgan. Bu qal'a Xorazm davlatining sharqiy tomonidagi harbiy chegara shaharlardan biri bo'lgan.

Mil.avv. II asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning shimoli–sharqidan ko'chmanchi yuechji (tohar) qabilalarining kirib kelishi va bu joylardan o'rtnashishi natijasida yangi madaniy o'zgarishlar boshlandi. Ular tashkil qilgan ulkan Kushonlar davlati Baqtriya xududidan to Ganga daryolari xududigacha etib borgan. Qadimgi Farg'ona xududida Davan davlati, Xorazm va Sug'd xududlari esa, Qang' davlati tarkibida bo'lgan. Qang' davlatiga saklar asos solgan bo'lib, undan Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida Qang'xa shaxar xarobasi saqlanib qolgan. Xitoy tarixchilari bu shaxarni Bityan deb atashgan.

Qadimgi davrda shahar madaniyati uzluksiz rivojlanib, shahar qurilishi o'zida maxalliy elementlar bilan birga ellinistik me'moriy elementlar bilan qorishib ketadi. Bu asosan milodiy I–III asrlarda namoyon bo'ldi. Masalan, Baqtriya me'morchiligida kolonnali zallarning paydo bo'lgan va ularning intererlarini bezashda tosh va marmardan kapitellar va pilyastrlar bilan bezalgan. Bu elementlar ayniqsa, mudofaa inshootlari, diniy va dunyoviy monumental me'moriy inshootlarda ko'p qo'llanilgan. Binolar 40X40X10 sm li xom g'isht va paxsadan qilingan. Devorlar somonli loysuvoq, ganch va sopolli bezak elementlari bilan pardozlangan.

O'zbekistonning qadimgi davr madaniyati va uning rivojlanish xususiyatlari. Bu davr me'moriy obidalarida tasviriy san'at keng qo'llanilgan. Masalan, Dalvarzintepa ibodatxonasining Baqtriya xudolariga bag'ishlangan devoriy sur'atlari, Fayoztepa va Qoratepa Budda ibodatxonalaridagi devoriy suratlar, Tuproqqal'a va Erqo'rg'on devoriy rasmlari bunga misol bo'la oladi. Lekin tasviriy san'at monumental san'atning ustivor yo'nalishi xisoblanmagan, u haykaltaroshlik bilan bog'liq holda rivojlangan. Haykaltaroshlikning asl namunalari Shimoliy Toxariston va Xorazm madaniyatida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Baqtriya–Toharistonda eng qadimgi xaykallar kompozitsiyasi Xolchayon hokimining saroyidan topildi. Ular saroyning kutish zaliga o'rnatilgan. G.A.Pugachenkova tahliliga ko'ra, haykallarning asosiy guruhi dastlabki kushon podsholari (Geray)ga tegishli bo'lib, ular tarkibida yuechjilar birga boshqa etnos vakillari bixtariylar xam borligi e'tirof etiladi. Xalchayon haykallari saroy devorining uch tomonini egallagan va boy kompozitsiyaga ega. Unda a'yonlar va kurash sahnasi, teatrlashgan mavzu, ya'ni og'ir gulchambarlarni ko'tarib turgan bolalar haykallari, aktyor byustlari, muzika asboblari tutgan ayol haykallari va boshqalar. Kompozitsiya markazida podsholik xomiysi — Afina, Gerakl, Nika (Yunon xudolari)ning siymolari tasvirlangan.

Baqtriya boddizm davlat dini darajasiga ko'tarilgach, Budda haykaltaroshlik san'ati ma'naviy hayotning mazmuniga aylandi. Bularni Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ayrtom, Qoratepa va boshqa yodgorliklarda ko'rishimiz mumkin. Baqtriya–Toharistonda boddizmni qabul qilgan mahalliy ustalarning professional haykaltaroshlik maktabi shakllanadi.

Qadimgi davrda Xorazm haykaltaroshlik maktabi, mintaqa aholisining tipini aniq obrazlarda mahorat bilan ifoda etishda ajralib turadi. Haykaltaroshlar o'z asarlarida nafaqat Xorazmga xos bo'lgan tipni berishga intilganlar, balki mahalliy aholining kiyim –kechagi va turmush tarzini real obrazlarda aniq ifoda etishga alohida e'tibor berganlar. Xorazm haykaltaroshlik maktabining noyob materiallari asosan Qo'yqirilgan qal'a, Oq qal'a, Tuproq qal'aladan topilgan. Milodiy II–III asrlar Xorazm haykaltaroshlik maktabining eng yuksalgan davri hisoblanadi. Tuproqqal'a bunga misol bo'la oladi. Uning deyarli barcha zallari xaykallar bilan bezalgan. Masalan, saroyning "podsholar

zali” deb nomlangan xona devorlari uzun yaxtak va sharovar kiygan erkaklar va burmalangan ko‘ylakdagi ayollarning rostmana xaykallari bilan bezatilgan. “Xarbiylar zali”da postament markaziga yirik haykal va uning ikki tomonida o‘ziga xos bosh kiyimdagi qurolli harbiylar haykali o‘rnatilgan. Boshqa bir zalda chordan oq kerib o‘tirgan podshohni parvozdagi xudolar tomonidan g‘alaba bilan tabriklash lahzalari tasvirlangan. Saroyning yana bir zali mayxo‘rlik bazmi va unda raqsga tushayotgan raqqosa va masxarabozlarning bo‘rttirib ishlangan haykallari bilan bezatilgan. “Ohular zali”da esa, ohular ketidan eldek uchib borayotgan otlar ovchilarning tasvirlari devorga bo‘rttirib ishlangan.

O‘zbekistonning qadimgi davrida amaliy san‘at ham yuksak darajada rivojlanadi. Xususiylar muhr, tamg‘alar, mahalliy hokimlik nishoni gemma va tangalarni zarb qilina boshlandi. Diniylar va dunyoviy xarakterga ega bo‘lgan har xil terakota haykalchalari xam ishlab chiqila boshlandi.

Bu davrda mulkiylar tabaqalanish protsessi ham jadal sur‘atlar bilan kechdi. Natijada ilgari markazlashgan shahar hokimiyati nufuzi pasayib, dehqonlar ta’siri oshib bordi.

Nazorat savollari:

1. O‘rta Osiyodagi qadimgi davr arxeologiyasi jahon tarixida qanday o‘rin tutadi?
2. O‘rta Osiyo tarixida qadimgi davr qachon boshlangan?
3. Qadimgi davr yodgorliklariga tavsif bering.
4. Qadimgi davr taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi omillarini asoslab bering.
6. O‘zbekistonning qadimgi davr madaniyati va uning rivojlanish xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar bering.
7. Dalvarzintepa yodgorligi to‘g‘risida qanday ma’lumotlarga egasiz?
8. Ayirtom va Fayoztepa yodgorliklari to‘g‘risida qanday ma’lumotlarga egasiz?
9. Afrosiyob yodgorligi va uning o‘rganilishi to‘g‘risida qanday ma’lumotlarga egasiz?
10. Tuproqqal’a yodgorligi va uning o‘rganilishi to‘g‘risida qanday ma’lumotlarga egasiz?
11. Qadimgi Fargonadagi arxeologik yodgorliklar to‘g‘risida qanday ma’lumotlarga egasiz?
12. Baqtriyaning madaniylar taraqqiyotida Buddizm dini ta’siri to‘g‘risida qanday ma’lumotlarga egasiz?

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.:”Fan va texnologiya” 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. “Sharq.” 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. “Ma'naviyat” 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. “Адолат”. 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда*)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”, 2008.
16. T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

13-mavzu: Qadimgi davr yodgorliklari va ularning o'rganilishi.

1. Qadimgi davrning Ahamoniylar imperiyasigacha bo'lgan davr yodgorliklari.
2. Ahamoniylar imperiyasi, Yunon bosqini davri yodgorliklari
3. O'zbekistonning qadimgi davr davlatlari yodgorliklari.

Tayanch tushunchalar: Tarmita, Oks buyidagi Iskandariya, Kampirtepa, Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Temir darvoza, Amudaryo xazinasi, Fayoztepa, Qoratepa.

Markaziy Osiyo hududlarining Ahamoniylar imperiyasiga qo'shib olinishi, garchi uning Yaqin Sharq dunyosi bilan madaniy aloqalari kengayishiga sezilarli darajada ta'sir etgan bo'lsada, ammo mintaqada asrlar osha davom etib kelgan moddiy madaniyatning hech bir jabhasida tub o'zgarishlarga olib kelmadi. Ammo mil. avv. 330-327 yillarda Aleksandrning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari oqibatida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona xalqlari madaniy hayotida iz qoldi. Lekin ko'zga tashlanarli o'zgarishlar Amudaryodan shimoliy viloyatlarda faqat salavkiylar davridan boshlanadi. Mil. avv. III asr o'rtalariga kelib Baqtriyada Yunon-Baqtriya davlatining qaror topishi bilan mahalliy madaniyatga ellinizm elementlarining kirib kelishi jadallashdi. Bu jarayon ayniqsa moddiy madaniyatda, uning me'moriy qurilish jabhalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyoning janubiy rayonlarini keng xalqaro munosabatlarga tortilishi, o'lka viloyatlarining qadimgi Sharq va Yunoniston, Makedoniya davlatlari bilan keng madaniy va savdo aloqalarda bo'lishi o'z navbatida uning markaziy va shimoliy viloyatlari - So'g'd, Xorazm, Shosh va Qadimgi Farg'onani ham chetlab o'tmadi. O'sha davr madaniy hayotidagi yuksalishlar Baqtriyada Dalvarzintepada, Eski Termiz, Jondavlattepa: So'g'dda Afrosiyob, Erqo'rg'on, Poykent; Xorazmda Jonbasqal'a, Ayozaqal'a, Tuproqqal'a; Chochda Qanqa, Shoshtepa, Qovunchitepa; Qadimgi Farg'onada Asxikent, Koson, Marhamat kaba yodgorliklar va yuzlab kichik shaharlar va qishloqlar shaklidagi arxeologik yodgorliklar misolida ko'zga tashlanadi.

Miloddan avvalgi II asrning 2-yarmida O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan ko'chmanchi yuechji (tohar) qabilalari Qadimgi Farg'ona, Ustrushona, So'g'd orqali Qadimgi Baqtriya yerlariga kirib keladi. Milodiy I asrning boshlarida yuechjilarning guysan qabilasi boshchiligidagi Kushonlar davlati tashkil topadi. Uning hududiy chegarasi Hindistonda Hind va Ganga daryolarining havzalarigacha borib yetadi. Qadimgi Farg'onada Davon davlati, O'rta Osiyoning qolgan hududlari (Xorazm va So'g'd) esa Sirdaryoning o'rta havzasida qadimgi davrda qad ko'targan Qang' davlati tarkibida rivojlanishda davom etadi. Mil. avv. III asridan boshlab Kushonlar saltanati inqirozga

uchraydi. Shu tariqa O'rta Osiyoning davlatlari quldorlik munosabatlari tushkunligi bilan bog'liq holda tanazzulga yuz tutadi.

Yunon-Baqtriya Sharqning yirik davlati sifatida 120 yildan ortiq (mil.av. 250-128 yillar) vaqt yashadi. Yunon-Baqtriya davlatining asosini Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona yerlari tashkil etgan bo'lib, ular iqtisodiy jihatdan to'q, shaharlari ko'p, tabiiy boyliklari mo'l hududlar edi. Yunon-Baqtriyaning ko'plab yodgorliklari qadimgi davrga mansub bo'lib, ularning asosiy qismi arxeologlar tomonidan o'rganilgan. Baqtriyada - (Afg'oniston qismida) Bagram, Baqtra, Oyxonum, Dalvarzin kabi; Qabadshoh, Qayqabod, Ko'hnaqal'a (Tojikiston qismida), Dalvarzintepa, Dunyotepa, Jondavlattepa va boshqa ko'plab qadimgi shahar xarobalari (O'zbekiston qismida) ochib o'rganilgan. So'g'diyonada Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Talli Barzu yodgorliklarining shu davrga oid madaniy qatlamlari, Marg'iyonada Govurqal'a kabi shahar qoldiqlari tadqiq etilgan.

Antik davrda Yunon-Baqtriyada dehqonchilik va chorvachilikdan tashqari kulolchilik sohasi yuksak darajada taraqqiy qilgan bo'lib, bu davrda yasalgan kulolchilik buyumlarining tengi yo'q edi.

Uy-joylarshohona saroylar, ibodatxonalar hamda mudofaa inshootlari qurilishda bu o'lkalar xalqi antik davr olamida yuksalishning yuqori nuqtasiga ko'tarilgan. Bu davrda Baqtriya va So'g'd yozuvlari shakllanadi va rivojlanadi. Tasviriy san'at, me'morchilik, zargarlik san'atida katta yutuqlarga erishiladi.

Antik davr mualliflari Baqtriyaning 1000 shaharli mamlakat, deb ta'riflaganlar. Yunon-Baqtriya aholisi zardushtiylik diniy e'tiqodida bo'lib, mahalliy diniy tasavvurlar yunon mifologiyasi obrazlari bilan chatishib ketgan. Suvga, yerga, quyoshga bo'lgan hurmat va e'tiqod ilohlarga bo'lgan (Mitra, Naxid) e'tiqod bilan uyg'unlashib ketgan.

Ko'chmanchi qabilalarning Yunon-Baqtriya yerlariga kirib kelishi uni inqirozga uchratadi. 110 yilda yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya yerlariga kirib kelib, o'z hukmronligini o'rnatdi. Guyshan qabilasi yabg'usi Kudzula Kadfiz boshqa qabila yabg'ularini tobe etib, o'zini hukmdor deb e'lon qiladi. Tarix sahnasiga shu tariqa Kushonlar davlati kelib, u uzoq muddat, milodning IV asrigacha hokimiyatga egalik qildi. Uning hududiy chegarasi Amudaryo qirg'oqlaridan janubda Hindistonning janubiy rayonlarigacha tarqaldi. Kushonlar podsholigida shahar qurilishi, me'moriy-monumental, amaliy va tasviriy san'at, haykaltaroshlik rivojlandi. buddaviylik diniy e'tiqodi davlat dini darajasiga ko'tarildi. Buddha va uning sanamlari (badisatva) ni haykallari bilan ibodatxonalarni bezash ruhiy va ma'naviy zaruratga aylandi. Dehqonchilik, uning asosi hisoblangan irrigatsiya inshootlari barpo etish taraqqiy etdi. Bu ishlarning davlat tasarrufiga olinishi ko'plab moddiy

boyliklar yaratilishiga imkon berdi. Kushonlar davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Buyuk Ipak yo'li g'arb va sharq xalqlarining hayotida katta rol o'ynadi.

Kushonlar davrining katta ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklaridan biri milodiy I asr boshlariga mansub bo'lgan «Xolchayon hokimining saroyi» dir. Xolchayon saroyining kutish zalini qadimgi haykallar kompazitsiyasi egallagan bo'lib, ularda turli etnoslarning qiyofalari o'z aksini topgan. Shuningdek, saroyda a'yonlar, kurash sahnasi, og'ir gulchambarlarni ko'tarib turgan bolalar haykallari, musiqa asboblari tutgan ayol haykallari topilgan.

Buddaviylik bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklardan biri Ayritom bo'lib, u Termiz yaqinida Amudaryo bo'yida joylashgan. Bu yerdan topilgan me'moriy san'at asarlarida turli xil musiqa asbobi chalayotgan musiqachilar tasvirlangan.

Termiz yaqinida arxeologlar **Qoratepa** yodgorligini topib o'rganganlar. Qoratepa buddaviylik dinining ibodatxonasi bo'lgan. Qoratepa tabiiy tepalik bo'lib, uning atrofidan ko'plab haykallar topilgan. **Fayoztepa** esa Qoratepa yaqinida joylashgan yodgorlik bo'lib, u buddaviylarning ibodatxonasi va maktabi vazifasini o'tagan.

Kushonlar davriga oid yodgorliklarning yana biri Dalvarzintepa bo'lib, u Surxondaryo viloyatida joylashgan. 1972 yilda Dalvarzintepani qazish vaqtida 34 kg og'irlikda tilladan ishlangan 115 dona buyum topilgan. Ular bilaguzuklar, uzuk, to'g'nag'ichlar bo'lib, yuksak mahorat bilan yasalgan. Dalvarzintepani qazish vaqtida 60 ta turli xil metal buyumlar topilgan. Metall bilan bog'liq hunarmandchilikning rivoji haqida gap ketganda Dalvarzintepadan topilgan tosh qoliplarni ham ko'rsatish mumkin. bu qoliplarda oyna, o'roq, pichoq, bigiz va boshqa shunga o'xshash ho'jalik buyumlari quyilgan. Metall esa sopol idishlarda tigellarda eritilganligi olimlar tomonidan aniqlanib, o'rganilgan. Dalvarzintepani qazish vaqtida ot uzangilari va suvlig'i, oyna, bilaguzuk, halqa va qarmoqlar, ikki parrakli bronza paykonlari topildi.

Chust madaniyati yodgorliklarida toshdan mehnat qurollari yasash davom etadi. Masalan, birgina Dalvarzintepani qazish vaqtida 1500 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Tosh qurollar orasida qum-toshdan yasalgan o'roqsimon pichoqlar yasash alohida diqqatga sazovordir. Bu yerdan 400 yaqin ana shunday tosh pichoqlar topilgan. Topilmalarga qaraganda o'sha davrda suyakdan qurol yasash ham keng yo'l qo'yilgan. Suyakdan yasalgan-taroq, moki, bigiz, urchuq va boshqa buyumlar ham Dalvarzintepada ko'plab uchraydi.

Antik davr yodgorliklari Xorazm hududlaridan ham topib o'rganilgan. Qadimgi Xorazm tarixi va madaniyati haqida ma'lumot beruvchi yodgorliklardan biri -Qo'yqirilganqal'adir.

Qo'yqirilganqal'ada 1951-57 yillarda arxeologik qazish va qidiruv ishlari olib borilgan. Bu yodgorlik qadimgi Xorazmning mil. avv. IV - milodning I asriga mansub bo'lgan shaharlaridan biri

bo'lgan. Shahar doira shaklidagi qal'adan iborat bo'lib, u tashqi va ichki devorlar bilan o'rab olingan. Arxeologlar 3 qatordan iborat bo'lgan mudofaa devori bo'lganligini, tashqi devorning yuqori qismida kamonchilar uchun qilingan tuynuklar, aylana shaklida burjlar o'rnini aniqlaganlar. Qal'ada kulolchilik rivojlangan idishlar sirtiga afsonaviy qushlar rasmi chizilgan. Ko'plab idishlarda chopar ot ustidagi sipohiyilar surati solingan. Tulpor ot tasviri esa ko'plab uchraydi. Urug' totemlari bilan bog'liq xususiyatlarni aks ettiruvchi arslon, jayron, tuya singari hayvonlarning suratlari solingan buyumlar keng tarqalgan.

Devorning muhim madaniy yodgorliklaridan biri **Tuproqqal'**adir. Tuproqqal'a Xorazmshohlar podsholarining markaziy shahri bo'lgan. Yodgorlikda keng ko'lamdagi ishlar 1945 yildan S.P.Tolstov tomonidan olib borilgan. Tuproqqal'aning maydoni 17,5 ga bo'lib, u III-IV asrlarga mansub noyob yodgorlik. Yodgorlik markazida 80x80 m hududni podsho saroyi egallagan. Saroyning devorlari haykallar bilan bezatilgan. Saroy xonalari esa har xil maqsadlar uchun mo'ljallangan. Arxeologlar ularni «**podsho zali**», «**raqqoslar zali**» degan shartli nomlar bilan atashgan.

Podsho zalida ko'plab haykallar bo'lib, ularning barchasi loydan ishlangan. Ular qimmatbaho va turli rangdagi liboslarda tasvirlangan. (yaxtak, sholvor kiygan erkaklar, burmalangan ko'lakdagi ayollarning haykallari). "**Qizil tanli harbiylar zali**"da podsho haykali qo'yilgan, uning ikki tomonida o'ziga xos bosh kiyimdagi qurolli harbiylar haykali o'rnatilgan. Podshoh saroyining yana bir zalida mayho'rlik bazmi ko'rsatilgan. Tuproqqal'a yodgorligidan podsho arxivi topilgan, u 100 ga yaqin hujjat bo'lib, shundan 18 tasi yog'ochga, ko'pchiligi teriga yozilgan, hozirgi kungacha ularning 8 tasi yaxshi saqlangan. 100 ga yaqin hujjatdan 26 tasi o'qishga yaroqli. Tuproqqal'a Xorazm davlatining III-IV asrlarda poytaxti bilan bu shahar antik davr shahar madaniyatining yorqin timsolidir.

Toshkent viloyatida, Sirdaryo va Janubiy Qozog'iston yerlarida mil. avv. III asrda yarim o'troq **Qang' davlati** tashkil topgan. Qang' davlatining hayoti, turmush tarzi va madaniyati haqida Xitoy manbalarida ma'lumotlar uchraydi. Qang'da yashagan qang'uylarning madaniyati va ho'jaligi haqida Qovunchi yodgorligi ma'lumot beradi, Qang' davlatining poytaxti qang'diz-qanqa (hozirgi Oqqo'rg'on markazida) shahar xarobasi hisoblanadi. Uning umumiy maydoni 150 ga bo'lib, atrofi qalin mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Shahar xarobasidan arki a'lo, (o'rda), ibodatxona, savdo va hunarmandchilik mavzelari, shahar yo'llari, maydonlar, hovuzlarning o'rni topib o'rganilgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda mil. avv. III-II asrlarda Farg'ona davlati-Davan shakllangan davlat sifatida mavjud edi. U qadimda Parkana, Xitoy manbalarida esa Davan deb atalgan.

Xitoy manbalarida mil.avv. I asrda Davan ko'p aholisi bor, dehqonchilik va hunarmandchilik ho'jaliklari yuksak rivojlangan, shaharlar

Davanda 70 ga yaqin obod shahar bo'lgan. Bu hududda bog'dorchilik, ziroatchilik, to'qimachilik rivojlangan. Farg'onaning samoviy duldurlari-afsonaviy otlari mashhur bo'lgan; Ershi, Axsi, Quva singari shaharlar taraqqiy etgan.

Xulosa qilib shuni qayd etish kerakki, O'rta Osiyo antik davrda shahar madaniyatining uzluksiz rivojlanishi jarayoniga tortilgan bo'lib, bu yerda Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos mahalliy shahar qurilishi an'analari shakllanadi. Me'morchiligida mudofaa inshootlari, diniy va dunyoviy monumental inshootlarning paydo bo'lishi shahar madaniyati taraqqiyotini belgilab beradi. Moddiy madaniyatning barcha jabhalarida originallik, amaliy va tasviriy asarlarida yuksak did va mahorat ruhi antik madaniyatni mazmun va mohiyatini belgilab beradi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

- 1.Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
- 2.Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.:”Fan va texnologiya” 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. “Sharq.” 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. “Ma'naviyat” 2008 y. 173 s.
- 3.Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
- 4.Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
- 5.Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.
- 6.Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. “Адолат”. 2017.
- 7.ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)
- 8.Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart.A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York,2011.
- 9.Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
- 10.Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
- 11.Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.

- 12.Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
- 13.Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. –Т., 2007
- 14.Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
- 15.Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”,2008.
- 16.T. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology.2016.

9-modul O'rta asrlar davr madaniyati.

14-mavzu: O'rta asrlar davrining o'ziga xos xususiyatlari.

- 1.O'rta asrlar davri madaniyati.
- 2.O'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot.
- 3.Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi.
- 4.San'atning yuksalishi.

Tayanch tushunchalar: ko'xandiz, shahriston, rabod, Termiz, Chagoniyon, Kesh, Naxshab, maqbara, masjid, karvonsaroy, madrasa, pishirilgan gisht, panjara, ganj, sirlangan sopol idish, shishasozlik, savdo, epigrafik naqshlar, kufiy xat. O'rta asr, yer egaligi, Afrosiyob, Panjikent, Shosh, Quva, qasr-qo'rg'on.

Tarix faniga o'rta asr tushunchasi uyg'onish davri mutafakkirlari tomonidan kiritilgan bo'lib, madaniyat yuksak taraqqiy etgan antik davr bilan uyg'onish davr o'rtasidagi davrga nisbatan ishlatilgan. O'rta asrlar feodal yer egaligi munosabatlari davri bo'lib uch bosqichdan iborat: 1) ilk o'rta asrlar (V - IX asrlar); 2) rivojlangan o'rta asrlar (IX - XV asrlar); 3) so'nggi o'rta asrlar (XVI - XVII asrning o'rtalari) ni o'z ichiga oladi.

O'rta Osiyoda o'rta asrlar davrining dastlabki bosqichi yirik davlatlar - Kushonlar saltanati va Qang' davlati konfederatsiyasining inqirozi va ular ustiga xionitlar, kidaritlar va eftalitlar kabi ko'chmanchi qabilalarning ommaviy ravishda bostirib kirishi bilan boshlandi. Bu ikki davlatning tanazzuli O'rta Osiyo hududlariga Eron sosisoniyalarining istilochilik harakatini faollashtirdi. Ammo ko'chmanchi qabilalar, ayniqsa eftalitlar bunga yo'l qo'ymadi. VI asrning ikkinchi yarmida sosisoniyalar O'rta Osiyoda Turk xoqonligi bilan to'qnashishga to'g'ri keldi. Hokimiyatni o'z qo'lga olgan G'arbiy Turk xoqonligi 100 yil davomida butun O'rta Osiyo ustidan nazoratini o'rnatdi.

VII asrda O'rta Osiyo ijtimoiy va siyosiy hayotida yuz bergan feodallashtirish jarayonining rivojlanishi xoqonlikda ichki qarama-qarshiliklarning chuqurlashishiga olib keldi. Natijada, nomigagina hoqonlik hukmronligini tan olgan mahalliy sulolalar boshchiligidagi katta va kichik yer

egaligi jadal rivojlandi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibida o'zgarishlar, katta yer egalari bo'lgan dehqonlar, badavlat savdogar va hunarmandlar tabaqasi paydo bo'ldi. Ular o'z navbatida shaharlarning vujudga kelishiga, ko'p tarmoqli hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga ta'sir o'tkazdi.

Ma'lumki, G'arb bilan, Sharqni bog'lovchi muhim savdo yo'li bilan Buyuk Ipak yo'li («G'arbiy meridianal yo'l») ning qadimgi Farg'onadan o'tgan yo'nalishi ilk o'rta asrlarga kelib, O'rta Osiyo shimoliy hududlarining ichki rayonlariga kirib bordi. Natijada O'rta Osiyoning chorvador qabilalari va o'troq aholisi o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar kuchaydi.

Savdo-sotiqni pul asosida rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi, tanga - pul zarb qilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib, pul zarbxonalarining yangi markazlari paydo bo'ldi. O'rta Osiyo bozorlarida Tohariston, So'g'd, Ustrushona va Shosh tangalari keng muomalada bo'ldi.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shahar hunarmandchiligi keng tarmoq otib rivojlanishda davom etdi. Samarqand, Buxoro, Poykent va boshqa shaharlar yirik savdo-sotiq markazlari sifatidagi o'rnini saqlab qoldi. Hatto Shosh-Iloq vohasidagi shaharlar juda jadal rivojlanish yo'liga tushib oldi. Bu shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, metallurgiya, to'qimachilik sohalari yuksak professional darajada rivojlanib ular ko'p hollarda tashqi savdo uchun mahsulot chiqarar edilar.

Ilk o'rta asrlarda to'qimachilik O'rta Osiyo hunarmandchiligining ustivor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha ipak qurtini boqish Qadimgi Baqtriyada bronza davridan ma'lum bo'lgan. Antik davri va ilk o'rta asrlarga kelib, ipakchilik bilan shug'ullanish So'g'diyona va Farg'ona vodiysiga ham keng yoyildi. Ipakchilikning jahonga mashhur markazlari paydo bo'ldi. Masalan, VI-VII asrlarda shakllangan Buxoroning «zandanachi» ipak mahsulotlariga bo'lgan talab hatto ipakchilikning ilk vatani Xitoyda ham katta edi. Zandanachi ipak mahsulotlarining namunalari hatto Afrosiyob devoriy su'ratlarida yaxshi saqlangan.

Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo tarixida muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bo'lib o'tdi va keyingi tarixiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Albatta feodal yer egaligi munosabatlari dunyoning turli xalqlari va mamlakatlarida bir vaqtda sodir bo'lmagan. Ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixida V-IX asrlarni o'z ichiga olib, muhim tarixiy voqealarga boyligi bilan ajralib turadi.

Milodiy III - IV asrlarda yirik imperiya - Kushon davlati inqirozga yuz tutdi va parchalanib ketdi. IV asrda O'rta Osiyo hududiga xioniylar kirib keldilar. Xioniylar etnik jihatdan kelib chiqishi kushonlarning avlodlari hisoblanib, ayrim tarixiy manbalarda toxarlar deb ham yuritiladi. Mazkur

xalq O'rta Osiyoda 120 yilga yaqin hukmronlik qildi. Xioniylar birinchi marta Ammian Martsellinning 356 yilgi hikoyasida ularning podshosi Grumbat va o'g'lining Amida (Suriya) shahrini qamal qilganligi yoziladi. Xioniylar Amudaryo havzasini egallab olgach, g'arbga yurish qiladilar.

V asr boshlarida tarix sahnasiga kidariylar chiqdi. Ularning poytaxti Balx bo'lib, podshosi Kidar nomi bilan bog'lik tangalar Amudaryoning janubidagi yerlardan topilgan.

V asr o'rtalarida O'rta Osiyo tarixida yangi siyosiy kuch - eftalitlar paydo bo'ldi. Eftalitlar etnik jihatdan S.P. Tolstov fikricha massagetlar avlodidir. Eftalitlar tarixiga oid yozma manbalar - xitoy, arman, Vizantiya, arab manbalaridir. Mazkur davlat O'rta Osiyoda V asr o'rtalaridan VI asr 60-yillargacha hukmronlik qildi. U hududiy jihatdan Kushon imperiyasidan 2 barobar katta bo'lib, hokimi mutlaq boshqargan. Ushbu davlat o'zlarigacha mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirmadilar.

Eftalitlar davrida hozirgi O'zbekiston hududida dehqonlarning qasr- qo'rg'onlaridan bir qancha shaharlar paydo bo'ladi. Bunday shaharlar jumlasiga Bolaliktepa, Varaxsha kabilarni kiritish mumkin. Ilk o'rta asrlarga oid yirik shaharlar jumlasiga qadimdan mavjud bo'lgan Afrosiyob, Buxoro, Poykand, Toshkent, Termiz va boshqlarni kiritish mumkin.

Shuningdek, mazkur davrga oid devoriy suratlar Bolaliktepa, Varaxsha, Toshkentdan topib o'rganilgan. Eron sosoniylariga mansub ko'plab tangalar topilgan.

O'zbekiston hududidagi ilk o'rta asrlarga mansub shaharlarning maydoni uncha katta bo'lmaganligini ta'kidlash lozim. Bu vaqtda Samarqandning aylanasi 3,5 km, Poykandniki 1,8 km, Farg'onadagi Koson shahriniki 2 km ni tashkil etgan. Mazkur davrga oid arxeologik topilmalarni hududlar bo'yicha ko'rilganda quyidagi manzara hosil bo'ladi.

Ilk o'rta asr So'g'd yodgorliklari jumlasiga Afrosiyob, Varaxsha, Poykand, Panjikent, Tallu Barzu, Tohariston yodgorliklariga Bolaliktepa, Kofirqal'a, Fargona yodgorliklariga Quva, Axsikat, Koson, Toshkent vohasida Binkat, Yunusobod, Mingo'rik, Xorazm hududida Fir qal'asi, Baraktom, Kuyukqal'a, Teshikqal'a va

boshqalar mavjud bo'lgan. Mazkur davrda aholining o'rtoqlashuvi natijasida sun'iy sug'orish inshootlari quriladi. Bular jumlasiga Bo'zsuv, Zog'ariq, Darg'om kanallarini kiritish mumkin.

1948 yilda arxeolog A.Terenojkin Afrosiyobning ilk o'rta asrlarga oid qatlamlarini tekshiradi. 1958 yildan buyon Afrosiyobni o'rganilish davom etmoqda va hozirgacha turli davrlarga oid bir qancha boshqa yodgorliklar ham o'rganildi. VI asrga mansub Tallu Barzu yodgorligidagi qazuv ishlari jarayonida VIII asrga oid sopol idishlar majmui, sosoniylar tangalari, quyi qatlamidan esa

antik va Kushon davriga oid temirchilik charxi, sopol idishlar, haykalcha topildi. 1956-57 yillarda Kofirqal'a o'rganila boshlanadi.

Olib borilgan qazuv ishlari natijasida IV-V asrlarda Samarqand tushkunlikka uchraganligi aniqlandi. Uning rivojlanishidagi yangi davr VI asrdan boshlanadi. Ark yangi devor bilan o'rab olinadi VI asrda uzunligi 1,5 km to'rtinchi devor quriladi. Shahar janubga qarab kengayib boradi va uzunligi 3 km ichki devor quriladi. III-IV asrlarga oid kulollar va miskarlar mahallalari topilgan.

VII asrlarda Afrosiyobda maxsus saroy devori quriladi va shaharning to'rtinchi tashqi devori butunlay qayta quriladi. Saroy devorining ichida yirik inshootlar alohida binolar qurilgan.

Ilk o'rta asrlarga xos Samarqandning quyidagi binolari mavjud bo'lganligi aniqlangan:

A) o'rtahol shaharliklarning turar joylari devorlari qalinligi 1,1 m, uy maydoni 11,8x 6,45 m, ko'pchilik hollarda 2,6 x 2,5 m bo'lgan.

B) Shahar kiborlari turar joylari devorlariga rasmlar ishlangan.

V) Jamoat binolari.

G) Ibodatxona.

D) Saroy bir necha xonalardan iborat bo'lgan.

Shahar aholisi kasb-korlari bo'yicha mahallalarga bo'lingan. Shunday qilib VI-VII asrlarda So'g'd poytaxti bo'lgan Samarqand ko'p asrlik tarixida o'z taraqqiyotining yuqori darajasiga ko'tarildi.

Varaxsha shahar xarobasida o'tkazilgan arxeologik qazishlar tufayli eftalitlar davrida shaharni tubdan qayta qurilish ishlari olib borilganligi aniqlandi. Varaxsha Buxoro hukmdorlari (buxorxudotlar) ning qarorgohi bo'lib, bu yerdan saroy qoldiqlari bilan bir qatorda devorga ishlangan rasmlar ham topildi.

Mazkur yodgorlik 1938-1953 yillarda tekshirildi. Varaxsha devorlariga loy suvoqdan so'ng yelimli rang bilan suratlar solingan. Ularda podsho saroyi hayoti tasvirlangan. Shuningdek Varaxshadan ganchdan ishlangan haykallar ham topilgan.

Qashqadaryo vohasida ham ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar ro'yxatga olingan. Ayniqsa S.K. Kabanov tomonida Qarshi vohasida joylashgan 300 dan ortiq tepaliklar ro'yxatga olinib xaritasi tuziladi. 1946 yildan boshlab ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklari tadqiq etila boshlandi va bu borada katta yutuqlarga erishildi. 70-yillardan boshlab G'uzor va Dehqonobod tumanlaridagi, shuningdek Yuqori Qashqadaryo vohasidagi ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar KATE a'zolari tomonidan o'rganildi.

Panjikent xarobasini tekshirish 1946 yildan buyon olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida V, VI, VII asrlarga oid bo'lgan turar joylar tekshirildi. Turar joylar jumlasiga Divashtich saroyi, boy va oddiy shahar aholisi uylari kiradi. Boy xonadon uylari murakkab reja asosida qurilgan. Bu yerda

ham ijtimoiy uylar 2 ta ibodatxona ochib o'rganildi. Saroy va yirik binolarning devorlariga hayotiy va diniy mavzudagi rasmlar solingan. Samarqand, Varaxsha, Panjikent rasmlari ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tasviriy san'at yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

1953-1954 yillarda Surxondaryoda qazib o'rganilgan Bolaliktepa qal'asi eftalitlar davrining diqqatga sazovor yodgorliklaridan biridir. Bolaliktepa baland poydevor ustiga qurilgan bino bo'lib, uning ichki devorlariga turli rasmlar ishlangan.

Farg'onadan topilgan Quva budda ibodatxonasi ikki binodan iborat bo'lib, ularning eshiklari alohida bo'lgan. Ayvonga kiraverishda otlarning, soqolli ma'budning katta haykali bo'lib, uning peshonasida odamning bosh suyagi tasvirlangan. Bu yerdan turli haykalchalar ham topilgan.

Xitoy manbalarida Ishtixon shahri ibodatxonalarida Buddaning oltindan yasalgan katta haykali bo'lganligi haqida ma'lumot beriladi.

Toshkent vohasidan ilk o'rta asrlarga mansub Mingo'rik, Yunusobod Oqtepa yodgorliklari topilgan. V-VII asrlarda Toshkent vohasida shahar markazi sifatida Mingo'rik muhim ahamiyat kasb etgan. Ko'chmanchi aholi bilan munosabatlar bu yerning hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Turar joylar katta-kichikligiga qarab farqlanadi.

Feodallarning turar joylaridan hokim qarorgohlaridan kichikroq Oqtepadagi uylar qurilishi jihatdan boshqa yerlardagi uylarga o'xshash. Mingo'rik arki va shahristoni 18 ga egallaydi. 200 m kv maydondan VII-VIII asrlariga oid saroy va ibodatxona qoldiqlari topilgan. Devorlar paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Shosh O'rta Osiyoning boshqa yerlari bilan savdo aloqalarini olib borgan.

Milodiy V-VIII asrlarda Shosh vohasida Yunusobod ham muhim rol o'ynagan. Maydoni 100 ga bo'lgan mazkur yodgorlik ko'rilayotgan davrida Shosh vohasining eng muhim markazlaridan biri bo'lgan. Xorazm hududidan ilk o'rta asrlar davriga oid shahar va mustaxkamlangan qo'rg'oncha qoldiqlari topib o'rganilgan. Fir saroyi, Burgutqal'a, Teshikqal'a, Kuyukqal'a, Mizdakhon va boshqalar o'rganilgan.

Burgutqal'a, Teshikqal'a qasr-istexkomlari VI-VIII asrlarga mansubdir. Mazkur davrda qal'alar balandligi 4-8 m bo'lgan mustahkam tagkursi (platforma) ustiga qurilgan. Teshikqal'a maydoni 1 ga egallaydi. Qal'a mudofaa inshootlariga ega bo'lgan, unga faqat ko'tarma yo'l orqali kirilgan. Bu yerdan devorlarga ishlangan rasmlar, gilam parchalari, tangalar topilgan. Qal'a VII-VIII asrlarda qurilgan.

V-VI asrlarda kurilgan Kuyukqal'a 41 ga maydonni egallagan. Uning ichki qismida ikkita qasr bo'lganligi aniqlandi. Ilk o'rta asrlar devorida Xorazmda ham xo'jalik va madaniy hayot yuksak bo'lganligini moddiy ashyolar tasdiqlaydi. Bu yerning yodgorliklari arablar istilosi arafasida tushkunlik bo'lganini ko'rsatadi. VI-VII asrlarda yangi ko'rinishdagi qishloqlar katta-katta oilalar

yashaydigan mustahkamlangan qasr-qo'rg'onlar paydo bo'la boshladi. Bunday qasr-qo'rg'onlar Xorazmda yaxshi o'rganilgan.

Dehqonchilik bilan shug'ullangan erkin aholi mustahkamlangan mayda qo'rg'onchalarda yashaganlar. Xorazmda ana shunday qo'rg'onlarning 200 dan ortig'i topildi. Ular bir-biridan 200 m masofada joylashgan va 34 km kv maydonni egallagan. Har bir qo'rg'onning atrofi devor bilan o'rab olingan. Arab tarixchisi Al-Makdisiyning ma'lumotiga ko'ra Mizdakhon atrofida X asrda 12 mingta qo'rg'onlar bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarda haykaltaroshlik san'ati keng qo'llanilgan. U dumaloq va bo'rtma tasvir shaklida me'morchilik komplekslarida ishlatilgan. Bu haykallarda diniy va afsonaviy obrazlar bilan bir qatorda real hayotni aks ettiruvchi obrazlar ham uchraydi. Haykallar maxsus tayyorlangan loydan, yog'och, albaster va toshdan ishlangan.

Amaliy xaykaltaroshlik san'atining yorqin namunalari IV-V asrlarga oid Toharistonning Kuyovqo'rg'on qal'aqo'rg'onidan topiladi. Kuyovqo'rg'on haykallari ziynatli bezaklarga boy yengil kiyimlardagi erkak va ayol personajlaridan iborat bo'lgan.

Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi ya'ni feodallashtirish jarayonining rivojlanishi me'morchilikning xarakteri va mazmuniga ta'sir etadi. Bu hol dastlab qo'rg'on-qasrlar, ko'shklar qurilishida ko'zga tashlanadi. Keyinchalik podsholarning saroylari, shaharlardan tashqaridagi hashamatli va ulug'vor qarorgohlari keng tarqaladi. Bu binolar ko'p hollarda sun'iy tepaliklar ustiga qurilib, ularning me'moriy echimlari mahobatli bo'lishiga katta e'tibor beradi. Binolar ham g'ishtdan va paxsadan qurilgan. Devorlari ganch bilan pardoqlangan, xona devorlari devoriy surat va naqshlar bilan bezatilgan.

Ilk o'rta asrlar davri monumental memorchiligida noyob ganch naqshinkorligi keng qo'llanilgan. Darhaqiqat, ilk o'rta asrlarda ganch o'ymakorlik san'ati o'zining yuqori darajasiga ko'tarilgan edi. Uning hatto dastlabki namunalari o'z zamonasiga xos yangi uslubiy yo'nalish shakllangan edi. Buni Afrasiyob, Varaxsha va Dumaloqtepa qasr bezaklarida uchratish mumkin.

Ilk o'rta asrlarda amaliy san'atning barcha yo'nalishlari rivojlanadi. Ular shaharlarning o'sishi va shahar hunarmandchiligining taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan edi. Oltin va kumushdan har xil idishlar yasash ko'lami kengayadi. Ayniqsa, bu masalada Xorazm va So'g'dda katta yutuqlarga erishiladi.

O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida yagona din bo'lmagan. Arablar istilosi bilan bog'liq holda islom dini keng tarqalgani ma'lum. Farg'ona vodiysida ya'ni Quvadan topilgan ibodatxona xarobasi buddaviylik dini bilan bog'liq bo'lib, u 2 xonali, old xonasi ayvon shaklida qurilgan. Xorazmda ham

ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan ossuariylar yoki ostadon deb nomlangan to'rtburchak shaklidagi tobutchalar otashparastlik e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan. Ostadonlar

So'g'd, Shosh hududlaridan ham topilgan. Zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar tepalikka qurilib, old tomoni esa quyosh chiqish tomonga qaratilgan.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda so'g'd, xorazm, eftalit, turk bitiklari paydo bo'ldi. Mazkur yozuvlar tarixiy manba bo'lishi bilan birga noyob ilmiy manba hisoblanadi.

Aholining diniy e'tiqodi turlicha bo'lgan: Tohariston va Sharqiy Turkiston aholisi buddizm, So'g'd va Xorazm aholisi otashparastlik diniga e'tiqod qilganlar. Shu davrla O'rta Osiyoga moniylik va nestarian-xristian dini ham tarqala boshlagan. Urgut yaqinida topilgan xristian dini ibodatxonasi shu o'tmishni tasdiqlaydi.

Nazorat savollari:

1. Ilk o'rta asrlarda Termiz shahri va uning hunarmanchiligi to'g'risida nimalar bilasiz?
2. Ilk o'rta asrlarda tovar-pul munosabatlari qanday bo'lgan?
3. Ilk o'rta asrlarda tasviriy san'at rivoji nimalardan iborat?
4. Ilk o'rta asrlarda Xorazmda shahar madaniyati qanday rivoj topdi?
5. Eftaliylar madaniyati O'rta Osiyo arxeologiyasida qay tarzda aks etgan?
6. O'rta Osiyo hududida topilgan diniy inshootlarga ta'rif bering.
7. O'rta asrlar arxeologiyasining o'ziga xos xususiyatlarni ta'riflang.
8. Fargonada olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari?

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-T.: "Fan va texnologiya" 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.

5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. “Адолат”. 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. *(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)*
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: “Вече”, 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: “Университет”, 2008.
16. Т. Eric Peet . A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.

15-Mavzu: O'rta asrlar davri yodgorliklari va ularning o'rganilishi.

Reja:

1. O'rta Osiyoda arablar bosqini oqibatlari.
2. Movarounnahr, Xuroson, Farg'ona IX-XII asrlarda.
3. O'rta Osiyoda mo'g'ullar bosqini oqibatlari.
4. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyatning rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: Sharq Uyg'onish davri, mahalliy mustaqil sulolaviy davlatlar, Somoniylar maqbarasi, masjid, madrasa, maqbara, karvonsaroylar, Amir Temur, Temuriylar, Go'ri Amir, rasadxona, Registon ansambli, Shohizinda majmuasi.

Rivojlangan o'rta asrlar davri mahalliy mustaqil er egaligi hokimliklari o'rnida yagona markazlashgan er egaligi davlat tashkil topishidan boshlanib, to temuriylar davlati inqirozigacha (IX asrdan XVII asrgacha) davom qiladi. Bu davrni ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan ikkita taraqqiyot va bitta inqiroz bosqichiga bo'lish mumkin. Birinchi taraqqiyot bosqichning xronologik doirasi IX-XIII asr boshlarini o'z ichiga oladi. Bu davr madaniy hayoti islom mafkurasi asosida shakllanib, o'ziga xos madaniy rivojlanish kuzatiladi. Markazlashgan davlat tashkil qilinib, unda avval somoniylar (IX-X), so'ng esa uning hududlari uchta turkiy davlatlar- qoraxoniylar,

g'aznaviylar va saljuqiylar o'rtasida (XI asrda) taqsimlanib, bu hududlarining katta qismida XII asr o'rtalarida buyuk xorazmshohlar davlati tashkil topadi.

VI asrda O'rta Osiyoga bostirib kelgan arablar madaniyat darajasi o'zinikidan ancha baland bo'lgan mazkur hududni yagona boshqaruvga asoslangan davlat bo'lmay, kichik-kichik mustaqil davlatchalar o'rtasidagi o'zaro urushlaridan foydalanib osonlik bilan egallaydi. Dastlab Umaviylar, keyinchalik Abbosiylar hukmronligi ostida bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari islom dini va arab madaniyatini qabul qilishga majbur etiladi.

O'rta Osiyoda rivojlangan o'rta asrlar davri mahalliy feodal hokimliklari o'rnida yagona markazlashgan feodal davlatlari tashkil topishi bilan boshlanib, to temuriylar davlati inqiroziga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Arablar bosib olingan O'rta Osiyo yerlarini **"Movarounnahr"** (daryo orti) deb atay boshlaydilar. Bu davrni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlari xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin. Davrning birinchi bosqichi IX-XIII asr boshlarini o'z ichiga oladi. IX asrda O'rta Osiyoda arablar huikumronligi tugatildi. Bu davrda O'rta Osiyoning shimolida Qarluqlar, O'g'uzlar davlatlari, janubi va markazida Tohiriylar, Safforiular, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Dastlab markazlashgan davlat tepasiga Somoniylar (IX-X) sulolasi keladi, so'ngra uning iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan hududlarini uchta turkiy davlatlar - Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar (XI asrda) egallaydi. Shu bilan birga XII asr o'rtalaridan Qoraxoniylar va Saljuqiylarga tegishli yerlarda Buyuk Xorazmshohlar davlati vujudga keldi, biroq bu davlat mo'go'g'ullarning bosqini natijasida tugatiladi.

Ilk o'rta asrlarda uch qism (kuxandiz, shahriston va rabod) dan iborat bo'lib shakllangan shahar hayotida rivojlangan o'rta asrlar davriga kelib tub ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz beradi. O'rta Osiyo shaharlari ***Eski Termiz, Afrasiyob, Marv, Axsikent, Buxoro, Urganch, Qanqa, Shohruxiya, Kesh, Nasaf*** va boshqalarda olib borilgan keng ko'lamli arxeologik izlanishlar va ularni yozma manba materiallari bilan qiyosiy solishtirishlar tufayli bu davr shahar madaniyati, shaharlarning tarkibi, ularning tevarak - atrof aholi punktlari bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalari, shaharlarning hunarmandchilik va savdo-sotiq salohiyati, karvon yo'llarining yo'nalishi, ichki va tashqi bozor, har bir shahar hayotida ustivor hisoblangan ishlab chiqarish tarmoqlari o'rganiladi.

O'rta Osiyo shaharlari o'rta asrlarning rivojlangan davrida juda jo'shqin taraqqiy etadi. Manbalarga ko'ra, IX-X asrlarda shahar aholisi Movarounnahr umum aholi sonining 25-30% ni tashkil etgan. XI asrdan shaharlarning ijtimoiy- iqtisodiy qiyofasi o'zgaradi. Ular to'laligicha hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi qiyofasini olgan. Shuningdek, shaharlarning u yoki bu

hunarmandchilik tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuvi jadallashadi. Masalan, Qadimgi Farg'onaning poytaxt bo'lgan Axsikent, Toshkent vohasining Ohangaron daryosi havzalarida qad ko'targan qator shaharlarda - **Tunkent, Namudlig', Dahketda** metallurgiya sanoati jadal rivojlanadi. Shaharlar maydoni kengayadi, shahriston va uning atrofida joylashgan rabodlarda iqtisodiy hayot taraqqiy etdi.

Somoniylarning mamlakatni boshqaruv tizimidagi markazlash-tirish siyosati uning iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlanishiga xizmat qildi. Shaharlar o'sdi va ularning iqtisodiy-savdo aloqalari mustahkamlandi. Masalan, arab tarixchi va geograflarining ta'kidlashicha birgina **Shosh va Iloqda** bu davrda 50 dan ortiq shaharlar bo'lgan. Arxeologik materiallar va yozma manba'larga ko'ra, Shosh - Iloq vohasi IX-X asrlarda Movarounnahrning yirik metallurgiya xom ashyosi bazasi bo'lgan. Arab tarixchisi Makdisining xabariga qaraganda, bu zaminda oltin va

kumush konlari ko'p bo'lib, naqshiga tillo suvi berilgan Shoshning keramika mahsulotlari Sharq olamida mashhur bo'lgan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha Shosh - Iloq vohasida metallurgiya sanoati bilan bir qatorda hunarmandchilikning kulolchilik va shishasozlik, to'qimachilik yo'nalishlari ham yuksak darajada rivojlangan edi.

X asr oxirlaridan Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati shakllandi. Qoraxoniylar mamlakatni boshqarishda somoniylar davlat boshqaruv tizimidan foydalanadi. Shuningdek, pul zarb etish an'analarini ham qabul qilganlar. Buxoro, Iloq shaharlarida kumush pul zarbxonalari bo'lgan. Bu haqda arab tarixchisi *Ibn Xavkal* «**Iloqda oltin va kumush pullar zarbxonalari faoliyat ko'rsatishda davom etardi**» deb yozgan edi.

Bu davrning madaniy hayotida yuz bergan yuksakliklar tarixda tengsiz edi. Ilm-Fan, din va tasavvuf, me'morchilik va san'at, musiqa san'ati gullab yashnadi. Umuman, IX-XIII asrning boshlari Movarounnahr shaharlari uchun, ilm-fan va madaniyat sohalarida gullash davri bo'ldi. Dunyoga nomi mashhur qomusiy allomalar - Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Umar Hayyom kabilar yashab ijod etishdi.

Dunyoviy bilimlar bilan birga diniy bilimlar rivojiga katta e'tibor qaratildi. Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va boshqalarni diniy bilimlar - tariqat asoschilari sifatida qilgan ishlari tahsinga loyiq.

IX-X asrlarga oid ayrim yodgorliklar saqlanib qolgan bo'lsada, mazkur davrda me'morchilik va binokorlik texnikasi rivojlangan edi. Pishgan g'isht, ganch, ravoq, gumbaz, toqlar qurilish sohasidagi yangiliklar bo'ldi. Pishgan g'ishtdan maqbaralar qurishda, turar joy zallarida, kanalizatsiya quvurlari qurishda ishlatilgan. Turar joylarning asosiy qismida xom g'isht ishlatilgan.

Sinchli uylar ko'proq qurila boshlandi. Binolar qurilishida geometriya fanidan tobora ko'proq foydalanildi. O'rta Osiyo me'morchiligida arab xalifaligi xalqlari me'morchiligiga xos umumiy jihatlar ham bor edi. Bu narsa masjid, madrasa va boshqalarda ko'rish mumkin.

Mazkur davr me'morchiligining eng yorqin namunasi Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbaraga Ismoil, uning revarasi Nasr ibn Ahmad dafn qilingan. Maqbara binolarni tuzilishi juda sodda. U kub shaklida bo'lib, tosh gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchak xonaning gumbazi sakkizta ravoq ustiga qurilgan va sakkiz qirrali asosga o'rnatilgan. Ravoqlardan 4 tasi xonaning tepa burchaklariga qurilgan. Binoning tepasida yorug'lik teshiklari o'rnatilgan. maqbaraning to'rttala old tomoni ham bir xilda ishlangan. Har qaysi devorning o'rtasiga katta ravoq o'rnatilgan, burchaklari esa uch chorakli mustahkam g'isht ustunlar bilan ishlangan. Devorlarning ichi va tashqi tomoni naqshkor g'isht bilan ishlangan. Maqbara qurilishida O'rta Osiyo an'anaviy me'morchiligini yanada rivojlanganligini ko'rish mumkin.

X asrda Tim qishlog'ida qurilgan Arabota maqbarasi ham O'rta Osiyo me'morchiligining noyob durdonalaridan hisoblanadi. Maqbara X asrning 70-yillarida (977 y.) qurilgan. Arabota maqbarasi XI-XII asrlar O'rta Osiyo me'morchiligining yangi bosqichga ko'tarilishi davri namunasidir. Binoning katta ravoqli baland peshtoqli naqshlar bilan ishlangan, peshtoq atrofida o'ymakor naqsh bilan arab harflari yozilgan.

Afrosiyob, Varaxsha, Poykand va boshqa qadimiy shahar xarobalaridagi bino qoldiqlari o'rganilgan. Afrosiyobning g'arbiy qismidagi juda katta bino xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, devorlari ganch naqshlari bilan bezatilgan. Ganch suvog'idan yelimli bo'yoq bilan solingan uchta odam siymosi tasvirlangan rasm topildi.

1960-1964 yillarda O'z FA arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan yuqoridagi saroy xarobalari bilan birga mustahkam devor bilan o'rab olingan bir nechta binolar topildi. U xona, yo'lak va hovlidan iborat edi. Bino xonalari naqshlar bilan bezatilgan, polga pishgan g'isht to'shalgan. Derazalarga rangdor oynalar ishlatilgan. Afrosiyobdan VII asrda o'ymakorlik keng yoyilganligini ko'rish mumkin. Varaxsha va Afrosiyob aholisining uylari devorlari ganch suvoq qilingan va naqshlangan.

Me'morchilikda turli bezakli uslublardan foydalanila boshlangan. IX-X asrlarda arab imlosining islimiy, kufiy, XI asrdan nasx turlaridan foydalanila boshlangan; pishiq g'ishtlar och malla rangda bo'lgan. XII asrdan boshlab rangli koshinlardan foydalanila boshlangan, musulmon inshootlarida moviy, yashil, zangori koshinlardan keng foydalanilgan. Bu davrda tasviriy san'at va naqqoshlikda murakkab o'simlik-geometrik gulli naqshlar ishlatilgan. X asrning ikkinchi yarmida Samarqand guzarlarida uy hayvonlari tasvirlari sotilgan (Ibn Xavqal). X asr o'rtalarida Buxoroda

"sanamlar" sotilgan (Narshaxiy). Afrosiyobdan topilgan sopol idishlar kulolchilik rivojlanganidan dalolatdir.

Bu davrdagi musulmon me'morchiligining eng ko'zga ko'ringan inshootlari orasida masjidlar alohida ahamiyatga egadir. Ularning uch turi mavjud bo'lgan: Jome (Juma) masjidi (shaharda juma va Hayit namozlari o'qiladigan umumshahar aholisi uchun), guzar masjidlari (mahallalarda kunlik namozlarni o'qishga mo'ljallangan), Namozgoh (shahar tashqarisidagi yo'lovchi va karvondagilar uchun mo'ljallangan) masjidlar. Masjidlarning diqqatga sazovor jihati ibodat qilinadigan mehrobi g'arbga, qiblaga - Makka tarafga qaratib quriladi.

Ilk masjidlar bizning kunimizgacha to'laligicha saqlanib qolmagan bo'lsa-da, ulardan ba'zilarining ayrim qoldiqlari yetib kelgan. XI-XII asrlarda qurilgan masjidlardan Buxoro viloyatidagi Dehgoron masjidining 9 gumbazi saqlanib qolgan. Bino devorlari xom g'ishtdan 4 ta yumaloq ustun pishiq g'ishtdan qilingan. G'arbiy Turkmanistondagi Misriyona masjidining peshtoq qismi saqlanib qolgan, xolos.

Masjidlar uchun alohida xususiyatga ega bo'lgan jihat bu minoralardir. Minoralar musulmonlarni namozga chorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. 1127 yilda Buxoroda Minorai Kalon, 1196-1198 yillarda Vobkent minorasi, 1108-1109 yillarda Jarqo'rg'on minorasi quriladi. Minoralarning har bir «belbog'i» ga alohida rang bilan o'zgacha zeb berilgan. Arxeologik qazishlar natijasida IX-X asrlarga oid Termizdagi Chorsutun, Buxorodagi Mag'oki Attor masjidlari qoldiqlari topildi. Har ikkala binoning gumbazli tomi g'ishtdan ishlangan yumaloq ustunlar ustida turadi.

Maqbaralar ham alohida diqqatga sazovordir. Islom dini O'rta Osiyo aholisi tomonidan qabul qilingach, hukmron sulola vakillari ajdodlari, o'zlari va avlodlari uchun maqbaralar qurdirganlar. Miyondagi Abu Said maqbarasi (1051 y.), Seraxs (Turkmaniston) da Seraxsbobo yoki Abul Fazl maqbarasi (1125 y.), Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi (XII asrning 40-yillari) ilk maqbaralar sirasiga kiradi. Samarqanddagi Shohi Zindadagi ayrim maqbaralar XII asrga oiddir. Urganchdagi El-Arslon va Takeshning (Ko'xna Urganch) maqbaralari, Xorazmdan XI-XIII asrlarga oid Bo'ronqal'a, Noibqal'a, Qavatqal'a chorbog'lari, Faxriddin Roziy va shayx Sharif mozori maqbaralari saqlanib qolgan., Termiz yaqinidagi Sulton Saodat majmuasi, O'zgandagi Qoraxoniylar maqbarasi ham diqqatga sazovordir.

Jamoat binolari orasida Termiz atrofidan IX asrga mansub xom g'ishtdan qilingan Qirqqiz nomli chorbog'-saroy xarobalari topilgan bo'lib, u to'rtburchak shaklda qurilgan va gumbazga ega bo'lgan. Buxoro-Navoiy viloyatlari oralig'ida joylashgan Raboti Malik karvonsaroyi qoldiqlari ham diqqatga sazovor bo'lib, uning peshtoq qismigina saqlanib qolgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, umuman olganda mavjud yirik shaarlarda hunarmandchilikning 32 dan ortiq turi mavjud bo'lgan. Kulolchilikda sirdan foydalanila boshlanib, turli epigrafik tasvirlar bilan birga turli hayvon va qushlarning tasvirlaridan ham foydalanila boshlangan. Kulolchilikda o'ziga xos maktablar - Marv, Niso, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Tarozi, Kesh kulolchilik maktablari va markazlari paydo bo'lgan.

XII asr oxiri - XIII asrga kelib kulolchilik maxsulotlarini ishlab chiqarishda sifati kamayib, yashil rang bilan anglab bo'lmas suratlar chizilgan. Buni bevosita ko'chmanchi xalqlar bilan olib borilgan o'zaro madaniy aloqalar, qolaversa mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kelishi bilan bog'liqdir.

Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi taraqqiyotga og'ir zarba berdi. Siyosiy parokandalik, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot butunlay izdan chiqdi. Termiz, Nasaf (Shulluktepa), Samarqand, Buxoro, Urganch shaharlari butunlay vayron etildi. Chig'atoy ulusi takibida bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari yurt ozodligi uchun to'xtovsiz kurash olib bordilar. XIII asr oxiri - XIV asr boshlarida xo'jalik hayot tiklana boshlandi. XIV asrning I-yarmida Kebekxon (1318-1326) Qarshi shahriga asos soldi. Lekin mo'g'ullar Movarounnahr madaniy hayotini yuksaltira olmadilar.

XIV asr 70-yillarida Amir Temurning hokimiyatga kelishi, markazlashgan davlatning tashkil topishi butun XV asr mobaynida Movarounnahr va Xurosonda madaniy hayot taraqqiyotini belgilab berdi. Amir Temur Movarounnahrni madaniyat, san'at o'chog'iga aylantirish uchun katta ishlarni amalga oshirdi. Uning rahbarligida saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, bog'lar barpo etildi.

Amir Temur Samarqand atrofida Misr, Damashq, Bag'dod, Sultoniya, Sheroz nomlari bilan qishloqlar barpo qildirdi. Amir Temur davrida muhtasham inshootlar qurildi. Bular jumlasiga Shohi Zinda maqbaralari, Bibixonim Jome' masjidi, Go'ri Amir, Shahrisabizdagi Oqsaroy, Jahongir maqbarasi, Gumbazi Sayidon, Qarshidagi Odina masjidi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi. Tostfe^ yaqinidagi Zangi Ota maqbarasini kiritish mumkin. Bulardan tashqari Samarqandda Amir Temur qarorgohi Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, shahar atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Bihisht, Bog'i baland kabi bog'lar barpo qilindi.

Amir Temur davrida Movarounnahrda boshlangan madaniy yuksalish Ulug'bek davrida, Xurosonda esa Shohrux va Xusayn Boyqaro davrida davom etdi. Ulug'bek Samarqandni obod qilishga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida Registon maydoni shakllandi. U qaytadan rejalashtirilib, maydonga Ulug'bek madrasasidan tashqari peshtoqli va ulkan gumbazli xonakoh, karvonsaroy, o'ymakor yog'ochlardan ishlangan masjidi Mukatta' bino qilindi. Ikki yuz o'n gumbazli

Ko'kaldosh jome' masjidi qad ko'tardi. Bu oliy imoratlardan faqat Ulug'bek madrasasigina bizning davrimizgacha saqlangan. U ikki qavatli, xujralarining old tomonlari to'rt qirrali ayvon, burchaklarida darsxonalar, g'arbiy tomonida esa masjid joydashgan. Imorat peshtoqi sharq tomonga, Registon maydoniga qaragan. Madrasa peshtoqi, to'rt burchagidagi minoralari va devorlari naqshinkor parchin va koshinlar bilan qoplangan.

Ulug'bek davrida Shoxizinda ansambli kompozitsiyasi jixatidan tula kurib bitkazildi. Uning markaziy kismidagi nakshinkor obidalar orasida ayniksa, Kozizoda Rumiya makbarasi me'moriy jixatdan eng ajoyibi xisoblanadi. U peshtokli, ulkan gumbazli ziyoratxonadan iborat bulib, koshinkor va bekiyos jilvali turli rangli parchinlar bilan nakshlangan. 1417 yilda Buxoroda, 1417-1420 yillarda Samarkand, 1433 yilda Fijduvon madrasalari kurildi.

Ulug'bek tomonidan qurdirilgan me'moriy binolar ichida tarhi, matematik yechimlari, naqsh va bezaklari jihatidan eng nodir inshootlardan hisoblangan, 1428-1429 yillarda Afrosiyob xarobasi yaqinida Naqshi Jahon degan joyda uch qavatli binodan iborat bo'lgan rasadxonasi alohida o'ringa ega. Bu rasadxona Shaqkning ko'p asrli ilmu ma'rifat va madaniyati tarixida shuhrat topgan rasadxonalar orasida Movarounnahrda qad ko'targan yagonasidir. Bugungi kunda mazkur rasadxonaning faqat yer osti qismigina saqlanib qolgan. 1908 yilda V.L.Vyatkin rasadxona Faxri sekstantining yer osti qismini topadi. 1948 yildagi arxeologik qazishlar natijasida rasadxona radiusi 40 metrdan aniqroq doira shaklidagi binodan iborat bo'lganligi aniqlandi. Faxriy sekstanti binoni to'rt qismiga bo'ladi. Ularda katta-kichik xonalar bo'lgan. Abdurazzoq Samarqandiyning ma'lumotlariga ko'ra, rasadxona devorlarida to'qqiz osmon; graduslar, daqiqalar, soniyalar bilan to'qqiz osmon doirasi, yetti sayyora, muhim yulduzlar, tog'lar, dengiz va cho'llar bilan birga yer shari tasvirlangan edi. Ulug'bek kutubxonasida fanning turli sohalariga mansub 15000 tomlik kitoblar saqlangan.

Jamoat binolari qurilishi me'morchiligida Registon maydonida bino qilingan Mirzoyi hammomi va karvonsaroyi, «Bog'i maydan» da qad ko'targan «Chilsutun» («Qirq ustun») va «Chinnixona» saroylari diqqatga sazovordir. Tillakori madrasasi o'rnida bo'lgan Mirzoyi karvonsaroyida ko'pincha xorijiy mamlakatlardan kelgan savdogarlar qunishgan.

XV asr II-yarmida Xurosonda madaniy hayot taraqqiyottida Alisher Navoiy muhim rol o'ynadi. Unga zamondosh muarrixlarning shahodat berishicha, Xurosonda, xususan Xirot va uning buluklarida Navoiy tashabbusi bilan uch yuzdan ortiq jamoat binolari: masjid, madrasa, maqbara, xonakoh, hammom, shifoxona, saroy, istirohat bog'lari, rabot va karvonsaroylar hamda sug'orish inshootlaridan ariq (kanal), hovuz, ko'priq, koriz, bandlar (suv omborlari) qurilgan. Muarrix Xondamirning ma'lumotiga ko'ra, Alisher Navoiy o'z mablag'i hisobidan 52 ta rabot, 19 hovuz, 16

ko'prik, 9 hammom, bir qancha madrasa, masjid, xonakoh va shifoxonalar qurdirgan. Astrobod shahrida qurilgan Mir saroyi va Jome' masjidi, Marv shahridagi Xusraviya madrasalarini qurdirgan. Shuningdek u janglar va zilzilalar natijasida vayron bo'lgan inshootlarni ham qayta tiklattirgan. Jumladan, XIII asrda Hirotida qurilgan Jome' masjidi, 1405-1418 yillarda Mashhadda qurilgan Gavharshod masjidi, XI asr boshida Gurgon yaqinida o'rnatilgan Qobus minorasi, XI asrda Marv va Hirot oralig'ida qurilgan Arslonjoziba raboti va ko'plab boshqa inshootlar ta'mir ettirilgan. Bundan tashqari Alisher Navoiy Samarqandda Abusaid ajdodlari maqbarasi va ishratxona qurdirgan.

Temuriylar davrida tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishiladi. Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali, Mahmud Muzahhib, Xoji Muhammad Naqqosh va Shohmuzaffar kabi mo'ykalam sohiblari yetishib chiqqan. Bizgacha saqlanib qolgan tasviriy san'at namunalari va yozma manbalar Movarounnahr va Hirot tasviriy san'atining o'ziga xos uslubini, musavvirlar ijodiyotining hayoliy mavhumlikdan hayotiylikka, realistik tasvirga tomon rivojlanib borganini ko'rsatadi. Bu jihatdan, ayniqsa Behzod asos solgan Hirot musavvirlik maktabi ulkan yutuqlarga erishadi. Bu davr tasviriy san'at obidalarini o'zining mavzui va voqeiylikiga qarab portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'lgan. Buyuk siymolar qiyofasi tasvirlari orasida Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Xusayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalarning portretlari bizgacha saqlanib qolgan.

Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan tasvirlar o'zining hayotiyligi bilan ayniqsa diqqatga sazovordir. Uning bir tasvirida ko'plab quruvchi-binokor, duradgor, tostaroshlovchilar, arava va filga ortib kelinayotgan qurilish materiallari, beliga qilich taqqan va gorgon ko'tarib quruvchilarga o'shqirayotgan qutvol - qurilish boshlig'i tasvirlangan. Zamondoshlari tomonidan Moniyi soniy, keyingi davrda esa «Sharq Rafaeli» deb nom olgan Behzod Xusayn Boyqaro, AHst^ Navoiy, Shayboniyxonlarning siymolarini, Xusrav Dehlaviyning «Layli va Majnun», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlariga chizgan tasvirlari o'zining ta'sirchan va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, XIV asrning II-yarmi - XV asr mobaynida Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy va amaliy o'z taraqqiyotining yuqori darajasiga ko'tarildi. Bu esa keyingi davrdagi madaniy hayotga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Umuman, o'rta asrlar davrida yaratilgan madaniyat to bugungi kungacha o'zining mahobatini saqlab turibdi. Vaqt o'tishi bilan ular milliy qadriyatlarga aylanib, xalqimizning milliy iftixoriga aylangan. O'rta asrlarda ijtimoiy - iqtisodiy hayot na faqat madaniy, balki ilmiy jihatdan ham yuksaklarga ko'tarilgan. Ularni bilish, qadrlash va asrash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.-Т.:2004.
2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o'quv qo'llanma).-Т.: "Fan va texnologiya" 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq." 1998 y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008 y. 173 s.
3. Mirziyoev SH.M. Demokratik isloxotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
4. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 8 dekabr 2016 yil. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
5. Мирзиёев Ш.М Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон". 2017.
6. Ҳаракатлар стратегияси 2017-2021. Тошкент. "Адолат". 2017.
7. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (*Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда*)
8. Durbin J. Worlds Together, Worlds Apart. A History of the World from the Beginnings of Humankind to the Present. W. W. Norton & Company, Inc, New York, 2011.
9. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. —Toshkent, 2001.
10. Галерина Г.А., Доброва Е.В. «Популярная история археологии», М., «Вече», 2002.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. «Методы археологического исследования», М., «Высшая школа», 2002.
12. Малиничев Г. «Археология по следам легенды и мифов», М., «Вече», 2006.
13. Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Т., 2007
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. –М.: "Вече", 1996
15. Эгамбердиева Н. Археология (методик қўлланма). –Т.: "Университет", 2008.
16. T.Eric Peet. A Comparative Study of the Literatures of Egypt, Palestine and Mesopotamia. Cambridge Library Collection - Egyptology. 2016.